I.I. Sodiqova

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshkent – 2026

U O‘K: 378.147:811.111'243
KBK: 74.489.8 + 81.2Ing-9
S 69

Sodiqova I.I. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Monografiya. – Toshkent, 2026. – 171 bet.

Muallif:

I.I.Sodiqova	Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mas’ul muharrir:

F.I.Ikromxonova	Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:

N.J.Isakulova	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sh.A.Abdullayeva	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Monografiya bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosini kompleks tadqiq etishga bag‘ishlangan. Unda lingvomadaniy kompetensiya tushunchasining mahalliy, MDH va xorijiy tadqiqotlardagi talqini qiyosiy tahlil qilinib, uning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlardan iborat tuzilmasi asoslangan, o‘qituvchilar tayyorlashning me’yoriy-dasturiy ta’minoti tahlil qilingan. Lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik yondashuvlari, didaktik tamoyillari va ta’lim qonuniyatlari, xorijiy va milliy tajriba yoritilib, takomillashtirilgan metodika modeli, lingvomadaniy ta’lim mazmuni, kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi hamda interfaol va raqamli texnologiyalar taklif etilgan.

Monografiya chet tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, tayanch doktorantlar, magistrantlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu monografiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining ilmiy-texnik kengashi qaroriga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-333-55-2

© «OLAM PRINT» nashriyoti, 2026
© I.I. Sodiqova, 2026

So‘z boshi

Jahon ta’lim amaliyotida chet tili o‘qituvchisini tayyorlash til va madaniyatni yaxlit egallagan, o‘quvchilarni ko‘p madaniyatli muloqotga tayyorlay oladigan mutaxassisni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Yevropa Kengashining CEFR qo‘shimcha jildida plyurilingval shaxsning til va madaniy tajribasi haqida “plurilinguals have a single, interrelated, repertoire that they combine with their general competences” [4, 30-b.] deb qayd etiladi. Biroq bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda madaniy mazmun ko‘pincha til birliklaridan ajratilgan holda beriladi, realiya, frazeologizm va madaniy konseptlarda kodlangan madaniy ma’noni talqin qilish hamda uni o‘quvchiga yetkazish ko‘nikmasi maqsadli rivojlantirilmaydi. Shu sababli ingliz tili birliklaridagi madaniy ma’noni o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyoslab talqin qilish va ta’lim mazmuniga kiritish qobiliyatini ta’minlovchi lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati mavjud.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, universitetlari va xalqaro tashkilotlarida til va madaniyat birligini ta’lim mazmuni, o‘qituvchi tayyorgarligi va baholash tizimi darajasida ta’minlashga qaratilgan tadqiqotlar izchil olib borilmoqda. Bu sohadagi ustuvor yo‘nalishlar plyurimadaniy kompetensiya deskriptorlarini ishlab chiqish, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani o‘qitish va baholash modellarini yaratish hamda til o‘qituvchisi ta’limining madaniy tarkibini profil, portfolio va standartlar orqali tavsiflashdan iborat. Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlarda madaniyat asosan muloqot jarayoni orqali tavsiflanib, til birliklarining madaniy semantikasi va o‘qituvchining lingvomadaniy materialni o‘quvchi darajasiga moslab qayta ishlash ko‘nikmasi alohida tadqiq predmetiga aylanmagan. Xalqaro tajribani milliy pedagogik ta’limga uning lisoniy va kasbiy-metodik tarkiblarini to‘ldirgan holda moslashtirish zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Respublikamizda xorijiy tillarni o‘qitish tizimini isloh qilish va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha “pedagogik ta’lim sohasining ta’lim dasturlarini xalqaro ta’lim dasturlariga mos ravishda takomillashtirish” vazifasi belgilangan [17]. Biroq 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi malaka talablarida madaniy tarkib bitta umumlashgan kasbiy kompetensiya shaklida berilgan, til birliklaridagi madaniy ma’no bilan ishlash, ona va o‘rganilayotgan madaniyatni qiyoslash hamda madaniy natijani baholash ko‘rsatkichlari ko‘zda tutilmagan, ikkinchi kurs amaliy til fanlarida esa madaniy mazmun mavzuli fon darajasida qolmoqda. Shu bois bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni besh komponent va o‘lchanadigan

mezonlar asosida rivojlantiruvchi metodikani ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” [11], 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [13], 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [17] Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [12], 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [14], 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [15], 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [16] qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 25-fevraldagi 75-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” [9] hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Dunyoda til o‘qituvchilarining madaniy va madaniyatlararo tayyorgarligini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Yevropa Kengashi (Council of Europe, Fransiya), Yevropa zamonaviy tillar markazi (European Centre for Modern Languages, Avstriya), Sautgempton universiteti (University of Southampton, Buyuk Britaniya), Amerika chet tillarni o‘qitish kengashi (American Council on the Teaching of Foreign Languages, AQSH), Sharqiy Kentukki universiteti (Eastern Kentucky University, AQSH) va Abilay xon nomidagi Qozog‘iston xalqaro munosabatlar va jahon tillari universitetida (Qozog‘iston) olib borilmoqda.

Jahonda mazkur markazlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: plyurilingval va plyurimadaniy kompetensiyani plyurimadaniy repertuarga tayanish, plyurilingval tushunish va plyurilingval repertuarga tayanish shkalalari orqali tavsiflovchi deskriptorlar tizimi ishlab chiqilgan (Council of Europe, Fransiya) [4, 123–125-b.]; bo‘lajak til o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini, jumladan, madaniyatni o‘qitish va baholashga oid kompetensiyalarni o‘z-o‘zini baholash portfoliosi (EPOSTL) va plyural yondashuvlarning ma’lumotnoma ramkasi (FREPA/CARAP) yaratilgan (European Centre for Modern Languages, Avstriya) [7; 2]; til o‘qituvchisi ta’limining madaniyatlararo va ko‘p madaniyatli tarkibni qamrab

olgan Yevropa profili ishlab chiqilgan (University of Southampton, Buyuk Britaniya) [5]; chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlari uchun madaniyatni bilish va o‘qitishga oid standartlar qabul qilingan (American Council on the Teaching of Foreign Languages, AQSH) [3]; madaniyatga oid standartni til, adabiyot, sivilizatsiya va tarjima kurslari tizimi bo‘yicha taqsimlash tajribasi hujjatlashtirilgan (Eastern Kentucky University, AQSH) [19]; chet tili ta’limining kognitiv-lingvomadaniy metodologiyasi asoslangan (Abilay xon nomidagi universitet, Qozog‘iston) [96; 122].

Dunyoda bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining lingvomadaniy va madaniyatlararo tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha qator ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: madaniy ta’lim natijalarini deskriptorlar asosida tavsiflash va baholash; madaniy mazmunni fanlar tizimi bo‘yicha taqsimlash; til birliklarining madaniy semantikasini o‘qitishning lingvokulturologik asoslarini ishlab chiqish; ona va o‘rganilayotgan madaniyatlarni qiyoslashga asoslangan topshiriqlar tizimini yaratish; immersiv va virtual madaniy almashinuv texnologiyalarini o‘qituvchi tayyorlashga joriy etish; refleksiv portfolio va rubrikalar asosida madaniy natijani ko‘p usulli baholash.

Respublikamizda chet til o‘qitish metodikasi va bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalalari J.J.Jalolov [127; 128], G.T.Maxkamova [101; 131], I.A.Saturova [136], T.Sattorov [62], Sh.A.Atadjanova [22], L.T.Axmedova [79], D.T.Pardayeva [134], D.X.Saydazimova [137] va Z.Sh.Yariyeva [139] tadqiqotlarida o‘rganilgan. CEFR tizimini uzluksiz ta’limga joriy etish va CEFR mezonlari asosida baholash masalalari F.M.Rashidova [151], B.G.Kulmatov [130] va M.T.Irisqulov [90] ishlarida, lakuna va lingvomadaniy interferensiya, frazeologik, tarjima va diskurs kompetensiyalari muammolari D.U.Hoshimova [155], M.Djusupov [33], U.U.Jumanazarov [129], I.M.Tuxtasinov [138], G.X.Bakiyeva [25], D.M.Djurayev [124], U.R.Yo‘ldoshev [148] va Sh.P.Raximova [135] tadqiqotlarida yoritilgan. Lingvomadaniy va multimadaniy kompetensiyani rivojlantirish masalalari M.O.Rakhimov [57], A.Yusupov [78], D.Naimova [53], E.Sh.Kholmatova [46], F.Urinboyeva [74], Yu.X.Jabbarova [44], X.A.Otaxonova [54], M.U.Yakubova [77] va N.B.Nazarova [133] ishlarida, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy, kommunikativ-metodik, refleksiv va madaniyatlararo tayyorgarligi masalalari esa N.M.Axmedova [122], D.I.Abduvaliyeva [120], M.X.Gulyamova [125], M.O.Karimova [45], E.E.Hamdamov [41], Sh.K.Temirova [68], M.R.Rahimberdiyeva [56], N.N.Qoraboyeva [55], A.A.Musayeva [132] va G.O.Maqsudova [52] tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida til va madaniyat munosabati, lingvostranovedeniye va lingvokulturologiyaning nazariy asoslari E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov [82; 83], V.V.Vorobyov [84; 85], V.A.Maslova [100], V.N.Teliya [113], V.V.Krasnykh [94], I.G.Olshanskiy [103], V.M.Shaklein [118] va

A.S.Mamontov [98] ishlarida, chet tili ta’limida madaniyat va madaniyatlararo kommunikatsiya muammolari I.L.Bim [80], E.I.Passov [104; 105], V.V.Safonova [109], S.G.Ter-Minasova [114], N.D.Galskova [141; 142], G.V.Yelizarova [87], P.V.Sysoyev [111], V.P.Furmanova [116], V.V.Kabakchi [91] va S.S.Kunanbayeva [96] tadqiqotlarida yoritilgan. Lingvomamlakatshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish masalalari A.V.Getmanskaya [143], Zh.V.Demyanova [145], I.A.Izmesteva [147], G.D.Tomahin [153] va M.A.Sich [112] ishlarida, chet tili o‘qituvchisining kasbiy va metodik kompetentligi masalalari esa A.K.Markova [99], N.V.Yazikova [119], B.B.Karabayev [149], A.V.Xodikina [154] va E.V.Timoxina [152] tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda til va madaniyat birligi, madaniy kalit so‘zlar va madaniy konseptualizatsiyalar masalalari A.Wierzbicka [76], C.Goddard [38], C.Kramsch [47; 48], K.Risager [60], F.Sharifian [64] va M.Agar [21] ishlarida, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va uni baholash masalalari M.Byram [28], D.K.Deardorff [32], A.E.Fantini [35], B.H.Spitzberg [67], W.Baker [24], C.Crozet va A.J.Liddicoat [30], A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] tadqiqotlarida, til o‘qituvchisi ta’limining bilim bazasi, o‘qituvchi kognitsiyasi va refleksiv amaliyoti masalalari esa L.S.Shulman [65], D.Freeman [37], S.Borg [27], J.C.Richards [58], B.Kumaravadivelu [49], D.Schön [63] va M.J.Wallace [75] ishlarida atroflicha yoritilgan.

Mavjud tadqiqotlarda lingvomadaniy kompetensiyaning alohida tarkibiy qismlari – frazeologik, tarjima, diskursiv, lakunar va madaniyatlararo jihatlari chuqur o‘rganilgan, biroq bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun bu qismlarni yaxlit tizimga birlashtiruvchi, kasbiy-metodik tarkibni o‘z ichiga olgan va o‘lchanadigan mezonlar bilan ta’minlangan lingvomadaniy kompetensiya tuzilmasi hamda uni ikkinchi kurs amaliy ingliz tili fanlari doirasida rivojlantirish metodikasi maxsus tadqiq etilmagan. Shu bois bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati mavjud.

Mazkur monografiyaning maqsadi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda uni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar berishdan iborat. Monografiyada lingvomadaniy kompetensiya ingliz tili birliklari va autentik matnlarda kodlangan madaniy ma’nolarni anglash, ularni o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyoslab talqin qilish, muloqotda qo‘llash va o‘quvchilar uchun metodik qayta ishlash qobiliyatini ta’minlovchi integrativ kompetensiya sifatida ko‘rib chiqiladi.

Monografiya so‘z boshi, uch bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Birinchi bobda lingvomadaniy kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va mazmun-mohiyati, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligi tarkibida lingvomadaniy kompetensiyalarning

tarkibiy tuzilmasi hamda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashning me’yoriy-dasturiy ta’minoti tahlil qilingan. Ikkinchi bobda lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik yondashuvlari, umumdidaktik tamoyillari va ta’lim qonuniyatlari tizimi hamda xorijiy va milliy tajriba yoritilgan. Uchinchi bobda takomillashtirilgan metodikaning tuzilmasi va bloklari, lingvomadaniy ta’lim mazmuni va kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi, shuningdek, metodikani amalga oshirishning interfaol va raqamli texnologiyalari bayon etilgan.

Monografiya chet tili o‘qitish metodikasi va lingvodidaktika sohasidagi tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, tayanch doktorantlar, magistrantlar va bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga mo‘ljallangan. Undagi materiallardan amaliy ingliz tili fanlari dasturlarini takomillashtirish, tanlov kurslarini ishlab chiqish, pedagogik amaliyot va mustaqil ta’limni tashkil etish hamda pedagog kadrlar malakasini oshirishda foydalanish mumkin.

I BOB. BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Lingvomadaniy kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va mazmun-mohiyati

Chet tili o‘qituvchisini kasbiy tayyorlash nazariyasida til va madaniyat munosabati uzoq vaqt mamlakatshunoslik ma’lumotlarini lingvistik materialga ilova tarzida berish doirasida ko‘rib kelingan bo‘lsa, keyingi o‘n yilliklarda bu munosabat ta’lim mazmunini belgilovchi tizim hosil qiluvchi omil maqomini egallamoqda. Shu jarayonning terminologik ifodasi bo‘lgan “lingvomadaniy kompetensiya” tushunchasi metodika fanida tobora keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, o‘zbek, rus va ingliz tilidagi ilmiy adabiyotda bir xil talqin etilmaydi: unga yaqin ma’noda “lingvokulturologik”, “lingvokulturovedcheskaya”, “lingvostranovedcheskaya”, “linguocultural”, “linguacultural” kabi atamalar ishlatiladi va ularning har biri muayyan ilmiy maktabning nazariy pozitsiyasini aks ettiradi. Atamalarning bunday ko‘pligi tadqiqotning tayanch tushunchasini aniqlashtirmasdan turib bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining maqsadi, mazmuni va baholash mezonlarini asoslash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Mazkur paragrafda lingvokulturologiya fanining shakllanish yo‘li, “lingvomadaniy” va “lingvokulturologik kompetensiya” atamalarining mahalliy, MDH va xorijiy tadqiqotlardagi talqini izchil tahlil qilinadi, lingvomadaniy kompetensiya qo‘shni tushunchalar – sotsiomadaniy va madaniyatlararo kompetensiyalar bilan qiyoslanadi hamda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun mualliflik ta’rifi asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorining 6-bandida “Xorijiy tillarni o‘qitish sohasiga malakali kadrlarni jalb qilish va soha mutaxassislarining salohiyatini oshirish maqsadida” 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab “xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari tomonidan davlat attestatsiya imtihonlarini topshirish bilan bir qatorda ushbu ta’lim muassasalari hisobidan milliy yoki unga tenglashtirilgan boshqa yetakchi xalqaro baholash tizimlari orqali ularning bilimlari darajasini aniqlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin” deya belgilangan [14]. Mazkur vazifa bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini xalqaro mezonlar bilan o‘lchanadigan natijaga yo‘naltiradi, xalqaro mezonlar tizimida esa madaniy tarkib plyurimadaniy kompetensiya deskriptorlari orqali alohida baholanadi [4, 123–125-b.]. Demak, lingvomadaniy kompetensiya mazmunini ilmiy jihatdan aniqlashtirish davlat siyosatida belgilangan sifat talabini metodik darajada ta’minlashning nazariy shartlaridan biri hisoblanadi.

Lingvokulturologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi MDH tilshunosligi va lingvodidaktikasida izchil kuzatiladi. Uning ildizlari E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov [82] tomonidan rus tilini chet tili sifatida o‘qitish materialida asoslangan lingvostranovedeniye (lingvomamlakatshunoslik) yo‘nalishiga borib taqaladi. Mualliflar XX asrning 60–70-yillarida ilgari surgan til va madaniyatni birgalikda o‘rganish tamoyili keyingi lingvokulturologik izlanishlarning boshlang‘ich nuqtasi sifatida e’tirof etiladi [98, 146-b.]. Ularning keyingi tadqiqotida taklif etilgan sapientema tushunchasi ma’no va axloqiy baholarni yoyish dasturini o‘zida jamlagan umumlashgan g‘oya, konseptdan yuqori abstraksiya darajasidagi o‘ziga xos “superkonsept” sifatida talqin qilinadi [83, 15-b.]. V.G.Kostomarov va N.D.Burvikova [93, 88–96-b.] esa logoepistema tushunchasini kiritib, madaniyat bilan uzviy bog‘liqligi tufayli muayyan bilimni o‘zida tashiydigan va shu sababli chet ellik uchun idrok etishda qiyinchilik tug‘diradigan til birliklarini lingvokulturologik izlanishning alohida kategoriyasi sifatida ajratadi; A.S.Mamontov bu tushunchaning sapientema va konsept bilan yaqinligini, ularning barchasi sotsiomadaniy yoki madaniyatlararo kompetensiya sohasiga taalluqli ekanini qayd etadi [98, 149-b.]. G.D.Tomahin [153] lingvostranovedeniyening nazariy asoslarini ingliz tilining amerikacha leksik birliklari materialida ishlab chiqqan bo‘lib, Zh.V.Demyanova uni Vereshchagin va Kostomarov bilan birga lingvostranovedeniye nazariyasiga fundamental hissa qo‘shgan olimlar qatorida keltiradi [145, 3-b.].

Lingvokulturologiyani mustaqil fan sifatida tavsiflagan V.V.Vorobyov [84, 37-b.] uni madaniyat va tilning faoliyatdagi o‘zaro bog‘liqligini o‘rganuvchi, bu jarayonni lisoniy va nolisoniy mazmun birligidagi birliklar tuzilmasi sifatida tizimli metodlar yordamida, zamonaviy ustuvorliklar va madaniy ko‘rsatmalarga – me’yorlar va umuminsoniy qadriyatlar tizimiga – tayangan holda aks ettiruvchi sintezlovchi tipdagi kompleks fan deb ta’riflaydi. V.M.Shaklein va S.S.Mikova [118, 4-b.] lingvokulturologiya ta’rifida yagona yondashuv bo‘lmasa-da, uning doirasida til va madaniyatning sinkretik birligi g‘oyasi qaror topganini ta’kidlaydi. Vereshchagin va Kostomarovdan Vorobyovgacha bo‘lgan masofani kuzatib, lingvokulturologiya madaniy faktlarni tilga ilova sifatida bayon etishdan til birligining o‘zida madaniy bilim kodlanganini isbotlashga qarab harakatlanganini qayd etish mumkin. Bu harakat lingvodidaktika uchun bevosita oqibatga ega: o‘qitish obyekti sifatida realiya va fon so‘zlar ro‘yxati o‘rnini asta-sekin madaniy semantika, sapientema, logoepistema va konseptlar tizimi egallaydi.

Lingvokulturologiyaning predmeti va chegaralari masalasida MDH olimlari qarashlari bir-birini to‘ldiradi. V.A.Maslova [100, 9, 30, 32-b.] lingvokulturologiyani tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishuvida vujudga kelgan, jonli milliy tilda gavdalangan va til jarayonlarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy madaniyatni o‘rganuvchi gumanitar fan sifatida talqin etadi hamda uning

kulturologiya, tilshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiya natijalarini o‘ziga singdirgan integrativ xususiyatini ta’kidlaydi. V.V.Krasnykh [94] lingvokulturologiyani madaniyatning til va diskursda namoyon bo‘lishi, aks etishi va qayd etilishini o‘rganuvchi, milliy dunyo manzarasi, til ongi va mental-lingval kompleks xususiyatlarini tadqiq etish bilan bevosita bog‘liq fan sifatida belgilaydi [98, 144-b.]. V.N.Teliya [113] rus frazeologiyasini semantik, pragmatik va lingvokulturologik jihatlardan tadqiq etib, frazeologizmlarni lingvokulturologik tahlilning markaziy obyektlaridan biriga aylantirgan; A.S.Mamontov frazeologik birliklar barcha ma’lum tillarda yaqqol milliy o‘ziga xoslikka ega ekanini shu tadqiqotlar bilan bog‘laydi [98, 147–148-b.]. I.G.Olshanskiy [103] esa lingvokulturemalarni ularning amal qilishi nuqtai nazaridan tasniflash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi [98, 148–149-b.].

A.S.Mamontov [98, 144-b.] “lingvokulturologiya” atamasining keng va tor ma’noda qo‘llanishini ajratadi: keng ma’noda u til va madaniyat aloqasini o‘rganuvchi butun sohani, jumladan, lingvostranovedeniye va qiyosiy lingvostranovedeniyeni qamrab oladi, tor ma’noda esa lingvofalsafiy yo‘nalishdagi alohida fanni anglatadi. Muallif lingvokulturologiya ko‘p jihatdan an’anaviy lingvostranovedeniyedan “o‘sib chiqqanini”, ammo V.V.Vorobyov uni lingvostranovedeniyening “vorisi” deb atashi masalani muayyan darajada chalkashtirishini qayd etadi [98, 144-b.]. Mamontov lingvodidaktika uchun eng dolzarb masalani madaniy o‘ziga xoslik bilan bog‘laydi: madaniy o‘ziga xoslik madaniyatlararo kommunikatsiya va unga o‘qitish jarayonining eng muhim bo‘g‘ini sifatida, uni ifodalovchi til bilan birga ko‘rib chiqilishi lozim [98, 146-b.]. Bu fikrni N.A.Podchalimova [107, 61-b.] ham quvvatlab, til pedagogikasining asosiy maqsadlaridan biri madaniyatlararo kommunikatsiya sharoitida chet tilini o‘qitishning samarali modelini qurishdan iborat ekanini ta’kidlaydi, S.S.Kuklina va I.S.Cheremisinova [95, 256-b.] esa madaniyatlararo chet tilidagi muloqotning muvaffaqiyati madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning shakllanganlik darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

A.S.Mamontov madaniyatning milliy o‘ziga xosligini o‘rganishda etnografiya tajribasiga murojaat qilib, etnosni farqlovchi (etnodifferensial) belgilar faqat ular bilan tuzilmaviy oppozitsiyaga kiruvchi etnosni birlashtiruvchi (etnointegratsion), umuminsoniy belgilar bilan birga, tizim holida ko‘rib chiqilishi mumkinligini asoslaydi [98, 145–146-b.]. Muallif uy-joy misolida har qanday turar joy kirish joyi, devor, pol va tomga ega bo‘lishi umuminsoniy belgi ekanini, tropik iqlimdagi vyetnam uyida esa bu belgilarning har biri rus uyiga nisbatan milliy-madaniy o‘ziga xoslik kasb etishini ko‘rsatadi; ma’naviy madaniyatni o‘rganishda esa etnik obraz, kundalik ong komponentlari, ramz, an’ana, marosim, etiket, qadriyat yo‘nalishi va odat birinchi o‘ringa qo‘yiladi [98, 146-b.]. Bu yondashuv lingvomadaniy ta’limda madaniy farqni umumiy asos bilan qiyoslab ochish tamoyilini beradi: ingliz va o‘zbek madaniyatidagi

tushunchalar avval umumiy belgilari bo‘yicha, so‘ng farqlovchi belgilari bo‘yicha tahlil qilinganda o‘rganuvchi farqni ekzotika sifatida emas, qonuniy madaniy variant sifatida idrok etadi.

Lingvokulturologiya natijalarining ta’limga ko‘chirilishida o‘quv materialini tanlash masalasi alohida o‘rin egallaydi. A.S.Mamontov [98, 150-b.] kommunikativ ahamiyatli materialni tanlash va minimallashtirishda o‘rganuvchining ona madaniyatini hisobga olish birinchi navbatdagi vazifa ekanini ta’kidlaydi, chunki tegishli kompetensiyani shakllantirish mazmuni o‘rganuvchi qaysi madaniyatga mansubligiga qarab farqlanadi. Muallif lingvokulturologik materialni tanlashning to‘rt mezonini ajratadi: tipiklik (o‘rganuvchi “kamyob” va “keng tarqalgan” hodisani aralashtirib yubormasligi uchun nostandart vaziyatlarni aks ettiruvchi material bilan ortiqcha yuklamaslik), kommunikativ qimmat (materialning madaniyatlararo kommunikatsiya va madaniyatlar dialogi uchun ahamiyati), mamlakatshunoslik qimmati (birlikning madaniy-tarixiy salohiyati, milliy madaniyat ildizlarini tushunishni ta’minlashi) va stereotipdan himoyalanganlik (madaniyatning birgina milliy-o‘ziga xos jihatini ifodalovchi leksika bilan o‘rganuvchini ortiqcha yuklamaslik) [98, 151-b.]. Shu bilan birga, muallif imo-ishora, mimika va poza kabi paralingvistik vositalarning ham milliy-madaniy jihatdan belgilanganini, chet tilida so‘zlashib, ona tilidagi imo-ishoralardan foydalanish madaniyatlararo muloqotda nomuvofiqlik tug‘dirishini ko‘rsatadi [98, 149–150-b.]. Bu mezonlar o‘zbek auditoriyasi uchun ingliz tili lingvomadaniy materialini tanlashda ham bevosita qo‘llanishi mumkin: masalan, o‘zbek talabasi uchun ingliz madaniyatidagi shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog‘liq muloqot me’yorlari rus yoki nemis talabasiga qaraganda boshqacha izoh talab qilishi ehtimoldan xoli emas va bu farq lingvomadaniy topshiriqlar mazmunini belgilashda hisobga olinadi.

MDH olimlari qarashlarini umumlashtirib, lingvokulturologiyaning shakllanishi madaniy faktlarni qayd etuvchi tavsifiy bosqichdan til birliklarida madaniy ma’no qanday kodlanishini tushuntiruvchi tizimli-kognitiv bosqichga o‘tish jarayoni ekani aniqlanadi. Bu jarayonda tahlil birligi ham o‘zgaradi: dastlab realiya va fon leksika, keyin frazeologizm, lingvokulturema, logoepistema, sapientema va konsept lingvokulturologik tadqiqot markaziga chiqadi. Mazkur birliklarning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun ahamiyati shundaki, ularning har biri ta’lim mazmunini tanlash va topshiriqlar tizimini qurishda alohida obyekt bo‘lib xizmat qilishi mumkin; bu masala monografiyaning uchinchi bobida batafsil ishlanadi.

Xorijiy tilshunoslikda til va madaniyat birligi masalasi boshqa nazariy an’analar – amaliy tilshunoslik, lingvistik antropologiya va kognitiv semantika doirasida ishlanadi. A.Wierzbicka [76, 1-b.] o‘z tadqiqotini E.Sepirning [61, 162-b.] “til madaniyatning ramziy yo‘lko‘rsatkichi” degan fikridan boshlab, lug‘at tarkibi xalq madaniyatining eng sezgir ko‘rsatkichi ekanini isbotlashga harakat qiladi. Muallif har

bir tilda madaniyatning asosiy qadriyatlarini aks ettiruvchi kalit so‘zlar mavjudligini ingliz, rus, polyak, nemis va yapon tillaridagi “friendship”, “freedom”, “homeland” kabi tushunchalar misolida tahlil qiladi [76]. C.Goddard va A.Wierzbicka [38, 37–67-b.] madaniy kalit so‘zlar tahlili orqali tillarning semantik tuzilishidagi katta farqlar tafakkurga ta’sir etishini, shu bilan birga barcha tillar madaniyatlararo tushunish uchun mustahkam asos bo‘la oladigan kichik universal tushunchalar majmuini baham ko‘rishini asoslaydi. Bu yondashuv ingliz tili o‘qituvchisi uchun aniq metodik oqibatga ega: “friend”, “privacy”, “fair” kabi so‘zlar o‘zbek tilidagi taxminiy muqobillari bilan to‘liq mos kelmaydigan madaniy mazmun tashiydi va ularni lug‘aviy tarjima bilan cheklab o‘rgatish madaniy ma’noning yo‘qolishiga olib keladi.

Lingvistik antropologiya an’anasida M.Agar [21] til va madaniyatning ajralmas bog‘liqligini ifodalash uchun “languaculture” (tilmadaniyat) atamasini kiritadi; uning talqinida atamaning “til” qismi so‘z va gaplardan ko‘ra diskursga, “madaniyat” qismi esa lug‘at va grammatika taqdim etadigan ma’nolardan ancha kengroq ma’nolarga taalluqli [60, 115-b.]. C.Kramsch [48, 3-b.] til madaniy voqelikni ifodalashi, gavdalantirishi va ramziy tarzda namoyon etishini ko‘rsatadi. Madaniyatni esa u umumiy ijtimoiy makon, tarix va umumiy tasavvurlarga ega diskurs jamoasiga a’zolik sifatida belgilaydi; bu jamoani tark etgan shaxs ham idrok etish, ishonish, baholash va harakat qilishning umumiy me’yorlar tizimini saqlab qolishi mumkin [48, 10-b.]. Shu bilan birga muallif madaniyat bir jinsli emasligini, bitta diskurs jamoasi a’zolari ham turli tarjimai hol, hayotiy tajriba, yosh va jinsga ega bo‘lishini ta’kidlaydi [48, 9-b.]; bu qoida ingliz tilida so‘zlashuvchilar madaniyatini yagona va o‘zgarmas namuna sifatida taqdim etishdan saqlanish zarurligini ko‘rsatadi. Muallifning avvalroq nashr etilgan kontekst va madaniyat munosabatiga bag‘ishlangan tadqiqoti [47] chet tili o‘rganuvchisining ikki madaniyat oralig‘idagi o‘ziga xos pozitsiyasi haqidagi g‘oyani metodikaga olib kirgan bo‘lib, bu g‘oya keyingi madaniyatlararo ta’lim konsepsiyalarida keng rivojlantiriladi.

Mazkur nazariy qarashlarning ingliz tili ta’limi uchun amaliy mazmunini aniq misollarda ko‘rish mumkin. A.Wierzbicka [76] avstraliya inglizchasidagi “mate” so‘zini avstraliya madaniyatining kalit so‘zi sifatida alohida tahlil qiladi; bu holat ingliz tilining turli variantlarida bir xil shakldagi so‘z turlicha madaniy yuklama tashishini ko‘rsatadi. M.O.Rakhimov [57, 238-b.] teatr muhitida “break a leg” iborasining “omad tilayman” ma’nosida qo‘llanishini tushunish uchun uning ortidagi madaniy irim – assotsiativ motivni bilish zarurligini misol keltiradi, ingliz tilidagi “cow” va “beef” kabi juftliklarning mavjudligini esa Normandlar istilosi bilan bog‘liq tarixiy omil bilan izohlaydi [57, 240-b.]. F.Sharifian [64] madaniy konseptualizatsiyalarni fors tilidagi “del” (yurak) tushunchasi va avstraliya aborigenlari inglizchasidagi “sorry”, “rain” so‘zlari misolida tahlil qilib, bir xil leksik shakl turli jamoalarda turli madaniy tuzilmalarni faollashtirishini ko‘rsatadi. Bu misollar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisidan

so‘zning lug‘aviy ma’nosini bilish bilan cheklanmasdan, uning madaniy-tarixiy motivatsiyasi, variantlararo farqlari va pragmatik yuklamasini tushuntira olishni talab qiladi.

Xorijiy olimlarning mazkur guruhi qarashlari lingvokulturologik tahlilning ikki qutbini ochib beradi: A.Wierzbicka va C.Goddard so‘zning semantik tarkibini madaniyatga kirish kaliti sifatida ko‘rsa, M.Agar va C.Kramsch madaniyatni diskurs va ijtimoiy amaliyot darajasida izlaydi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy tayyorgarligi uchun ikkala qutb ham zarur, chunki o‘qituvchi kalit so‘z va frazeologizmning madaniy mazmunini aniqlay olishi bilan birga, bu mazmun real muloqot vaziyatida qanday namoyon bo‘lishini ham ko‘rsata bilishi kerak.

K.Risager [60] til va madaniyat munosabatini global oqimlar va lokal murakkablik nuqtai nazaridan ko‘radi va shved antropologi U.Xannerzning [42] madaniy murakkablik hamda madaniy oqimlar nazariyasiga tayanib, til ham boshqa madaniy shakllar kabi transmilliy tarmoqlar bo‘ylab harakatlanishini asoslaydi. Uning fikricha, til va madaniyat umumiy (generik) ma’noda ajralmas bo‘lsa-da, aniq bir til chet tili sifatida o‘rganilganda u boshqa madaniy kontekstlarga ko‘chishi mumkin; shu bois tilmadaniyat lingvistik amaliyot, lingvistik resurslar va til tizimi darajalarida alohida tahlil etiladi [60, 115-b.]. Muallif chet tili o‘qitish diskursi ko‘pincha murakkablikdan ko‘ra bir xillikka urg‘u berishini tanqid qiladi [60, 107-b.], bu esa ingliz tilini yagona “ingliz madaniyati” bilan aynanlashtirish xavfini ko‘rsatadi. F.Sharifian [64, 11–23-b.] madaniy lingvistika (Cultural Linguistics) doirasida tilda kodlangan madaniy konseptualizatsiyalarni madaniy tuzilmalar, madaniy kategoriyalar va madaniy metaforalar ko‘rinishida tasniflaydi hamda bu tahlil apparatini Jahon inglizchalari va ingliz tilini xalqaro til sifatida o‘qitishga ham tatbiq etadi [64, 85–93-b.]. J.W.Underhill [73] V.fon Gumboldt merosini dunyoqarash va til munosabati nuqtai nazaridan qayta talqin etadi; A.Yusupov bu asarga tayanib, lingvomadaniy birliklarning ma’no nozikliklari farq qilgani uchun tilni uning madaniy kontekstida tushunish zarurligini ta’kidlaydi [78, 36-b.].

F.Sharifian madaniy lingvistikaning tadqiqot metodlari sifatida konseptual-assotsiativ tahlil, hikoyani qayta so‘zlab berishning konseptual tahlili, (meta)diskurs tahlili, korpusga asoslangan tahlil, etnografik-konseptual matn va vizual tahlil hamda diaxron va sinxron konseptual tahlilni ajratadi [64]; uning kitobida darsliklarda madaniy konseptualizatsiyalarni aniqlash bosqichlari ham alohida ko‘rsatiladi [64]. K.Risager esa til ta’limidagi madaniy tarkibni tahlil qilishda tilmadaniy o‘lchamlar, diskurs va qo‘sh intertekstuallik, madaniy kontekstlar va madaniy mazmunlarni alohida ko‘rib chiqadi [60]. A.Wierzbicka kalit so‘zlarni madaniyatga bog‘liq bo‘lmagan, universal tushunchalardan iborat tabiiy semantik metatil yordamida izohlash orqali madaniyatlarni tekshiriladigan va qat’iy usulda qiyoslash mumkinligini isbotlaydi [76]. Mazkur metodlar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun ikki jihatdan

foydalidir: ular darslik va autentik matnlardagi madaniy mazmunni aniqlash va baholashning ilmiy vositalarini beradi hamda talabalar uchun tadqiqot xarakteridagi lingvomadaniy topshiriqlarni loyihalash imkonini yaratadi.

Xorijiy tadqiqotlar tahlili MDH lingvokulturologiyasi asosan milliy til va milliy madaniyat birligini tadqiq etsa, xorijiy an'anada madaniyat dinamik, ko'p qatlamli va diskursiv hodisa sifatida qaralishini ko'rsatadi. Ingliz tili o'qituvchisi uchun ikkala yondashuvning sintezi samarali hisoblanadi: birinchisi til birliklaridagi madaniy semantikani tizimli o'rganish vositalarini beradi, ikkinchisi esa ingliz tilining Buyuk Britaniya va AQSh bilan cheklanmagan, ko'plab madaniy kontekstlarda amal qilishini hisobga olish imkonini yaratadi. F.Sharifian ajratgan madaniy tuzilma, kategoriya va metafora tushunchalari esa lingvomadaniy ta'lim mazmunini tanlashda frazeologizm va realiyadan ko'ra kengroq birliklar bilan ishlash imkonini beradi.

O'zbekiston tilshunosligi va lingvodidaktikasida lingvokulturologik masalalar ko'pincha tillararo aloqa, tarjima va ko'ptillilik sharoitida chet tilini o'qitish muammolari bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. M.O.Rakhimov [57, 237-b.] lingvokulturologiyani sotsiolingvistika va kulturologiyaning birlashuvidan yuzaga kelgan, turli xalqlar madaniyati ularning tilida qanday aks etishi, saqlanishi va ifodalanishini o'rganuvchi nisbatan yangi soha sifatida ko'radi va uning maqsadini til birliklarini xalqning tarixiy va ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda tekshirish orqali tilni keng va nozik tushunishga erishishda deb biladi [57, 238-b.]. M.Djusupov [33, 351–358-b.] bilingval ta'limda tovush va lingvomadaniy interferensiya muammosini tadqiq etib, ona tili va madaniyatining chet tilini o'zlashtirishga ta'sirini lingvodidaktik muammo darajasiga olib chiqadi. D.U.Hoshimova [155] lakunalarni o'rganishning lingvodidaktik asoslarini tillararo o'zaro ta'sir kontekstida ishlab chiqqan; lakuna tillararo madaniy nomuvofiqlikning lisoniy ifodasi bo'lgani uchun bu tadqiqot lingvomadaniy ta'lim mazmuni uchun bevosita ahamiyatga ega. U.R.Yo'ldoshev [148] satirik matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etib, badiiy matndagi madaniy belgilangan birliklarni tarjimada saqlash masalasini yoritadi.

Mahalliy tadqiqotchilarning lingvokulturologik qarashlari o'zbek ilmiy maktabining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi: bu yerda til va madaniyat munosabati sof nazariy muammo sifatida emas, balki o'zbek, rus va ingliz tillari aloqasi sharoitida yuzaga keladigan interferensiya, lakuna va tarjima qiyinchiliklari orqali tadqiq etiladi. Bunday yondashuv lingvomadaniy kompetensiyani ona tili va ona madaniyatini hisobga olgan holda talqin qilish uchun qulay zamin yaratadi, ammo o'qituvchi tayyorlash jarayoniga nisbatan hali tizimli metodik tavsifga ega emas.

"Lingvomadaniy kompetensiya" atamasining o'zbek ilmiy adabiyotidagi talqinida eng batafsil ta'rif tarjimon tayyorlash materialida berilgan. A.Yusupov [78, 34-b.] C.Crozet va A.J.Liddicoat [30, 116-b.] qarashlariga tayanib, lingvokulturologik

kompetensiyani muloqot jarayonida til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni samarali boshqarish qobiliyati sifatida izohlaydi va uning tarkibiga turli sotsiomadaniy kontekstlarda o‘rinli muloqot qilish uchun zarur kognitiv (bilim), affektiv (munosabat) va xulq-atvor ko‘nikmalarini kiritadi. Muallif bu kompetensiya idiomatik ifodalar, madaniy ishoralar va pragmatik farqlarni tushunishni talab qilishini hamda kengroq (inter)madaniy kompetensiyadan farqli ravishda aynan til elementlari bilan madaniy me’yorlarning dinamik aloqasiga urg‘u berishini qayd etadi [78, 34-b.]. Keyinroq u lingvomadaniy kompetensiyani tillar o‘rtasidagi madaniy farqlarni idrok etish, boshqarish va tarjima jarayonida mahorat bilan qo‘llash qobiliyati deb ham nomlaydi va tushunchaning integrativ mohiyatini lingvistika, madaniyatshunoslik, lingvomamlakatshunoslik va etnolingvistika bilan bog‘laydi [78, 35-b.]. A.Yusupov A.J.Singermanga [66] tayanib, til bilimlari va madaniy bilimlar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, bevosita madaniy kompetensiyaga aylanmasligi mumkinligini ko‘rsatadi [78, 36-b.]; uning tahlilida o‘zbek lingvomadaniyatidagi “usta” lingvokulturemasining denotativ va konnotativ ma’nolari matn turiga ko‘ra o‘zgarishi misolida madaniy semantikaning kontekstga bog‘liqligi isbotlanadi [78, 36-b.]. Muallif lingvomadaniy yondashuvning tarjimaga o‘rgatishdagi vazifalarini asliyat tili sohiblarining lingvistik ongini shakllantirish, til o‘rganilayotgan millatning til madaniyati va muloqot uslubini o‘rganish hamda lingvomadaniy birliklarni tarjima qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish sifatida belgilaydi [78, 36-b.]; bu vazifalar tarjimon tayyorlashga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, ularning ikkinchi va uchinchisi chet tili o‘qituvchisi tayyorlashda ham to‘liq dolzarbdir.

M.O.Rakhimov [57, 238-b.] ingliz tilini o‘qitishda lingvomadaniy yondashuv so‘z va iboralardagi semantik konseptga urg‘u berishini, “home”, “privacy”, “fair play”, “humor” kabi tushunchalarning ingliz tilida o‘ziga xos konseptualizatsiya qilinishini misol keltiradi. Uning talqinida lingvomadaniy kompetensiya faktlar yig‘indisi emas, real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llanadigan o‘ziga xos qobiliyatlar majmui bo‘lib, o‘rganuvchi lisoniy belgining semantik mazmunini aniqlay olishi va uni so‘z tanlovining assotsiativ motivi bilan bog‘lay olishi lozim [57, 238-b.]. Muallif lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning maqsadini o‘rganuvchida o‘z milliy kelib chiqishini chuqur anglash, milliy madaniyatning jahon madaniyatlari orasidagi o‘rnini tushunish, o‘rganilayotgan til xalqining an’analari va ma’naviy qadriyatlari bilan tanishishni birlashtirishda ko‘radi [57, 241–242-b.]. Tadqiqot yakunida madaniyatlararo kompetensiyaning motivatsion, pragmatik va kognitiv sohalari ajratiladi, sotsiomadaniy bilim esa uning eng muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi [57, 244-b.].

M.O.Rakhimov tadqiqotining amaliy qismida lingvomadaniy kompetensiyaning rivojlanishi diagnostik testlar yordamida kuzatiladi. Tajriba ishi natijalariga ko‘ra talabalarda shaxslararo muloqot me’yorlarini tanqidiy baholash va o‘zlashtirish, verbal

va noverbal madaniy belgilarga sezgirlik oshgani, o‘z madaniy qadriyatlarini tizimli o‘rganish va shu asosda asosli madaniyatlararo qiyoslash qobiliyati chuqurlashgani hamda talabalar real madaniyatlararo muloqot faoliyatiga faol jalb etilgani qayd etiladi [57, 242–243-b.]. Muallif lingvomadaniy kompetensiyaning mohiyati ikki va undan ortiq til va madaniyat – o‘rganuvchining ona tili va madaniyati hamda o‘zga til va madaniyatlarning sinergik o‘zaro ta’siriga asoslanishini, milliy madaniyatni anglash esa bu kompetensiyaning poydevori ekanini ta’kidlaydi [57, 243-b.]. Bu xulosa tadqiqotimiz uchun muhim nazariy tayanch bo‘lib, lingvomadaniy kompetensiya tarkibida ona madaniyati bilan qiyoslash komponentini ajratishni asoslaydi.

D.Naimova [53, 187–188-b.] multimadaniy kompetensiyani shaxsning turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish, ularni tushunish, hurmat qilish va ularga moslashish qobiliyati sifatida ta’riflaydi va uning tarkibiga madaniy tafovutlarni anglash va hurmat qilish, turli madaniy kontekstlarda samarali kommunikatsiya qilish, boshqa madaniyatlarga moslasha olish hamda lingvistik va kommunikativ malakalarning rivojlanganligini kiritadi [53, 188-b.]. Muallif multimadaniy kompetensiyani rivojlantirishda lingvokulturologik yondashuv madaniy kodlar, kommunikativ xatti-harakatlar hamda stereotiplar va mental xaritalarga urg‘u berishini ko‘rsatadi. Muallif lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida madaniy stereotiplar va til to‘siqlari muammo sifatida yuzaga chiqishini, multimadaniy muhitda ishlovchi o‘qituvchilar malakasini oshirish zarurligini qayd etadi [53, 189–190-b.]. E.Sh.Kholmatova [46, 156–158-b.] esa bevosita bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari kontingentida immersiv tajribaning lingvomadaniy kompetensiyaga ta’sirini o‘rganadi: lingvopragmatik qiyoslash, kommunikativ aktlar tahlili va diskursni to‘ldirish testiga asoslangan aralash metodli tadqiqotda o‘zbek va rus ishtirokchilarining kommunikativ strategiyalari madaniy qadriyatlar ta’sirida farqlanishi aniqlanadi [46, 158-b.]. Muallif chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlariga xorijda o‘qish va madaniy almashinuv kabi immersiv tajribalarni kiritishni tavsiya etib, bunday tajriba bo‘lajak o‘qituvchilarga maqsadli til va madaniyatni chuqurroq tushunish, madaniy nozikliklarni boshqarish va shu orqali samaraliroq o‘qitish imkonini berishini ta’kidlaydi [46, 157–158-b.].

Yuqoridagi to‘rt muallif qarashlarini qiyoslab, o‘zbek metodikasida lingvomadaniy kompetensiya asosan tarjimon tayyorlash, ingliz tilini o‘qitish strategiyasi va multimadaniy ta’lim doirasida o‘rganilayotgani aniqlanadi. Mualliflar tushunchaning integrativ va qobiliyatga yo‘naltirilgan mohiyatini e’tirof etadi, uning tarkibida bilim, munosabat va xulq-atvor qatlamlarini ajratadi, biroq bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy faoliyatiga xos tarkib – o‘rganilgan madaniy mazmunni o‘quvchiga metodik jihatdan yetkazish ko‘nikmasi – alohida tadqiq predmetiga aylanmagan.

So‘nggi yillarda nashr etilgan mahalliy maqolalarda lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning amaliy vositalari kengroq ko‘rib chiqilmoqda.

F.Urinboyeva [74, 842–843-b.] bo‘lajak muhandislarda ingliz tilidan lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqib, kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili ta’limining mazmuniy asosini lingvomadaniy yondashuv tashkil etishini, bu yondashuv xalqaro kasbiy kommunikatsiyaning madaniy kontekstini o‘qitishda maksimal darajada hisobga olishni talab qilishini asoslaydi. Yu.X.Jabbarova [44, 181-b.] lingvistik va madaniy komponentlarni o‘z ichiga olgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish tamoyillarini o‘rganib, til o‘rganish jarayonida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishning dolzarbligini o‘quvchilarning lingvistik va madaniy ehtiyojlari bilan bog‘laydi. X.A.Otaxonova [54, 279–280-b.] xorijiy til ta’limida mediamatnlarni lingvomadaniy yondashuvni kuchaytiruvchi vosita sifatida tadqiq etib, ular til va madaniyat integratsiyasini ta’minlashini va o‘quvchilarni tilni kontekstual idrok etishga o‘rgatishini ko‘rsatadi. M.U.Yakubova [77, 391-b.] chet tillarini o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani integratsiyalash manbalari va strategiyalarini ko‘rib chiqib, zamonaviy metodlarda madaniy jihatdan dolzarb va autentik materiallarga urg‘u berilishini qayd etadi.

N.B.Nazarova, S.O.Uyto‘lsinova va M.B.Abbosova [133] 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi talabalari uchun tayyorlagan “Intercultural communication” o‘quv qo‘llanmasida madaniyat, tilning qo‘llanilishi, diskurs, pragmatika va madaniyatlararo muloqotning zamonaviy jihatlarini ingliz tili darslarida qo‘llashga yo‘naltiradi; qo‘llanmaning har bir bobida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, tanqidiy madaniy ong va global fuqarolikni rivojlantirishga qaratilgan refleksiv topshiriqlar, muhokama savollari va amaliy mashg‘ulotlar berilgan [133]. S.A.Anorboyeva [121, 9-b.] ispan tilini o‘qitishda tarjimonlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqib, ilmiy yangilik tarkibida lingvomadaniy xususiyatlarga ega realiyalar bilan ishlashni alohida ajratadi.

Mazkur maqola va qo‘llanmalar tahlili mahalliy metodikada lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish vositalari – autentik matn, mediamatn, darslik mazmuni, immersiv tajriba va refleksiv topshiriq – faol izlanayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu vositalar ko‘pincha alohida qo‘llanadi, ularni lingvomadaniy kompetensiyaning aniq tarkibiy komponentlari va rivojlanish darajalari bilan bog‘lovchi yaxlit metodik tizim hali ishlab chiqilmagan; aynan shu holat takomillashtirilgan metodika yaratish zaruratini asoslaydi.

Lingvomadaniy masalalar mahalliy dissertatsiya tadqiqotlarida ham turli jihatlardan yoritilgan. D.M.Djurayev [124] xitoy tilini o‘rganayotgan talabalarda lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish metodikasini, U.U.Jumanazarov [129] ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini, I.M.Tuxtasinov [138] esa ekvivalentlik hodisasi asosida tarjimonning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan; A.Yusupov bu ishlarni kompetensiyaga oid milliy tadqiqotlarning tayanch namunalari

sifatida keltiradi [78, 34-b.]. G.X.Bakiyeva va I.M.Tuxtasinov [25, 49–55-b.] ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarda stilistik vositalarning ifodalanishini tadqiq etadi; leksik birlikning ekspressiv-stilistik qatlami esa madaniy semantika bilan bevosita aloqador bo‘lgani uchun bu yo‘nalish lingvomadaniy tahlil uchun ham ahamiyatlidir. Sh.P.Raximova [135, 35-b.] talabalarning yozma diskurs kompetensiyasini multimadaniy jihatdan takomillashtirishni tadqiq etib, madaniyatlararo yozma muloqotda stereotiplardan voz kechish, madaniy jihatdan o‘ziga xos ishoralarni tushunish va tilni turli madaniy me’yorlarga moslashtirish zarurligini asoslaydi. M.X.Gulyamova [126] ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuvni ishlab chiqqan; mazkur yondashuv lingvomadaniy komponentni kommunikativ kompetensiya tizimi doirasida ko‘rib chiqish uchun metodologik tayanch bo‘la oladi.

Chet til o‘qitish metodikasining umumnazariy asoslari J.J.Jalolov [127] darsligida tizimlashtirilgan bo‘lib, mazkur asar mahalliy chet til metodikasining tayanch manbalaridan biri hisoblanadi. L.T.Axmedova [79] talabalarni kasbiy tayyorlashda pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini, T.Sattorov [62] bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasini ingliz tili materialida tadqiq etgan. CEFR tizimini mamlakat uzluksiz ta’limiga joriy etishning konseptual-metodik asoslari F.M.Rashidova [151] tadqiqotida, ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslari esa B.G.Kulmatov [130] ishida ishlab chiqilgan; M.T.Irisqulov [90, 77–83-b.] chet tillarini o‘qitishda CEFRning o‘rnini alohida tahlil qiladi. Bu tadqiqotlar xalqaro deskriptorlar asosida baholash mexanizmini mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirgan bo‘lib, lingvomadaniy kompetensiya rivojlanganlik darajalarini belgilashda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy dissertatsiyalar tahlili lingvomadaniy kompetensiyaning alohida tarkibiy qismlari – frazeologik, tarjima, diskursiv, lakunar va stilistik jihatlari, shuningdek, CEFR asosidagi baholash masalalari chuqur o‘rganilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun bu qismlarni yaxlit kompetensiya sifatida birlashtiruvchi nazariy model, uning tarkibiy komponentlari va rivojlanganlik mezonlari yaratilmagan; tadqiqotimiz aynan shu nazariy bo‘shliqni to‘ldirishga yo‘naltiriladi.

Mahalliy nashrlarda atamaning qo‘llanishi ham bir xil emas. A.Yusupov maqolasining o‘zbekcha sarlavhasida “lingvokulturologik kompetensiya”, matnida esa “lingvomadaniy kompetensiya” atamasini qo‘llaydi, ruscha annotatsiyada “lingvokulturologicheskaya”, sarlavhada esa “lingvokulturnaya kompetensiya” shakllari uchraydi [78, 33–35-b.]. M.O.Rakhimov o‘zbekcha sarlavhada “lingvomadaniy kompetentlik”, annotatsiyada “lingvomadaniy kompetensiya”, inglizcha matnda esa “linguocultural” va “linguacultural competence” variantlarini

birga ishlatadi [57, 234–238-b.]. E.Sh.Kholmatova maqolasida inglizcha “linguacultural competence” atamasiga o‘zbekcha “lingva madaniy kompetentsiya”, ruscha “lingvokulturologicheskaya” va “lingvokulturnaya kompetentnost” muqobillari berilgan [46, 156–157-b.]. Bunday terminologik noaniqlik tushunchaning hali shakllanish bosqichida ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqotimizda “lingvomadaniy kompetensiya” atamasi tanlanadi, chunki “lingvokulturologik” sifati lingvokulturologiya fani va uning metodlariga taalluqlilikni ifodalaydi, kompetensiya esa fan haqidagi bilimga emas, til va madaniyat birligini amalda egallashga yo‘naltirilgan; “lingvokulturologik” atamasi esa monografiyada metodologik yondashuvni (lingvokulturologik yondashuv) nomlash uchun saqlanadi. Ko‘plik shaklidagi “lingvomadaniy kompetensiyalar” birikmasi monografiya mavzusida ushbu kompetensiyaning bir nechta tarkibiy komponentlardan iborat murakkab tuzilma ekanini ifodalaydi.

MDH lingvodidaktikasida lingvomadaniy kompetensiya tushunchasining talqini “lingvostranovedcheskaya”, “lingvokulturovedcheskaya” va “lingvokulturologicheskaya kompetensiya” atamalari orqali shakllangan. V.V.Vorobyov [85, 189-b.] lingvomadaniy kompetensiyani madaniy qadriyatlarning til vositasida ifodalangan tizimini bilish va anglash sifatida ko‘radi; bu talqinni A.Yusupov ham tayanch nuqta sifatida qabul qilib, lingvomadaniy kompetensiyani ijtimoiy ahamiyatga ega tizim sifatida o‘rganish, uni talqin qilishda tizimli-funksional yondashuvni qo‘llash va lingvistik tahlilni kognitiv komponent bilan to‘ldirish zarurligini qayd etadi [78, 35–36-b.]. A.V.Getmanskaya [143] “ingliz tili va jahon badiiy madaniyati” integrallashgan kursi asosida lingvokulturovedcheskaya kompetensiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqib, uni madaniyatlararo kompetensiyaning tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Tadqiqotchi madaniyatlar polilogi kontekstidagi ta’limni madaniyatlar dialogi kontekstidagi ta’limga nisbatan yuqoriroq bosqich sifatida asoslaydi va kompetensiya shakllanganligining belgilari qatoriga dunyo madaniyatlari rivoji haqidagi xabardorlikni, madaniyatga oid ma’lumotnoma adabiyotlar bilan ishlashni, ona madaniyati yodgorliklarini jahon madaniyati namunalari bilan qiyoslash hamda o‘z madaniyatini ingliz tilida chet ellik suhbatdoshga taqdim eta olish ko‘nikmalarini kiritadi [143].

Zh.V.Demyanova [145, 10–11-b.] pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalari misolida lingvostranovedcheskaya kompetensiyani talabaga lingvomamlakatshunoslik dunyoqarashi asosida faoliyat yuritish va madaniyatlararo vaziyatlarda to‘laqonli muloqot qilish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va motivlar tizimi deb ta’riflaydi. Muallif bu kompetensiyani chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning ajralmas komponenti, o‘z navbatida kommunikativ kompetensiyani esa bo‘lajak o‘qituvchining tayanch kompetensiyalaridan biri sifatida ko‘radi [145, 11-b.]. Uning tuzilmasida bilish (lingvistik va mavzuviy bilimlar), praksiologik (bilimlardan foydalanish

ko‘nikmalari) va motivatsion (til va madaniyatga qiziqish) komponentlari ajratiladi [145, 11-b.]. Kompetensiyani shakllantirish modeli maqsadni belgilovchi, predmet-mazmuniy, jarayon-faoliyat va baholash-natija bloklaridan iborat bo‘lib, tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va lingvostranovedcheskiy yondashuvlarga tayanadi [145, 12-b.], rivojlanganlik esa past, o‘rta va yuqori darajalarda baholanadi [145, 16-b.]. E.G.Azimov va A.N.Shchukin [140, 134-b.] madaniyatlararo kompetensiyani shaxsning ko‘p madaniyatli jamiyatda yashash, boshqa madaniyat vakillari va o‘z madaniyati vakillarini muvaffaqiyatli tushuna olish qobiliyati sifatida belgilaydi; A.S.Mamontov bu tushuncha fon bilimlar, qadriyat yo‘nalishlari va ular bilan bog‘liq xulq modellariga tayanuvchi, ammo bitta lingvomadaniyat bilan cheklanuvchi “madaniy” kompetensiya tushunchasini siqib chiqarayotganini qayd etadi [98, 147-b.].

Zh.V.Demyanova tadqiqotida tushunchalar apparatiga oid muhim masala – “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining nisbati ham ko‘rib chiqiladi. Muallif mutaxassis kompetentligi tegishli kasbiy kompetensiyalarning yetarlicha yuqori darajada shakllanganligi va ularni qo‘llash tajribasi asosida yuzaga keladi degan qoidadan kelib chiqib, talaba hali kasbiy tajribaga ega bo‘lmagani uchun “kompetensiya” atamasidan foydalanadi; kompetensiya talabaning bilim, ko‘nikma, qobiliyat va motivatsiyasiga asoslangan, muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishini belgilovchi tavsifi sifatida qabul qilinadi va kasbiy faoliyat jarayonida kompetentlikka aylanishi mumkin [145, 10-b.]. Kompetensiya rivojlanganligini baholash uchun muallif uchta mezon va ularning ko‘rsatkichlarini ajratadi: bilish mezoni bilimlarning tizimliligi, to‘liqligi va anglanganligi, praksiologik mezon harakatlarni bajarishning to‘g‘riligi va mustaqillik darajasi hamda bilimni kengroq vazifalar doirasiga ko‘chira olish, motivatsion mezon esa motivlar tavsifi va qiziqishning shakllanganlik darajasi orqali aniqlanadi [145, 17-b.]. Tadqiqotimizda ham respondentlar bakalavriat bosqichidagi talabalar ekani hisobga olinib, “lingvomadaniy kompetensiya” atamasi qo‘llanadi, “kompetentlik” esa bitiruvchining kasbiy faoliyatdagi integral sifatini ifodalash uchun saqlanadi.

A.V.Getmanskaya [143] ishlab chiqqan integrallashgan kurs 10 siklga birlashtirilgan 23 blokdan iborat bo‘lib, 136 akademik soatga mo‘ljallangan; har bir blokning markazida madaniyatga oid ma’ruza turadi va u madaniy belgilangan leksik birliklarni standartlashtirish hamda variativ qo‘llashga yo‘naltirilgan mashqlar bilan ta’minlanadi, sikllar esa madaniyatshunoslik loyihalari bilan yakunlanadi. Tadqiqotchi mashqlarni nokommunikativ, shartli-kommunikativ va haqiqiy kommunikativ turlarga ajratadi hamda madaniyat yodgorliklarini tavsiflash va loyiha ustida ishlashni tayyorgarlik, ijro va yakuniy bosqichlarda tashkil etadi. Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra sinaluvchilar nutqining hajmi uch barobar oshgani, har bir sinaluvchi o‘rtacha 84 ta madaniy belgilangan leksik birlikni madaniy bo‘yoqdor variativ birikmalarda qo‘llagani, ona va jahon madaniyati yodgorliklarini tavsiflashda qiyoslash, tahlil va

umumlashtirish usullaridan foydalanish tendensiyasi kuzatilgani qayd etiladi [143]. Bu natijalar lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda madaniy mazmunli autentik materialga tayangan izchil mashqlar tizimi va loyiha faoliyatining samaradorligini ko‘rsatadi.

Mazkur to‘rt tadqiqot qiyosidan lingvomadaniy kompetensiya tarkibi madaniy faktlarni bilishdan qadriyatlar tizimini anglashga, keyin esa bu anglashni muloqot va pedagogik faoliyatda qo‘llash qobiliyatiga qarab kengayib borgani ko‘rinadi. Zh.V.Demyanova modelidagi bloklar va A.V.Getmanskaya ajratgan qiyoslash ko‘nikmalari metodika uchun tayyor tuzilmaviy asos beradi, ammo bu ishlar mos ravishda nofilologik fakultetlar talabalari hamda maktab va nolingvistik oliy o‘quv yurtlari kontingentiga mo‘ljallangan; ingliz tilini kasb sifatida o‘qitadigan bo‘lajak o‘qituvchi bu tadqiqotlar doirasidan tashqarida qoladi.

Lingvomadaniy kompetensiya muammosining metodik konteksti MDH olimlarining chet tili ta’limida madaniyat masalasiga bag‘ishlangan keng doiradagi ishlarida shakllangan. A.V.Getmanskaya qayd etganidek, ta’limni modernizatsiya qilish g‘oyalari doirasida I.L.Bim [80], E.I.Passov [105], V.V.Safonova [109] va G.V.Yelizarova [87] tadqiqotlarida kulturologik yo‘nalganlik chet tillarini o‘qitishning yetakchi yo‘nalishi sifatida ta’kidlanadi [143]. Zh.V.Demyanova V.V.Safonova oliy ta’lim tizimida lingvostranovedcheskiy yondashuvni amalga oshirishning umumiy qoidalarini belgilaganini [145, 4-b.], S.G.Ter-Minasovaning [114] madaniyatlararo kommunikatsiya konsepsiyasini esa o‘z tadqiqotining nazariy asoslari qatorida keltiradi [145, 6-b.]; N.D.Galskova [141] lingvostranovedcheskaya kompetensiyani nutqiy va nonutqiy xulqni bilishga yo‘naltirilgan tarzda talqin etuvchi olimlar sirasida ko‘rsatiladi [145, 10-b.]. A.A.Mirolyubov [102, 11–14-b.] chet tillarini o‘qitishdagi kulturologik yo‘nalganlikni alohida tahlil qiladi, P.V.Sysoyev [111, 12–18-b.] o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyatini o‘qitishning yangi yo‘nalishini izlaydi, V.P.Furmanova [116] madaniyatlararo kommunikatsiya va lingvokulturovedeniyeni chet tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyotiga tatbiq etadi, V.V.Kabakchi [91] esa ingliz tilidagi madaniyatlararo kommunikatsiya asoslarini ishlab chiqadi.

MDH metodistlarining ushbu guruhi qarashlari lingvomadaniy kompetensiya alohida terminologik izlanish natijasi emas, balki chet tili ta’limidagi kulturologik burilishning qonuniy mahsuli ekanini tasdiqlaydi. V.P.Furmanova va V.V.Kabakchi tadqiqotlarida madaniyatlararo kommunikatsiya va ingliz tili materiali bevosita bog‘langani esa ingliz tili o‘qituvchisi tayyorlashda lingvomadaniy va madaniyatlararo komponentlarni bir tizimda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi; shu bilan birga bu ikki tushunchani aynanlashtirmaslik uchun ularning chegaralarini aniqlash talab etiladi.

Xorijiy metodikada “linguocultural competence” atamasi kamroq qo‘llanadi, uning o‘rniga madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya (intercultural communicative competence, ICC) va plyurimadaniy kompetensiya (pluricultural

competence) tushunchalari ishlatiladi. M.Byram [28, 34-b.] ICC tarkibida lingvistik, sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyalar bilan bir qatorda madaniyatlararo kompetensiyaning beshta “savoir”ini ajratadi: munosabatlar (savoir être), bilimlar (savoirs), talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmalari (savoir comprendre), kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari (savoir apprendre/faire) hamda tanqidiy madaniy xabardorlik (savoir s’engager). Talqin qilish ko‘nikmasini muallif boshqa madaniyatga oid hujjat yoki voqeani tushuntirib, uni o‘z madaniyatidagi hodisa bilan bog‘lash qobiliyati sifatida izohlaydi [28, 52-b.], tanqidiy madaniy xabardorlikni esa o‘z va o‘zga madaniyatdagi qarashlar, amaliyotlar va mahsulotlarni aniq mezonlar asosida tanqidiy baholash qobiliyati deb belgilaydi [28, 53-b.]. M.Byram modeli kommunikativ kompetensiya an’anasining davomi bo‘lib, uning ildizlari D.Hymes [43] ilgari surgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi va M.Canale hamda M.Swain [29] taklif etgan kommunikativ kompetensiya tarkibiga borib taqaladi; D.Naimova ham multimadaniy kompetensiyani aynan shu tushunchalar va Byram modeli bilan bog‘laydi [53, 189-b.].

D.K.Deardorff [32] madaniyatlararo kompetensiyani shaxsning madaniyatlararo bilim, ko‘nikma va munosabatlariga asoslanib madaniyatlararo vaziyatlarda samarali va o‘rinli muloqot qilish qobiliyati sifatida belgilaydi va ekspertlar kelishuviga asoslangan piramidal modelni taklif etadi: uning asosini hurmat, ochiqlik va qiziquvchanlik kabi munosabatlar tashkil etadi, ularga bilim va ko‘nikmalar tayanadi, natijada ichki (moslashuvchanlik, etnorelyativ qarash, empatiya) va tashqi (samarali va o‘rinli muloqot) natijalarga erishiladi [32, 254-b.]. B.H.Spitzberg va G.Changnon [67] madaniyatlararo kompetensiyaning yigirmadan ortiq ta’rif va modellarini tahlil qilib, tushunchaning konseptual xilma-xilligini ko‘rsatadi. A.E.Fantini [35, 456–476-b.] madaniyatlararo kompetensiyani baholash muammolari va vositalarini tizimlashtiradi. Evropa Kengashining CEFR qo‘shimcha jildi [4, 123–125-b.] plyurilingval va plyurimadaniy kompetensiyani uch shkala – plyurimadaniy repertuarga tayanish, plyurilingval tushunish va plyurilingval repertuarga tayanish orqali tavsiflaydi hamda “o‘zgalik” bilan ishlash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash qobiliyatini deskriptorlar darajasida baholashni nazarda tutadi.

D.K.Deardorffning jarayon modelida madaniyatlararo kompetensiyaning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan munosabatlar uch tarkibga ajratiladi: hurmat (boshqa madaniyatlarni qadrlash), ochiqlik (baho berishdan tiyilish) hamda qiziquvchanlik va kashf etishga intilish (noaniqlikka bardosh berish) [32]. CEFR qo‘shimcha jildida esa plyurilingval yondashuvning asosiy qoidasi sifatida turli tillarni muvozanatli egallash maqsad emasligi, aksincha, ulardan foydalanishni vaziyatga mos moslashtirish qobiliyati va tayyorligi muhimligi, barcha til va madaniy tajriba kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga hissa qo‘shishi ta’kidlanadi [4, 123–124-b.]. M.Byram ajratgan “savoir”lar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi faoliyatiga to‘g‘ridan

to‘g‘ri ko‘chiriladi: munosabatlar darsda turli madaniyatlarga hurmat muhitini yaratish uchun, bilimlar madaniy mazmunni tanlash uchun, talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmalari autentik matnni o‘quvchiga izohlash uchun, kashf etish ko‘nikmalari o‘quvchilarni mustaqil madaniy izlanishga yo‘naltirish uchun, tanqidiy madaniy xabardorlik esa darslik va mediamatnlardagi madaniy tasvirlarni baholash uchun zarur bo‘ladi. Bu moslik xorijiy modellarni lingvomadaniy kompetensiya tarkibini belgilashda tayanch sifatida olish imkonini beradi.

M.Byram, D.K.Deardorff, A.E.Fantini va CEFR mualliflari qarashlarini umumlashtirgan holda, xorijiy modellarning lingvomadaniy kompetensiya nazariyasi uchun asosiy qimmati ularning tuzilmaviy aniqligi va baholanuvchanligida ekani ta’kidlanadi: munosabat, bilim, ko‘nikma va xabardorlik qatlamlari darajalar bo‘yicha kuzatiladi. Biroq bu modellarda madaniyat asosan muloqot jarayoni va munosabatlar orqali tavsiflanadi, til birliklarining madaniy semantikasi – realiya, frazeologizm, kalit so‘z, madaniy konsept – esa A.Wierzbicka va F.Sharifian kabi tilshunoslar ishlaridan tashqarida kam yoritiladi. Shu sababli lingvomadaniy kompetensiyani madaniyatlararo kompetensiya bilan aynanlashtirish nazariy jihatdan asossiz hisoblanadi.

Madaniyatlararo muloqot nazariyasining boshqa yo‘nalishlari ham lingvomadaniy kompetensiya mazmunini kengaytiradi. D.Naimova jahon metodikasida multimadaniy kompetensiya muammosini tahlil qilar ekan, uning nazariy manbalari qatorida E.T.Xollning [40] “Beyond Culture” asari, W.B.Gudykunst va Y.Y.Kimning [39] madaniyatlararo kommunikatsiyaga bag‘ishlangan tadqiqoti hamda A.E.Fantinining [35] baholash vositalariga oid ishini keltiradi [53, 190–191-b.]. W.Baker [24, 197–214-b.] ingliz tili lingva franka sifatida qo‘llanadigan muloqotda madaniyatlarni tushunishning modelini – madaniyatlararo xabardorlik (intercultural awareness) tushunchasini – taklif etadi; bu model ingliz tilining ona tili sohiblaridan tashqari ko‘plab madaniyat vakillari o‘rtasida amal qilishini metodik jihatdan hisobga olish imkonini beradi. C.Crozet va A.J.Liddicoat [30, 113–125-b.] madaniyatlararo til ta’limida madaniyat bilan sinfda ishlash muammolarini ko‘rib chiqib, til o‘rganuvchining ikki madaniyat o‘rtasidagi “uchinchi o‘rin”ga intilishi g‘oyasini rivojlantiradi; bu g‘oya C.Kramsch [47] tadqiqotlarida asoslangan pozitsiyaning metodik davomi hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotlar tahlili madaniy bilim ochiq faktlar ko‘rinishida ham, yashirin me’yorlar ko‘rinishida ham mavjud bo‘lishini, o‘qituvchi esa ikkala shaklni o‘quvchi anglay oladigan topshiriqlarga aylantirishi lozimligini ko‘rsatadi. Ingliz tilining xalqaro til maqomi ham lingvomadaniy ta’lim mazmunini Buyuk Britaniya va AQSh madaniyati bilan cheklamaslikni, ingliz tili orqali o‘zbek madaniyatini ifodalay olish ko‘nikmasini kompetensiya tarkibiga kiritishni taqozo etadi; bu talab W.Baker modelida ham, A.V.Getmanskaya ajratgan ko‘nikmalar tarkibida ham o‘z ifodasini topgan.

Uchala guruh tadqiqotlarini qiyoslash lingvomadaniy, sotsiomadaniy va madaniyatlararo kompetensiyalarning chegaralarini aniqlash imkonini beradi. Lingvomadaniy kompetensiya til birliklarida mujassamlashgan madaniy ma’noga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning tahlil birligi lingvokulturema, madaniy konsept va kalit so‘zdir [76; 78, 36-b.]. Sotsiomadaniy kompetensiya jamiyatdagi yashirin qoidalar, ijtimoiy me’yorlar, etiket, umumiy qadriyatlar, hazil, noverbal ishoralar va taqiqlar haqidagi bilimga tayanadi [57, 244-b.] va A.S.Mamontov ko‘rsatganidek, ko‘pincha bitta lingvomadaniyat doirasida qoladi [98, 147-b.]. Madaniyatlararo kompetensiya esa turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonining samaradorligi va o‘rinliligi bilan belgilanadi [32, 254-b.; 140, 134-b.]. Ushbu farqlar 1.1-jadvalda umumlashtiriladi.

1.1-jadval

Lingvomadaniy, sotsiomadaniy va madaniyatlararo kompetensiyalarning qiyosiy tavsifi

Mezon	Lingvomadaniy kompetensiya	Sotsiomadaniy kompetensiya	Madaniyatlararo kompetensiya
Nazariy asosi	lingvokulturologiya, lingvostranovedeniye, madaniy lingvistika [82; 84; 64]	sotsiolingvistika, mamlakatshunoslik [57; 98]	madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi [28; 32]
Asosiy obyekti	til birliklarida kodlangan madaniy ma’no va qadriyatlar [85, 189-b.; 78, 34-b.]	jamiyatdagi ijtimoiy me’yorlar, etiket, xulq modellari [57, 244-b.]	turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot jarayoni [140, 134-b.]
Tahlil birligi	realiya, fon so‘z, frazeologizm, lingvokulturema, logoepistema, kalit so‘z, madaniy konsept [145, 11-b.; 93; 76]	ijtimoiy vaziyat, nutq etiketi formulasi, noverbal ishora [57, 244-b.]	muloqot vaziyati, madaniy farq, “o‘zgalik” bilan to‘qnashuv [4, 124-b.; 28, 52-b.]
Til bilan bog‘liqligi	bevosita: kompetensiya til elementlari orqali namoyon bo‘ladi [78, 34-b.]	vositali: til me’yorlari ijtimoiy kontekst bilan bog‘lanadi	til bilish zarur, ammo kompetensiya madaniy bilim, ko‘nikma va munosabatlarga tayanadi [28, 34-b.; 32]

Qamrab olinadigan madaniyatlar	ona va o‘rganilayotgan tilmadaniyat qiyosi [60; 143]	asosan o‘rganilayotgan bitta madaniyat [98, 147-b.]	ko‘p madaniyatli muhit [53, 188-b.; 140, 134-b.]
Kutilgan natija	madaniy semantikani anglash, talqin qilish va qo‘llash	ijtimoiy jihatdan o‘rinli xulq va nutq	samarali va o‘rinli madaniyatlararo muloqot [32, 254-b.]
Bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni	ingliz tili birliklarining madaniy mazmunini tushuntirish va dars mazmuniga kiritish	o‘quvchilarda muloqot etiketini shakllantirish [1, 8-b.]	o‘quvchilarni ko‘p madaniyatli muloqotga tayyorlash [1, 8-b.]

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun lingvomadaniy kompetensiyaning o‘ziga xosligi uning ikki tomonlama vazifasida namoyon bo‘ladi. Talaba bir vaqtda ingliz tilmadaniyatini o‘rganuvchi va kelgusida uni o‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarga yetkazuvchi vositachi hisoblanadi. K.Risager ko‘rsatgan, chet tili darsida doimo kamida ikki tilmadaniyatning mavjud bo‘lishi [60] bu holatda kasbiy vazifaga aylanadi: o‘qituvchi o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatlari o‘rtasidagi farqlarni o‘zi anglashi bilan cheklanmay, ularni o‘quvchi uchun tushunarli metodik shaklga solishi, madaniy stereotiplarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi [53, 189-b.] va ona madaniyatini ingliz tilida ifodalash ko‘nikmasini ham shakllantirishi lozim [143]. Malaka talablarida “tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish va madaniy xususiyatlarini anglash, o‘quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va global fikrlash kompetentligini oshirish” kasbiy kompetensiya sifatida belgilanganligi [1, 8-b.] ham shu talqinni tasdiqlaydi; bu talablarning lingvomadaniy kompetensiya nuqtai nazaridan tanqidiy tahlili 1.3-§ da beriladi.

Tahlil etilgan qarashlar asosida lingvomadaniy kompetensiya tarkibida beshta o‘zaro bog‘liq komponent ajratiladi. Motivatsion-qadriyatli komponent ingliz va o‘zbek madaniyatlariga qiziqish, hurmat va ochiqlikni ifodalaydi; u M.Byramning munosabatlar (savoir être) tarkibi [28, 34-b.], D.K.Deardorff modelining asosiy qatlami [32, 254-b.] va Zh.V.Demyanova ajratgan motivatsion komponent [145, 11-b.] bilan mos keladi. Kognitiv komponent ingliz tilining realiyalari, fon leksikasi, frazeologizmlari, kalit so‘zlari va madaniy konseptlari haqidagi bilimlarni qamraydi [82; 76; 64, 11–23-b.]. Interpretativ-qiyosiy komponent til birligining madaniy mazmunini aniqlash va uni ona madaniyatidagi hodisa bilan qiyoslab talqin qilish qobiliyatini anglatadi [28, 52-b.; 143]. Kommunikativ-pragmatik komponent lingvomadaniy bilimlarni nutq etiketi va muloqot vaziyatiga mos qo‘llashni ta’minlaydi [46, 158-b.; 57, 244-b.]. Kasbiy-metodik (refleksiv) komponent esa

o‘rganilgan madaniy mazmunni o‘quvchi yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos holda tanlash, topshiriqqa aylantirish va o‘z faoliyatini refleksiv baholash ko‘nikmalarini birlashtiradi; aynan shu komponent bo‘lajak o‘qituvchining lingvomadaniy kompetensiyasini tarjimon yoki nofilolog talabaning tegishli kompetensiyasidan farqlaydi. Komponentlarning tuzilmasi, o‘zaro aloqasi va kasbiy kompetentlik tarkibidagi o‘rni 1.2-§ da batafsil asoslanadi, ular asosida esa tajriba-sinov ishining beshta mezoni belgilanadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasi tushunchasini ta’riflashda uchta nazariy talab hisobga olinadi: tushuncha til birliklarining madaniy semantikasiga tayanishi (MDH lingvokulturologik an’anasi), muloqot va talqin qilish jarayonida namoyon bo‘lishi (xorijiy madaniyatlararo ta’lim an’anasi) hamda o‘zbek va ingliz tilmadaniyatlari aloqasini hisobga olishi (mahalliy tadqiqotlar tajribasi) lozim. Shu talablardan kelib chiqib, mualliflik ta’rifi quyidagicha shakllantiriladi: bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasi – ingliz tili birliklari (realiya, frazeologizm, kalit so‘z, madaniy konsept, nutq etiketi formulalari) va autentik matnlarda kodlangan madaniy ma’nolarni anglash, ularni o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyoslab talqin qilish, muloqot vaziyatiga mos qo‘llash hamda o‘quvchilar uchun metodik jihatdan qayta ishlab, ta’lim mazmuniga kiritish qobiliyatini ta’minlovchi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, interpretativ-qiyosiy, kommunikativ-pragmatik va kasbiy-metodik komponentlarning integrativ birligidan iborat kasbiy-shaxsiy sifatdir.

Taklif etilgan ta’rif mavjud talqinlardan uch jihatga ko‘ra farqlanadi. Unda madaniyat umumiy holda emas, aynan ingliz tili birliklari va autentik matnlarda kodlangan ma’nolar orqali beriladi, bu esa lingvomadaniy kompetensiyani madaniyatlararo kompetensiyadan ajratib turadi. Qiyosiy-talqiniy tarkibning kiritilishi o‘zbek tilmadaniyatini kompetensiyaning majburiy tayanchiga aylantiradi va A.Yusupov hamda M.Djusupov tadqiqotlarida qayd etilgan lingvomadaniy interferensiya xavfini metodik jihatdan boshqarish imkonini beradi. Kasbiy-metodik komponentning ta’rif tarkibida bo‘lishi esa bo‘lajak o‘qituvchi madaniy mazmunni o‘zi egallashi bilan cheklanmay, uni o‘quvchiga yetkazish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi lozimligini ifodalaydi; aynan shu jihat ta’rifni tarjimon va nofilolog talabalar uchun ishlab chiqilgan talqinlardan farqlaydi.

Paragrafda o‘tkazilgan tahlil quyidagi nazariy qoidalarni asoslash imkonini beradi. Lingvokulturologiya MDH tilshunosligida lingvostranovedeniyedan o‘sib chiqqan, til va madaniyatning sinkretik birligini tizimli-kognitiv tamoyillar asosida o‘rganuvchi fan sifatida shakllangan, xorijiy an’anada esa til va madaniyat munosabati tilmadaniyat, madaniy kalit so‘zlar va madaniy konseptualizatsiyalar tushunchalari orqali tadqiq etiladi. “Lingvomadaniy” va “lingvokulturologik kompetensiya” atamalari mahalliy adabiyotda ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llanadi va asosan

tarjimon tayyorlash, kommunikativ strategiya va multimadaniy ta’lim kontekstida ta’riflanadi; MDH metodikasida bu tushuncha lingvostranovedcheskaya va lingvokulturovedcheskaya kompetensiya tadqiqotlari orqali bilim, ko‘nikma va motivlar tizimi sifatida ishlangan; xorijiy metodikada esa uning o‘rnini madaniyatlararo kommunikativ va plyurimadaniy kompetensiya egallaydi. Lingvomadaniy kompetensiya madaniyatlararo kompetensiyaning lisoniy asosi bo‘lib, sotsiomadaniy kompetensiya bilan kesishsa-da, tahlil birligi, til bilan bog‘liqlik darajasi va qiyoslanadigan madaniyatlar soniga ko‘ra ulardan farqlanadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun ishlab chiqilgan mualliflik ta’rifi ushbu kompetensiyani beshta komponentning integrativ birligi sifatida belgilaydi va keyingi paragrafda uning kasbiy kompetentlik tarkibidagi tuzilmasini asoslash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1.2-§. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligi tarkibida lingvomadaniy kompetensiyalarning tarkibiy tuzilmasi

Oldingi paragrafda asoslangan mualliflik ta’rifi lingvomadaniy kompetensiyani beshta komponentning integrativ birligi sifatida belgilaydi, biroq bu komponentlarning mazmuni, ularni tanlashning nazariy asoslari va o‘zaro aloqasi alohida tadqiq predmetini tashkil etadi. Lingvomadaniy kompetensiya bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun mustaqil, boshqa kasbiy sifatlardan ajralgan sifat sifatida emas, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida shakllanadi; shu sababli uning tuzilmasini aniqlash uchun avval til o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining mavjud modellarini tahlil qilish va ularda madaniy tarkibga ajratilgan o‘rinni belgilash talab etiladi. Mazkur paragrafda til o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining mahalliy, MDH va xorijiy modellari qiyosiy tahlil qilinadi, ularda lingvomadaniy tarkibning o‘rni aniqlanadi, lingvomadaniy kompetensiyaning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlari nazariy jihatdan asoslanadi hamda har bir komponentning mazmuni va rivojlanganlik ko‘rsatkichlari tajriba-sinov ishining mezonlari bilan muvofiqlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmonining 2-bandida “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi pedagog kadrlar tayyorlash sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi” deya belgilanib, ular qatorida “yagona konseptual yondashuv asosida oliy ma’lumotli pedagog kadrlar tayyorlash siyosatini yuritish” vazifasi ko‘rsatilgan [17]. Farmonning 1-bandida esa “pedagogik ta’lim sohasining ta’lim dasturlarini xalqaro ta’lim dasturlariga mos ravishda takomillashtirish” vazifasi qayd etilgan [17]. Yagona konseptual yondashuv bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy kompetentligining tarkibi aniq belgilangan, ilmiy

asoslangan va o‘lchanadigan bo‘lishini taqozo etadi; lingvomadaniy kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini aniqlash ushbu talabni chet tili o‘qituvchisi tayyorlash sohasida amalga oshirishning nazariy shartlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining nisbati MDH psixologiyasi va pedagogikasida batafsil ishlangan. A.K.Markova [99] kasbiy kompetentlikni insonga muayyan mehnat funksiyalarini bajarish imkonini beruvchi psixik sifatlar va holatlarning o‘zaro bog‘liqligi sifatida ko‘rib, uning to‘rt turini ajratadi: kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallashni ifodalovchi maxsus kompetentlik, kasbiy muloqot usullarini egallashni anglatuvchi ijtimoiy kompetentlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish vositalarini egallash bilan bog‘liq shaxsiy kompetentlik hamda kasbiy o‘sishga va o‘z-o‘zini tashkil etishga tayyorlikni ifodalovchi individual kompetentlik [108]. I.M.Puchkova va R.N.Xakimzyanov [108, 258–266-b.] kasbiy kompetentlikni professionalizm rivojlanishining mezoni sifatida talqin etib, aynan uning tarkibiy tuzilishi orqali mutaxassis kasbiy rivojlanishining darajasini aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi. Zh.V.Demyanova [145, 10–11-b.] esa mutaxassis kompetentligi tegishli kasbiy kompetensiyalarning yetarlicha yuqori darajada shakllanganligi va ularni qo‘llash tajribasi asosida yuzaga kelishidan kelib chiqib, talabaga nisbatan “kompetensiya” atamasini qo‘llaydi va lingvostranovedcheskaya kompetensiyani chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning ajralmas komponenti, kommunikativ kompetensiyani esa bo‘lajak o‘qituvchining tayanch kompetensiyalaridan biri sifatida joylashtiradi.

N.N.Jixovich [88] chet tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining o‘ziga xosligini tahlil qilib, uning eng muhim komponenti sifatida kommunikativ kompetensiyani, ikkinchi komponenti sifatida lingvodidaktik kompetensiyani ajratadi hamda o‘z faoliyatini baholash bilan bog‘liq refleksiv kompetensiyani alohida qayd etadi. Muallif N.D.Galskova va N.I.Gezning [142] qarashlariga tayanib, o‘qituvchining kasbiy bilim va ko‘nikmalari o‘quvchilar shaxsini tushunish, darsda nutqiy muloqotni rejalashtirish, rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish va baholash hamda darsdagi chet tilidagi muloqotni tahlil qilish sohalariga guruhlanishini ko‘rsatadi [88]. Bu tasnifda madaniy tarkib alohida komponent sifatida nomlanmaydi, ammo chet tilidagi muloqotni rejalashtirish va tahlil qilish sohalari uning mavjudligini taqozo etadi.

A.K.Markova tasnifini lingvomadaniy kompetensiyaga nisbatan qo‘llash uning tarkibiy qatlamlarini aniqlashtiradi. Maxsus kompetentlik ingliz tili va madaniyatini egallashni, ya’ni lingvomadaniy bilim va til birliklarining madaniy semantikasi bilan ishlash ko‘nikmasini; ijtimoiy kompetentlik kasbiy muloqot usullarini, jumladan, madaniyatlararo muloqotda o‘rinli xulq va nutqni; shaxsiy kompetentlik o‘z-o‘zini rivojlantirish vositalarini, ya’ni mustaqil lingvomadaniy izlanish va refleksiyani; individual kompetentlik esa kasbiy o‘sishga tayyorlik va qadriyat yo‘nalishini

qamraydi [108]. Bu muvofiqlik lingvomadaniy kompetensiyaning bir vaqtning o‘zida bilim, muloqot va shaxsiy rivojlanish sohalarini qamrab oluvchi integrativ xususiyatini ko‘rsatadi.

MDH tadqiqotchilarining mazkur guruhi qarashlari kasbiy kompetentlik tarkibiy tuzilma sifatida ko‘rilishi va uning har bir komponenti alohida o‘lchanishi mumkinligini tasdiqlaydi. A.K.Markova tasnifidagi maxsus va ijtimoiy kompetentlik chet tili o‘qituvchisi uchun til va madaniyatni egallash hamda kasbiy muloqot tarkibini, shaxsiy va individual kompetentlik esa refleksiya va kasbiy o‘sish tarkibini beradi. Zh.V.Demyanova taklif etgan iyerarxiya – tayanch kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, chet tilidagi kommunikativ kompetensiya va uning tarkibidagi lingvostranovedcheskaya kompetensiya – lingvomadaniy kompetensiyaning kasbiy kompetentlik tarkibidagi o‘rnini aniqlash uchun tayyor mantiqiy tuzilma bo‘lib xizmat qiladi.

Chet tili o‘qituvchisining kasbiy-metodik kompetensiyasi MDH metodikasida alohida yo‘nalish sifatida shakllangan. N.M.Axmedova [122] tahliliga ko‘ra, E.I.Passov [104], N.V.Yazikova [119], B.B.Karabayev [149] va A.V.Xodikina [154] tadqiqotlarida o‘qituvchi tayyorgarligi faoliyat funksiyalari va metodik malakalar tizimi sifatida talqin etiladi. E.I.Passov kommunikativ metodning nazariy asoslarini ishlab chiqib, o‘qituvchining kasbiy faoliyatini muloqotga o‘rgatish jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan tavsiflaydi; N.V.Yazikova pedagogika fakultetlari talabalarining kasbiy-metodik faoliyatini shakllantirish masalasini, B.B.Karabayev bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kommunikativ-metodik kompetensiyasini modul-reyting texnologiyasi vositasida shakllantirishni, A.V.Xodikina esa chet tillari sohasida pedagogika bakalavrining metodik kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida shakllantirishni tadqiq etgan. S.S.Kunanbayeva [96] zamonaviy chet tili ta’limining nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqib, N.M.Axmedova qayd etganidek, chet tili ta’limining kognitiv-lingvomadaniy metodologiyasini asoslaydi [122].

Lingvomadaniy kompetensiyaning o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni MDH tadqiqotlarida ham alohida ko‘rib chiqiladi. M.A.Sich [112] lingvomadaniy kompetensiyani chet tilini o‘qitish jarayonida polimadaniy shaxsni rivojlantirishning sharti sifatida tahlil qilib, Zh.V.Glotovaga [144, 14-b.] tayanib, uni madaniyat va tilning turli hodisalarida mo‘ljal ola bilishning kompleks qobiliyati sifatida izohlaydi. Muallif o‘qituvchi lingvomadaniy kompetensiyasi tarkibida ikki komponentni ajratadi: o‘z lingvomadaniy jamoasining me’yorlari, qoidalari va an’analarini bilishni anglatuvchi intramadaniy kompetentlik hamda boshqa lingvomadaniy jamoaning umumiy me’yorlari, qoidalari va an’analarini bilishni ifodalovchi madaniyatlararo kompetentlik [112]. M.A.Sich A.Ya.Flierga [115, 358-b.] tayanib, lingvomadaniy kompetentlik tarkibiga urf-odat, me’yor va etiket qoidalarini bilishni ifodalovchi konvensional, jamiyatning siyosiy va huquqiy institutlari haqidagi bilimni anglatuvchi

institutsional, muayyan madaniyatga xos ramzlarni bilishdan iborat semiotik hamda tilni uning bir necha ijtimoiy variantlarida egallashni bildiruvchi lingvistik komponentlarni kiritadi [112]. A.A.Podgorbunskix [106, 160-b.] esa bo‘lajak o‘qituvchining til tayyorgarligi tegishli chet tilini funksional egallashga, muloqot sheriklarining xulqi, tarixi, psixologiyasi va madaniyatini bilishga hamda muloqot, jumladan, madaniyatlararo muloqot mexanizmlarini bilishga yo‘naltirilishi lozimligini ko‘rsatadi [112].

Lingvomadaniy tarkibli kompetensiyalarning tuzilmasi va baholash mezonlari MDH dissertatsiya tadqiqotlarida ham ishlab chiqilgan. Zh.V.Demyanova [145, 11-b.] lingvostranovedcheskaya kompetensiya tuzilmasida bilish, praksiologik va motivatsion komponentlarni ajratib, ularning har biri uchun alohida mezon va ko‘rsatkichlar belgilaydi: bilish mezoni bilimlarning tizimliligi, to‘liqligi va anglanganligi, praksiologik mezon harakatlarni bajarishning to‘g‘riligi, mustaqillik darajasi va bilimni kengroq vazifalar doirasiga ko‘chira olish, motivatsion mezon esa motivlar tavsifi va qiziqishning shakllanganlik darajasi orqali aniqlanadi [145, 17-b.]. Muallif bilish mezonini mavzuli insho, kulturologik anketa va lingvostranovedcheskiy testlar, praksiologik mezonni namunaga tayanib xat yozish, autentik matn parchalarini tarjima qilish va maqol hamda frazeologik birliklarning muqobilini topish, motivatsion mezonni esa shaxs yo‘nalganligi va o‘quv motivatsiyasi so‘rovnomalari orqali tashxislaydi [145, 17-b.]. A.V.Getmanskaya [143] lingvokulturovedcheskaya kompetensiya shakllanganligining belgilari sifatida dunyo madaniyatlari rivoji haqidagi xabardorlikni, madaniyatga oid ma’lumotnoma adabiyotlar bilan ishlash va madaniy ma’lumotni to‘plash, tizimlashtirish va ingliz tilida talqin qilish ko‘nikmasini, ona madaniyati yodgorliklarini jahon madaniyati namunalari bilan qiyoslash hamda o‘z madaniyatini ingliz tilida chet ellik suhbatdoshga taqdim eta olishni ajratadi.

Chet tili o‘qituvchisiga oid MDH tadqiqotlari tahlili ikki muhim qoidani belgilaydi. Kasbiy-metodik yo‘nalishdagi ishlarda (E.I.Passov, N.V.Yazikova, B.B.Karabayev, A.V.Xodikina) o‘qituvchi kompetentligining asosiy o‘lchovi metodik faoliyat bo‘lib, madaniy tarkib bu faoliyatning mazmuni sifatida bilvosita mavjud bo‘ladi. Lingvomadaniy yo‘nalishdagi ishlarda (M.A.Sich, A.Ya.Flier, A.A.Podgorbunskix) esa madaniy tarkib mustaqil tuzilmaga ega bo‘lib, intramadaniy va madaniyatlararo, konvensional, semiotik va lingvistik qatlamlarga ajratiladi. Tadqiqotimiz bu ikki yo‘nalishni birlashtirishni nazarda tutadi: lingvomadaniy kompetensiya mustaqil tuzilmaga ega bo‘lishi bilan birga, kasbiy-metodik faoliyatda namoyon bo‘ladigan komponentni ham o‘z ichiga olishi lozim. A.Ya.Flier ajratgan to‘rt qatlam tadqiqotimizdagi komponentlar bilan muayyan muvofiqlikka ega: konvensional va institutsional bilimlar kognitiv-lingvomadaniy komponent mazmuniga, semiotik va lingvistik qatlamlar lingvistik-semantik komponent mazmuniga kiradi, etiket qoidalarini bilish esa madaniyatlararo kommunikativ

komponentda faoliyat shakliga o‘tadi. Zh.V.Demyanova va A.V.Getmanskaya taklif etgan mezonlar esa ko‘rsatkichlarni bilish, faoliyat va motivatsiya darajalarida belgilash hamda ona madaniyatini taqdim etish ko‘nikmasini alohida ko‘rsatkich sifatida kiritish uchun metodik asos bo‘ladi.

Xorijiy o‘qituvchi ta’limi nazariyasida o‘qituvchi kompetentligi asosan bilim bazasi, o‘qituvchi kognitsiyasi va refleksiv amaliyot tushunchalari orqali tavsiflanadi. L.S.Shulman [65, 4–14-b.] o‘qitish jarayonida o‘qituvchi bilimining o‘sishini tahlil qilgan tadqiqoti bilan o‘qituvchi bilim bazasining tarkibi masalasini o‘qituvchi tayyorlash nazariyasining markaziy muammolaridan biriga aylantirgan. D.Freeman va K.E.Johnson [37, 397–417-b.] til o‘qituvchisi ta’limining bilim bazasini qayta konseptuallashtirishni taklif etadi; S.Borg [27, 81–109-b.] esa til o‘qituvchilari nima o‘ylashi, nimani bilishi, nimaga ishonishi va nima qilishiga oid tadqiqotlarni tizimlashtirib, o‘qituvchi kognitsiyasi tushunchasini asoslaydi. N.M.Axmedova xorijiy an’anada o‘qituvchi tayyorgarligi asosan o‘qitishni o‘rganish jarayoni va o‘qituvchi kognitsiyasining rivojlanishi sifatida talqin etilishini aynan shu mualliflar ishlariga tayanib qayd etadi [122].

J.C.Richards [58, 3–6-b.] namunali til o‘qituvchisining o‘nta sifatini tahlil qilib, til bilish omili, mazmuniy bilim, o‘qitish ko‘nikmalari, kontekstual bilim, til o‘qituvchisi identifikatsiyasi, o‘rganuvchiga yo‘naltirilgan o‘qitish, pedagogik mulohaza yuritish ko‘nikmalari, amaliyotdan nazariya chiqarish, amaliyot jamoasiga a’zolik va professionalizmni ajratadi. Muallif o‘qituvchi maqsadli tilda erishishi zarur bo‘lgan muayyan til bilish darajasi mavjudligini [58, 3-b.], mazmuniy bilim esa o‘qituvchi nimani o‘qitayotgani haqida bilishi lozim bo‘lgan bilimni anglatishini ta’kidlaydi [58, 3-b.]; kontekstual bilim tavsifida esa muassasa madaniyati va kasbiy madaniyatga ijtimoiylashuv masalasini ko‘tarib, o‘qitishni o‘rganishni kasbiy madaniyatga kirib borish sifatida izohlaydi [58, 4-b.]. B.Kumaravadivelu [49] global jamiyat uchun til o‘qituvchisi ta’limining modulli modelini bilish, tahlil qilish, anglash, amalga oshirish va ko‘ra bilish (Knowing, Analyzing, Recognizing, Doing, Seeing) modullari asosida quradi; N.M.Axmedova uning g‘oyasiga tayanib, bo‘lajak o‘qituvchini tayyor metodlar ijrochisi sifatida emas, strategik fikrlovchi sifatida tayyorlash zarurligini qayd etadi [122].

J.C.Richards modelining keyingi o‘lchamlari ham lingvomadaniy kompetensiya uchun muhim. Muallif til o‘qituvchisi identifikatsiyasini til o‘qituvchisi bo‘lish nimani anglatishini tushunish bilan bog‘laydi [58, 4–5-b.], pedagogik mulohaza yuritish ko‘nikmalarini ingliz tili o‘qituvchisiga dars uchun potensial mazmunni tahlil qilish imkonini beruvchi maxsus ko‘nikmalar sifatida tavsiflaydi [58, 5-b.], amaliyotdan nazariya chiqarishni esa o‘qitish tajribasidan kelib chiqadigan shaxsiy bilim, e’tiqod va tushunchalar tizimi sifatida izohlaydi [58, 5-b.]. Professionalizm muallif talqinida akademik ta’lim va amaliy tajriba orqali egallanadigan maxsus bilim bazasini talab

qiladi [58, 6-b.]. Ushbu o‘lchamlar lingvomadaniy kompetensiyaning kasbiy-metodik komponenti uchun asos bo‘ladi: madaniy mazmunni dars uchun tanlash va tahlil qilish pedagogik mulohaza yuritishning, o‘z lingvomadaniy-metodik faoliyatini anglash esa amaliyotdan nazariya chiqarishning xususiy ko‘rinishi hisoblanadi.

B.Kumaravadivelu modelining modullari lingvomadaniy kompetensiya komponentlarini kasbiy rivojlanish jarayoni sifatida ko‘rish imkonini beradi. Bilish moduli o‘qituvchining kasbiy bilim bazasini, tahlil qilish moduli o‘quvchilar ehtiyojlari va o‘quv materialini tahlil etish ko‘nikmasini, anglash moduli o‘qituvchining o‘zini, o‘z qadriyatlari va identifikatsiyasini anglashini, amalga oshirish moduli o‘qitish va baholash faoliyatini, ko‘ra bilish moduli esa o‘z faoliyatini turli nuqtai nazarlardan kuzatish va qayta baholashni nazarda tutadi [49]. Ushbu ketma-ketlikka tayanib, lingvomadaniy kompetensiyaning kognitiv-lingvomadaniy komponenti bilish moduliga, lingvistik-semantik komponenti tahlil qilish moduliga, motivatsion-qadriyatli komponenti anglash moduliga, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlari amalga oshirish moduliga, kasbiy-metodik komponent tarkibidagi refleksiya esa ko‘ra bilish moduliga mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Mazkur xorijiy modellar qiyosidan o‘qituvchi kompetentligining tarkibiy qismlari orasida til bilish, mazmuniy bilim va kontekstual bilim ajratilishi, madaniyat esa asosan kontekst va kasbiy jamoa madaniyati sifatida tilga olinishi ko‘rinadi. J.C.Richards modelidagi til bilish va mazmuniy bilim ingliz tili o‘qituvchisi uchun til birliklarining madaniy semantikasini ham qamrab olishi tabiiy, biroq bu tarkib modelda alohida nomlanmaydi. Demak, bilim bazasiga yo‘naltirilgan xorijiy yondashuvlar lingvomadaniy kompetensiyani kasbiy kompetentlikka kiritish uchun umumiy ramkani beradi, ammo uning ichki tuzilmasini belgilamaydi.

Yevropa ta’lim makonida til o‘qituvchisi kompetentligi me’yoriy ramkalar va refleksiv vositalar orqali tavsiflanadi. M.Kelly va M.Grenfell boshchiligidagi mualliflar jamoasi [5, 4-b.] ishlab chiqqan “Til o‘qituvchisi ta’limining Yevropa profili” to‘rt bo‘limdan – tuzilma, bilim va tushunish, strategiyalar va ko‘nikmalar hamda qadriyatlardan iborat bo‘lib, uning tarkibida madaniyatlararo va ko‘p madaniyatli muhit tajribasi, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga, tillar va madaniyatlar xilma-xilligiga, chet tillari va madaniyatlarini o‘qitish va o‘rganishning ahamiyatiga oid tayyorgarlik bandlari alohida ajratilgan. D.Newby boshchiligidagi mualliflar [7] ishlab chiqqan Bo‘lajak til o‘qituvchilari uchun Yevropa portfoliosi (EPOSTL) didaktik kompetensiyalarni kontekst, metodologiya, darsni o‘tkazish, darsni rejalashtirish, resurslar, mustaqil ta’lim va o‘rganishni baholash bo‘limlarida tavsiflaydi; metodologiya va baholash bo‘limlarida “Madaniyat” kichik bo‘limi mavjud, kontekst bo‘limida esa bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyatida til, o‘rganish, madaniyat nazariyalari va tegishli tadqiqot natijalariga tayana olishi lozimligi

deskriptor sifatida belgilangan [7]. N.M.Axmedova bu portfolio deskriptorlarini o‘z modelidagi kasbiy-metodik kompetensiyalar bilan muvofiqlashtiradi [122].

Yevropa ramkalarida madaniy tarkibning o‘qituvchi kompetentligiga kiritilishi M.Byram [28] madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli va CEFR qo‘shimcha jildi [4, 123–125-b.] plyurimadaniy kompetensiya deskriptorlari bilan nazariy jihatdan bog‘langan: o‘qituvchi o‘quvchida shakllantirishi lozim bo‘lgan sifatni o‘zi ham egallagan bo‘lishi kerak. Refleksiv amaliyot an’anasida D.Schön [63] kasb egasining harakat jarayonida fikr yuritishi g‘oyasini, M.J.Wallace [75] esa chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashning refleksiv modelini asoslaydi; L.Darling-Hammond [31, 300–314-b.] XXI asr o‘qituvchi ta’limida kurslar izchilligi va klinik amaliyotning o‘zaro integratsiyasi zarurligini ko‘rsatadi [122]. Bu tadqiqotlar kasbiy kompetentlik tarkibida refleksiv komponentning zarurligini tasdiqlaydi.

M.Byram modeli va D.K.Deardorff modeli tarkibi lingvomadaniy kompetensiya komponentlarini ajratishda bevosita tayanch bo‘ladi. M.Byram [28] madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tarkibida lingvistik, sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyalar bilan birga munosabatlar, bilimlar, talqin qilish va bog‘lash, kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari hamda tanqidiy madaniy xabardorlikni ajratadi; D.K.Deardorff [32] esa munosabatlardan bilim va ko‘nikmalarga, ulardan ichki va tashqi natijalarga o‘tuvchi piramidal tuzilmani taklif etadi. Bu modellarda munosabatlar qatlami motivatsion-qadriyatli komponentga, bilimlar kognitiv-lingvomadaniy komponentga, talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmalari lingvistik-semantik komponentga, kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari hamda samarali va o‘rinli muloqot natijasi madaniyatlararo kommunikativ komponentga mos keladi. Tanqidiy madaniy xabardorlik esa o‘qituvchi uchun darslik va o‘quv materiallaridagi madaniy mazmunni baholash ko‘nikmasi sifatida kasbiy-metodik komponentga kiradi.

Yevropa me’yoriy ramkalari va refleksiv amaliyot nazariyasini umumlashtirgan holda, xorijiy tajribada madaniy tarkib o‘qituvchi kompetentligining qadriyat, bilim va ko‘nikma qatlamlarida aniq ifoda topgani qayd etiladi: EPLTE uni qadriyatlar bo‘limida, EPOSTL esa metodologiya va baholash bo‘limlarida beradi. Shu bilan birga, bu hujjatlarda madaniy tarkib madaniyatlararo yo‘nalishda tavsiflanadi, til birliklarining madaniy semantikasi bilan ishlash esa alohida deskriptorlarga ajratilmaydi; lingvomadaniy kompetensiya tuzilmasida bu bo‘shliqni to‘ldiruvchi lingvistik-semantik komponentni ajratish zarurati shundan kelib chiqadi.

O‘zbekistonda chet tili o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi muammosi milliy metodika maktabining tayanch yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlangan. N.M.Axmedova [122] tahliliga ko‘ra, milliy an’anada J.J.Jalolov [127], G.T.Maxkamova [101], Sh.A.Atadjanova [22], D.X.Saydazimova [137] va F.M.Erkulova [34] tadqiqotlarida o‘qituvchi tayyorgarligi kompetensiya va metodik mahorat sifatida ko‘riladi. G.T.Maxkamova ingliz tili fakultetlari talabalarining

madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqqan bo‘lib, N.M.Axmedova bu ishni milliy tadqiqotlarda konsepsiya janrining chet tili ta’limi sohasida rivojlanganini ko‘rsatuvchi namuna sifatida keltiradi [122]. Sh.A.Atadjanova chet til ta’limida talabalar kasbiy malakasi nazariy bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash orqali shakllanishini ta’kidlaydi [122]. I.A.Saturova [136] mutaxassislik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-uslubiy malakalarini shakllantirishni, D.X.Saydazimova raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni, F.M.Erkulova esa raqamli texnologiyalarga asoslangan bosqichma-bosqich tayyorlash modeli orqali metodik kompetensiyani rivojlantirishni tadqiq etgan.

M.O.Karimova va D.Soyipova [45, 141–146-b.] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etib, kasbiy-gnostik kompetensiyani barcha subkompetensiyalarning mohiyatini belgilovchi asos sifatida, kasbiy-lingvistik kompetensiyani esa unga tayanuvchi va bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining asosiy professional funksiyalarini amalga oshirish imkoniyati sifatida tushuniladigan kompetensiya sifatida ko‘radi [45, 142-b.]. Mualliflar bu kompetensiya tarkibida ko‘p madaniyatli jamiyatda o‘zini anglash va madaniyatlararo o‘zaro aloqalarni amalga oshirish qobiliyatini ajratadi [45, 142-b.], G.T.Maxkamovaning [131] doktorlik tadqiqotiga tayanib kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilaydi [45, 142-b.], E.V.Timoxinaga [152] tayanib metodik kompetensiya mazmunini tavsiflaydi [45, 145-b.] hamda E.E.Hamdamovga [41, 35–41-b.] tayanib ingliz tili o‘qituvchisining madaniyatlararo kompetensiyasini o‘rganilayotgan va ona madaniyatidagi muloqot qoidalari va an’analarini qamrab oluvchi, lingvomamlakatshunoslik va lingvistik jihatlarga ajraladigan kompetensiya sifatida izohlaydi [45, 146-b.]. Bu talqin lingvomadaniy tarkibni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining ichida, ona va o‘rganilayotgan madaniyat qiyosi asosida ko‘rish zarurligini mahalliy tadqiqot materialida tasdiqlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchining til kompetensiyalariga oid mahalliy tadqiqotlar lingvomadaniy kompetensiyaning lisoniy asosini belgilash uchun bevosita ahamiyatga ega. D.T.Pardayeva [134] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish muammosini, Z.Sh.Yariyeva [139] motivatsion yondashuv asosida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining leksik kompetensiyalarini rivojlantirishni, U.U.Jumanazarov [129] esa ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini rivojlantirishni tadqiq etgan. Leksik va frazeologik birliklar til tizimida madaniy ma’no eng zich jamlangan qatlam bo‘lgani uchun bu tadqiqotlar lingvomadaniy kompetensiyaning lingvistik-semantik komponentini asoslashda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotlarning mazkur guruhi o‘zbek metodika maktabida o‘qituvchi kompetentligi asosan metodik mahorat, kasbiy malaka va til kompetensiyalari orqali tavsiflanishini ko‘rsatadi. G.T.Maxkamova tadqiqotida madaniyatlararo kompetensiya ingliz tili fakultetlari talabalari uchun konseptual darajada ishlangan bo‘lsa-da, lingvistik, leksik va frazeologik kompetensiyalarga oid ishlar bilan madaniyatlararo kompetensiya tadqiqotlari o‘rtasida tizimli aloqa o‘rnatilmagan; lingvomadaniy kompetensiya aynan shu ikki yo‘nalishni birlashtiruvchi tuzilma sifatida asoslanadi.

So‘nggi yillardagi milliy tadqiqotlarda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining alohida tarkibiy qismlari chuqur o‘rganilmoqda. D.I.Abduvaliyeva [120] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kommunikativ-metodik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirib, ta’lim texnologiyasi negizida muayyan konsepsiya va boshlang‘ich pedagogik g‘oya yotishi zarurligini qayd etadi [122]. Sh.K.Temirova [68, 194–200-b.] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini bitta kompetensiya bilan cheklab bo‘lmasligini ta’kidlaydi [122], M.R.Rahimberdiyeva [56, 172–176-b.] esa pedagogik refleksiyani rivojlantirish modelida refleksiv topshiriqlar tizimli yo‘l-yo‘riq va aniq mezonlarsiz rasmiyatchilikka aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi [122]. N.N.Qoraboyeva [55, 2883–2885-b.] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini, Sh.O.Axadova [23, 1553–1555-b.] ularning kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasini, N.A.Tuxtayeva [72, 300–303-b.] esa kasbiy-metodik tayyorgarlikni shakllantirishda “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi” fanining funksional ahamiyatini tadqiq etgan.

Talabalarning kommunikativ, madaniyatlararo, refleksiv va kognitiv tayyorgarligi masalalari M.X.Gulyamova [125], G.O.Maqsudova [52, 7–10-b.], A.A.Musayeva [132] va D.N.Baxriddinova [123] ishlarida o‘rganilgan bo‘lib, N.M.Axmedova bu tadqiqotlar tayyorgarlikning kommunikativ, madaniyatlararo, refleksiv va kognitiv tarkibiy qismlarini boyitishini, biroq ularni yagona o‘zak atrofida birlashtirish masalasi ochiq qolayotganini qayd etadi [122]. N.M.Axmedovaning o‘zi kasbiy-metodik tayyorgarlik tuzilmasini motivatsion-qadriyat, kognitiv, operatsion-faoliyat, kommunikativ-hamkorlik va refleksiv komponentlar asosida quradi va ularni o‘n ikki kasbiy-metodik kompetensiyaga ajratadi; bu kompetensiyalar qatorida “madaniyatlararo mazmunni darsga integratsiyalash” kompetensiyasi (KMK-7) alohida ajratilgan, kasbiy-metodik tayyorgarlik mazmunining yetakchi g‘oyalari orasida esa madaniyatlararo yo‘nalganlik belgilangan [122]. Malaka talablarida ham bitiruvchining kasbiy kompetensiyalari qatorida tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish va madaniy xususiyatlarini anglash, o‘quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va global fikrlash kompetentligini oshirish ko‘rsatilgan [1, 8-b.].

N.M.Axmedova modelida kasbiy-metodik tayyorgarlik komponentlari bosqichma-bosqich shakllantiriladi: birinchi kurs yo‘naltiruvchi-oshkor qilish, ikkinchi kurs konseptual-tahliliy, uchinchi kurs amaliy-konstruktiv, to‘rtinchi kurs integrativ-mustaqil bosqich sifatida belgilanadi, madaniyatlararo mazmunni darsga integratsiyalash kompetensiyasi (KMK-7) esa to‘rtinchi kursda ustuvor kompetensiyalar qatoriga kiritiladi [122]. Muallif tayyorgarlikni besh mezon bo‘yicha baholab, mezonlarni besh komponentga mos keltiradi va darajalarni mezon foizi asosida belgilaydi [122]. M.O.Rakhimov [57, 243–244-b.] madaniyatlararo kompetensiya tarkibida psixologik tayyorlik, til bilish va sotsiomadaniy bilimni ajratib, ularni motivatsion, pragmatik va kognitiv sohalarga guruhlaydi; A.Yusupov [78, 35–36-b.] esa lingvomadaniy kompetensiyani ijtimoiy ahamiyatga ega tizim sifatida o‘rganish, uni talqin qilishda tizimli-funksional yondashuvni qo‘llash va lingvistik tahlilni kognitiv komponent bilan to‘ldirish zarurligini ta’kidlaydi. Bu qarashlar lingvomadaniy kompetensiyani komponentli tizim sifatida qurish va har bir komponentni mezon bilan muvofiqlashtirish yo‘nalishi mahalliy metodikada ham qaror topayotganini ko‘rsatadi.

Keyingi yillardagi mahalliy tadqiqotlar tahlilidan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining milliy modellarida madaniy tarkib ikki shaklda mavjudligi aniqlanadi: kasbiy-metodik modellarda u madaniyatlararo mazmunni darsga integratsiyalash ko‘nikmasi sifatida, me’yoriy hujjatlarda esa tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini bilish va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish talabi sifatida beriladi. Ikkala holatda ham madaniy tarkib kasbiy kompetentlikning bir bandi bilan ifodalanadi, uning motivatsion, bilim, lisoniy, kommunikativ va metodik qatlamlari esa alohida tavsiflanmaydi. Bu holat lingvomadaniy kompetensiyani kasbiy kompetentlikning yaxlit tarkibiy qismi sifatida, o‘z ichki tuzilmasi bilan asoslash zarurligini ko‘rsatadi.

Uchala guruh modellarini qiyoslash lingvomadaniy kompetensiyaning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligi tarkibidagi o‘rnini quyidagicha belgilash imkonini beradi. Zh.V.Demyanova taklif etgan iyerarxiya bo‘yicha u chet tilidagi kommunikativ kompetensiya bilan uzviy bog‘liq; A.K.Markova tasnifi bo‘yicha u maxsus va ijtimoiy kompetentlik oralig‘ida joylashadi; J.C.Richards modeli bo‘yicha til bilish, mazmuniy va kontekstual bilim tarkibiga kiradi; N.M.Axmedova modeli bo‘yicha esa kasbiy-metodik kompetensiyalar tizimida madaniyatlararo mazmunni darsga integratsiyalash ko‘nikmasi orqali namoyon bo‘ladi. Demak, lingvomadaniy kompetensiya kasbiy kompetentlikning bir nechta komponentlarini kesib o‘tuvchi integrativ kompetensiya hisoblanadi: u til va madaniyatni egallash (fan bo‘yicha tayyorgarlik), madaniyatlararo muloqot (kommunikativ tayyorgarlik) va madaniy mazmunni o‘qitish (metodik tayyorgarlik) tarkiblarini birlashtiradi. Shu sababli uning

tuzilmasi ham ushbu uch tarkibni hamda ularni harakatga keltiruvchi motivatsion-qadriyatli asos va ularni ta’minlovchi bilim asosini qamrab olishi lozim.

Lingvomadaniy kompetensiya tarkibini me’yoriy talablar bilan muvofiqlashtirish ham zarur. Malaka talablarida bitiruvchining ma’naviy-ma’rifiy faoliyatiga oid talablar qatorida o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, o‘z yurtining tarixiy merosi, qadriyatlari, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo‘lini anglashga yordam berish ko‘rsatilgan [1, 7-b.]; kasbiy kompetensiyalar qatorida esa tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish va madaniy xususiyatlarini anglash, o‘quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarning madaniy kelib chiqishi va til o‘rganish tajribasidagi farqlarni e’tiborga olish [1, 8-b.], ta’limiy va lingvistik o‘quv materiallarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda samarali qo‘llash, jamiyat ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o‘ziga xosliklari va milliy tarbiya qonuniyatlarini hisobga olgan holda ko‘p madaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash talablari belgilangan [1, 8–9-b.]. Bu talablar lingvomadaniy kompetensiyaning barcha besh komponentida o‘z aksini topadi: milliy merosni anglash motivatsion-qadriyatli komponentda, madaniyatni o‘rganish kognitiv-lingvomadaniy komponentda, lingvistik o‘quv materiallari bilan ishlash lingvistik-semantik komponentda, muloqot etiketi va madaniyatlararo muloqot madaniyatlararo kommunikativ komponentda, ko‘p madaniyatli muhitda kasbiy faoliyatni tashkil etish esa kasbiy-metodik komponentda.

Lingvomadaniy kompetensiya tuzilmasini belgilashda bir qator metodologik talablar hisobga olinadi. Tuzilma 1.1-§ da asoslangan mualliflik ta’rifiga mos kelishi, ya’ni madaniy ma’nolarni anglash, o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyoslab talqin qilish, muloqotda qo‘llash va metodik jihatdan qayta ishlash qobiliyatlarini to‘liq qamrab olishi lozim. Har bir komponent mustaqil mazmunga ega bo‘lishi va boshqa komponentni takrorlamasligi, shu bilan birga, ular birgalikda yaxlit tizim hosil qilishi kerak. Komponentlar o‘lchanadigan bo‘lishi, ya’ni har biri uchun kuzatiladigan va baholanadigan ko‘rsatkichlar belgilanishi, bu ko‘rsatkichlar esa tajriba-sinov ishining mezonlari sifatida qo‘llanishi talab etiladi. Nihoyat, tuzilma bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘lishi, ya’ni tarjimon yoki nofilolog talabaning tegishli kompetensiyasidan farqlanishi lozim. Shu talablar asosida lingvomadaniy kompetensiya tarkibida beshta komponent ajratiladi.

Tuzilmani tavsiflashda “komponent”, “mezon” va “ko‘rsatkich” tushunchalari farqlanadi. Komponent lingvomadaniy kompetensiyaning nisbatan mustaqil tarkibiy qismi bo‘lib, uning mazmunini anglatadi; mezon komponent rivojlanganligini baholash uchun asos bo‘ladigan belgi; ko‘rsatkich esa mezonning kuzatiladigan va o‘lchanadigan ifodasidir. Tadqiqotda har bir komponentga bitta shu nomdagi mezon mos qo‘yiladi, har bir mezon esa beshta ko‘rsatkich orqali aniqlanadi. Bunday

yondashuv Zh.V.Demyanova [145, 17-b.] va N.M.Axmedova [122] tadqiqotlarida qo‘llangan komponent va mezon muvofiqligi tamoyiliga tayanadi hamda nazariy tuzilmani bevosita diagnostika vositalariga aylantirish imkonini beradi. Ko‘rsatkichlarni tanlashda ularning kuzatiluvchanligi, bir-birini takrorlamasligi va bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liqligi hisobga olinadi.

Motivatsion-qadriyatli komponent lingvomadaniy kompetensiyaning boshlang‘ich va harakatlantiruvchi asosi hisoblanadi. U bo‘lajak o‘qituvchining ingliz tilida so‘zlashuvchi xalqlar madaniyatiga va o‘z milliy madaniyatiga qiziqishi, ularga hurmat va ochiqlik munosabatini, madaniy farqlarga nisbatan baho berishdan tiyilish va noaniqlikka bardosh berish qobiliyatini hamda lingvomadaniy bilimning kasbiy ahamiyatini anglashini qamrab oladi. Komponentning nazariy asosini M.Byramning munosabatlar (savoir être) tarkibi [28], D.K.Deardorff modelining hurmat, ochiqlik va qiziquvchanlikdan iborat asosiy qatlami [32], Zh.V.Demyanova ajratgan motivatsion komponent [145, 11-b.] va A.K.Markova tasnifidagi individual kompetentlik [108] tashkil etadi. M.O.Rakhimov lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning maqsadini o‘rganuvchida o‘z milliy kelib chiqishini chuqur anglash, milliy madaniyatning jahon madaniyatlari orasidagi o‘rnini tushunish va o‘rganilayotgan til xalqining ma’naviy qadriyatlari bilan tanishishni birlashtirishda ko‘radi [57, 241–242-b.]; bu qoida komponentning qadriyatli tarkibiga milliy o‘zlikni anglashni kiritishni asoslaydi.

Motivatsion-qadriyatli komponent rivojlanganligining ko‘rsatkichlari sifatida ingliz va o‘zbek madaniyatlariga barqaror qiziqish va ularni o‘rganishga ichki motivatsiya, madaniy farqlarga ochiq va hurmatli munosabat, stereotiplardan xoli baholash, o‘z milliy madaniy o‘zligini anglash va qadrlash, lingvomadaniy bilimni kasbiy faoliyat uchun zarur deb bilish hamda mustaqil lingvomadaniy izlanishga intilish belgilanadi. Bu komponent boshqa komponentlarning rivojlanish sur’atini belgilaydi: madaniyatga qiziqmagan talaba madaniy bilimni faqat imtihon materiali sifatida o‘zlashtiradi va uni muloqot hamda o‘qitish faoliyatiga ko‘chira olmaydi.

Kognitiv-lingvomadaniy komponent lingvomadaniy kompetensiyaning bilim asosini tashkil etadi. U ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar tarixi, an’analari, urf-odatlari, ijtimoiy institutlari va qadriyatlari haqidagi bilimlarni, fon bilimlar va realiyalarni, ingliz madaniyatining kalit tushunchalari va madaniy konseptlarini, lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalarini hamda o‘zbek madaniyatining tegishli hodisalari haqidagi qiyosiy bilimlarni qamrab oladi. Komponentning nazariy asosini E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarovning lingvostranovedeniye konsepsiyasi [82], V.V.Vorobyovning lingvomadaniy kompetensiyani madaniy qadriyatlarning til vositasida ifodalangan tizimini bilish va anglash sifatidagi talqini [85, 189-b.] hamda A.Wierzbicka asoslagan madaniy kalit so‘zlar nazariyasi [76] tashkil etadi. M.A.Sich ajratgan intramadaniy va madaniyatlararo kompetentlik hamda

konvensional va institutsional bilimlar [112] ushbu komponentning tarkibiy qatlamlarini belgilaydi: talaba o‘rganilayotgan madaniyat bilan bir qatorda o‘z madaniyatining me’yor va an’analarini ham tizimli bilishi lozim. “Kognitiv-lingvomadaniy” nomi S.S.Kunanbayeva asoslagan kognitiv-lingvomadaniy metodologiya [96] bilan ham mos keladi va madaniy bilim alohida faktlar yig‘indisi sifatida emas, til orqali shakllanadigan tushunchalar tizimi sifatida o‘zlashtirilishini ifodalaydi.

Kognitiv-lingvomadaniy komponent rivojlanganligining ko‘rsatkichlari sifatida ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar tarixi, an’analari va ijtimoiy hayotiga oid bilimlarning tizimliligi va to‘liqligi, realiya va fon bilimlarni bilish darajasi, ingliz madaniyatining kalit tushunchalari va madaniy konseptlarini tushunish, lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalarini (lingvokulturema, konsept, realiya, lakuna) bilish hamda o‘zbek madaniyatining qiyoslanadigan hodisalari haqidagi bilimlarning anglanganligi belgilanadi. Zh.V.Demyanova bilish mezonini bilimlarning tizimliligi, to‘liqligi va anglanganligi ko‘rsatkichlari orqali aniqlagani [145, 17-b.] bu ko‘rsatkichlarni tanlashning metodik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Lingvistik-semantik komponent lingvomadaniy kompetensiyaning lisoniy o‘zagi bo‘lib, uni madaniyatlararo kompetensiyadan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. U ingliz tili birliklari – so‘z, frazeologizm, idioma, maqol, nutq etiketi formulasi va autentik matn tarkibida kodlangan madaniy ma’noni aniqlash, leksik birlikning denotativ va konnotativ ma’nolarini farqlash, frazeologizmning madaniy-tarixiy motivini izohlash, ekvivalentsiz leksika va lakunalarni aniqlash hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobil birliklarni madaniy semantika jihatidan qiyoslash qobiliyatini qamrab oladi. Komponentning nazariy asosini 1.1-§ da tahlil etilgan qarashlar tashkil etadi: A.Yusupov lingvokulturologik kompetensiya aynan til elementlari va madaniy me’yorlar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro bog‘liqlikka urg‘u berishini [78, 34-b.] va “usta” lingvokulturemasining denotativ hamda konnotativ ma’nolari matn turiga qarab o‘zgarishini ko‘rsatadi [78, 36-b.]; M.O.Rakhimov o‘rganuvchi lisoniy belgining semantik mazmunini aniqlay olishi va uni so‘z tanlovining assotsiativ motivi bilan bog‘lay olishi lozimligini ta’kidlaydi [57, 238-b.]. M.A.Sich ajratgan semiotik va lingvistik komponentlar [112] ham madaniy ramzlar va tilning ijtimoiy variantlarini egallashni nazarda tutib, ushbu komponent mazmuniga mos keladi.

Lingvistik-semantik komponentning alohida ajratilishi ikki holat bilan asoslanadi. Til o‘qituvchisi kompetentligining xorijiy modellarida til bilish va mazmuniy bilim ajratilgan [58, 3-b.], ammo madaniy semantika bilan ishlash alohida tavsiflanmaydi; Yevropa ramkalarida madaniy tarkib asosan madaniyatlararo yo‘nalishda beriladi [5; 7]. Shu bilan birga, D.T.Pardayeva, Z.Sh.Yariyeva va U.U.Jumanazarov tadqiqotlari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvistik, leksik va

frazeologik kompetensiyalari alohida rivojlantiriladigan tarkib ekanini koʻrsatadi [134; 139; 129]. Lingvistik-semantik komponent ushbu ikki yoʻnalishni kesishgan nuqtada joylashadi: u til kompetensiyalari doirasida madaniy maʼnoni tahlil qilish koʻnikmasini shakllantiradi.

Lingvistik-semantik komponent rivojlanganligining koʻrsatkichlari sifatida autentik matnda madaniy belgilangan birliklarni aniqlay olish, leksik birlikning denotativ va konnotativ maʼnolarini farqlash, frazeologizm va idiomalarning madaniy-tarixiy motivini izohlash, ekvivalentsiz leksika va lakunalarni topish va ularni oʻzbek tiliga oʻgirish yoʻllarini tanlash, ingliz va oʻzbek tillaridagi muqobil birliklarni madaniy semantika jihatidan qiyoslash hamda kontekstga qarab madaniy maʼnoning oʻzgarishini tushuntirish belgilanadi. Masalan, “break a leg” iborasini toʻgʻri tushunish uning ortidagi teatr irimini bilishni talab qilsa [57, 238-b.], avstraliya inglizchasidagi “mate” soʻzi esa avstraliya madaniyatining kalit tushunchasi sifatida oʻzbek tilidagi “doʻst” soʻzi bilan toʻliq mos kelmaydigan madaniy mazmun tashiydi [76].

Madaniyatlararo kommunikativ komponent lingvomadaniy bilim va koʻnikmalarning real muloqotda namoyon boʻlishini taʼminlaydi. U nutq etiketi formulalari va muloqot strategiyalarini muloqot vaziyati va suhbatdosh madaniyatiga mos tanlash, noverbal vositalarning madaniy maʼnosini hisobga olish, madaniyatlararo tushunmovchilikni aniqlash va bartaraf etish, ingliz tilida oʻz madaniyatini chet ellik suhbatdoshga taqdim etish hamda turli madaniyat vakillari oʻrtasida vositachilik qilish qobiliyatlarini qamrab oladi. Komponentning nazariy asosini M.Byramning talqin qilish va bogʻlash, kashf etish va oʻzaro taʼsir koʻnikmalari [28], D.K.Deardorff modelidagi samarali va oʻrinli muloqot natijasi [32] hamda CEFR qoʻshimcha jildidagi plyurimadaniy repertuarga tayanish deskriptorlari [4, 124–125-b.] tashkil etadi. E.Sh.Kholmatova boʻlajak chet tili oʻqituvchilari kontingentida oʻzbek va rus ishtirokchilarining kommunikativ strategiyalari madaniy qadriyatlar taʼsirida farqlanishini aniqlagani [46, 158-b.] va A.S.Mamontov paralingvistik vositalarning milliy-madaniy jihatdan belgilanganini koʻrsatgani [98, 149–150-b.] ushbu komponentning amaliy mazmunini aniqlashtiradi.

Madaniyatlararo kommunikativ komponent rivojlanganligining koʻrsatkichlari sifatida nutq etiketi formulalarini muloqot vaziyati va suhbatdosh maqomiga mos qoʻllash, madaniy jihatdan oʻrinli muloqot strategiyalarini tanlash, noverbal vositalarning madaniy maʼnosini hisobga olish, madaniyatlararo tushunmovchilik sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish, ingliz tilida oʻzbek madaniyati hodisalarini izohlab taqdim etish hamda madaniyatlararo muloqotda vositachilik qila olish belgilanadi. Bu komponent malaka talablarida belgilangan madaniyatlararo muloqot koʻnikmalarini shakllantirish talabining [1, 8-b.] boʻlajak oʻqituvchining oʻzida ifodalanishini anglatadi: oʻquvchida bu koʻnikmani shakllantirish uchun oʻqituvchi uni oʻzi egallagan boʻlishi lozim.

Kasbiy-metodik komponent lingvomadaniy kompetensiyani bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga yo‘naltiradi va uni tarjimon yoki nofilolog talabaning tegishli kompetensiyasidan farqlaydi. U lingvomadaniy materialni o‘quvchilar yoshi, til darajasi va ehtiyojlariga mos tanlash, uni o‘quv topshiriqlariga aylantirish, madaniy mazmunni ingliz tili darsiga integratsiyalash, o‘quvchilarning lingvomadaniy rivojini kuzatish va baholash hamda o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Komponentning nazariy asosini N.M.Axmedova modelidagi madaniyatlararo mazmunni darsga integratsiyalash kompetensiyasi (KMK-7) [122], EPOSTL ning metodologiya va baholash bo‘limlaridagi “Madaniyat” kichik bo‘limlari [7], A.S.Mamontov ishlab chiqqan lingvokulturologik materialni tanlash mezonlari – tipiklik, kommunikativ qimmat, mamlakatshunoslik qimmati va stereotipdan himoyalanganlik [98, 150–151-b.] hamda D.Schön va M.J.Wallace asoslagan refleksiv amaliyot g‘oyasi [63; 75] tashkil etadi. Sh.K.Temirova kasbiy-subyektiv pozitsiyani bitta kompetensiya bilan cheklab bo‘lmasligini [68], M.R.Rahimberdiyeva esa refleksiv topshiriqlar aniq mezonlarsiz rasmiyatchilikka aylanishini [56] ko‘rsatgani bu komponentda refleksiyani aniq ko‘rsatkichlar bilan ta’minlash zarurligini asoslaydi.

Kasbiy-metodik komponent rivojlanganligining ko‘rsatkichlari sifatida lingvomadaniy materialni o‘quvchilar yoshi va til darajasiga mos tanlash, madaniy mazmunni o‘quv topshiriqlari va dars bosqichlariga integratsiyalash, madaniy taqqoslash topshiriqlarini loyihalash, o‘quvchilarning lingvomadaniy bilim va ko‘nikmalarini baholash vositalarini tanlash, darslik va autentik materiallardagi madaniy mazmunni tanqidiy baholash hamda o‘z lingvomadaniy-metodik faoliyatini refleksiv tahlil qilish belgilanadi. Bu ko‘rsatkichlar komponentni uch kasbiy faoliyat – tanlash, loyihalash va baholash bilan bog‘laydi, refleksiv tahlil esa ularning barchasini birlashtiruvchi integrativ ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.

Lingvomadaniy kompetensiya komponentlarining mazmuni va rivojlanganlik ko‘rsatkichlari 1.2-jadvalda umumlashtiriladi. Jadvalda har bir komponentga mos tajriba-sinov mezoni ko‘rsatilgan bo‘lib, mezonlar nomi komponentlar nomi bilan aynan bir xil saqlanadi; bu esa nazariy tuzilma, metodik model va diagnostika vositalari o‘rtasida terminologik izchillikni ta’minlaydi.

1.2-jadval

Lingvomadaniy kompetensiya komponentlarining mazmuni, mezonlari va ko‘rsatkichlari

Komponent	Mazmuni	Mezon	Ko‘rsatkichlar

Motivatsion-qadriyatli	ingliz va o‘zbek madaniyatlariga qiziqish, hurmat va ochiqlik; milliy o‘zlikni anglash; lingvomadaniy bilimning kasbiy ahamiyatini anglash [28; 32; 57, 241–242-b.]	motivatsion-qadriyatli mezon	– madaniyatlarni o‘rganishga ichki motivatsiya; – madaniy farqlarga ochiq, stereotipsiz munosabat; – milliy madaniy o‘zlikni anglash; – lingvomadaniy bilimni kasbiy zarur deb bilish; – mustaqil lingvomadaniy izlanishga intilish
Kognitiv-lingvomadaniy	ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar tarixi, an’analari, qadriyatlari; realiya va fon bilimlar; madaniy konseptlar; o‘zbek madaniyati bilan qiyosiy bilimlar [82; 85, 189-b.; 112]	kognitiv-lingvomadaniy mezon	– madaniy bilimlarning tizimliligi va to‘liqligi; – realiya va fon bilimlarni bilish; – kalit tushuncha va konseptlarni tushunish; – lingvokulturologiya tushunchalarini bilish; – qiyosiy bilimlarning anglanganligi
Lingvistik-semantik	til birliklari va autentik matnda kodlangan madaniy ma’noni aniqlash, izohlash va o‘zbek tilidagi muqobil bilan qiyoslash [78, 34–36-b.; 57, 238-b.]	lingvistik-semantik mezon	– madaniy belgilangan birliklarni aniqlash; – denotativ va konnotativ ma’noni farqlash; – frazeologizm motivini izohlash; – lakuna va ekvivalentsiz leksikani topish; – ingliz va o‘zbek birliklarini qiyoslash

Madaniyatlararo kommunikativ	lingvomadaniy bilimni muloqot vaziyati va suhbatdosh madaniyatiga mos qo‘llash; vositachilik [28; 4, 124–125-b.; 46, 158-b.]	madaniyatlararo kommunikativ mezon	– nutq etiketini vaziyatga mos qo‘llash; – o‘rinli muloqot strategiyasini tanlash; – noverbal vositalarni hisobga olish; – tushunmovchilikni aniqlash va bartaraf etish; – o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etish
Kasbiy-metodik	lingvomadaniy materialni tanlash, topshiriqqa aylantirish, darsga integratsiyalash, baholash va refleksiya [122; 7; 98, 150–151-b.]	kasbiy-metodik mezon	– materialni o‘quvchi darajasiga mos tanlash; – madaniy mazmunni dars bosqichlariga integratsiyalash; – madaniy taqqoslash topshirig‘ini loyihalash; – lingvomadaniy natijani baholash; – o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish


1.2-jadvaldagi ko‘rsatkichlar har bir komponentni bilish, munosabat va faoliyat darajalarida tavsiflaydi. Motivatsion-qadriyatli komponent ko‘rsatkichlari asosan munosabat va qadriyat yo‘nalishini, kognitiv-lingvomadaniy komponent ko‘rsatkichlari bilimlarning tizimliligi va anglanganligini, lingvistik-semantik komponent ko‘rsatkichlari til birliklari bilan tahliliy ishlash ko‘nikmalarini, madaniyatlararo kommunikativ komponent ko‘rsatkichlari muloqotdagi amaliy harakatlarni, kasbiy-metodik komponent ko‘rsatkichlari esa o‘qituvchilik faoliyatidagi harakatlarni o‘lchaydi. Ko‘rsatkichlarning bunday taqsimlanishi Zh.V.Demyanova ajratgan bilish, praksiologik va motivatsion mezonlar mantig‘iga [145, 17-b.] mos keladi va uni bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq ikki yangi mezon – lingvistik-semantik va kasbiy-metodik mezonlar bilan to‘ldiradi. Har bir mezon bo‘yicha rivojlanganlik to‘rt daraja bo‘yicha baholanadi; darajalarning tavsifi va diagnostika vositalari tajriba-sinov ishlarida belgilanadi.

Lingvomadaniy kompetensiya komponentlari o‘zaro bog‘liq tizim hosil qiladi va ularning aloqasi 1.1-rasmda tasvirlanadi. Tuzilmaning asosini motivatsion-qadriyatli komponent tashkil etadi: u qolgan komponentlarning shakllanishi uchun ichki turtki va qadriyat yo‘nalishini beradi. Kognitiv-lingvomadaniy va lingvistik-

semantik komponentlar tuzilmaning mazmuniy o‘zagini hosil qiladi: birinchisi madaniyat haqidagi bilimni, ikkinchisi bu bilimning til birliklarida qanday kodlanganini aniqlash ko‘nikmasini ta’minlaydi, ular o‘zaro to‘ldiruvchi aloqada bo‘ladi, chunki madaniy bilimsiz madaniy semantikani aniqlab bo‘lmaydi, til birliklari tahlilisiz esa madaniy bilim lisoniy ifodasidan ajralib qoladi. Madaniyatlararo kommunikativ komponent mazmuniy o‘zakni real muloqotga ko‘chiradi, kasbiy-metodik komponent esa barcha komponentlar natijasini o‘qituvchilik faoliyatiga aylantiradi va refleksiya orqali qolgan komponentlarga qayta aloqa beradi.

Komponentlarning o‘zaro ta’sirini bitta lingvomadaniy birlik misolida ko‘rish mumkin. M.O.Rakhimov ingliz madaniyatining o‘ziga xos konseptualizatsiya qilingan tushunchalari qatorida “fair play” tushunchasini keltiradi [57, 238-b.]. Bo‘lajak o‘qituvchi bu tushunchani darsga olib kirishi uchun avvalo ingliz madaniyatining qadriyatiga qiziqish va uni o‘z madaniyatidagi adolat va halollik haqidagi tasavvurlar bilan hurmat asosida qiyoslashga tayyorlik (motivatsion-qadriyatli komponent), tushunchaning sport va ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqidagi bilim (kognitiv-lingvomadaniy komponent), iboraning qo‘llanish kontekstlari va o‘zbek tilidagi muqobillari bilan semantik farqini aniqlash ko‘nikmasi (lingvistik-semantik komponent), uni muloqotda o‘rinli qo‘llash va suhbatdoshga tushuntirish qobiliyati (madaniyatlararo kommunikativ komponent) hamda o‘quvchilar uchun mos topshiriq tuzib, natijani baholash ko‘nikmasi (kasbiy-metodik komponent) talab etiladi. Misoldan ko‘rinadiki, komponentlar alohida-alohida emas, bitta kasbiy harakat doirasida birgalikda faollashadi; ularning har biri yetishmagan holatda lingvomadaniy mazmunni o‘qitish to‘liq amalga oshmaydi.

Lingvomadaniy kompetensiya tuzilmasida ingliz va o‘zbek madaniyatlari o‘rtasidagi muvozanat alohida ahamiyatga ega. A.V.Getmanskaya madaniyatlar polilogi kontekstidagi ta’limni madaniyatlar dialogi kontekstidagi ta’limga nisbatan yuqoriroq bosqich sifatida asoslaydi [143], malaka talablari esa bitiruvchidan bir vaqtda tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini anglash va o‘quvchilarda o‘z yurtining tarixiy merosi va qadriyatlarini anglashga yordam berishni talab qiladi [1, 7–8-b.]. Shu sababli tuzilmaning har bir komponentida qiyosiy tarkib saqlanadi: motivatsion-qadriyatli komponentda milliy o‘zlikni anglash, kognitiv-lingvomadaniy komponentda qiyosiy bilimlar, lingvistik-semantik komponentda ingliz va o‘zbek birliklarini qiyoslash, madaniyatlararo kommunikativ komponentda o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etish, kasbiy-metodik komponentda esa madaniy taqqoslash topshiriqlarini loyihalash ko‘rsatkichi sifatida. Bu yondashuv ingliz madaniyatini o‘zlashtirish o‘z madaniyatidan uzoqlashishga emas, uni yangi nuqtai nazardan anglashga olib kelishini ta’minlaydi.



1.1-rasm. Lingvomadaniy kompetensiya komponentlarining tuzilmasi

1.1-rasmda ko‘rsatilganidek, lingvomadaniy kompetensiya bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligi tarkibida joylashadi va ingliz hamda o‘zbek tilmadaniyatlari qiyosiga tayanadi. Tuzilmadagi aloqalar chiziqli emas, siklik xususiyatga ega: kasbiy-metodik faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklar refleksiya orqali anglanib, talabaning yangi bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, kognitiv-lingvomadaniy va lingvistik-semantik komponentlarni boyitadi. Bu xususiyat A.K.Markova tasnifidagi shaxsiy va individual kompetentlik – o‘z-o‘zini rivojlantirish vositalarini egallash va kasbiy o‘sishga tayyorlik [108] bilan, refleksiv amaliyot nazariyasi bilan [63; 75] hamda B.Kumaravadivelu modelidagi amaliyotdan anglashga o‘tish g‘oyasi bilan [49] mos keladi.

Ajratilgan beshta komponent 1.1-§ da tahlil etilgan nazariy yondashuvlarni yaxlit tizimga birlashtiradi. MDH lingvokulturologik an’anasi asosan kognitiv-lingvomadaniy va lingvistik-semantik komponentlarda, xorijiy madaniyatlararo ta’lim an’anasi motivatsion-qadriyatli va madaniyatlararo kommunikativ komponentlarda, til o‘qituvchisi ta’limi nazariyasi va mahalliy kasbiy-metodik tadqiqotlar esa kasbiy-metodik komponentda o‘z ifodasini topadi. Shu tariqa lingvomadaniy kompetensiya tuzilmasi birorta yondashuvning tarkibini to‘liq takrorlamaydi, balki ularning har biridan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan tarkibni oladi.

Komponentlar tuzilmasi lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini loyihalash uchun bevosita oqibatlarga ega. Har bir komponentga mos topshiriqlar turi ajratiladi: motivatsion-qadriyatli komponent uchun madaniy refleksiya va qadriyat tahliliga oid topshiriqlar, kognitiv-lingvomadaniy komponent uchun realiya va madaniy konseptlarni o‘rganishga oid topshiriqlar, lingvistik-semantik komponent uchun frazeologizm, kalit so‘z va autentik matn tahliliga oid topshiriqlar, madaniyatlararo kommunikativ komponent uchun nutq etiketi, rolli o‘yin va keys topshiriqlari, kasbiy-metodik komponent uchun esa madaniy mazmunli dars fragmentini loyihalash va mikroo‘qitish topshiriqlari. Bu topshiriqlar tizimi monografiyaning uchinchi bobida batafsil ishlab chiqiladi, ularning samaradorligi esa tajriba-sinov ishida aynan shu besh mezon bo‘yicha tekshiriladi.

Komponentlarning rivojlanish ketma-ketligi ham bakalavriatning ikkinchi bosqichi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda talabalarning ingliz tilini egallash darajasi madaniy semantika bilan ishlash uchun yetarli bo‘ladi, ammo pedagogik amaliyot hali boshlanmagan bo‘ladi; shu sababli kasbiy-metodik komponent dastlab dars fragmentlarini loyihalash va mikroo‘qitish shaklida, kognitiv-lingvomadaniy va lingvistik-semantik komponentlar esa amaliy ingliz tili mashg‘ulotlari mazmuni orqali rivojlantiriladi. N.M.Axmedova modelida ham ikkinchi kurs konseptual-tahliliy bosqich sifatida belgilangan bo‘lib, unda keyslarni tahlil qilish, ta’lim kontekstini o‘rganish va refleksiv kundalik yuritish ustuvor vazifa sanaladi [122]; bu lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun ham tahliliy topshiriqlarning ustuvorligini asoslaydi.

Paragrafda o‘tkazilgan tahlil lingvomadaniy kompetensiyaning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligi tarkibidagi o‘rni va tuzilmasi haqida quyidagi nazariy qoidalarni asoslash imkonini beradi. Til o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining MDH modellarida kompetentlik maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual turlarga, kasbiy-metodik faoliyat funksiyalariga hamda lingvomadaniy kompetentlikning intramadaniy va madaniyatlararo qatlamlariga ajratiladi; xorijiy modellarda u bilim bazasi, o‘qituvchi kognitsiyasi va refleksiv amaliyot orqali, Yevropa me’yoriy ramkalarida esa qadriyat, bilim va ko‘nikma bo‘limlari orqali tavsiflanadi; milliy modellarda madaniy tarkib madaniyatlararo mazmunni darsga integratsiyalash ko‘nikmasi va me’yoriy talablar ko‘rinishida mavjud. Lingvomadaniy kompetensiya kasbiy kompetentlikning fan bo‘yicha, kommunikativ va metodik tayyorgarlik tarkiblarini kesib o‘tuvchi integrativ kompetensiya bo‘lib, uning tuzilmasi motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlardan iborat. Har bir komponent mustaqil mazmun va ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ular tajriba-sinov ishining shu nomdagi besh mezoniga aylanadi; komponentlar o‘rtasidagi siklik aloqa esa lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining refleksiv xususiyatini

belgilaydi. Mazkur tuzilma keyingi paragrafda me’yoriy-dasturiy hujjatlarni lingvomadaniy kompetensiya nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun mezon sifatida qo‘llanadi.

1.3-§. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashning me’yoriy-dasturiy ta’minoti tahlili

Lingvomadaniy kompetensiyaning mazmuni va tarkibiy tuzilmasi oldingi paragraflarda nazariy jihatdan asoslandi, biroq bu kompetensiya oliy ta’lim muassasasida qanday mazmun, hajm va natija talablari bilan rivojlantirilishi davlat ta’lim standarti, ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va fan dasturlarida belgilanadi. Me’yoriy-dasturiy ta’minot pog‘onali tizim sifatida amal qiladi: davlat ta’lim standarti ta’lim darajasi va yo‘nalishlar tasnifini, malaka talablari bitiruvchining kasbiy vazifalari, kompetensiyalari va fanlar katalogini, fan dasturi esa aniq o‘quv fanining maqsadi, mavzulari, soatlari, topshiriqlari va baholash tartibini belgilaydi. Lingvomadaniy kompetensiya ana shu uch pog‘onadan qaysi birida va qay darajada aks etganini aniqlash takomillashtirilgan metodikaning me’yoriy asosini belgilash hamda uning qaysi bo‘shliqlarni to‘ldirishi lozimligini ko‘rsatish uchun zarur. Mazkur paragrafda tahlil qat’iy ketma-ketlikda olib boriladi: avval chet tillar bo‘yicha va oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari, so‘ng 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari, keyin ochiq manbalarda e’lon qilingan fan dasturlari ko‘rib chiqiladi; uchala hujjat 1.2-paragrafda asoslangan beshta komponent bo‘yicha qiyoslanadi va 1.3-jadvalda umumlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Konsepsiyaning 3-bobi 1-§ ida oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qatorida “gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta’lim maktablariga xorijiy tillarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish” vazifasi belgilangan [11]. Ushbu vazifa pedagogik yo‘nalishlarning o‘quv reja va dasturlarini qayta ko‘rib chiqishni bevosita talab qiladi, demak, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashning amaldagi me’yoriy-dasturiy hujjatlarini lingvomadaniy kompetensiya nuqtai nazaridan tahlil qilish davlat siyosatida qo‘yilgan talabni ilmiy asosda amalga oshirishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Konsepsiyaning muammolar tahliliga

bag‘ishlangan qismida professor-o‘qituvchilarning xorijiy tillarni bilish darajasi pastligi kamchilik sifatida qayd etilgani [11] ham chet tili o‘qituvchisi tayyorgarligi sifatini me’yoriy jihatdan aniqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlilning mezonlari sifatida 1.2-jadvalda belgilangan beshta komponent – motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlar olinadi. Har bir hujjatda ushbu komponentlarga mos keluvchi talablar mavjudligi, ularning ifodalanish shakli (maqsad, kompetensiya, mavzu, topshiriq yoki baholash mezoni sifatida), darajasi va o‘lchanuvchanligi aniqlanadi. Bunday yondashuv Yevropa ta’lim makonida til o‘qituvchisi tayyorgarligini tavsiflashda qo‘llanadigan ramkaviy hujjatlar tajribasiga tayanadi: “Til o‘qituvchisi ta’limining Yevropa profili” o‘qituvchi tayyorgarligini tuzilma, bilim va tushunish, strategiyalar va ko‘nikmalar hamda qadriyatlar bo‘limlari bo‘yicha tavsiflaydi [5, 4-b.], bo‘lajak til o‘qituvchilari uchun Yevropa portfoliosi esa didaktik kompetensiyalarni deskriptorlar shaklida beradi va metodologiya hamda baholash bo‘limlarida “Madaniyat” kichik bo‘limini alohida ajratadi [7]. Demak, me’yoriy hujjatning sifati undagi madaniy tarkibning mavjudligi bilangina emas, uning kompetensiya deskriptori va baholash mezoni darajasida aniq ifodalanganligi bilan ham belgilanadi. Ushbu talab paragraf davomida har uchala hujjatga nisbatan qo‘llanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida chet tillar bo‘yicha talablarni yagona hujjatda birinchi marta tizimli belgilagan me’yoriy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha Davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-son qarori bo‘lib, u 2013-yil 20-maydan kuchga kirgan va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-avgustdagi 511-son qarori bilan 2021-yil 13-avgustdan kuchini yo‘qotgan [18]. Hujjat amalda bo‘lmasa-da, u chet tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv va Umumevropa til kompetensiyasi darajalarining milliy me’yoriy tizimga kiritilishini boshlab bergani sababli tarixiy-qiyosiy asos sifatida tahlil qilinadi. Standartda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi CEFR darajalari bo‘yicha belgilangan: B2 darajasi oliy ta’limning nofilologik yo‘nalishlari bakalavriati bitiruvchilari hamda til fakultetlarida ikkinchi chet tilini o‘rganuvchi bakalavrlar uchun, C1 darajasi esa til fakultetlarining bakalavriat va magistratura bitiruvchilari uchun nazarda tutilgan [18]. Shunday qilib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun asosiy chet tili bo‘yicha bitiruv darajasi C1 sifatida me’yorlashtirilgan edi.

Mazkur standartda madaniy tarkib kommunikativ kompetensiyaning sotsiolingvistik tarkibi ichida joylashtirilgan. Hujjatda sotsiolingvistik kompetensiya ta’lim oluvchiga muloqot vaziyati va kommunikativ niyatga mos lingvistik shakllarni tanlash imkonini beruvchi kompetensiya sifatida ta’riflanib, uning tarkibiga o‘rganilayotgan til mamlakatining milliy xususiyatlarini tanib olish qobiliyatini

ta’minlovchi sotsiomadaniy kompetensiya kiritilgan [18]. C1 darajasi uchun ta’lim mazmunida esa O‘zbekiston va o‘rganilayotgan til mamlakatlarining asosiy madaniyatlararo va nutqiy xususiyatlarini farqlash talabi qo‘yilgan [18]. Bu ikki qoida lingvomadaniy kompetensiyaning ikki komponenti bilan qisman mos keladi: milliy xususiyatlarni tanib olish kognitiv-lingvomadaniy komponentning, o‘z va o‘zga madaniyat xususiyatlarini farqlash esa madaniyatlararo kommunikativ komponentning boshlang‘ich ko‘rinishidir. Ayni paytda standartda til birliklarida mujassamlashgan madaniy ma’no, realiya, frazeologizm, madaniy konsept va lakuna kabi lingvistik-semantik tushunchalar, madaniy mazmunni o‘quvchiga yetkazishga oid kasbiy-metodik talablar hamda madaniyatlarga munosabatni ifodalovchi qadriyatli talablar mustaqil tarkib sifatida ajratilmagan. Madaniy tarkibning “tanib olish” va “farqlash” fe’llari bilan ifodalanishi ham uni retseptiv daraja bilan cheklaydi.

VMQ-124 bilan tasdiqlangan standartning tarixiy ahamiyati shundaki, u milliy ta’lim tizimida madaniy tarkibni chet tili kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida e’tirof etgan va uni bitiruvchi darajasi bilan bog‘lagan. Biroq standart barcha ta’lim bosqichlari va barcha yo‘nalishlar uchun umumiy hujjat bo‘lgani sababli, bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy vazifasidan kelib chiqadigan talablarni – o‘zi egallagan lingvomadaniy bilimni o‘quvchiga o‘rgatish, madaniy materialni tanlash va baholashni – nazarda tutmagan. M.O.Karimova va D.Soyipova bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-lingvistik kompetensiyasi tarkibida ko‘p madaniyatli jamiyatda o‘zini anglash va madaniyatlararo o‘zaro aloqalarni amalga oshirish qobiliyatini ajratib [45, 142-b.], madaniyatlararo kompetensiyani o‘rganilayotgan va ona madaniyatidagi muloqot qoidalari va an’analarini qamrab oluvchi kompetensiya sifatida izohlaydi [45, 146-b.]. Bu talqin bilan qiyoslaganda, kuchini yo‘qotgan standartdagi sotsiomadaniy talab o‘qituvchi tayyorlash uchun yetarli bo‘lmagani, u faqat foydalanuvchi sifatidagi til egasining madaniy xabardorligini tavsiflagani ma’lum bo‘ladi.

Amaldagi oliy ta’lim davlat ta’lim standarti tizimida bakalavriat yo‘nalishlarining huquqiy maqomini O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 25-fevraldagi 75-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” belgilaydi; hujjat Adliya vazirligida 2026-yil 28-fevralda 3781-son bilan ro‘yxatga olingan va 2026-yil 2-martdan kuchga kirgan [9]. Klassifikatorda 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi ta’lim sohasiga mansub bakalavriat yo‘nalishi sifatida ko‘rsatilgan va unga milliy malaka ramkasining 6-darajasi mos qo‘yilgan [9]. Klassifikatorning ilovasiga 2026-yil 29-iyundagi 262-son buyruq bilan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, bu o‘zgartirishlar ayrim yangi yo‘nalish va mutaxassisliklarni qo‘shish hamda ayrim pozitsiyalarni tahrir qilishga qaratilgan [10]. Har ikki hujjat tasniflash xarakteriga ega: ularda bitiruvchi kompetensiyalari, chet

tili bo‘yicha CEFR darajalari, madaniy, madaniyatlararo yoki lingvomadaniy kompetensiya talablari belgilanmagan [9; 10].

Shu tariqa, 2021-yildan keyin chet tili ta’limi uchun bitiruvchi darajasini, jumladan, uning madaniy tarkibini belgilaydigan maxsus davlat ta’lim standarti amalda emas, amaldagi oliy ta’lim standarti esa yo‘nalishlar tasnifi bilan cheklanadi. Bitiruvchiga qo‘yiladigan mazmuniy talablar to‘liq quyi pog‘onaga – malaka talablariga o‘tkazilgan; malaka talablarining o‘zida ham ular “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, milliy va tarmoq malaka ramkalari, kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgani qayd etilgan [1, 2-b.]. Lingvomadaniy kompetensiyaning darajasi davlat standarti pog‘onasida belgilanmagani sababli, uning mazmuni va natijasi har bir oliy ta’lim muassasasining o‘quv reja va fan dasturlariga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bunga davlat standarti darajasida madaniy tarkibni xalqaro ramka bilan bog‘lovchi mexanizmning yo‘qligi ham qo‘shiladi: Evropa Kengashining CEFR qo‘shimcha jildi plyurilingval va plyurimadaniy kompetensiyani plyurimadaniy repertuarga tayanish, plyurilingval tushunish va plyurilingval repertuarga tayanish shkalalari orqali tavsiflab, o‘zgalik bilan ishlash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash qobiliyatini deskriptorlar darajasida baholashni nazarda tutsa-da [4, 123–125-b.], bu shkalalar milliy standartga kiritilmagan.

Davlat ta’lim standarti pog‘onasidagi tahlil quyidagi xulosaga olib keladi: chet tillar bo‘yicha 2013-yilgi standart madaniy tarkibni sotsiolingvistik kompetensiya ichida retseptiv talab sifatida bergan, uning kuchini yo‘qotishi bilan esa bu talab ham me’yoriy maqomini yo‘qotgan; amaldagi oliy ta’lim standarti yo‘nalishlar tasnifini belgilaydi va bitiruvchining lingvomadaniy kompetensiyasi uchun hech qanday daraja yoki ko‘rsatkich nazarda tutmaydi. Lingvomadaniy kompetensiyaning me’yoriy aks etishini aniqlash uchun keyingi pog‘ona – ta’lim yo‘nalishining malaka talablari asosiy manba bo‘ladi.

60110900 – Xorijiy til va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug‘i bilan tasdiqlangan va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan joriy etilgan rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi [1, 2-b.]. Hujjat umumiy tavsif, kasbiy faoliyatlar tavsifi, kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar, amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar va fanlar katalogining tuzilishi bo‘limlaridan iborat [1, 3-b.]. Unda kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil etib belgilangan [1, 4-b.] va malaka talabining asosiy foydalanuvchilari qatorida o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalari rahbarlari va

professor-o‘qituvchilari ko‘rsatilgan [1, 4-b.]. Demak, malaka talablarida belgilangan yoki belgilanmagan har bir talab fan dasturlari mazmuniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi va lingvomadaniy kompetensiyaning dasturlardagi o‘rni aynan shu hujjat bilan oldindan belgilab beriladi.

Kasbiy faoliyat sohalari tavsifida bitiruvchi umumiy o‘rta ta’limda xorijiy til va adabiyoti fani o‘qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borishi bilan birga, ta’limiy-madaniy xizmat ko‘rsatuvchi xususiy madaniy markazlar va nodavlat tashkilotlarda maslahatchi, menejer, gid-tarjimon, ekskursovod, ko‘rgazma tashkilotchisi, jurnalist, publitsist sifatida faoliyat olib borish huquqiga ega bo‘lishi ko‘rsatilgan [1, 4–5-b.]. Kasbiy faoliyat turlari pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy, tashkiliy-boshqaruv hamda axborot-kommunikatsiya va raqamli til xizmatlari sifatida belgilangan [1, 5-b.]. Faoliyat sohalarining bunday tarkibi bitiruvchidan madaniyatlar o‘rtasidagi vositachilik vazifasini bajarishni nazarda tutadi: gid-tarjimon, ekskursovod va madaniy markaz xodimi faoliyati o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etish va ingliz tilidagi madaniy mazmunni o‘zbek tilida so‘zlashuvchi auditoriyaga izohlashni talab qiladi. K.Risager chet tili darsida doimo kamida ikki tilmadaniyat mavjud bo‘lishini ko‘rsatadi [60]; malaka talablarida belgilangan faoliyat sohalari bu holatning kasbiy faoliyat darajasida ham saqlanishini tasdiqlaydi, biroq kasbiy faoliyat tavsifida bu vositachilik vazifasi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar alohida ochib berilmagan.

Bitiruvchining kasbiy vazifalari Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq belgilangan [1, 5-b.]. Pedagogik faoliyatdagi vazifalar o‘quv jarayonini rejalashtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlash, o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani tashkil etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va hamkasblar hamda ota-onalar bilan hamkorlik bloklariga ajratilgan [1, 5–6-b.]. Bu vazifalar orasida madaniy tarkibga bevosita taalluqli yagona qoida tarbiyaviy faoliyat blokida uchraydi: bitiruvchi tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi lozim [1, 6-b.]. O‘quv jarayonini rejalashtirish, darsni loyihalash va o‘zlashtirishni baholash vazifalarida esa madaniy mazmunni tanlash, uni dars maqsadiga aylantirish yoki madaniy natijani baholash haqida so‘z yuritilmaydi; baholash vazifasi ta’lim natijalarini turli usul va vositalar yordamida baholash va diagnostika qilish, baholash mezonlarini bilish va qo‘llash shaklida umumiy ifodalangan [1, 6-b.].

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatdagi vazifalar orasida o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, o‘z yurtining tarixiy merosi, qadriyatlari, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo‘lini anglashga yordam berish vazifasi belgilangan [1, 7-b.]. Bu vazifa lingvomadaniy kompetensiyaning motivatsion-qadriyatli komponentiga,

aniqrog‘i, uning milliy madaniy o‘zlikni anglash ko‘rsatkichiga mos keladi. Shu bilan birga, ona madaniyatiga oid talab ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bo‘limida, o‘rganilayotgan til madaniyatiga oid talab esa kasbiy kompetensiyalar bo‘limida alohida berilgan; hujjatda ularni o‘zaro qiyoslash, o‘zbek madaniyatini ingliz tilida ifodalash yoki ikki madaniyat qadriyatlarini taqqoslab talqin qilish talabi ko‘zda tutilmagan. Holbuki, D.Naimova ko‘rsatganidek, multimadaniy kompetensiyani rivojlantirishda madaniy stereotiplarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim talab hisoblanadi [53, 189-b.], bu esa o‘z va o‘zga madaniyatni yagona qiyosiy asosda o‘rganishni taqozo etadi. A.V.Getmanskayaning ingliz tili va jahon badiiy madaniyati integratsiyalashgan kursi asosida lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqoti [143] ham madaniy mazmunni til o‘rgatish jarayoniga integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi vazifalar xorijiy til va adabiyoti sohasida, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha zamonaviy til o‘qitish yondashuvlari, metodlar va pedagogik innovatsiyalarga oid tadqiqotlar olib borish, sohadagi so‘nggi ilmiy yutuqlarni internet manbalari orqali maqsadli qidirish va amaliyotga joriy etish, amaliy lingvistika va xorijiy til pedagogikasiga oid mahalliy hamda xalqaro nashrlarni o‘rganish, o‘quvchi motivatsiyasi va o‘qitish samaradorligiga oid ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish shaklida belgilangan [1, 6–7-b.]. Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida esa kasbiy axloq etikasiga rioya qilish, ta’lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta’limda inklyuzivlikni ta’minlash kabi vazifalar ko‘rsatilgan [1, 7-b.]. Bu vazifalar tarkibida madaniy mazmunni tadqiq etish yoki madaniyatlararo vaziyatlarni tahlil qilish nazarda tutilmagan, garchi o‘quvchi motivatsiyasini o‘rganish vazifasi madaniyatga qiziqishni ham qamrab olishi mumkin bo‘lsa-da. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatdagi mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish, ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan ma’lumotlarni tahlil qilish va baholashga o‘rgatish vazifalari [1, 7-b.] hamda fanlar katalogidagi Mediasavodxonlik va axborot madaniyati fani (150 soat, 1-semestr) [1, 10-b.] esa tanqidiy madaniy xabardorlikni rivojlantirish uchun mazmuniy tayanch bo‘la oladi: mediamatnlardagi madaniy tasvir va stereotiplarni tahlil qilish ko‘nikmasi aynan shu fan va vazifalar bilan bog‘lanishi mumkin, biroq malaka talablarida bu bog‘liqlik ko‘rsatilmagan.

Hujjatning ikkinchi bo‘limida xorijiy tillar va adabiyot mutaxassisligi bitiruvchisi zamonaviy ta’lim tizimining talablariga javob beradigan yuqori malakali pedagog sifatida shakllanishi uchun ega bo‘lishi zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar sanab o‘tilgan [1, 7-b.]. Ular qatorida kasbiy faoliyatda barcha nutq faoliyati turlaridan foydalana olish, og‘zaki va yozma shaklda xorijiy til qoida va me’yorlariga amal qilgan holda fikrni mantiqiy, asosli va aniq bayon etish [1, 7–8-b.]; SMART metodikasi asosida maqsadlarni belgilash va 5E o‘qitish modeli asosida konstruktivistik

yondashuvni qo‘llash [1, 8-b.]; xalqaro baholash tizimlari va standartlari, jumladan, CEFR asosida til darajasini aniqlash va baholash, xalqaro til sertifikatlari talablariga muvofiq o‘quvchilarni tayyorlash, PISA, TIMSS, PIRLS kabi dasturlarning mezonlari va metodikasini bilish [1, 8-b.] talablari bor. Lingvomadaniy kompetensiya uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan band esa quyidagicha ifodalangan: “tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish va madaniy xususiyatlarini anglash, o‘quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va global fikrlash kompetentligini oshirish” [1, 8-b.].

Ushbu band to‘rt talabni birlashtiradi va ularning har biri lingvomadaniy kompetensiyaning muayyan komponentiga mos keladi. Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish va madaniy xususiyatlarini anglash kognitiv-lingvomadaniy komponentga, muloqot etiketini rivojlantirish va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish madaniyatlararo kommunikativ komponentga, global fikrlash kompetentligi esa motivatsion-qadriyatli komponentning ochiqlik va madaniy xilma-xillikni qabul qilish tarkibiga yaqin turadi. Bandning tuzilishida talablar ikki xil subyektga yo‘naltirilgan: madaniyatni o‘rganish va anglash bitiruvchining o‘ziga, etiket va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish esa o‘quvchilarga taalluqli. “O‘rganish”, “anglash” va “oshirish” fe’llari natija darajasini emas, jarayonni ifodalagani uchun bu talablarni o‘lchanadigan ta’lim natijasiga aylantirish qo‘shimcha deskriptorlarni talab qiladi. Bandda til birliklari orqali madaniyatni anglash, ya’ni lingvistik-semantik komponent ham ko‘zda tutilmagan: realiya, frazeologizm, madaniy konsept va autentik matndagi madaniy ma’no bilan ishlash talabi hujjatning boshqa bandlarida ham uchramaydi.

Kasbiy kompetensiyalar ro‘yxatidagi boshqa bandlar kasbiy-metodik komponent uchun ma’lum asos yaratadi. Bitiruvchi turli yosh guruhlaridagi o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish bosqichlari, o‘rganish uslublari, motivatsiya omillari va individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda differensial ta’lim yondashuvlarini qo‘llashi, ijtimoiy-iqtisodiy holat, madaniy kelib chiqish va til o‘rganish tajribasidagi farqlarni e’tiborga olishi [1, 8-b.], ta’limiy va lingvistik o‘quv materiallarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda samarali qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishi [1, 8-b.], o‘quv materiallarini tanlash, yaratish, moslashtirish va ulardan foydalanish yoki yangi o‘quv resurslarini ishlab chiqishga qaratilgan metodlarni shakllantira olishi [1, 9-b.] lozim. Shuningdek, xorijiy til o‘qituvchisi kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyatini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish, jamiyat ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o‘ziga xosliklari hamda milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda ko‘p madaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash [1, 9-b.], dars jarayonida til orqali boshqa fanlarni o‘qitish (CLIL) metodikasini qo‘llash [1, 9-b.] talablari belgilangan. Bu talablar materialni tanlash va moslashtirish, o‘quvchining madaniy kelib chiqishini hisobga

olish va ko‘p madaniyatli muhitda ishlash ko‘nikmalarini qamraydi, ammo ularning hech birida aynan lingvomadaniy materialni – madaniy belgilangan leksika, madaniy kontekstli autentik matn yoki madaniy taqqoslash topshirig‘ini – tanlash va o‘quvchi darajasiga moslashtirish ko‘nikmasi alohida ajratilmagan.

Malaka talablarining kasbiy kompetensiyalar bo‘limini Yevropa ramkaviy hujjatlari bilan qiyoslash ham shu xulosani tasdiqlaydi. “Til o‘qituvchisi ta’limining Yevropa profili” tarkibida madaniyatlararo va ko‘p madaniyatli muhit tajribasi, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga, tillar va madaniyatlar xilma-xilligiga, chet tillari va madaniyatlarini o‘qitish va o‘rganishning ahamiyatiga oid tayyorgarlik bandlari alohida ajratilgan [5, 4-b.], EPOSTL kontekst bo‘limida esa bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyatida til, o‘rganish va madaniyat nazariyalari hamda tegishli tadqiqot natijalariga tayana olishi deskriptor sifatida berilgan [7]. Milliy malaka talablarida madaniy tarkib bitta umumlashgan band va bir nechta yondosh talablar bilan ifodalangan bo‘lsa, Yevropa ramkalarida u tayyorgarlik mazmunining alohida yo‘nalishi va o‘z-o‘zini baholash deskriptorlari tizimi sifatida ishlab chiqilgan. M.Byram madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tarkibida munosabatlar, bilimlar, talqin qilish va bog‘lash, kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari hamda tanqidiy madaniy xabardorlikni ajratadi [28, 34-b.]; malaka talablaridagi madaniy band bu tarkibdan asosan bilimlar va o‘zaro ta’sir tarkiblarini qamraydi, talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmalari hamda tanqidiy madaniy xabardorlik esa hujjatda nomlanmagan.

M.Byram talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmasini boshqa madaniyatga oid hujjat yoki voqeani tushuntirib, uni o‘z madaniyatidagi hodisa bilan bog‘lash qobiliyati sifatida izohlaydi [28, 52-b.], tanqidiy madaniy xabardorlikni esa o‘z va o‘zga madaniyatdagi qarashlar, amaliyotlar va mahsulotlarni aniq mezonlar asosida tanqidiy baholash qobiliyati deb belgilaydi [28, 53-b.]. Ushbu ta’riflar malaka talablaridagi umumlashgan madaniy bandni o‘lchanadigan natijalarga ajratish uchun tayyor asos bo‘la oladi: “madaniy xususiyatlarni anglash” talabi autentik matndagi madaniy belgilangan birlikni aniqlash va izohlash, uni o‘zbek madaniyatidagi muqobil hodisa bilan bog‘lash ko‘nikmasi shaklida, “madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish” talabi esa darslik va o‘quv materialidagi madaniy tasvirni mezonlar asosida baholash va o‘quvchi uchun moslashtirish ko‘nikmasi shaklida aniqlashtirilishi mumkin. D.K.Deardorff madaniyatlararo kompetensiyaning boshlang‘ich qatlami sifatida hurmat, ochiqlik hamda qiziquvchanlik va kashf etishga intilishni ajratadi [32]; malaka talablaridagi global fikrlash kompetentligi aynan shu munosabatlar qatlami orqali ko‘rsatkichlarga ajratilsa, motivatsion-qadriyatli komponentni baholash imkoni paydo bo‘ladi. Shunday qilib, xorijiy modellar milliy hujjatdagi talablarni almashtirish uchun emas, ularni deskriptorlar darajasida aniqlashtirish uchun qo‘llanadi.

Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar bo‘limida malakaviy amaliyot umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlar bilan

uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilishi ko‘rsatilgan [1, 9-b.]. Kunduzgi ta’limda talabalarning “4+2” tartibdagi malakaviy amaliyoti 5–8-semestrlarda amalga oshirilib, haftaning to‘rt kuni nazariy va amaliy ta’lim, ikki kuni umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladi; yo‘nalish bo‘yicha o‘quv-tanishuv amaliyoti, pedagogik amaliyot va bitiruv oldi amaliyoti belgilangan [1, 9-b.]. N.M.Axmedova PF-73-son Farmon bilan pedagog kadrlar tayyorlashning yagona konseptual yondashuvi me’yoriy talab sifatida belgilangani, PRESETT islohoti va “4+2” amaliyot tartibi joriy etilganini qayd etib, biroq o‘qituvchi sifati asosan til sertifikati orqali o‘lchanayotgani, metodik fanlar o‘quv rejaning kech semestrlarida joylashgani va refleksiya rasmiy xarakterga egaligini ko‘rsatadi [122]. Amaliyot talablarida madaniy mazmunga oid biror topshiriq, kuzatuv yo‘nalishi yoki natija nazarda tutilmagan; demak, maktabda lingvomadaniy materialni darsga integratsiyalash tajribasi amaliyot dasturini ishlab chiquvchi oliy ta’lim muassasasining tashabbusiga qoldirilgan.

Malaka talablarining to‘rtinchi bo‘limida berilgan “Ingliz tili va adabiyoti” fanlar katalogi lingvomadaniy kompetensiyaning o‘quv reja darajasidagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi [1, 10-b.]. Katalogga ko‘ra umumiy yuklama 7200 soat va 240 kreditni tashkil etadi; shundan majburiy fanlar 4800 soat (160 kredit), tanlov fanlari 900 soat (30 kredit, 3–8-semestrlar), malakaviy amaliyot 1320 soat (44 kredit) va davlat attestatsiyasi 180 soat (6 kredit) hajmida belgilangan; kvalifikatsiya – “Ingliz tili fani o‘qituvchisi” [1, 10-b.]. Majburiy fanlar tarkibida amaliy ingliz tili bloki O‘qish va yozuv amaliyoti (450 soat, 15 kredit, 1–3-semestrlar), Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi (570 soat, 19 kredit, 1–4-semestrlar) va Til aspektlari amaliyoti (420 soat, 14 kredit, 1–3-semestrlar) fanlaridan iborat [1, 10-b.]; bu uch fan jami 1440 soatni, ya’ni majburiy fanlar hajmining 30 foizini tashkil etadi. Nazariy va metodik fanlar – Ingliz tili adabiyoti tarixi (120 soat, 5-semestr), Ingliz tili o‘qitish metodikasi (120 soat, 6-semestr), Ingliz tili o‘qitish va baholashning xalqaro standartlari (240 soat, 5–6-semestrlar), Ingliz tili nazariy kursi (240 soat, 5–6-semestrlar), Amaliy tilshunoslik (150 soat, 7-semestr), Tarjima nazariyasi va amaliyoti (180 soat, 7-semestr), Ingliz tili stilistikasi (180 soat, 8-semestr) va Boshlang‘ich sinflarda chet til o‘qitish metodikasi (150 soat) – asosan 5–8-semestrlarda joylashgan [1, 10-b.].

Katalogda nomi bilan lingvokulturologiya, mamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik yoki madaniyatlararo muloqotga bag‘ishlangan birorta majburiy fan mavjud emas [1, 10-b.]. Bu holat katalog tuzilishining umumiy xususiyati emasligini xuddi shu malaka talablarining “Koreys tili va adabiyoti” katalogi ko‘rsatadi: unda “Koreya madaniy merosi” (120 soat, 4 kredit, 8-semestr) va “Koreys tilining frazeologik tizimi” (120 soat, 4 kredit, 7-semestr) majburiy fanlar sifatida kiritilgan [1, 12-b.]. Demak, bitta yo‘nalish doirasida madaniy meros va frazeologik tizimni mustaqil fan sifatida o‘qitish me’yoriy jihatdan mumkin deb topilgan, ingliz tili

katalogida esa bunday fanlar nazarda tutilmagan. Shu bilan birga, ingliz tili katalogidagi Ingliz tili adabiyoti tarixi, Ingliz tili stilistikasi va Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlari o‘z predmetiga ko‘ra madaniy mazmun bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning dasturlari tahlil qilinmaguncha bu fanlardagi madaniy tarkib hajmi haqida aniq xulosa chiqarib bo‘lmaydi; qolaversa, ular 5–8-semestrlarda o‘qitiladi.

Tadqiqot respondentlari bo‘lgan ikkinchi kurs talabalarining 3–4-semestrlarda o‘zlashtiradigan majburiy fanlari katalog bo‘yicha O‘qish va yozuv amaliyoti (3-semestr), Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi (3–4-semestrlar), Til aspektlari amaliyoti (3-semestr), Ikkinchi xorijiy til (3–6-semestrlar), Sinf boshqaruvi. O‘quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi (3-semestr), Ta’limda baholash, Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika va Dinshunoslik (4-semestr) fanlaridan iborat [1, 10-b.]. Ushbu bosqichda madaniy mazmunni o‘z nomida aks ettirgan fan yo‘q, demak, ikkinchi kursda lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning yagona me’yoriy imkoniyati amaliy ingliz tili fanlari mazmuniga lingvomadaniy materialni integratsiyalash va 3–8-semestrlarda taklif etiladigan tanlov fanlaridan foydalanish hisoblanadi. Tanlov fanlari uchun ajratilgan 900 soat (30 kredit) [1, 10-b.] lingvomadaniy yo‘nalishdagi tanlov kursini joriy etish uchun yetarli hajmli zaxira bo‘lib, uning nomi va mazmuni malaka talablarida belgilanmagan va oliy ta’lim muassasasi ixtiyoriga qoldirilgan.

Malaka talablari tahlilidan quyidagi xulosaga kelinadi. Hujjatda lingvomadaniy kompetensiyaning beshta komponentidan to‘rttasiga mos keluvchi talablar mavjud: motivatsion-qadriyatli komponentga milliy qadriyatlarni anglash va global fikrlash, kognitiv-lingvomadaniy komponentga tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish, madaniyatlararo kommunikativ komponentga muloqot etiketi va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari, kasbiy-metodik komponentga o‘quv materiallarini ishlab chiqish va o‘quvchilarning madaniy kelib chiqishini hisobga olish talablari mos keladi. Lingvistik-semantik komponent esa hujjatda umuman aks etmagan. Mavjud talablar ham jarayon fe’llari orqali ifodalangan, ularda daraja, ko‘rsatkich va baholash mezoni yo‘q, fanlar katalogida esa ular uchun mustaqil o‘quv fani ajratilmagan. Bu holat madaniy tarkibning malaka talablarida e’tirof etilgani, biroq uning o‘quv rejaga va natijani baholashga o‘tkazish mexanizmi ishlab chiqilmaganini ko‘rsatadi.

Me’yoriy-dasturiy ta’minotning uchinchi pog‘onasi fan dasturlaridir. Fan dasturlari oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgani sababli ular muassasadan muassasaga farq qiladi; mazkur paragrafda tahlil uchun ochiq manbalarda e’lon qilingan va bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari tayyorgarligiga bevosita taalluqli uchta dastur tanlab olindi: O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Xorijiy tilni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish (Umumiy qism)” fan dasturi [20], xuddi shu universitetning “Nazariy grammatika va til tarixi” fan dasturi [6] hamda Qo‘qon davlat universitetining “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” fan

dasturi [8]. Birinchi dastur madaniy mazmunga bag‘ishlangan yagona maxsus fanni, ikkinchisi ixtisoslik nazariy fanini, uchinchisi esa malaka talablari katalogidagi eng katta hajmli amaliy til fanini ifodalaydi. Har bir dastur maqsad, soatlar, mavzular, madaniy mazmun ulushi, topshiriqlar va baholash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Tanlangan dasturlar barcha oliy ta’lim muassasalari amaliyotini to‘liq aks ettirmasligi sababli, quyidagi xulosalar umumiy tendensiyani ko‘rsatuvchi namunaviy tahlil sifatida qabul qilinadi.

“Xorijiy tilni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish (Umumiy qism)” fani (kodi 326XTO‘MMSH34) 2024–2025-o‘quv yili uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, 6-semestrda majburiy fan sifatida o‘qitiladi, hajmi 4 kredit, auditoriya mashg‘ulotlari 48 soat (haftasiga 4 soat amaliy mashg‘ulot), mustaqil ta’lim 72 soat, jami 120 soatni tashkil etadi; o‘qitish tili ingliz tili [20]. Dasturda fanning maqsadi talabalarga madaniyatlararo muloqot, xalqaro madaniy kompetentlik va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutning til o‘rganish va o‘qitishdagi ahamiyatini tushuntirish sifatida belgilanib, madaniyatlararo muloqotning ekstralingvistik jihatlari – dunyoqarash, marosimlar, urf-odatlar, tana tili, taqiqlar, stereotiplar, ko‘p millatli madaniyatlarda jamiyatning o‘rni, obraz va ramzlar alohida sanab o‘tilgan [20]. Fanning vazifasi esa o‘rganilayotgan chet tilidan davlat tili (ona tili), ikkinchi rasmiy til va chet tili sifatida foydalanish o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni ajrata olish hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish sifatida ifodalangan [20]. Fan nomida ham, maqsadida ham madaniy mazmun yetakchi o‘rinda turadi; bu malaka talablaridagi madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalariga oid bandning oliy ta’lim muassasasi darajasida alohida fan orqali amalga oshirilishiga misol bo‘ladi. Malaka talablari katalogida bunday nomli majburiy fan yo‘qligi sababli, u muassasaning o‘z o‘quv rejasi doirasida joriy etilgan fan sifatida qaraladi.

Dastur 24 ta mavzudan iborat bo‘lib, har bir mavzuga 2 soat ajratilgan [20]. Birinchi o‘n ikki mavzu madaniyat tushunchasi, madaniyatlararo xabardorlik va madaniyatlararo kompetensiya; madaniyatlararo muloqotning ekstralingvistik jihatlari (munosabatlar, marosimlar, an’analar, tana tili; taqiqlar va stereotiplar; turli madaniyatlarda ijtimoiy rollar, obrazlar, ramzlar); O‘zbekiston va ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar (Buyuk Britaniya, AQSH) madaniyatlararo muloqotini qiyoslash; ingliz tili darslarida til va madaniyat (idiomalar); O‘zbekiston va ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda salomlashish va xushmuomalalik (murojaat shakllari)ni qiyoslash; madaniy to‘qnashuvlar (madaniy shok, akkulturatsiya, ijtimoiy masofa, madaniy o‘zlikni saqlash); G.Hofstedening besh o‘lchovli modeli; adabiyot, gazeta, televideniye, film va multfilmlar orqali madaniyatni o‘rgatish; madaniyatlararo masalalarni o‘qitish uchun materiallarni (darsliklar, dars rejalari, topshiriqlar) tahlil qilish va material ishlab chiqishda madaniy sezgirlik; madaniyatlararo tushunmovchiliklarni aniqlash va bartaraf etishning besh bosqichli “RADAR”

texnikasiga bag‘ishlangan [20]. Qolgan o‘n ikki mavzu ommaviy nutq (public speaking) masalalarini – Aristotelning ishontirish haqidagi ta’limoti, nutq uslublari, auditoriyani tahlil qilish, nutqni tuzish va taqdim etish, vizual vositalar, obrazli til va tanqidiy fikrlashni qamraydi [20].

Madaniy mazmun ulushi mavzular bo‘yicha hisoblanganda auditoriya soatlarining yarmini – 48 soatdan 24 soatni tashkil etadi; qolgan 24 soat ommaviy nutqqa ajratilgan [20]. Malaka talablari katalogidagi umumiy yuklama 7200 soat ekanini [1, 10-b.] hisobga olsak, madaniyatlararo muloqotga bevosita bag‘ishlangan auditoriya mashg‘ulotlari to‘rt yillik tayyorgarlikning 0,33 foiziga teng bo‘ladi. Mustaqil ta’lim uchun 36 ta mavzu tavsiya etilgan bo‘lib, ular qatorida globallashuv va mahalliy madaniyatlar, yapon choy marosimi, maori tatuirovkasi, madaniy afsonalar, gender rollari, migratsiya, san’at va madaniy meros, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat, biznesdagi madaniy to‘siqlar, sovg‘a almashish an’analari kabi madaniy mavzular hamda ommaviy nutqqa oid mavzular bor; talabalar tavsiya etilgan materiallarni o‘qishi, tahlil qilishi, berilgan mavzular bo‘yicha portfolio tayyorlashi va taqdimot qilishi kutiladi [20]. O‘qitish texnologiyalari sifatida interfaol keys-stadi, mantiqiy fikrlash va tezkor savol-javobga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar, guruh va mikroguruhlarda ishlash, taqdimotlar, individual loyihalar va himoyasi bilan yakunlanadigan jamoaviy loyihalar ko‘rsatilgan [20]. Asosiy adabiyotlar ro‘yxatiga F.Adilovaning “Developing Intercultural Competence” o‘quv qo‘llanmasi, madaniyatlararo muloqotga oid xorijiy qo‘llanmalar, M.Byram va hammualliflarning “Developing Intercultural Competence in Practice” to‘plami va D.Utleyning “Intercultural Resource Pack” nashri kiritilgan [20].

Ushbu dasturni beshta komponent bo‘yicha baholash uning kuchli tomonlari va cheklovlarini aniq ko‘rsatadi. Kognitiv-lingvomadaniy komponent madaniyat tushunchasi, ekstralingvistik omillar va G.Hofstede modeliga oid mavzular orqali, madaniyatlararo kommunikativ komponent salomlashish, xushmuomalalik, madaniy shok va “RADAR” texnikasiga oid mavzular orqali, kasbiy-metodik komponent esa o‘quv materiallarini madaniy sezgirlik nuqtai nazaridan tahlil qilish va madaniyatni adabiyot, matbuot va filmlar orqali o‘rgatish mavzulari orqali qamrab olingan [20]. O‘zbekiston va ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarni qiyoslashga ikki alohida mavzu ajratilgani motivatsion-qadriyatli komponentning milliy o‘zlikni anglash ko‘rsatkichiga va madaniy o‘zlikni saqlash masalasiga ham asos yaratadi [20]. Lingvistik-semantik komponent esa faqat bitta – idiomalarga bag‘ishlangan mavzu bilan ifodalangan; realiya, ekvivalentsiz leksika, lakuna, madaniy konsept va kalit so‘zlar bilan ishlash dasturda ko‘zda tutilmagan [20]. M.O.Rakhimov sotsiomadaniy kompetensiyani jamiyatdagi yashirin qoidalar, ijtimoiy me’yorlar, etiket, umumiy qadriyatlar, hazil, noverbal ishoralar va taqiqlar haqidagi bilimga tayanuvchi kompetensiya sifatida tavsiflaydi [57, 244-b.]; dasturning birinchi qismi mazmunan

aynan shu sotsiomadaniy va madaniyatlararo yo‘nalishga mos keladi, lingvomadaniy yo‘nalish, ya’ni til birligida kodlangan madaniy ma’noni talqin qilish esa ikkinchi darajada qoladi.

Dasturning ta’lim natijalari bo‘limida o‘rganilayotgan asosiy chet tilini Umumevropa standartlariga ko‘ra C1 darajada o‘zlashtirish, turli matn turlari bilan ishlashning bosqichma-bosqich usullarini egallash, kurs mavzulari asosida o‘z fikrini og‘zaki, aniq va mantiqiy bayon etish hamda ingliz tilini xalqaro til sifatida qo‘llash uchun zarur ko‘nikmalarni egallash ko‘rsatilgan [20]. Fan maqsadi madaniyatlararo muloqot va xalqaro madaniy kompetentlikka qaratilgan bo‘lsa-da, ta’lim natijalari madaniy bilim, madaniyatlararo ko‘nikma yoki madaniyatlarga munosabat bo‘yicha emas, umumiy til darajasi va nutq ko‘nikmalari bo‘yicha ifodalangan. Kredit olish talablarida esa CEFR bo‘yicha B2+C1 darajadagi materiallar bilan ishlash, matnlarni og‘zaki umumlashtirish, tahlil qilish, tinglab tushunish va o‘z fikrini erkin bayon etish, joriy va oraliq nazoratlarda variantli topshiriqlarni bajarish, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish va yakuniy nazoratdan o‘tish talab etiladi; baholash ballari va madaniy natijani baholash mezonlari dasturda keltirilmagan [20]. D.K.Deardorff madaniyatlararo kompetensiyani bilim, ko‘nikma va munosabatlarga asoslangan, ichki va tashqi natijalarda namoyon bo‘ladigan ta’lim natijasi sifatida baholash zarurligini asoslaydi [32, 254-b.]; ko‘rib chiqilgan dasturda maqsad va mazmun bilan baholash o‘rtasida bunday muvofiqlik ta’minlanmagan.

“Nazariy grammatika va til tarixi” fani (kodi 326NGTT34) 5-semestrda majburiy fan sifatida o‘qitiladi, hajmi 4 kredit, ma’ruza 24 soat, seminar 24 soat, mustaqil ta’lim 72 soat, jami 120 soat [6]. Fanning maqsadi talabalarga ingliz tili nazariy grammatikasining ilmiy-nazariy masalalari bo‘yicha chuqur bilim berish va bo‘lajak kasbiy faoliyatida foydali bo‘ladigan lingvistik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish sifatida belgilangan; dastur nazariy grammatika va til tarixi modullaridan iborat bo‘lib, morfologiya, so‘z turkumlari, sintaksis, gap nazariyasi, qadimgi, o‘rta va ilk yangi ingliz tili masalalarini qamraydi [6]. Dasturda madaniyat, lingvomadaniy yoki madaniyatlararo mazmunga oid mavzu ham, topshiriq ham mavjud emas; baholash seminarlarda faol ishtirok, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, mustaqil ta’lim mavzularini taqdim etish va yakuniy yozma testdan o‘tish orqali amalga oshiriladi [6]. Til tarixi moduli Normand istilosining ingliz tiliga ta’siri kabi madaniy-tarixiy omillarni o‘z ichiga olsa-da [6], bu omillar til birliklarining madaniy semantikasini talqin qilish vazifasi bilan bog‘lanmagan. Nazariy fanlarning madaniy mazmundan ajratilgan holda o‘qitilishi lingvistik-semantik komponentni rivojlantirish uchun mavjud bo‘lgan tabiiy imkoniyatdan foydalanilmayotganini ko‘rsatadi.

Qo‘qon davlat universitetining “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” fan dasturi (fan kodi NK1123419) 2025–2026-o‘quv yili uchun ishlab chiqilgan va universitet

kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan [8]. Mazkur kod malaka talablari katalogidagi Nutq koʻnikmalari integratsiyasi fani kodiga mos keladi [1, 10-b.]. Dasturda fan boʻyicha auditoriya soatlari 48/48, mustaqil taʼlim 102/72, jami 150/120 soat, kredit 5/4 va haftalik yuklama 4/4 soat sifatida ikki ustunda berilgan [8]. Fanning maqsadi talabalarga tilning ogʻzaki va yozma shakllarini integrallashgan holda oʻrgatish, turli kontekstlardagi muloqot malakalarini rivojlantirish va egallangan bilim, koʻnikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qoʻllay olishni taʼminlash sifatida belgilangan [8]. Talabalar egallashi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar qatorida oʻrganilayotgan chet tilida oʻqish, tinglab tushunish, gapirish va yozish koʻnikmalari bilan birga madaniyatlararo muloqotga taalluqli masalalarga tanqidiy nuqtai nazar bilan yondashish va ularni toʻgʻri talqin qilish, tili oʻrganilayotgan mamlakat madaniyati va oʻz madaniyatini qiyoslash, ogʻzaki muloqotda tegishli milliy-madaniy meʼyorlarga amal qilish koʻrsatilgan [8].

Dastur toʻqqizta mavzudan iborat: shaxs va shaxsiyat; Oʻzbekiston va oʻrganilayotgan chet tilida soʻzlashuvchi mamlakatlar milliy ramzlari, davlat tuzilishi; oziq-ovqat; sihat-salomatlik; oilaviy qadriyatlar; taʼlim; shahar va qishloq hayoti; dam olish va sport bilan shugʻullanish; aloqa va texnologiyalar [8]. Madaniy mazmun bu mavzularning bir qismida qiyosiy shaklda beriladi: birinchi mavzuda oʻzbeklarning odatlari bilan tanishtirish, ikkinchi mavzuda milliy ramzlar va davlat tuzilishini qiyoslash, beshinchi mavzuda turli millat vakillaridan tarkib topgan oilalardagi tushunmovchiliklar aks etgan film materiali, sakkizinchi mavzuda turli madaniyatlardagi seriallarga munosabat koʻzda tutilgan [8]. Mustaqil taʼlim uchun tavsiya etilgan 17 ta mavzudan uchtasi – “Milliy ramzlar”, “Oʻrganilayotgan chet tilida soʻzlashuvchi mamlakatlarning davlat tuzilishi” (bilimlar musobaqasi) va “Turli madaniyatlarda sport” madaniy mazmunga bevosita qaratilgan [8]. Shunday qilib, toʻqqiz mavzudan toʻrttasida madaniy element mavjud, biroq ularning hech birida madaniy mazmun til birliklari – leksika, frazeologiya, nutq etiketi formulalari darajasida tizimli ajratilmagan; madaniyat mavzuli fon sifatida xizmat qiladi.

Qoʻqon davlat universiteti dasturida kredit olish uchun joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan variantli test topshiriqlarini bajarish hamda yakuniy nazorat boʻyicha yakuniy test topshiriqlarini topshirish talab etiladi [8]. Taʼlim natijalari qatorida madaniyatlar qiyosi va madaniyatlararo masalalarga tanqidiy yondashish koʻrsatilgan boʻlsa-da, ularni test shaklida oʻlchash imkoniyati cheklangan: test asosan bilimni tekshiradi, madaniyatlararo vaziyatda oʻrinli nutqiy xatti-harakatni tanlash, madaniy maʼnoni izohlash yoki ikki madaniyatni taqqoslab talqin qilish esa vaziyatli topshiriq, keys yoki rubrikaga asoslangan baholashni talab etadi. Asosiy adabiyotlar roʻyxatini “Skillful”, “Straightforward”, “NorthStar”, “Speakout”, “Q: Skills for Success” kabi xalqaro nashriyotlarning oʻquv majmualari tashkil etadi [8]; bu majmualardagi madaniy mazmun ingliz tilida soʻzlashuvchi muhitga yoʻnaltirilgan

bo‘lib, o‘zbek madaniyati bilan qiyoslash topshiriqlari ularda alohida ishlab chiqilmagan, shu sababli qiyosiy material o‘qituvchi tomonidan qo‘shimcha tayyorlanishi lozim bo‘ladi.

Uch dasturning qiyosiy tahlili madaniy mazmunning fan dasturlarida taqsimlanishida muayyan qonuniyatni ko‘rsatadi. Madaniy mazmun maxsus kursda maqsad, mavzu va topshiriq darajasida eng to‘liq ifodalangan, ammo bu kurs kech semestrda joylashgan va ta’lim natijalari hamda baholash tizimi madaniy maqsadga moslashtirilmagan [20]. Amaliy til fanida madaniy element ta’lim natijalari va mavzularda mavjud, biroq u mavzuli fon darajasida qoladi va test shaklida baholanadi [8]. Nazariy fanda esa madaniy mazmun umuman nazarda tutilmagan [6]. G.T.Maxkamovaning ingliz tili fakultetlari talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasi [101] va filologiya talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirishga bag‘ishlangan doktorlik tadqiqoti [131] madaniyatlararo kompetensiyani ingliz tili fakulteti tayyorgarligining yaxlit maqsadi sifatida ko‘rishni taklif etgan bo‘lsa-da, ko‘rib chiqilgan dasturlarda madaniy tarkib fanlar o‘rtasida izchil taqsimlanmagan va fanlararo bog‘liqlik orqali yaxlit tizimga keltirilmagan.

Fan dasturlari tahlilini lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar bilan qiyoslash ham bo‘shliqlarni aniqlashtiradi. E.Sh.Kholmatova bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda immersiv tajribalarning, ya’ni madaniy muhitga sho‘ng‘ishni ta’minlovchi faoliyat shakllarining ahamiyatini ko‘rsatadi [46, 158-b.]; ko‘rib chiqilgan dasturlarda bunday faoliyat loyiha va portfolio shaklida qisman mavjud, biroq u maxsus kurs bilan cheklangan. M.O.Rakhimov ingliz tilini o‘qitishda lingvomadaniy kompetentlikni rivojlantirishning kompleks strategiyasini taklif etadi [57, 234–245-b.]; bizningcha, kompleks strategiyani amalga oshirish madaniy mazmunni bitta fanda emas, amaliy, nazariy va metodik fanlar tizimida rivojlantirishni taqozo etadi. Zh.V.Demyanovaning pedagogika oliy ta’lim muassasasi nofilologik fakultetlari talabalarida lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishga oid tadqiqoti [145] esa madaniy bilimlarni o‘quv jarayoniga maqsadli kiritish masalasining filologik bo‘lmagan yo‘nalishlarda ham alohida tadqiq etilganini ko‘rsatadi. Bu tadqiqotlar bilan qiyoslaganda, fan dasturlaridagi asosiy bo‘shliq madaniy mazmunning mavjud emasligida emas, balki uning tarqoqligi, kech bosqichda berilishi va natijasi baholanmasligida ekani ma’lum bo‘ladi.

Uchala pog‘ona hujjatlarining lingvomadaniy kompetensiya komponentlari bo‘yicha qiyosiy tahlili 1.3-jadvalda umumlashtiriladi. Jadvalda davlat ta’lim standarti ustunida kuchini yo‘qotgan VMQ-124 va amaldagi 75-son buyruq birgalikda ko‘rsatiladi, fan dasturlari ustunida esa tahlil qilingan uch dastur bo‘yicha

umumlashgan holat beriladi; oxirgi ustunda har bir komponent bo‘yicha aniqlangan bo‘shliq qayd etiladi.

1.3-jadval

Me’yoriy-dasturiy hujjatlarda lingvomadaniy kompetensiya komponentlarining aks etishi

Komponent	**DTS (VMQ-124, 2013 – kuchini yo‘qotgan; 75-son buyruq, 2026)**	**Malaka talablari (60110900, 2025)**	**Fan dasturlari (O‘zDJTU, QDU)**	**Aniqlangan bo‘shliq**
Motivatsion-qadriyatli	VMQ-124: alohida talab yo‘q; 75-son buyruq: talab yo‘q [18; 9]	vatanparvarlik, tarixiy meros va qadriyatlarni anglash (ma’naviy-ma’rifiy faoliyat); global fikrlash; ko‘p madaniyatlilik muhitida ishlash [1, 7–9-b.]	madaniy o‘zlikni saqlash, O‘zbekiston va ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarni qiyoslash mavzulari [20]; o‘z madaniyati bilan qiyoslash natijasi [8]	ona va o‘zga madaniyatga munosabat alohida bo‘limlarda; munosabat natija sifatida baholanmaydi
Kognitiv-lingvomadaniy	VMQ-124: o‘rganilayotgan til mamlakati milliy xususiyatlarini tanib olish (sotsiomadaniy kompetensiya) [18]; 75-son buyruq: talab yo‘q [9]	tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish va madaniy xususiyatlarini anglash [1, 8-b.]	madaniyat tushunchasi, ekstralingvistik omillar, Hofstede modeli [20]; milliy ramzlar, davlat tuzilishi, oilaviy qadriyatlar mavzulari [8]	bilim hajmi va darajasi belgilanmagan; bilimlar mavzuli fon sifatida beriladi

Komponent	DTS (VMQ-124, 2013 – kuchini yo‘qotgan; 75-son buyruq, 2026)	Malaka talablari (60110900, 2025)	Fan dasturlari (O‘zDJTU, QDU)	Aniqlangan bo‘shliq
Lingvistik-semantik	VMQ-124: mos lingvistik shaklni tanlash (sotsiolingvistik kompetensiya) [18]; 75-son buyruq: talab yo‘q [9]	talab yo‘q	faqat idiomalarga oid bitta mavzu [20]; nazariy fanda madaniy mazmun yo‘q [6]	realiya, frazeologizm, konsept, lakuna bilan ishlash me’yoriy ta’minotdan tashqarida
Madaniyatlararo kommunikativ	VMQ-124 (C1): O‘zbekiston va til mamlakatlari madaniyatlararo va nutqiy xususiyatlarini farqlash [18]; 75-son buyruq: talab yo‘q [9]	o‘quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish [1, 8-b.]	salomlashish, xushmuomalalik, madaniy shok, “RADAR” texnikasi [20]; milliy-madaniy me’yorlarga amal qilish [8]	talab o‘quvchiga yo‘naltirilgan, bitiruvchining o‘z ko‘nikmasi darajasi ko‘rsatilmagan
Kasbiy-metodik	VMQ-124: talab yo‘q [18]; 75-son buyruq: talab yo‘q [9]	o‘quv materiallarini ishlab chiqish, tanlash va moslashtirish; o‘quvchilarning madaniy kelib chiqishini hisobga olish; CLIL [1, 8–9-b.]	materiallarni madaniy sezgirlik nuqtai nazaridan tahlil qilish; madaniyatni adabiyot va media orqali o‘rgatish (6-semestr) [20]	lingvomadaniy materialni tanlash va baholash ko‘nikmasi ajratilmagan; madaniy natija baholash mezonlari yo‘q

1.3-jadval ma’lumotlari me’yoriy-dasturiy ta’minotdagi bo‘shliqlarni besh guruhga ajratish imkonini beradi. Daraja bo‘shlig‘i shundan iboratki, 2021-yildan keyin chet tili ta’limida bitiruvchi darajasini, shu jumladan, uning madaniy tarkibini belgilaydigan davlat standarti mavjud emas, amaldagi oliy ta’lim standarti esa yo‘nalishlar tasnifi bilan cheklanadi [18; 9]. Natijada lingvomadaniy

kompetensiyaning qaysi darajasi bakalavriat bitiruvchisi uchun yetarli ekanligi me’yoriy jihatdan aniqlanmagan. Komponent bo‘shlig‘i bilan bog‘liq holat shuki, malaka talablari va fan dasturlarida kognitiv va madaniyatlararo kommunikativ talablar ustunlik qiladi, lingvistik-semantik komponent esa malaka talablarida umuman yo‘q, fan dasturlarida faqat idiomalarga oid bitta mavzu bilan ifodalangan [1, 8-b.; 20]. Lingvomadaniy kompetensiyaning o‘zagini tashkil etuvchi til birligidagi madaniy ma’noni talqin qilish ko‘nikmasi shu tariqa me’yoriy ta’minotdan tashqarida qolmoqda.

Qiyosiy asos bo‘shlig‘i quyidagicha namoyon bo‘ladi: ona madaniyatiga oid talablar ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bo‘limida, o‘rganilayotgan til madaniyatiga oid talablar kasbiy kompetensiyalar bo‘limida alohida berilgan, ularni qiyoslash talabi esa malaka talablarida yo‘q [1, 7–8-b.]; fan dasturlarida qiyoslash mavzular darajasida mavjud bo‘lsa-da [20; 8], natija sifatida baholanmaydi. Joylashuv bo‘shlig‘i fanlar katalogi bilan bog‘liq: fanlar katalogida madaniy mazmunga bag‘ishlangan majburiy fan yo‘q, madaniy mazmunga bag‘ishlangan maxsus kurs esa ko‘rib chiqilgan dasturda 6-semestrda joylashgan, ikkinchi kursda lingvomadaniy kompetensiya faqat amaliy til fanlari ichida, mavzuli fon sifatida rivojlantiriladi [1, 10-b.; 20]. Baholash bo‘shlig‘i esa barcha pog‘onalarga xos: malaka talablarida madaniy natija uchun ko‘rsatkich, fan dasturlarida esa madaniy natijani baholash mezonlari yo‘q, baholash variantli test va umumiy til darajasi talablariga tayanadi [1, 6-b.; 20; 8].

Aniqlangan bo‘shliqlar bir-biri bilan sabab-oqibat aloqasida turadi. Davlat standarti darajasida madaniy tarkib uchun daraja va deskriptor belgilanmagani malaka talablarida ham talablarning jarayon fe’llari bilan, o‘lchanmaydigan shaklda ifodalanishiga olib kelgan; malaka talablarida lingvistik-semantik komponent va qiyosiy asos ko‘zda tutilmagani esa fan dasturlarida madaniy mazmunning mavzuli fon yoki alohida kurs shaklida berilishini belgilagan; nihoyat, barcha pog‘onalarda ko‘rsatkichlar yo‘qligi baholash tizimida madaniy natijaning aks etmasligiga sabab bo‘lgan. Demak, bo‘shliqlarni bartaraf etish yuqori pog‘onadagi hujjatlarni o‘zgartirishni kutmasdan, oliy ta’lim muassasasi vakolatidagi o‘quv-metodik darajada – fan dasturlari mazmuni, topshiriqlar tizimi va baholash vositalarini ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin. Malaka talablarida o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining vakolati sifatida ko‘rsatilgani [1, 4-b.] va tanlov fanlari uchun 900 soat ajratilgani [1, 10-b.] bunday takomillashtirishning me’yoriy imkoniyatini yaratadi.

Tahlil natijalari monografiyaning ikkinchi bobi uchun quyidagi vazifalarni belgilaydi. Me’yoriy hujjatlarda madaniy tarkibning tarqoq va bir-biridan ajralgan holda berilgani lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga tizimli yondashuv zarurligini, malaka talablarida kompetensiyalar bitiruvchi natijasi sifatida ifodalanishiga qaramay ularning madaniy tarkibi o‘lchanmasligi esa kompetensiyaviy

yondashuvni ta’lim natijasi va ko‘rsatkichlar darajasida aniqlashtirishni talab etadi. Lingvistik-semantik komponentning me’yoriy ta’minotdan tashqarida qolgani lingvokulturologik yondashuvning, ona va o‘rganilayotgan madaniyatlar qiyosining yo‘qligi madaniyatlararo yondashuvning, madaniy mazmunning muloqot vaziyatidan ajralgan holda berilishi esa kommunikativ-faoliyatli yondashuvning metodologik asos sifatida tanlanishini asoslaydi. Fan dasturlarida madaniy mazmunning nazariy va amaliy fanlar o‘rtasida bog‘lanmagani fanlararo bog‘liqlik hamda nazariya bilan amaliyot birligi tamoyillarining, madaniy bilimlarning tizimlashmagan holda berilishi esa ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyillarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi tahlilida esa CEFR qo‘shimcha jildidagi plyurimadaniy kompetensiya deskriptorlari [4, 123–125-b.] va M.Byram modelidagi talqin qilish va bog‘lash hamda tanqidiy madaniy xabardorlik tarkiblari [28, 34-b.] milliy me’yoriy hujjatlardagi bo‘shliqlarni to‘ldiruvchi manba sifatida maxsus ko‘rib chiqilishi lozim.

Paragraf yuzasidan quyidagi xulosalar chiqariladi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashning me’yoriy-dasturiy ta’minoti uch pog‘onada – davlat ta’lim standarti, malaka talablari va fan dasturlari pog‘onalarida tahlil qilindi. 2013-yilgi chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standarti til fakultetlari bitiruvchilari uchun C1 darajasini belgilab, madaniy tarkibni sotsiolingvistik kompetensiya ichida retseptiv talab sifatida bergan, 2021-yilda kuchini yo‘qotgan; amaldagi oliy ta’lim davlat ta’lim standarti yo‘nalishlar tasnifini belgilaydi va lingvomadaniy kompetensiya darajasini nazarda tutmaydi. 60110900 yo‘nalishi malaka talablarida madaniy tarkib bitta umumlashgan kasbiy kompetensiya va bir nechta yondosh talablar shaklida mavjud, lingvistik-semantik komponent, ona va o‘rganilayotgan madaniyatlar qiyosi, ko‘rsatkichlar va madaniy mazmunga bag‘ishlangan majburiy fan esa ko‘zda tutilmagan. Tahlil qilingan fan dasturlarida madaniy mazmun maxsus kursda maqsad va mavzular darajasida, amaliy til fanida mavzuli fon darajasida ifodalangan, nazariy fanda esa mavjud emas; barcha dasturlarda madaniy natijani baholash mezonlari yo‘q. Aniqlangan daraja, komponent, qiyosiy asos, joylashuv va baholash bo‘shliqlari lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini oliy ta’lim muassasasi vakolatidagi fan dasturlari, topshiriqlar tizimi va baholash vositalari orqali takomillashtirish zarurligini asoslaydi va monografiyaning keyingi boblarida hal etiladigan vazifalarni belgilaydi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Birinchi bobda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinib, quyidagi natijalar olindi.

1. “Lingvomadaniy kompetensiya” tushunchasining mahalliy, MDH va xorijiy tadqiqotlardagi talqini bir xil emasligi aniqlandi: mahalliy adabiyotda “lingvomadaniy” va “lingvokulturologik kompetensiya” atamalari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llanadi va asosan tarjimon tayyorlash, kommunikativ strategiya hamda multimadaniy ta’lim kontekstida ta’riflanadi; MDH metodikasida tushuncha lingvomamlakatshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasi tadqiqotlari orqali bilim, ko‘nikma va motivlar tizimi sifatida ishlangan; xorijiy metodikada esa uning o‘rnini madaniyatlararo kommunikativ va plyurimadaniy kompetensiya egallaydi. Lingvomadaniy kompetensiya madaniyatlararo kompetensiyaning lisoniy asosi ekani, sotsiomadaniy kompetensiyadan esa tahlil birligi (lingvokulturema, madaniy konsept, kalit so‘z), til bilan bog‘liqlik darajasi va qiyoslanadigan madaniyatlar soniga ko‘ra farqlanishi asoslandi.

2. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: u ingliz tili birliklari (realiya, frazeologizm, kalit so‘z, madaniy konsept, nutq etiketi formulalari) va autentik matnlarda kodlangan madaniy ma’nolarni anglash, ularni o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyoslab talqin qilish, muloqot vaziyatiga mos qo‘llash hamda o‘quvchilar uchun metodik jihatdan qayta ishlab, ta’lim mazmuniga kiritish qobiliyatini ta’minlovchi komponentlarning integrativ birligidan iborat kasbiy-shaxsiy sifat sifatida belgilandi. Ta’rifning o‘ziga xosligi o‘qituvchining ikki tomonlama vazifasini – ingliz tilmadaniyatini o‘zi egallashi va uni o‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarga yetkazuvchi vositachi bo‘lishini – birlashtirishida namoyon bo‘ladi.

3. Lingvomadaniy kompetensiya bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining fan bo‘yicha, kommunikativ va metodik tayyorgarlik tarkiblarini kesib o‘tuvchi integrativ kompetensiya ekani aniqlandi va uning tuzilmasi beshta komponentdan iborat ekani asoslandi: motivatsion-qadriyatli (ingliz va o‘zbek madaniyatlariga ochiqlik, hurmat, milliy o‘zlikni anglash), kognitiv-lingvomadaniy (realiya, fon bilimlar, madaniy konseptlar va qiyosiy bilimlar), lingvistik-semantik (til birliklaridagi madaniy ma’noni aniqlash va izohlash), madaniyatlararo kommunikativ (lingvomadaniy bilimni muloqot vaziyatiga mos qo‘llash va vositachilik) va kasbiy-metodik (lingvomadaniy materialni tanlash, darsga integratsiyalash va baholash). Har bir komponent uchun beshtadan ko‘rsatkich belgilanib, komponentlar tajriba-sinov ishining shu nomdagi besh mezoniga aylantirildi; komponentlar o‘rtasidagi refleksiv qayta aloqa rivojlantirish jarayonining siklik xususiyatini belgilashi ko‘rsatildi.

4. Me’yoriy-dasturiy ta’minotning uch pog‘onasida lingvomadaniy kompetensiya uchun daraja va o‘lchanadigan natija belgilanmagani aniqlandi. 2013-yilgi chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standarti til fakultetlari bitiruvchilari uchun C1 darajasini belgilab, madaniy tarkibni sotsiolingvistik kompetensiya ichida retseptiv talab sifatida bergan va 2021-yilda kuchini yo‘qotgan; amaldagi oliy ta’lim davlat

ta’lim standarti yo‘nalishlar tasnifi bilan cheklanadi. 60110900 yo‘nalishi malaka talablarida madaniy tarkib bitta umumlashgan kasbiy kompetensiya va bir nechta yondosh talablar shaklida mavjud, ammo lingvistik-semantik komponent, ona va o‘rganilayotgan madaniyatlar qiyosi va ko‘rsatkichlar ko‘zda tutilmagan; ingliz tili fanlar katalogida madaniy mazmunga bag‘ishlangan majburiy fan yo‘q. Tahlil qilingan fan dasturlarida madaniy mazmun maxsus kursda kech semestrda, amaliy til fanida mavzuli fon darajasida berilgan, nazariy fanda esa mavjud emas, madaniy natijani baholash mezonlari esa barcha dasturlarda yo‘q.

5. Aniqlangan daraja, komponent, qiyosiy asos, joylashuv va baholash bo‘shliqlari o‘zaro sabab-oqibat aloqasida turishi va ularni oliy ta’lim muassasasi vakolatidagi o‘quv-metodik darajada – fan dasturlari mazmuni, topshiriqlar tizimi va baholash vositalari orqali bartaraf etish mumkinligi asoslandi. Tahlil natijalari ikkinchi bobda lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asosi sifatida tizimli, kompetensiyaviy, lingvokulturologik, madaniyatlararo va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlarni hamda ularga mos didaktik tamoyillarni, uchinchi bobda esa ikkinchi kurs amaliy til fanlariga lingvomadaniy birliklar va qiyosiy topshiriqlarni integratsiyalovchi, besh mezon va to‘rt darajaga asoslangan baholash rubrikasi bilan ta’minlangan metodikani ishlab chiqish zaruratini belgiladi.

II BOB. LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK-METODOLOGIK ASOSLARI

2.1-§. Lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik yondashuvlari

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini loyihalash uning maqsadi, mazmuni, texnologiyasi va baholash tizimini qaysi nazariy pozitsiyadan kelib chiqib tanlash lozimligini oldindan belgilab olishni talab etadi. Metodologik yondashuv bu vazifani hal etuvchi tayanch kategoriya bo‘lib, u o‘rganilayotgan pedagogik hodisaga qarashning boshlang‘ich nuqtasini, uni tadqiq etish va o‘zgartirishning yetakchi g‘oyasini hamda shu g‘oyadan kelib chiqadigan talablar tizimini ifodalaydi. Lingvomadaniy kompetensiya til birliklarida kodlangan madaniy ma’no, madaniyatlararo muloqot va kasbiy-metodik faoliyat kesishgan nuqtada shakllanuvchi integrativ sifat bo‘lgani sababli, uni bitta yondashuv doirasida to‘liq tavsiflab bo‘lmaydi: til va madaniyat birligini ochib beruvchi yondashuv madaniyatlar qiyosi masalasini, qiyosni ta’minlovchi yondashuv esa natijani o‘lchash masalasini o‘z-o‘zidan hal etmaydi. Mazkur paragrafda lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asosi sifatida tizimli, kompetensiyaviy, lingvokulturologik, madaniyatlararo (interkultural) va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlar tahlil qilinadi; har bir yondashuvning mohiyati, mahalliy, MDH va xorijiy olimlar talqini, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi vazifasi hamda u bevosita ta’sir ko‘rsatadigan komponentlar aniqlanadi, so‘ng yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi tuzilmasi asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarorining 1-bandida pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qatorida “pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish” hamda “yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish” vazifalari belgilangan [12]. O‘quv reja va dasturlarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish ularning metodologik asoslarini aniq belgilashni, yuksak madaniyatli va baholash mezonlarini egallagan pedagog kadrni shakllantirish esa madaniy tarkibni ta’lim natijasi sifatida loyihalash va o‘lchashni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlarini asoslash qarorda belgilangan vazifalarni chet tili o‘qituvchisi tayyorlash sohasida ilmiy jihatdan ta’minlashning dastlabki sharti hisoblanadi.

Yondashuvlarni tanlash ixtiyoriy jarayon emas, u monografiyaning birinchi bobida olingan natijalardan kelib chiqadi. 1.3-§ da o‘tkazilgan tahlil me’yoriy-dasturiy hujjatlarda madaniy tarkibning tarqoq berilganini, malaka talablarida madaniy kompetensiya o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarga ega emasligini, lingvistik-semantik komponent me’yoriy ta’minotdan tashqarida qolganini, ona va o‘rganilayotgan madaniyatlar qiyosi ko‘zda tutilmaganini hamda madaniy mazmun muloqot vaziyatidan ajralgan holda berilishini ko‘rsatadi. Ushbu besh bo‘shliqning har biri muayyan metodologik javobni talab qiladi: tarqoqlik tizimli yondashuvni, o‘lchanmaslik kompetensiyaviy yondashuvni, til birligidagi madaniy ma’noning e’tibordan chetda qolishi lingvokulturologik yondashuvni, qiyosiy asosning yo‘qligi madaniyatlararo yondashuvni, muloqotdan ajralganlik esa kommunikativ-faoliyatli yondashuvni. Zh.V.Demyanova [145] ham lingvostranovedcheskaya kompetensiyani shakllantirish modelini tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va lingvostranovedcheskiy yondashuvlar majmuiga tayangan holda quradi; N.M.Axmedova [122] esa kasbiy-metodik tayyorgarlik konsepsiyasining metodologik asoslarini falsafiy, umumilmiy, aniq ilmiy va texnologik darajalarga ajratib, umumilmiy daraja tarkibida tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlarni, aniq ilmiy darajada esa kommunikativ va refleksiv yondashuvlarni belgilaydi. Tadqiqotimizda bu tajribaga tayanib, tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlar umumilmiy daraja, lingvokulturologik, madaniyatlararo va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlar esa aniq ilmiy (lingvodidaktik) daraja sifatida qaraladi.

Tizimli yondashuv o‘rganilayotgan obyektni o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan, ularning yig‘indisiga teng bo‘lmagan yangi integrativ sifatga ega yaxlitlik sifatida ko‘rishni talab etadi. L.fon Bertalanfi [26] turli fanlar uchun umumiy bo‘lgan tizimlar nazariyasining asoslari, rivojlanishi va qo‘llanishini ishlab chiqqan bo‘lib, N.M.Axmedova bu nazariyani o‘qituvchi tayyorlash konsepsiyasining falsafiy asoslari qatorida keltiradi [122]. MDH falsafiy-metodologik maktabida tizimli yondashuvning shakllanishi va mohiyati I.V.Blauberg va E.G.Yudin [81] tadqiqotida maxsus o‘rganilgan bo‘lib, bu asar tizimli yondashuvni gumanitar fanlarga, jumladan, pedagogikaga tatbiq etishning nazariy manbalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlarda bu yo‘nalish ta’lim jarayonini maqsad, mazmun, shakl, metod, vosita va natija komponentlarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida loyihalash talabida namoyon bo‘ladi.

Lingvomadaniy kompetensiya muammosiga nisbatan tizimli yondashuv mahalliy tadqiqotlarda bevosita qo‘llana boshlagan. A.Yusupov [78] lingvomadaniy kompetensiyani ijtimoiy ahamiyatga ega tizim sifatida o‘rganish, uni talqin qilishda tizimli-funksional yondashuvni qo‘llash va lingvistik tahlilni kognitiv komponent bilan to‘ldirish zarurligini ta’kidlaydi. M.O.Rakhimov [57] ingliz tilini o‘qitishda lingvomadaniy kompetentlikni rivojlantirishni alohida usullar to‘plami sifatida emas,

kompleks strategiya sifatida taklif etib, lingvomadaniy kompetensiyaning mohiyati ikki va undan ortiq til hamda madaniyatning sinergik o‘zaro ta’siriga asoslanishini ko‘rsatadi [57]. N.M.Axmedova [122] kasbiy-metodik tayyorgarlikni metodik konsepsiya o‘zagi atrofida beshta komponentni birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida quradi, uning modelini maqsadli, jarayoniy-bosqichli, ta’minlovchi va natijaviy-diagnostik bloklarga ajratadi. Ushbu uch tadqiqotning umumiy jihati shundaki, ularda lingvomadaniy va kasbiy tayyorgarlik bir-biri bilan aloqasiz ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, elementlari o‘zaro taqozo etuvchi tuzilma sifatida talqin qilinadi.

MDH lingvodidaktikasida tizimli yondashuv madaniy mazmunni o‘qitish modellarini qurishda tayanch sifatida qo‘llanadi. Zh.V.Demyanova [145] lingvostranovedcheskaya kompetensiyani shakllantirish modelini maqsadni belgilovchi, predmet-mazmuniy, jarayon-faoliyat va baholash-natija bloklaridan iborat tizim sifatida taqdim etadi, kompetensiyaning o‘zini esa bilish, praksiologik va motivatsion komponentlarning birligi deb biladi [145]. A.V.Getmanskaya [143] ishlab chiqqan integrallashgan kurs 10 siklga birlashtirilgan 23 blokdan iborat bo‘lib, har bir blok madaniyatga oid ma’ruza va unga bog‘liq mashqlar tizimini, har bir sikl esa madaniyatshunoslik loyihasini o‘z ichiga oladi; bunday tuzilma madaniy bilim, til birliklari bilan ishlash va loyiha faoliyatini yagona izchillikda birlashtiradi. V.V.Vorobyov [85] lingvomadaniy kompetensiyani madaniy qadriyatlarning til vositasida ifodalangan tizimini bilish va anglash sifatida ta’riflab, kompetensiya obyektining o‘zi ham tizimli xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. MDH tadqiqotlaridan kelib chiqadigan metodik xulosa aniq: madaniy mazmun alohida faktlar ro‘yxati sifatida berilganda talabaning bilimi tarqoq qoladi, u bloklar, sikllar va loyihalar ketma-ketligi sifatida tashkil etilganda esa madaniy bilim tizimli tasavvurga aylanadi.

Xorijiy metodikada tizimli yondashuv ko‘pincha o‘quv dasturini loyihalash va komponentlar muvofiqligi talabi orqali ifodalanadi. J.C.Richards va T.S.Rodgers [59] kompetensiyaga asoslangan til ta’limi, standartlar va CEFR ni bitta bobda birgalikda ko‘rib chiqadi; bunday birlashtirish natijaga yo‘naltirilgan til ta’limida maqsad, mazmun va baholashni yagona tizimda muvofiqlashtirish g‘oyasini aks ettiradi. A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] madaniyatlararo til ta’limi masalasini til, ma’no, madaniyat, o‘rganish, muloqot va baholash komponentlarining yaxlit tizimi sifatida tahlil qilib, rejalashtirishdan dasturni baholashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni bitta nazariy asosga bo‘ysundiradi. CEFR qo‘shimcha jildi [4] esa plyurilingval va plyurimadaniy kompetensiyani alohida tillar va madaniyatlar bo‘yicha alohida egallanadigan ko‘nikmalar emas, barcha til va madaniy tajriba hissa qo‘shadigan yagona repertuar sifatida tavsiflaydi; bu qoida ham til va madaniyat tajribasini tizimli butunlik sifatida ko‘rishni anglatadi.

Tahlil qilingan qarashlardan tizimli yondashuvning lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi vazifasi uch darajada belgilanadi. Obyekt darajasida

u lingvomadaniy kompetensiyani motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlarning siklik aloqali tizimi sifatida ko‘rishni talab etadi; bu tuzilma 1.2-§ da asoslangan. Jarayon darajasida u takomillashtirilgan metodikani maqsad, metodologik, mazmun, texnologik va baholash-natija bloklaridan iborat yaxlit model sifatida loyihalashni, bloklar o‘rtasida bevosita va qayta aloqani ta’minlashni nazarda tutadi. Mazmun darajasida esa amaliy ingliz tili fanlari, nazariy fanlar va metodik fanlardagi madaniy elementlarni bir-biri bilan bog‘lab, 1.3-§ da aniqlangan tarqoqlik bo‘shlig‘ini bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu sababli tizimli yondashuv besh komponentning barchasiga ta’sir ko‘rsatadi va qolgan to‘rt yondashuvni yagona metodologik asosga birlashtiruvchi integratsiyalovchi yondashuv vazifasini bajaradi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim natijasini bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi bilan emas, ularni real kasbiy va hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati bilan belgilaydi. MDH pedagogikasida bu yondashuvning nazariy asoslari I.A.Zimnyaya [89] tadqiqotida tayanch kompetensiyalarni ta’lim natijasining yangi paradigmasi sifatida talqin etish orqali, A.V.Xutorskoy [117] ishida esa tayanch kompetensiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasining komponenti sifatida asoslash orqali ishlab chiqilgan. Bu ikki yo‘nalish kompetensiyaviy yondashuvning ikki jihatini ochadi: birinchisi ta’lim natijasini qayta ta’riflash, ikkinchisi esa natijani shaxsning o‘z faoliyati va qadriyatlari bilan bog‘lash. Zh.V.Demyanova [145] mutaxassis kompetentligi kasbiy kompetensiyalarning yetarlicha yuqori darajada shakllanganligi va ularni qo‘llash tajribasi asosida yuzaga kelishidan kelib chiqib, talabaga nisbatan “kompetensiya” atamasini qo‘llaydi va uni bilim, ko‘nikma, qobiliyat va motivatsiyaga asoslangan, kasbiy faoliyat jarayonida kompetentlikka aylanadigan tavsif sifatida belgilaydi; tadqiqotimizda ham shu farqlash saqlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning metodik qimmati natijani o‘lchanadigan shaklga keltirish imkoniyatida ko‘rinadi. Zh.V.Demyanova [145] lingvostranovedcheskaya kompetensiya rivojlanganligini bilish, praksiologik va motivatsion mezonlar bo‘yicha baholab, har bir mezon uchun ko‘rsatkichlar va diagnostika vositalarini alohida belgilaydi: bilish mezoni bilimlarning tizimliligi, to‘liqligi va anglanganligi, praksiologik mezon harakatlarni bajarishning to‘g‘riligi va mustaqilligi, motivatsion mezon esa qiziqish va motivlar tavsifi orqali aniqlanadi. Xorijiy metodikada J.C.Richards va T.S.Rodgers [59] kompetensiyaga asoslangan til ta’limini ta’lim natijalarini aniq va kuzatiladigan harakatlar shaklida ifodalash, o‘qitishni shu natijalarga yo‘naltirish hamda ularni standartlar va CEFR darajalari bilan bog‘lash yo‘nalishi sifatida tavsiflaydi. D.K.Deardorff [32] madaniyatlararo kompetensiyani internatsionalizatsiyaning ta’lim natijasi sifatida baholashga oid ekspertlar kelishuvini tahlil qilib, munosabatlar, bilim va ko‘nikmalardan ichki va tashqi natijalarga o‘tuvchi modelni taklif etadi; bu model madaniy tarkibni ham

kompetensiyaviy mantiqda – kuzatiladigan natija va mezonlar orqali – baholash mumkinligini ko‘rsatadi.

Mahalliy metodikada kompetensiyaviy yondashuv chet tili o‘qituvchisini tayyorlashning me’yoriy va o‘quv-metodik asosiga aylangan. J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova va Sh.S.Ashurov [128] ingliz tili bo‘limlari talabalari uchun ingliz tilida yaratilgan “English Language Teaching Methodology” darsligini bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltiradi. N.M.Axmedova [122] kasbiy-metodik tayyorgarlikning besh komponentini o‘n ikki o‘lchanadigan kasbiy-metodik kompetensiyaga (KMK-1 – KMK-12) ajratib, ular qatorida madaniyatlararo mazmunni darsga integratsiyalash kompetensiyasini (KMK-7) alohida belgilaydi va kompetensiyalarni EPOSTL bo‘limlari hamda malaka talablari bilan muvofiqlashtiradi. Malaka talablarida esa bitiruvchining kasbiy kompetensiyalari qatorida “tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish va madaniy xususiyatlarini anglash, o‘quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va global fikrlash kompetentligini oshirish” ko‘rsatilgan [1]. Mahalliy tajriba kompetensiyaviy mantiq milliy o‘qituvchi ta’limida qaror topganini tasdiqlaydi, biroq 1.3-§ da ko‘rsatilganidek, madaniy band jarayon fe’llari bilan ifodalangani sababli o‘lchanadigan natijaga aylantirilmagan.

Kompetensiyaviy yondashuv lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda maqsadni natija tilida ifodalash, ya’ni kompetensiyani komponentlar, mezonlar va ko‘rsatkichlarga ajratish vazifasini bajaradi. Uning talabi bo‘yicha lingvomadaniy kompetensiyaning har bir komponentiga shu nomdagi mezon mos qo‘yiladi, har bir mezon beshta kuzatiladigan ko‘rsatkich orqali aniqlanadi va to‘rt daraja bo‘yicha baholanadi; bu tamoyil 1.2-jadvalda amalga oshirilgan. Yondashuv besh komponentning barchasini o‘lchanadigan shaklga keltirsa-da, uning ta’siri ayniqsa kasbiy-metodik komponentda kuchli namoyon bo‘ladi, chunki aynan shu komponent bo‘lajak o‘qituvchining lingvomadaniy bilimini kasbiy harakatga – materialni tanlash, topshiriqqa aylantirish va natijani baholashga – aylantiradi. Motivatsion-qadriyatli komponentni o‘lchash ham kompetensiyaviy yondashuvsiz amalga oshmaydi: munosabat va qadriyat yo‘nalishi kuzatiladigan ko‘rsatkichlarda, masalan, madaniy farqlarga stereotipsiz munosabat yoki mustaqil lingvomadaniy izlanishga intilishda ifodalangandagina baholash obyektiga aylanadi.

Lingvokulturologik yondashuv chet tilini o‘qitishda til birligini madaniy ma’no tashuvchisi sifatida ko‘rishni, madaniyatni esa til orqali, uning leksik, frazeologik va diskursiv birliklari orqali o‘rganishni talab etadi. Bu yondashuvning ildizlari E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov [82] asoslagan lingvostranovedeniye konsepsiyasiga borib taqaladi; A.S.Mamontov [98] ta’kidlaganidek, mualliflar ilgari surgan til va madaniyatni birgalikda o‘rganish tamoyili keyingi lingvokulturologik izlanishlarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. V.A.Maslova [100]

lingvokulturologiyani tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishuvida vujudga kelgan, jonli milliy tilda gavdalangan va til jarayonlarida namoyon bo‘ladigan madaniyatni o‘rganuvchi fan sifatida talqin etadi; V.V.Vorobyov [85] esa lingvomadaniy kompetensiyani aynan madaniy qadriyatlarning til vositasida ifodalangan tizimini bilish va anglash bilan bog‘laydi. Demak, lingvokulturologik yondashuvda o‘qitish obyekti madaniy fakt emas, madaniy faktni ifodalovchi va saqlovchi til birligidir.

A.S.Mamontov [98] lingvokulturologiya natijalarini ta’limga ko‘chirishning metodik shartlarini ishlab chiqib, materialni tanlash va minimallashtirishda o‘rganuvchining ona madaniyatini hisobga olish birinchi navbatdagi vazifa ekanini ko‘rsatadi va tanlashning to‘rt mezonini – tipiklik, kommunikativ qimmat, mamlakatshunoslik qimmati va stereotipdan himoyalanganlikni ajratadi. Muallif etnosni farqlovchi belgilar faqat umuminsoniy, birlashtiruvchi belgilar bilan tuzilmaviy oppozitsiyada ko‘rib chiqilganda anglanishini asoslaydi [98], imo-ishora, mimika va poza kabi paralingvistik vositalarning ham milliy-madaniy jihatdan belgilanganini qayd etadi [98]. Bu qoidalar o‘zbek auditoriyasi uchun ingliz tili lingvomadaniy materialini tanlashda bevosita qo‘llanadi: ingliz va o‘zbek madaniyatidagi tushuncha avval umumiy belgilari bo‘yicha, so‘ng farqlovchi belgilari bo‘yicha tahlil qilinganda talaba farqni ekzotika sifatida emas, qonuniy madaniy variant sifatida qabul qiladi.

Xorijiy tilshunoslikda lingvokulturologik yondashuvga mos keluvchi tahlil apparati kognitiv semantika va madaniy lingvistika doirasida ishlab chiqilgan. A.Wierzbicka [76] har bir tilda madaniyatning asosiy qadriyatlarini aks ettiruvchi kalit so‘zlar mavjudligini ingliz, rus, polyak, nemis va yapon tillari materialida isbotlaydi; avstraliya inglizchasidagi “mate” so‘zi tahlili bir xil shakldagi so‘z ingliz tilining turli variantlarida turlicha madaniy yuklama tashishini ko‘rsatadi. F.Sharifian [64] tilda kodlangan madaniy konseptualizatsiyalarni madaniy andozalar (cultural schemas), madaniy kategoriyalar va madaniy metaforalar ko‘rinishida tasniflaydi va bu apparatni Jahon inglizchalari hamda ingliz tilini xalqaro til sifatida o‘qitishga tatbiq etadi [64]. C.Kramsch [48] tilning madaniy voqelikni ifodalashi, gavdalantirishi va ramziy tarzda namoyon etishini ko‘rsatib, til birligini madaniyatga kirishning tabiiy yo‘li sifatida asoslaydi. Xorijiy tadqiqotlar lingvokulturologik yondashuvni realiya va fon leksika bilan cheklamasdan, kalit so‘z, madaniy andoza va metafora darajasiga olib chiqish imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda lingvokulturologik yondashuv ingliz tilini o‘qitish strategiyasining mazmuniy asosi sifatida talqin etiladi. M.O.Rakhimov [57] ingliz tilini o‘qitishda lingvomadaniy yondashuv so‘z va iboralardagi semantik konseptga urg‘u berishini ko‘rsatib, “home”, “privacy”, “fair play”, “humor” kabi tushunchalarning ingliz tilida o‘ziga xos konseptualizatsiya qilinishini, o‘rganuvchi esa lisoniy belgining semantik mazmunini aniqlab, uni so‘z tanlovining assotsiativ motivi bilan bog‘lay

olishi lozimligini ta’kidlaydi. D.Naimova [53] multimadaniy kompetensiyani rivojlantirishda lingvokulturologik yondashuv madaniy kodlar, kommunikativ xatti-harakatlar hamda stereotiplar va mental xaritalarga urg‘u berishini qayd etadi. U.U.Jumanazarov [129] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini rivojlantirishni alohida tadqiq predmetiga aylantirgan bo‘lib, frazeologik birlik madaniy ma’no eng zich jamlangan til qatlami bo‘lgani uchun bu ish lingvokulturologik yondashuvning o‘qituvchi tayyorlashdagi amaliy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. A.Yusupov [78] o‘zbek lingvomadaniyatidagi “usta” lingvokulturemasining denotativ va konnotativ ma’nolari matn turiga ko‘ra o‘zgarishini ko‘rsatib, madaniy semantikaning kontekstga bog‘liqligini isbotlaydi.

Lingvokulturologik yondashuv lingvomadaniy kompetensiyani madaniyatlararo kompetensiyadan farqlovchi lisoniy o‘zakni ta’minlaydi va shu bois takomillashtirilgan metodikada mazmunni tanlashning yetakchi asosi hisoblanadi. Uning bevosita ta’siri kognitiv-lingvomadaniy va lingvistik-semantik komponentlarda namoyon bo‘ladi: birinchisida realiya, fon bilimlar, kalit tushunchalar va madaniy konseptlar haqidagi bilim, ikkinchisida esa til birligida kodlangan madaniy ma’noni aniqlash, denotativ va konnotativ ma’nolarni farqlash, frazeologizm motivini izohlash va lakunalarni topish ko‘nikmasi shakllanadi. Yondashuv 1.3-§ da aniqlangan komponent bo‘shlig‘iga – malaka talablarida lingvistik-semantik komponentning umuman aks etmaganiga – bevosita javob beradi. Uning metodik talablari quyidagilar: lingvomadaniy ta’lim mazmuni realiya, frazeologizm, kalit so‘z, madaniy konsept va nutq etiketi formulalari kabi aniq birliklar asosida tanlanadi; birliklar A.S.Mamontov mezonlari bo‘yicha saralanadi; har bir birlik ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobil bilan qiyoslab o‘rganiladi; tahlil so‘z darajasidan autentik matn darajasiga qarab kengayib boradi.

Madaniyatlararo (interkultural) yondashuv chet tilini o‘rganishni ikki va undan ortiq madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida ko‘radi va o‘rganuvchining maqsadini ona tili sohibiga taqlid qilishda emas, madaniyatlar o‘rtasida vositachi bo‘la olishda belgilaydi. Bu yondashuvning nazariy asosini M.Byram [28] modeli tashkil etadi: muallif madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tarkibida lingvistik, sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyalar bilan birga munosabatlar, bilimlar, talqin qilish va bog‘lash, kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari hamda tanqidiy madaniy xabardorlikni ajratadi. Talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmasi boshqa madaniyatga oid hujjat yoki voqeani tushuntirib, uni o‘z madaniyatidagi hodisa bilan bog‘lash qobiliyatini [28], tanqidiy madaniy xabardorlik esa o‘z va o‘zga madaniyatdagi qarashlar, amaliyotlar va mahsulotlarni aniq mezonlar asosida baholash qobiliyatini [28] anglatadi. Bu ikki tarkib madaniyatlararo yondashuvning qiyosiy mohiyatini aniq ifodalaydi: o‘zga madaniyat o‘z madaniyatiga nisbatan anglanadi.

A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] madaniyatlararo nuqtai nazardan til o‘qitish va o‘rganishning besh tamoyilini – faol qurish (active construction), aloqalar o‘rnatish (making connections), ijtimoiy o‘zaro ta’sir (social interaction), refleksiya (reflection) va mas’uliyat (responsibility) tamoyillarini asoslaydi. Aloqalar o‘rnatish tamoyili o‘rganuvchidan mavjud lingvistik va madaniy tasavvurlarini yangi tajriba bilan qiyoslashni, refleksiya tamoyili o‘z talqin doirasidan chiqib, yangi nuqtai nazarni izlashni, mas’uliyat tamoyili esa boshqa madaniyat vakillariga hurmat va madaniyatlararo sezgirlikni talab qiladi. D.K.Deardorff [32] modelida madaniyatlararo kompetensiyaning boshlang‘ich qatlamini hurmat, ochiqlik va qiziquvchanlik tashkil etadi, natija esa samarali va o‘rinli muloqot sifatida belgilanadi. K.Risager [60] chet tili o‘qitish diskursi ko‘pincha murakkablikdan ko‘ra bir xillikka urg‘u berishini tanqid qilib, ingliz tilini yagona “ingliz madaniyati” bilan aynanlashtirish xavfini ko‘rsatadi; C.Kramsch [48] ham bitta diskurs jamoasi a’zolari turli hayotiy tajribaga ega bo‘lishini, madaniyat bir jinsli emasligini ta’kidlaydi. CEFR qo‘shimcha jildi [4] plyurimadaniy repertuarga tayanish shkalasida “o‘zgalik” bilan ishlash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash qobiliyatini deskriptorlar darajasida tavsiflaydi.

MDH lingvodidaktikasida madaniyatlararo yondashuv madaniyatlar dialogi g‘oyasi orqali shakllangan. V.V.Safonova [109] xalqaro muloqot tillarini madaniyatlar va sivilizatsiyalar dialogi kontekstida o‘rganish konsepsiyasini ishlab chiqqan bo‘lib, Zh.V.Demyanova uni oliy ta’lim tizimida lingvostranovedcheskiy yondashuvni amalga oshirishning umumiy qoidalarini belgilagan olim sifatida keltiradi [145]. S.G.Ter-Minasova [114] til va madaniyatlararo kommunikatsiya munosabatini tizimli tadqiq etgan bo‘lib, Zh.V.Demyanova bu konsepsiyani o‘z tadqiqotining nazariy asoslari qatorida ko‘rsatadi [145]. A.V.Getmanskaya [143] madaniyatlar polilogi kontekstidagi ta’limni madaniyatlar dialogi kontekstidagi ta’limga nisbatan yuqoriroq bosqich sifatida asoslab, kompetensiya shakllanganligi belgilari qatoriga ona madaniyati yodgorliklarini jahon madaniyati namunalari bilan qiyoslash va o‘z madaniyatini ingliz tilida chet ellik suhbatdoshga taqdim eta olishni kiritadi. MDH olimlari qarashlari madaniyatlararo yondashuvning ikki talabini – madaniyatlar teng huquqli dialogini va ona madaniyatini o‘rganilayotgan til vositasida ifodalashni – metodik darajaga olib chiqadi.

Mahalliy tadqiqotlarda madaniyatlararo yondashuv ingliz tili fakulteti tayyorgarligining yaxlit maqsadi sifatida ishlangan. G.T.Maxkamova [101] ingliz tili fakultetlari talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqqan, keyingi doktorlik tadqiqotida [131] esa filologiya talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish masalasini ingliz tili materialida tizimli yoritgan. Sh.P.Raximova [135] talabalarning yozma diskurs kompetensiyasini multimadaniy jihatdan takomillashtirib, madaniyatlararo yozma muloqotda stereotiplardan voz kechish, madaniy jihatdan o‘ziga xos ishoralarni

tushunish va tilni turli madaniy me’yorlarga moslashtirish zarurligini asoslaydi. E.Sh.Kholmatova [46] bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari kontingentida lingvopragmatik qiyoslash va kommunikativ aktlar tahliliga asoslangan tadqiqotda o‘zbek va rus ishtirokchilarining kommunikativ strategiyalari madaniy qadriyatlar ta’sirida farqlanishini aniqlaydi. N.B.Nazarova, S.O.Uyto‘lsinova va M.B.Abbosova [133] 60111800 yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlagan o‘quv qo‘llanmada madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, tanqidiy madaniy ong va global fuqarolikni rivojlantirishga qaratilgan refleksiv topshiriqlar va muhokama savollarini taklif etadi. D.Naimova [53] esa lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda madaniy stereotiplar muammo sifatida yuzaga chiqishini qayd etadi.

Madaniyatlararo yondashuv lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda qiyosiy asosni ta’minlash vazifasini bajaradi: u o‘zbek tilmadaniyatini kompetensiyaning majburiy tayanchiga aylantiradi va 1.3-§ da qayd etilgan qiyosiy asos bo‘shlig‘ini bartaraf etadi. Yondashuvning ta’siri birinchi navbatda motivatsion-qadriyatli komponentda – madaniy farqlarga ochiq, hurmatli va stereotipsiz munosabatni, milliy madaniy o‘zlikni anglashni shakllantirishda, shuningdek, madaniyatlararo kommunikativ komponentda – o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etish, madaniyatlararo tushunmovchilikni aniqlash va vositachilik qilishda namoyon bo‘ladi. Lingvokulturologik yondashuv bilan qiyoslaganda madaniyatlararo yondashuvning yo‘nalishi teskari: birinchisi til birligidan madaniyatga qarab harakatlansa, ikkinchisi madaniyatlararo vaziyatdan til vositalariga qarab yo‘naladi. Aynan shu teskari yo‘nalishlar birlashtirilganda lingvomadaniy kompetensiya madaniy semantikani anglashdan uni madaniyatlararo vaziyatda o‘rinli qo‘llashgacha bo‘lgan to‘liq doirani qamrab oladi. Metodikada bu yondashuv madaniy taqqoslash topshiriqlari, madaniyatlararo keyslar va refleksiv yozuvlar orqali amalga oshiriladi.

Kommunikativ-faoliyatli yondashuv chet tilini o‘zlashtirishni muloqot faoliyati jarayonida, nutqiy harakatlarni real yoki unga yaqin kommunikativ vaziyatlarda bajarish orqali tashkil etishni talab etadi. Yondashuvning psixologik asosini A.N.Leontyev [97] faoliyat nazariyasi tashkil etadi: muallif faoliyatning umumiy tuzilishini, uning motiv, maqsad va harakatlar bilan bog‘liqligini hamda faoliyat jarayonida shakllanadigan shaxsiy ma’no tushunchasini tahlil qiladi. I.A.Zimnyaya [146] chet tilidagi nutqiy faoliyatni o‘qitishning mustaqil va global obyekti sifatida ko‘rib, uning tarkibiga nisbatan xususiyroq o‘qitish obyektlarini kiritadi. E.I.Passov [105] chet tilidagi muloqotga o‘rgatishning kommunikativ metodikasi asoslarini ishlab chiqib, o‘qituvchi faoliyatini muloqotga o‘rgatish jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan tavsiflaydi; N.D.Galskova va N.I.Gez [142] esa chet tillarini o‘qitish nazariyasini lingvodidaktika va metodikaning yaxlit tizimi sifatida tavsiflab, o‘qituvchining darsda nutqiy muloqotni rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilish faoliyatini alohida ajratadi.


Xorijiy metodikada bu yondashuvning ildizi kommunikativ kompetensiya nazariyasida. D.Hymes [43] grammatik bilim bilan cheklangan til qobiliyati tushunchasiga qarshi kommunikativ kompetensiya tushunchasini ilgari surgan, M.Canale va M.Swain [29] esa kommunikativ yondashuvlarning nazariy asoslarini va kommunikativ kompetensiya tarkibini belgilagan; M.Byram modeli aynan shu an'ananing davomi bo'lib, kommunikativ kompetensiyani madaniyatlararo tarkib bilan kengaytiradi [28]. W.Littlewood [51] kommunikativ til o'qitishda kommunikativ faoliyatgacha bo'lgan (strukturaviy va kvazikommunikativ) faoliyat turlarini hamda kommunikativ faoliyat turlarini – funksional muloqot va ijtimoiy o'zaro ta'sir faoliyatlarini – ajratadi; ijtimoiy o'zaro ta'sir faoliyatida o'rganuvchi til shaklining funksional ma'nosi bilan birga ijtimoiy ma'nosini ham hisobga olishi talab etiladi. J.C.Richards va T.S.Rodgers [59] kommunikativ til o'qitishni hozirgi davr yondashuvlarining yetakchisi sifatida tahlil qiladi. Bu qarashlar lingvomadaniy bilimni muloqot faoliyatidan tashqarida emas, uning ichida egallash zarurligini asoslaydi.

MDH va mahalliy lingvodidaktikada kommunikativ-faoliyatli yondashuv madaniy mazmun bilan ishlash tajribasida ham sinovdan o'tgan. A.V.Getmanskaya [143] integrallashgan kurs doirasida mashqlarni nokommunikativ, shartli-kommunikativ va haqiqiy kommunikativ turlarga ajratadi, madaniyat yodgorliklarini tavsiflash va loyiha ustida ishlashni tayyorgarlik, ijro va yakuniy bosqichlarda tashkil etadi; tajriba natijalariga ko'ra sinaluvchilar nutqining hajmi uch barobar oshgani va har bir sinaluvchi o'rtacha 84 ta madaniy belgilangan leksik birlikni variativ birikmalarda qo'llagani qayd etiladi. Mahalliy metodikada J.J.Jalolov [127] chet til o'qitish metodikasining umumnazariy asoslarini nutq faoliyati turlariga o'rgatish nuqtai nazaridan tizimlashtiradi, M.X.Gulyamova [126] esa ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuvni ishlab chiqadi. M.O.Rakhimov [57] lingvomadaniy kompetensiyani faktlar yig'indisi emas, real kommunikativ vaziyatlarda qo'llanadigan qobiliyatlar majmui sifatida talqin etadi. Malaka talablarida ham bitiruvchidan kasbiy faoliyatda barcha nutq faoliyati turlaridan foydalana olish talab qilinadi [1].

Kommunikativ-faoliyatli yondashuv lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining tashkiliy shaklini belgilaydi: madaniy bilim va madaniy semantikani tahlil qilish ko'nikmasi nutqiy vaziyat, rolli o'yin, keys, loyiha va mikroo'qitish kabi faoliyat turlarida qo'llanganda kompetensiyaga aylanadi. Yondashuvning bevosita ta'siri madaniyatlararo kommunikativ komponentda – nutq etiketi formulalarini vaziyat va suhbatdosh maqomiga mos qo'llash, o'rinli muloqot strategiyasini tanlash va noverbal vositalarni hisobga olishda, shuningdek, kasbiy-metodik komponentda – lingvomadaniy materialni o'quvchilar uchun kommunikativ topshiriqqa aylantirish va dars fragmentida sinab ko'rishda namoyon bo'ladi. A.N.Leontyev nazariyasidagi motiv va shaxsiy ma'no tushunchalari esa yondashuvni

motivatsion-qadriyatli komponent bilan bog‘laydi: talaba madaniy bilimni o‘zi uchun ma’noli kommunikativ vazifada qo‘llaganda unga bo‘lgan qiziqish barqarorlashadi. W.Littlewood ajratgan faoliyat ketma-ketligi metodikada lingvomadaniy topshiriqlarni tayyorlov (birlikni tanish va izohlash), shartli-kommunikativ (birlikni namunaviy vaziyatda qo‘llash) va kommunikativ (madaniyatlararo vaziyatni hal etish) bosqichlarga ajratish uchun asos bo‘ladi.

Tahlil qilingan beshta yondashuv lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida bir-birini takrorlamaydi, har biri metodikaning muayyan jihatini belgilaydi va o‘zaro to‘ldiruvchi aloqada bo‘ladi. Tizimli yondashuv integratsiyalovchi asos sifatida qolgan to‘rt yondashuvni yagona model doirasida birlashtiradi va komponentlar, bloklar hamda fanlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv maqsad va natija vektorini belgilaydi: u metodikaning maqsad va baholash-natija bloklarini besh komponent, besh mezon va to‘rt daraja tilida ifodalaydi. Lingvokulturologik yondashuv mazmun blokining yetakchi asosi bo‘lib, ta’lim mazmunini realiya, frazeologizm, kalit so‘z, madaniy konsept va nutq etiketi formulalari kabi birliklar orqali belgilaydi. Madaniyatlararo yondashuv mazmunga qiyosiy o‘lchov beradi va ingliz hamda o‘zbek tilmadaniyatlarini teng huquqli dialogga olib kiradi. Kommunikativ-faoliyatli yondashuv esa texnologik blokda o‘zlashtirish jarayonining shakli, metodi va vositalarini belgilaydi. Yondashuvlarning bunday taqsimoti 2.1-rasmda tasvirlanadi.



2.1-rasm. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga oid metodologik yondashuvlarning integratsiyasi

2.1-rasmda ko‘rsatilganidek, yondashuvlar va komponentlar o‘rtasidagi aloqa bir yo‘nalishli emas. Lingvokulturologik va madaniyatlararo yondashuvlar mazmunning ikki o‘lchovini – til birligidagi madaniy ma’no va madaniyatlar qiyosini – hosil qiladi va ular birgalikda kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, motivatsion-qadriyatli hamda madaniyatlararo kommunikativ komponentlarni qamraydi. Kompetensiyaviy va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlar esa natija va jarayon o‘lchovlarini hosil qilib, kasbiy-metodik komponentda kesishadi, kompetensiyaviy yondashuv bundan tashqari motivatsion-qadriyatli komponentni o‘lchanadigan shaklga keltiradi, kommunikativ-faoliyatli yondashuv esa madaniyatlararo kommunikativ komponentni muloqot faoliyatida rivojlantiradi; kasbiy-metodik komponentdagi kesishuv bo‘lajak o‘qituvchining lingvomadaniy kompetensiyasini tarjimon yoki nofilolog talabaning tegishli kompetensiyasidan farqlaydi. Tizimli yondashuv bilan birga hisoblaganda har bir komponent kamida ikki yondashuv ta’sirida rivojlanadi, bu esa birorta komponentning e’tibordan chetda qolmasligini metodologik jihatdan kafolatlaydi.

Yondashuvlarning integratsiyasini bitta lingvomadaniy birlik misolida ko‘rish mumkin. M.O.Rakhimov ingliz madaniyatining o‘ziga xos konseptualizatsiya qilingan tushunchalari qatorida keltirgan “privacy” konsepti [57] takomillashtirilgan metodikada quyidagicha ishlanadi. Lingvokulturologik yondashuv bo‘yicha talaba konseptning lug‘aviy ma’nosini, “mind your own business”, “personal space” kabi birikmalardagi qo‘llanishini va autentik matndagi konnotatsiyalarini tahlil qiladi hamda uning o‘zbek tilidagi taxminiy muqobillari bilan to‘liq mos kelmasligini aniqlaydi. Madaniyatlararo yondashuv bo‘yicha u ingliz madaniyatidagi shaxsiy hayot daxlsizligi me’yorlarini o‘zbek madaniyatidagi mehmondorchilik, qo‘ni-qo‘shnichilik va jamoaviylik qadriyatlari bilan umumiy va farqlovchi belgilar asosida qiyoslaydi, A.S.Mamontov ko‘rsatganidek, farqni umumiy asos fonida ochadi [98]. Kommunikativ-faoliyatli yondashuv bo‘yicha talaba yangi tanishga shaxsiy savollar berish bilan bog‘liq madaniyatlararo tushunmovchilik vaziyatini rolli o‘yinda hal etadi, kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha esa uning harakati madaniyatlararo kommunikativ mezonning “tushunmovchilikni aniqlash va bartaraf etish” ko‘rsatkichi bo‘yicha baholanadi. Nihoyat, talaba o‘quvchilar uchun shu konseptga oid madaniy taqqoslash topshirig‘ini loyihalaydi va bu bilan kasbiy-metodik komponent ishga tushadi; tizimli yondashuv esa barcha harakatlarni bitta mashg‘ulot tuzilmasi va topshiriqlar ketma-ketligida birlashtiradi.

Yondashuvlar integratsiyasi bir qator metodologik talablarni keltirib chiqaradi. Lingvomadaniy ta’lim maqsadi besh komponent bo‘yicha o‘lchanadigan natija sifatida ifodalanadi va har bir topshiriq aniq komponent va ko‘rsatkich bilan bog‘lanadi. Ta’lim mazmuni madaniy jihatdan belgilangan til birliklari asosida tanlanadi va har bir birlik ingliz hamda o‘zbek tilmadaniyatlari qiyosida o‘rganiladi. O‘zlashtirish jarayoni tayyorlov, shartli-kommunikativ va kommunikativ bosqichlardan iborat faoliyat ketma-ketligi sifatida tashkil etiladi, individual, juftlik, guruh va loyiha shakllari bosqich vazifasiga qarab almashtiriladi. Baholash test bilan cheklanmasdan, rolli vaziyat, keys, madaniy refleksiya yozuvlari va dars fragmenti loyihasi kabi vositalarni qamrab oladi va besh mezon hamda to‘rt daraja bo‘yicha amalga oshiriladi. Ushbu talablar yondashuvlardan kelib chiqadigan umumdidaktik tamoyillarni tanlash uchun asos bo‘ladi va keyingi paragrafda Ya.A.Komenskiy tamoyillari bilan muvofiqlashtiriladi.

Yondashuvlar integratsiyasi lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning bakalavriat ikkinchi bosqichidagi o‘ziga xos sharoitini ham hisobga oladi. 1.3-§ da aniqlanganidek, ikkinchi kursda madaniy mazmunni o‘z nomida aks ettirgan majburiy fan mavjud emas va lingvomadaniy kompetensiya amaliy ingliz tili fanlari mazmuni orqali rivojlantiriladi [1]. Shu sababli lingvokulturologik va madaniyatlararo yondashuvlar alohida kurs shaklida emas, amaliy til mashg‘ulotlari mavzulariga integratsiyalangan holda amalga oshiriladi; kommunikativ-faoliyatli yondashuv esa bu

integratsiyani nutq faoliyati turlari bilan uzviy bog‘laydi. Kompetensiyaviy yondashuv talabi bo‘yicha ikkinchi kursda kasbiy-metodik komponent pedagogik amaliyotgacha bo‘lgan shakllarda – dars fragmentini loyihalash, madaniy taqqoslash topshirig‘ini tuzish va mikroo‘qitish orqali rivojlantiriladi. N.M.Axmedova [122] modelida ham ikkinchi kurs konseptual-tahliliy bosqich sifatida belgilangani tahliliy lingvomadaniy topshiriqlarning shu bosqichdagi ustuvorligini asoslaydi.

Paragrafda o‘tkazilgan tahlil quyidagi nazariy qoidalarni asoslash imkonini beradi. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asosini ikki darajadagi beshta yondashuv tashkil etadi: umumilmiy darajada tizimli va kompetensiyaviy, aniq ilmiy (lingvodidaktik) darajada esa lingvokulturologik, madaniyatlararo va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlar. Tizimli yondashuv lingvomadaniy kompetensiyani besh komponentning siklik aloqali tizimi, metodikani esa besh blokdan iborat yaxlit model sifatida ko‘rishni talab qiladi va qolgan yondashuvlarni birlashtiradi; kompetensiyaviy yondashuv maqsad va natijani besh mezon, ko‘rsatkichlar va to‘rt daraja tilida ifodalaydi; lingvokulturologik yondashuv ta’lim mazmunini madaniy belgilangan til birliklari asosida tanlashni ta’minlaydi va kognitiv-lingvomadaniy hamda lingvistik-semantik komponentlarni rivojlantiradi; madaniyatlararo yondashuv o‘zbek va ingliz tilmadaniyatlari qiyosini kompetensiyaning majburiy tayanchiga aylantirib, motivatsion-qadriyatli va madaniyatlararo kommunikativ komponentlarga ta’sir qiladi; kommunikativ-faoliyatli yondashuv esa lingvomadaniy bilimni muloqot va kasbiy faoliyatda qo‘llash jarayonini tashkil etib, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlarni rivojlantiradi. Yondashuvlar 1.3-§ da aniqlangan tarqoqlik, o‘lchanmaslik, komponent, qiyosiy asos va muloqotdan ajralganlik bo‘shliqlariga mos metodologik javob bo‘lib, ularning integratsiyasi takomillashtirilgan metodikaning metodologik blokini tashkil etadi.

2.2-§. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning umumdidaktik tamoyillari va ta’lim qonuniyatlari tizimi

Metodologik yondashuvlar lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayoniga qanday nuqtai nazardan qarash kerakligini belgilasa, didaktik tamoyillar shu qarashni o‘quv jarayonini tashkil etishning me’yoriy talablariga aylantiradi, ta’lim qonuniyatlari esa bu talablar qaysi psixologik-pedagogik bog‘liqliklarga tayanishini ko‘rsatadi. Yondashuv, tamoyil va qonuniyat o‘rtasidagi bunday iyerarxiya metodikaning ichki izchilligini ta’minlaydi: yondashuvdan kelib chiqmagan tamoyil tasodifiy talabga, qonuniyatga tayanmagan tamoyil esa deklarativ shiorga aylanib qoladi. Lingvomadaniy ta’limda bu masala ayniqsa dolzarb, chunki madaniy mazmun til materialiga nisbatan qiyinroq tizimlashtiriladi, uning o‘zlashtirilishi esa bilim bilan bir qatorda munosabat, talqin va kasbiy harakat darajalarida kechadi. Mazkur paragrafda Ya.A.Komenskiy asos solgan umumdidaktik tamoyillar tizimidan 2.1-§ da

asoslangan beshta metodologik yondashuvga mos keluvchi beshta tamoyil tanlab olinadi, har bir tamoyilning mazmuni, lingvomadaniy ta’limdagi talablari va ingliz tili darsidagi namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi, so‘ng o‘zaro bog‘liqlik, mashq, intensivlik, assimilyatsiya va natijaviy qonunlar lingvomadaniy topshiriqlar misolida tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmonining 1-bandida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari qatorida “dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish” hamda “ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish” vazifalari belgilangan [13]. O‘quv dasturlarini optimallashtirish va yangi avlod o‘quv materiallarini yaratish ta’lim mazmunini tanlash va tartiblashning ilmiy asoslangan didaktik mezonlarini, bitiruvchida zarur ko‘nikmalarni shakllantirish esa o‘zlashtirish jarayonining qonuniyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Demak, lingvomadaniy ta’limning didaktik tamoyillari va qonuniyatlarini aniqlash Farmonda belgilangan vazifalarni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini tayyorlash mazmunida amalga oshirishning didaktik sharti hisoblanadi.

Didaktik tamoyillar tizimining asoschisi sifatida Ya.A.Komenskiy e’tirof etiladi. M.N.Skatkin va I.Ya.Lerner [110] “Buyuk didaktika”da ta’lim mazmuni, didaktik tamoyillar va qoidalar hamda sinf-dars tizimi masalalari ishlab chiqilganini, muallif o‘rta asrlardagi yodlashga asoslangan ta’limga o‘quvchilar yoshi va psixologiyasiga mos o‘quv ishining yangi tizimini qarama-qarshi qo‘yganini ta’kidlab, uning tamoyillari qatorida tabiatga moslik, ko‘rgazmalilik va izchillikni ko‘rsatadi. Ya.A.Komenskiy [92] asarida har bir narsani izchil o‘rganish, o‘rganilayotgan narsa tushunilmaguncha unda to‘xtab turish, o‘zlashtirilganini doimiy mashqlar bilan mustahkamlash va o‘zaro bog‘liq narsalarni o‘sha bog‘liqlikda o‘qitish talablari ilgari suriladi. T.N.Gnitetskaya va E.B.Ivanova [86] fanlararo aloqalar muammosining tarixini tahlil qilib, Ya.A.Komenskiyning o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan barcha narsalar o‘sha bog‘liqlikda o‘qitilishi lozimligi haqidagi fikrini tizimli bilimlarni shakllantirishning dastlabki didaktik asosi sifatida keltiradi. Shu tariqa, zamonaviy didaktikada alohida tamoyillar sifatida ajratiladigan ko‘plab talablar Ya.A.Komenskiy merosida yaxlit ta’lim nazariyasining tarkibiy qismlari sifatida shakllangan.

Keyingi didaktik an’anada Ya.A.Komenskiy g‘oyalari tamoyillar tizimiga aylantirilgan. M.N.Skatkin va I.Ya.Lerner [110] umume’tirof etilgan tamoyillar sifatida ilmiylik, tushunarlilik, tizimlilik, ta’limning amaliyot va hayot bilan

bog‘liqligi, o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning ongliligi va faolligi, ko‘rgazmalilik, bilimlarning mustahkamligi hamda jamoaviylikni individuallashtirish bilan uyg‘unlashtirishni sanab, ularning soni bo‘yicha didaktlar o‘rtasida turli qarashlar mavjudligini, tamoyillar esa faqat birgalikda qo‘llanganda samarali bo‘lishini qayd etadi. Mualliflar ilmiylik tamoyili ta’lim mazmuni fan tomonidan aniqlangan bilimlar tizimi bo‘lishini, tizimlilik tamoyili bilimlar tizimini egallash ularni ongli va ijodiy qo‘llashning asosi ekanini, onglilik va faollik tamoyili esa bilim o‘quvchi ongiga tayyor holda joylab qo‘yilmasligini, u o‘quvchining o‘z bilish faoliyati natijasi ekanini anglatishini ko‘rsatadi [110]. I.P.Podlasiy [150] darsligida ham onglilik va faollik, ko‘rgazmalilik, tizimlilik va izchillik, mustahkamlik, tushunarlilik, ilmiylik hamda nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyillari didaktik tamoyillar tizimi sifatida yoritiladi. MDH didaktikasi tamoyillarning yaxlit tizim ekanini ta’kidlaydi, bu esa ularni lingvomadaniy ta’limga tatbiq etishda ham bitta tamoyilni boshqalaridan ajratib qo‘llamaslik talabini keltirib chiqaradi.

Mahalliy tadqiqotlarda didaktik tamoyillar muayyan metodik konsepsiya talablaridan kelib chiqib aniqlashtiriladi. N.M.Axmedova [122] konseptual yondashuvning to‘qqiz tamoyilini falsafiy (tushunchaning birlamchiligi, tizimli yaxlitlik, konstruktiv-tanqidiy munosabat), psixologik (dastlabki kognitsiyani oshkor ifodalash, konseptual qayta qurish) va didaktik (yetakchi g‘oyalar asosida mazmunni tuzish, natijadan loyihalash, spiral chuqurlashtirish, nazariya va amaliyot integratsiyasi) guruhlarga birlashtiradi hamda har bir tamoyil uchun kasbiy-metodik tayyorgarlikka qo‘yiladigan talab va amalga oshirish vositasini belgilaydi. Muallif tamoyillarning har biri muayyan darajadagi nazariy qoidadan kelib chiqishi lozimligini ta’kidlaydi [122]. Bu talab tadqiqotimizda ham asosiy mezon sifatida qabul qilinadi: tamoyil faqat 2.1-§ da asoslangan yondashuvdan kelib chiqqan va 1.3-§ da aniqlangan bo‘shliqlardan biriga javob bergan holdagina lingvomadaniy ta’limning tamoyillari tizimiga kiritiladi.

Ana shu mezon asosida umumdidaktik tamoyillar orasidan beshtasi tanlanadi. Ilmiylik tamoyili lingvokulturologik yondashuvdan kelib chiqib, lingvomadaniy ta’lim mazmunini ilmiy asoslangan tushunchalar va tahlil birliklari bilan ta’minlaydi. Tizimlilik va izchillik tamoyili tizimli yondashuvga tayanib, me’yoriy hujjatlarda aniqlangan tarqoqlik bo‘shlig‘iga javob beradi. Onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili kommunikativ-faoliyatli va madaniyatlararo yondashuvlarning talabi bo‘lib, madaniy bilimni talabaning o‘z bilish va refleksiv faoliyati natijasiga aylantiradi. Fanlararo bog‘liqlik tamoyili tizimli va lingvokulturologik yondashuvlardan kelib chiqib, amaliy, nazariy va metodik fanlardagi madaniy elementlarni birlashtiradi. Nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili esa kompetensiyaviy va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlarga tayanib, lingvomadaniy bilimni kasbiy harakatga ko‘chirishni ta’minlaydi. Ko‘rgazmalilik, mustahkamlik va

tushunarlilik tamoyillari ham lingvomadaniy ta’limda amal qiladi, biroq ular tanlangan tamoyillar tarkibida – ko‘rgazmalilik autentik material bilan ishlashda, mustahkamlik mashq qonunida, tushunarlilik esa izchillik talabida – o‘z ifodasini topgani uchun alohida ajratilmaydi.

Ilmiylik tamoyili ta’lim mazmuni fan tomonidan aniqlangan bilimlar tizimidan iborat bo‘lishini va talabani fanning metodlari bilan tanishtirishni talab etadi [110]. Lingvomadaniy ta’limda bu talab ikki jihatda namoyon bo‘ladi. Mazmuniy jihatdan o‘qitiladigan madaniy ma’lumot ilmiy tavsiflangan va tekshirilgan bo‘lishi, “ingliz madaniyati” haqidagi kundalik tasavvurlar va stereotiplar asosida qurilmasligi lozim. A.S.Mamontov [98] lingvokulturologik materialni tanlashda tipiklik va stereotipdan himoyalanganlik mezonlarini ajratib, o‘rganuvchini kamyob hodisalarni keng tarqalgan deb qabul qilishdan va madaniyatning birgina jihatini ifodalovchi leksika bilan ortiqcha yuklashdan saqlash zarurligini ko‘rsatadi. Metodologik jihatdan esa talaba lingvokulturologiyaning tushunchalar apparati – realiya, lakuna, lingvokulturema, madaniy konsept, kalit so‘z – va tahlil usullari bilan tanishishi kerak; F.Sharifian [64] madaniy konseptualizatsiyalarni tahlil qilishning konseptual-assotsiativ, korpusga asoslangan va diskurs tahlili kabi metodlarini ajratadi, A.Wierzbicka [76] esa kalit so‘zlarni universal tushunchalardan iborat metatil yordamida izohlash orqali madaniyatlarni qat’iy usulda qiyoslash mumkinligini isbotlaydi.

Ilmiylik tamoyilining lingvomadaniy ta’limdagi talablari quyidagicha belgilanadi: madaniy mazmun ilmiy manbalar, izohli va lingvomadaniy lug‘atlar hamda autentik korpus ma’lumotlariga tayanib tanlanadi; har bir lingvomadaniy birlik uning ilmiy tavsifi (denotativ va konnotativ ma’nosi, etimologik yoki madaniy-tarixiy motivi, qo‘llanish konteksti) bilan beriladi; talaba madaniy umumlashmalarni dalil bilan asoslashga, ya’ni “inglizlar shunday” tipidagi xulosalar o‘rniga kontekst va manbaga tayangan talqinga o‘rgatiladi. A.Yusupov [78] tarjimon lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirishda lug‘atlarning funksional imkoniyatlarini alohida tadqiq etgani lug‘at bilan ishlash ilmiylik tamoyilini amalga oshirishning asosiy vositasi ekanini tasdiqlaydi. Ingliz tili darsidagi misol: “Friends and relationships” mavzusida talabalar avstraliya inglizchasidagi “mate” so‘zini A.Wierzbicka tahliliga [76] tayanib o‘rganadi, so‘zning lug‘aviy izohini korpusdagi qo‘llanish misollari bilan solishtiradi va uning o‘zbek tilidagi “do‘st”, “o‘rtoq”, “og‘ayni” so‘zlari bilan to‘liq mos kelmasligini dalillar asosida ko‘rsatadi. Bunda talaba madaniy farqni sezgi bilan emas, tahlil natijasi sifatida qayd etadi.

Tizimlilik va izchillik tamoyili bilimlar tizimini egallash ularni ongli va ijodiy qo‘llashning asosi ekanidan kelib chiqadi [110] hamda o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda, oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga qarab joylashtirishni talab etadi. Ya.A.Komenskiy [92] har bir narsani izchil, diqqatni bir narsaga jamlagan

holda o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Lingvomadaniy ta’limda bu tamoyil ikki tartiblash o‘qini nazarda tutadi. Birinchi o‘q – tahlil birligining murakkablashishi: realiya va fon leksikadan frazeologizm va idiomaga, so‘ng kalit so‘z va madaniy konseptga, nihoyat autentik matn va diskursga o‘tish. Ikkinchi o‘q – faoliyatning murakkablashishi: birlikni tanish va izohlashdan uni namunaviy vaziyatda qo‘llashga, keyin madaniyatlararo vaziyatni mustaqil hal etishga va oxirida o‘quvchilar uchun topshiriq loyihalashga o‘tish. W.Littlewood [51] ajratgan kommunikativ faoliyatgacha bo‘lgan va kommunikativ faoliyat turlari ikkinchi o‘q uchun nazariy asos bo‘ladi.

A.V.Getmanskaya [143] integrallashgan kursni 10 siklga birlashtirilgan 23 blok sifatida tuzib, har bir blokni madaniyatga oid ma’ruza va madaniy belgilangan leksik birliklarni standartlashtirish hamda variativ qo‘llashga yo‘naltirilgan mashqlar bilan ta’minlaydi, sikllarni esa madaniyatshunoslik loyihalari bilan yakunlaydi; bu tuzilma tizimlilik va izchillik tamoyilining lingvomadaniy ta’limdagi namunaviy ko‘rinishi hisoblanadi. Zh.V.Demyanova [145] bilish mezoni ko‘rsatkichlari qatorida bilimlarning tizimliligini alohida ajratgani esa tamoyilni baholash tizimiga ham olib kiradi. Tamoyilning lingvomadaniy ta’limdagi talablari shundan iborat: amaliy ingliz tili mavzulari ichida lingvomadaniy birliklar mavzuli guruhlar sifatida tanlanadi; har bir mavzu doirasida birliklar va topshiriqlar ikki o‘q bo‘yicha tartiblanadi; har bir keyingi topshiriq oldingisida shakllangan bilim va ko‘nikmaga tayanadi; mavzular oxirida egallangan birliklar yaxlit madaniy manzaraga birlashtiriladi. Ingliz tili darsidagi misol: “Food and eating habits” mavzusida talabalar avval “fish and chips”, “Sunday roast” kabi realiyalarni tanishadi, so‘ng “a piece of cake”, “not my cup of tea” iboralarining ma’nosi va qo‘llanishini tahlil qiladi, keyin mehmonga borish va dasturxon odobi bilan bog‘liq ingliz va o‘zbek nutq etiketi formulalarini qiyoslaydi, nihoyat mehmondorchilik vaziyatidagi madaniyatlararo tushunmovchilikni rolli o‘yinda hal etadi.

Onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili bilim talaba ongiga tayyor holda joylab qo‘yilmasligi, u talabaning o‘z bilish faoliyati natijasi bo‘lishi lozimligini ifodalaydi [110]. Ya.A.Komenskiy [92] o‘rganilayotgan narsa tushunilmaguncha unda to‘xtab turish talabi bilan tushunishni yodlashdan oldinga qo‘yadi. Lingvomadaniy ta’limda bu tamoyil madaniyatlararo yondashuvning refleksiv talablari bilan to‘ldiriladi. A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] madaniyatlararo til ta’limining tamoyillari qatorida faol qurish, aloqalar o‘rnatish va refleksiyani ajratadi: talaba materialni yodlash o‘rniga uni talqin qilib, ma’no hosil qilishi, yangi madaniy tajribani mavjud tasavvurlari bilan qiyoslashi va o‘z talqin doirasidan chiqib, yangi nuqtai nazarni izlashi lozim. M.Byram [28] tanqidiy madaniy xabardorlikni o‘z va o‘zga madaniyatdagi qarashlar, amaliyotlar va mahsulotlarni aniq mezonlar asosida baholash qobiliyati sifatida belgilaydi; bu qobiliyat aynan onglilik tamoyilining madaniyatlararo ko‘rinishi hisoblanadi.

Tamoyilning lingvomadaniy ta’limdagi talablari quyidagilar: madaniy ma’no talabaga tayyor izoh shaklida berilmasdan, kuzatish, taqqoslash va farazni tekshirish orqali kashf ettiriladi; har bir topshiriq refleksiya bosqichi bilan yakunlanadi, unda talaba o‘z dastlabki tasavvuri qanday o‘zgarganini qayd etadi; mustaqil ta’lim lingvomadaniy izlanish – lug‘at, korpus va autentik manbalar bilan ishlash shaklida tashkil etiladi. N.B.Nazarova, S.O.Uyto‘lsinova va M.B.Abbosova [133] o‘quv qo‘llanmasida refleksiv topshiriqlar va muhokama savollari orqali tanqidiy madaniy ongni rivojlantirish ko‘zda tutilgani bu talabning amaliy ifodasidir. Ingliz tili darsidagi misol: talabalarga teatr sahnasidan olingan qisqa autentik dialog beriladi, unda aktyorga “break a leg” deb murojaat qilinadi. Talabalar iboraning so‘zma-so‘z ma’nosi bilan vaziyat o‘rtasidagi ziddiyatni payqab, uning ma’nosi haqida faraz bildiradi, so‘ng lug‘at va manbalar yordamida farazni tekshiradi; M.O.Rakhimov [57] ko‘rsatganidek, ibora ortidagi teatr irimini bilish uning “omad tilayman” ma’nosini anglashning sharti hisoblanadi. Mashg‘ulot oxirida talaba refleksiv yozuvda o‘zbek tilida shunga o‘xshash irim bilan bog‘liq tilak formulalari mavjud-mavjud emasligini mustaqil tahlil qiladi.

Fanlararo bog‘liqlik tamoyili o‘zaro bog‘liq bilimlarni o‘sha bog‘liqlikda o‘qitish talabidan kelib chiqadi [92; 86] va o‘quv fanlari o‘rtasidagi mazmuniy, tushunchaviy va metodik aloqalarni maqsadli o‘rnatishni nazarda tutadi. T.N.Gnitetskaya va E.B.Ivanova [86] fanlararo aloqalarni tizimli bilimlarni shakllantirishning omili sifatida ko‘radi. Lingvomadaniy kompetensiya uchun bu tamoyilning ahamiyati 1.3-§ da aniqlangan holat bilan belgilanadi: malaka talablari fanlar katalogida madaniy mazmun bilan tabiiy bog‘liq bo‘lgan Ingliz tili adabiyoti tarixi, Ingliz tili stilistikasi, Tarjima nazariyasi va amaliyoti hamda Mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanlari mavjud [1], biroq tahlil qilingan fan dasturlarida madaniy mazmun nazariy va amaliy fanlar o‘rtasida bog‘lanmagan. Malaka talablarida dars jarayonida til orqali boshqa fanlarni o‘qitish (CLIL) metodikasini qo‘llash talabi ham ko‘rsatilgan [1]; bu talab fanlararo bog‘liqlikning bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi davomini anglatadi.

Fanlararo bog‘liqlik tamoyilining lingvomadaniy ta’limdagi talablari shundan iborat: amaliy ingliz tili mashg‘ulotlarida uchraydigan lingvomadaniy birliklar til tarixi, leksikologiya, stilistika va adabiyot fanlaridan olingan bilimlar bilan izohlanadi; amaliy fanlarda egallangan birliklar keyingi semestrlarda nazariy va metodik fanlarda tahlil obyekti sifatida qayta qo‘llanadi; mediasavodxonlik fanidagi mediamatn tahlili ko‘nikmalari madaniy tasvir va stereotiplarni aniqlashga yo‘naltiriladi. Ingliz tili darsidagi misol: “Food” mavzusida talabalar “cow – beef”, “pig – pork”, “sheep – mutton” juftliklarini kuzatib, nega hayvon nomi va go‘sht nomi turlicha ekanini muhokama qiladi. M.O.Rakhimov [57] bu holatni Normandlar istilosi bilan bog‘liq tarixiy omil bilan izohlaydi; talabalar shu izoh orqali til tarixi faktini lingvomadaniy

hodisa sifatida anglaydi va o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning madaniy qatlamlari bilan qiyoslaydi. Bunda bitta topshiriq amaliy ingliz tili, til tarixi va madaniyatshunoslik bilimlarini birlashtiradi.

Nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili ta’limning amaliyot va hayot bilan bog‘liqligi bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga va ularni qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga olib kelishi qoidasiga tayanadi [110]. N.M.Axmedova [122] Sh.A.Atadjanova fikriga tayanib, chet til ta’limida talabalar kasbiy malakasi nazariy bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash orqali shakllanishini ko‘rsatadi va tamoyillar tizimida nazariya va amaliyot integratsiyasini alohida didaktik tamoyil sifatida belgilaydi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun amaliyot ikki ma’noga ega: lingvomadaniy bilimni muloqotda qo‘llash va uni o‘quvchilarga o‘rgatish. Malaka talablarida bitiruvchidan o‘quv materiallarini tanlash, yaratish, moslashtirish va ulardan foydalanish hamda o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi [1], pedagogik amaliyot esa “4+2” tartibida 5–8-semestrlarda o‘tkaziladi [1]; demak, ikkinchi kursda nazariya bilan amaliyot birligi pedagogik amaliyotgacha bo‘lgan shakllarda – mikroo‘qitish va dars fragmentini loyihalashda ta’minlanishi lozim.

Tamoyilning lingvomadaniy ta’limdagi talablari quyidagilar: har bir nazariy tushuncha (lakuna, madaniy konsept, nutq etiketi, stereotip) amaliy topshiriqda qo‘llanadi; har bir mavzu doirasida kamida bitta kasbiy-metodik topshiriq – o‘quvchilar uchun lingvomadaniy material tanlash yoki madaniy taqqoslash topshirig‘ini tuzish – bajariladi; talaba o‘z topshirig‘ini tengdoshlari oldida sinab ko‘radi va mezonlar asosida tahlil qiladi. Ingliz tili darsidagi misol: “Holidays and traditions” mavzusida talabalar A.S.Mamontov ajratgan tipiklik, kommunikativ qimmat, mamlakatshunoslik qimmati va stereotipdan himoyalanganlik mezonlarini [98] nazariy jihatdan o‘rganadi, so‘ng shu mezonlar asosida 7-sinf o‘quvchilari uchun “Christmas” va “Navro‘z” bayramlarini qiyoslashga bag‘ishlangan besh daqiqalik dars fragmenti uchun material tanlaydi, uni guruhda mikroo‘qitish shaklida o‘tkazadi va tengdoshlari fragmentni kasbiy-metodik mezon ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholaydi. Shu tarzda nazariy mezon talabaning kasbiy harakatini tanlash vositasiga aylanadi.

Tanlangan tamoyillar va 2.1-§ da asoslangan metodologik yondashuvlar o‘rtasidagi muvofiqlik 2.1-jadvalda umumlashtiriladi. Jadvalda har bir tamoyil uchun tayanch yondashuv, lingvomadaniy ta’limdagi yetakchi talab va tamoyil ustuvor ta’sir ko‘rsatadigan komponentlar ko‘rsatilgan.

2.1-jadval

Metodologik yondashuvlar va umumdidaktik tamoyillar muvofiqligi

Tamoyil	Tayanch yondashuv	Lingvomadaniy ta’limdagi yetakchi talab	Ustuvor ta’sir ko‘rsatadigan komponentlar

Ilmiylik	lingvokulturologik; tizimli	madaniy mazmunni ilmiy tavsiflangan birliklar, lug‘at va korpus ma’lumotlari asosida tanlash; stereotipdan himoyalash [98; 76]	kognitiv-lingvomadaniy; lingvistik-semantik
Tizimlilik va izchillik	tizimli	birliklarni realiyadan konsept va matnga, faoliyatni tanishdan loyihalashga qarab tartiblash [143; 51]	barcha besh komponent
Onglilik, faollik va mustaqillikka erishish	kommunikativ-faoliyatli; madaniyatlararo	madaniy ma’noni kashf ettirish, qiyoslash va refleksiya orqali o‘zlashtirish [50; 28]	motivatsion-qadriyatli; madaniyatlararo kommunikativ
Fanlararo bog‘liqlik	tizimli; lingvokulturologik	lingvomadaniy birliklarni til tarixi, stilistika, adabiyot va mediasavodxonlik bilimlari bilan izohlash [86; 1]	kognitiv-lingvomadaniy; lingvistik-semantik
Nazariya bilan amaliyot birligi	kompetensiyaviy; kommunikativ-faoliyatli	nazariy tushunchani muloqot va kasbiy-metodik topshiriqda qo‘llash, mikroo‘qitish [122; 1]	madaniyatlararo kommunikativ; kasbiy-metodik

2.1-jadvaldan ko‘rinadiki, beshta yondashuvning har biri kamida bitta tamoyilda amalga oshadi, tamoyillar esa birgalikda lingvomadaniy kompetensiyaning beshta komponentini qamrab oladi. Tizimli yondashuv ikki tamoyilda – tizimlilik va izchillik hamda fanlararo bog‘liqlikda, kommunikativ-faoliyatli yondashuv ham ikki tamoyilda – onglilik, faollik va mustaqillik hamda nazariya bilan amaliyot birligida namoyon bo‘ladi; bu ularning metodikada tashkiliy va jarayoniy vazifasiga mos keladi. Madaniyatlararo yondashuv onglilik tamoyilining refleksiv tarkibi orqali, kompetensiyaviy yondashuv esa nazariya bilan amaliyot birligining natijaga yo‘naltirilgan talablari orqali amalga oshadi. Tamoyillar o‘rtasida ierarxiya emas, o‘zaro taqozo munosabati mavjud: ilmiylik tamoyili mazmunning sifatini, tizimlilik va fanlararo bog‘liqlik uning tuzilishini, onglilik va nazariya bilan amaliyot birligi esa uni o‘zlashtirish usulini belgilaydi.

Didaktik tamoyillar ta’lim jarayonining obyektiv qonuniyatlariga tayangandagina samarali bo‘ladi. I.P.Podlasiy [150] darsligida ta’lim qonuniyatlari alohida bobda tasniflanib, umumiy va xususiy qonuniyatlarga ajratiladi; qonuniyat hodisalar o‘rtasidagi barqaror va zaruriy bog‘liqlik sifatida tushuniladi. O‘zlashtirish jarayonining qonunlarini eksperimental asosda tizimli ifodalagan olimlardan biri E.Torndayk bo‘lib, uning konneksionizm nazariyasida o‘rganish vaziyat va javob o‘rtasidagi aloqalarning shakllanishi va mustahkamlanishi sifatida talqin etiladi [69; 70]. Tadqiqotimizda lingvomadaniy ta’lim uchun beshta qonun tahlil qilinadi: o‘zaro

bog‘liqlik, mashq, intensivlik, assimilyatsiya va natijaviy qonunlar. Ularning har biri lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga qo‘llanganda topshiriqlarni tuzishning aniq qoidasiga aylanadi.

O‘zaro bog‘liqlik qonuni E.Torndaykning keyingi ishlarida asoslangan tegishlilik (belongingness) tamoyiliga tayanadi: bir-biriga mazmunan tegishli deb idrok etiladigan elementlar, hatto makon va vaqt jihatidan yonma-yon bo‘lmasa ham, osonroq bog‘lanadi [71]. Bu qonun o‘rganish birligi va uning konteksti mazmunan yaxlit bo‘lganda aloqa mustahkamroq shakllanishini ko‘rsatadi. Lingvomadaniy ta’limda qonun til birligini madaniy kontekstidan ajratmaslik talabida namoyon bo‘ladi: realiya, frazeologizm yoki nutq etiketi formulasi alohida ro‘yxat sifatida emas, u tegishli bo‘lgan madaniy vaziyat, matn yoki marosim tarkibida beriladi. Ya.A.Komenskiyning o‘zaro bog‘liq narsalarni o‘sha bog‘liqlikda o‘qitish talabi [92] ham shu qonunning didaktik ifodasi hisoblanadi. Lingvomadaniy topshiriq misoli: “Thanksgiving” realiyasi ingliz tilidagi leksik ro‘yxat orqali emas, oilaviy bayram dasturxoni tasvirlangan autentik hikoya orqali kiritiladi; talabalar matnda “turkey”, “gratitude”, “family gathering” birliklarini bayram konsepti atrofida guruhlaydi va ularni o‘zbek oilaviy bayramlari bilan bog‘liq birliklar bilan taqqoslab, konseptual xarita tuzadi.

Mashq qonuni E.Torndayk talqinida aloqa vaziyat bilan qanchalik ko‘p takrorlansa, u shunchalik mustahkam bo‘lishini, foydalanilmagan aloqa esa susayishini ifodalaydi [70]. Muallifning o‘zi keyingi tadqiqotlarida faqat takrorning o‘zi aloqani mustahkamlamasligini, takror natija haqidagi axborot bilan birga kelgandagina samarali bo‘lishini ko‘rsatib, qonunni qayta ko‘rib chiqqan [71]. Ya.A.Komenskiy [92] ham o‘zlashtirilgan narsani doimiy mashqlar bilan mustahkamlash talabini qo‘yadi. Lingvomadaniy ta’limda mashq qonuni lingvomadaniy birlikni turli kontekstlarda, oraliq vaqt bilan qayta qo‘llash talabida namoyon bo‘ladi; A.V.Getmanskaya [143] madaniy belgilangan leksik birliklarni standartlashtirish va variativ qo‘llashga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini qo‘llab, har bir sinaluvchi o‘rtacha 84 ta shunday birlikni variativ birikmalarda qo‘llaganini qayd etadi. Lingvomadaniy topshiriq misoli: “not my cup of tea” iborasi birinchi mashg‘ulotda izohlanadi, ikkinchi mashg‘ulotda talabalar uni o‘z qiziqishlari haqidagi suhbatda qo‘llaydi, bir haftadan keyin esa uni ish taklifini muloyimlik bilan rad etish vaziyatida ishlatadi; har bir qo‘llashdan so‘ng o‘qituvchi va tengdoshlar iboraning vaziyatga mosligi haqida qisqa izoh beradi.

Intensivlik qonuni yorqin, ta’sirchan va hissiy jihatdan boy tajriba odatiy va zerikarli tajribaga nisbatan yaxshiroq va uzoqroq esda qolishini ifodalaydi; bunda real tajriba uning o‘rnini bosuvchi tajribadan ustun bo‘lib, turli sezgi a’zolarini jalb etish, misol va o‘xshatishlardan foydalanish o‘zlashtirishni kuchaytiradi [36]. Lingvomadaniy ta’limda bu qonun madaniy mazmunni autentik va hissiy boy materiallar – video, audio, fotosurat, real muloqot – orqali taqdim etish talabida

namoyon bo‘ladi. E.Sh.Kholmatova [46] bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari tayyorgarligida madaniy muhitga sho‘ng‘ishni ta’minlovchi immersiv tajribaning lingvomadaniy kompetensiyaga ijobiy ta’sirini ko‘rsatib, xorijda o‘qish va madaniy almashinuv kabi tajribalarni tayyorlash dasturlariga kiritishni tavsiya etadi. Xorijga chiqish imkoniyati cheklangan sharoitda intensivlik raqamli vositalar orqali ta’minlanadi. Lingvomadaniy topshiriq misoli: talabalar ingliz tilida so‘zlashuvchi tengdoshlari bilan videoqo‘ng‘iroq orqali “Weddings in our cultures” mavzusida suhbat o‘tkazadi, suhbat oldidan savollar tayyorlaydi, suhbat davomida eshitgan madaniy belgilangan birliklarni qayd etadi va undan keyin suhbatdoshining nutqidagi kutilmagan madaniy farqlar haqida guruhga taqdimot qiladi.

Assimilyatsiya qonuni E.Torndayk ta’limotidagi o‘xshashlik bo‘yicha javob qoidasiga mos keladi: o‘rganuvchi yangi vaziyatda unga o‘xshash, ilgari o‘zlashtirilgan vaziyatdagi javobni qo‘llaydi, ya’ni yangi tajribani mavjud aloqalar tizimiga singdiradi [70]. Bu qonun bilimning ko‘chirilishi (transfer) masalasi bilan bevosita bog‘liq. Zh.V.Demyanova [145] praksiologik mezon ko‘rsatkichlari qatorida bilimni kengroq vazifalar doirasiga ko‘chira olishni alohida ajratadi, A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] esa aloqalar o‘rnatish tamoyilida yangi bilimni ilgari ma’lum bo‘lgan bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlaydi. Lingvomadaniy ta’limda assimilyatsiya qonunining ikki tomoni bor. Ijobiy tomoni shundaki, talaba bir konsept tahlilida egallagan usulni boshqa konseptga ko‘chira oladi; salbiy tomoni esa ona madaniyati me’yorlarini o‘zga madaniyat vaziyatiga beixtiyor ko‘chirish, ya’ni lingvomadaniy interferensiya xavfidir. Shu sababli ko‘chirish ongli qiyoslash bilan nazorat qilinadi. Lingvomadaniy topshiriq misoli: ingliz madaniyatining o‘ziga xos konseptualizatsiya qilingan tushunchasi sifatida qayd etilgan “fair play” konsepti [57] sport kontekstida tahlil qilingandan so‘ng, talabalar shu konseptni biznes muzokaralari va o‘quv imtihoni vaziyatlariga qo‘llab ko‘radi hamda o‘zbek madaniyatidagi halollik va adolat haqidagi tasavvurlar bilan qaysi jihatlari mos kelib, qaysilari farqlanishini aniqlaydi.

Natijaviy qonun E.Torndaykning ta’sir qonuni (law of effect) bo‘lib, qoniqarli natija bilan yakunlangan javob vaziyat bilan mustahkamroq bog‘lanishini, noqulay natija bilan yakunlangan javob esa susayishini ifodalaydi [69; 70]. Ta’lim nuqtai nazaridan bu qonun har bir o‘quv harakatining natijasi talabaga aniq, o‘z vaqtida va ijobiy tarzda ma’lum qilinishi, muvaffaqiyat tajribasi esa keyingi faoliyatga undovchi omil bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi. Lingvomadaniy ta’limda qonun ikki shartda amalga oshadi: natija mezon va ko‘rsatkichlar orqali o‘lchanadigan bo‘lishi va madaniy xato tanqid obyekti emas, tahlil va o‘rganish manbai sifatida qabul qilinishi kerak. D.K.Deardorff [32] modelida madaniyatlararo kompetensiya natijasi ichki va tashqi natijalar sifatida tavsiflangani, CEFR qo‘shimcha jildida [4] plyurimadaniy kompetensiyaning darajalar bo‘yicha deskriptorlari berilgani natijani talabaga ko‘rinadigan qilish imkonini beradi. Lingvomadaniy topshiriq misoli: rolli o‘yinda

talaba ingliz hamkasbiga o‘zbek to‘y an’anasini tushuntiradi, tengdoshlar uning nutqini madaniyatlararo kommunikativ mezon ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholaydi, talaba esa natija varag‘ida qaysi ko‘rsatkich bo‘yicha qaysi darajaga erishganini va keyingi urinishda nimani o‘zgartirishini qayd etadi.

Beshta qonunning lingvomadaniy ta’limdagi amal qilishi talabalar rivojlanishining to‘rt darajasi bilan ham bog‘liq. Lingvomadaniy kompetensiyaning past darajasida talaba madaniy belgilangan birlikni kontekstdan ajratilgan holda yodlaydi va uni yangi vaziyatga ko‘chira olmaydi; bu holat o‘zaro bog‘liqlik va assimilyatsiya qonunlari talablari bajarilmaganini ko‘rsatadi. Keyingi darajalarda birlik kontekst bilan bog‘lanadi, takroriy qo‘llash natijasida mustahkamlanadi va o‘xshash vaziyatlarga ko‘chiriladi, eng yuqori darajada esa talaba uni yangi madaniyatlararo vaziyatda mustaqil qo‘llaydi va o‘quvchilar uchun topshiriqqa aylantira oladi. Demak, qonunlar faqat o‘qitish jarayonini emas, rivojlanganlik darajalarining sifat tavsifini belgilashda ham tayanch bo‘ladi: har bir daraja o‘zaro bog‘liqlik, mashq va assimilyatsiya qonunlari qay darajada amalga oshganini ifodalaydi, natijaviy qonun esa daraja haqidagi axborotning talabaga qaytarilishini ta’minlaydi. Darajalarning aniq tavsifi va ularni aniqlash vositalari tajriba-sinov ishlarida belgilanadi.

Qonunlar va tamoyillarni ikkinchi kurs sharoitiga tatbiq etishda ularning o‘zaro chegaralarini ham hisobga olish lozim. Intensivlik qonuni hissiy boy materialni talab qilsa, ilmiylik tamoyili bu materialning tipik va stereotipdan himoyalangan bo‘lishini talab qiladi; A.S.Mamontov [98] ogohlantirganidek, nostandart vaziyatlarni aks ettiruvchi yorqin material o‘rganuvchida kamyob hodisani keng tarqalgan deb qabul qilish xavfini tug‘diradi. Mashq qonuni takrorni talab qilsa, onglilik tamoyili mexanik takrorni cheklab, har bir qo‘llashni anglangan va maqsadli bo‘lishga undaydi; E.Torndaykning takror natija haqidagi axborotsiz samara bermasligi haqidagi xulosasi [71] ham shu cheklovni tasdiqlaydi. Assimilyatsiya qonuni ko‘chirishni rag‘batlantirsa, madaniyatlararo yondashuv ko‘chirishning lingvomadaniy interferensiya tug‘dirmasligi uchun ongli qiyoslashni talab qiladi. Bunday o‘zaro cheklovlar tamoyil va qonunlarning tizim sifatida qo‘llanishi kerakligini ko‘rsatadi: biror talabning haddan tashqari kuchaytirilishi boshqasi bilan muvozanatlanadi. Masalan, autentik videomaterial tanlanganda (intensivlik) u avval tipiklik mezoni bo‘yicha tekshiriladi (ilmiylik), unda uchragan birliklar keyingi mashg‘ulotlarda qayta qo‘llanadi (mashq), qo‘llash esa refleksiya bilan yakunlanadi (onglilik).

Tahlil qilingan qonunlarning mazmuni va lingvomadaniy ta’limdagi namoyon bo‘lishi 2.2-jadvalda umumlashtiriladi.

2.2-jadval

Ta’lim qonunlarining lingvomadaniy ta’limda namoyon bo‘lishi

Qonun	Mazmuni	Lingvomadaniy ta’limdagi talab	Topshiriq namunasi
O‘zaro bog‘liqlik	mazmunan tegishli elementlar osonroq bog‘lanadi [71]	til birligini madaniy kontekst ichida berish	“Thanksgiving” hikoyasi asosida konseptual xarita
Mashq	takrorlangan aloqa mustahkamlanadi, takror natija haqidagi axborot bilan samarali [70; 71]	birlikni oraliq vaqt bilan turli kontekstlarda qayta qo‘llash	“not my cup of tea” iborasini uch vaziyatda qo‘llash
Intensivlik	yorqin, real tajriba yaxshiroq esda qoladi [36]	autentik, hissiy boy material va immersiv tajriba [46]	“Weddings in our cultures” videosuhbati
Assimilyatsiya	yangi vaziyatga o‘xshash vaziyatdagi javob ko‘chiriladi [70]	konsept tahlili usulini yangi vaziyatga ongli ko‘chirish, interferensiyani nazorat qilish	“fair play” konseptini biznes va imtihon vaziyatlariga qo‘llash
Natijaviy	qoniqarli natija aloqani mustahkamlaydi [69]	natijani mezon bo‘yicha ko‘rinadigan qilish, xatoni o‘rganish manbaiga aylantirish	rolli o‘yin va natija varag‘i

2.2-jadvaldagi qonunlar tanlangan tamoyillar bilan bevosita bog‘langan: o‘zaro bog‘liqlik qonuni fanlararo bog‘liqlik va tizimlilik tamoyillarining, mashq qonuni tizimlilik va izchillik tamoyilining, intensivlik qonuni onglilik va faollik tamoyilining, assimilyatsiya qonuni nazariya bilan amaliyot birligi tamoyilining, natijaviy qonun esa kompetensiyaviy yondashuvga tayangan baholash tizimining psixologik asosi hisoblanadi. Qonunlar topshiriqlar tizimini qurishda o‘zaro to‘ldiruvchi qoidalar sifatida qo‘llanadi: bir topshiriqda lingvomadaniy birlik kontekst ichida beriladi (o‘zaro bog‘liqlik), yorqin autentik material orqali taqdim etiladi (intensivlik), keyingi mashg‘ulotlarda yangi vaziyatlarda qayta qo‘llanadi (mashq va assimilyatsiya) va har bir qo‘llash natijasi mezon asosida baholanadi (natijaviy qonun). Ushbu qoidalar monografiyaning uchinchi bobida lingvomadaniy topshiriqlar tizimini loyihalashda asos qilib olinadi.

Paragrafda o‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi nazariy qoidalar asoslanadi. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari ikki qatlamdan – umumdidaktik tamoyillar va ta’lim qonuniyatlaridan iborat. Ya.A.Komenskiy asos solgan va keyingi didaktikada tizimlashtirilgan tamoyillar orasidan 2.1-§ dagi yondashuvlardan kelib chiqadigan va me’yoriy-dasturiy ta’minotdagi bo‘shliqlarga

javob beradigan beshta tamoyil tanlanadi: ilmiylik tamoyili lingvomadaniy mazmunni ilmiy tavsiflangan birliklar va tahlil usullari bilan ta’minlaydi; tizimlilik va izchillik tamoyili mazmunni tahlil birligi va faoliyat murakkabligi bo‘yicha tartiblaydi; onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili madaniy ma’noni talabaning kashfiyoti va refleksiyasi natijasiga aylantiradi; fanlararo bog‘liqlik tamoyili amaliy, nazariy va metodik fanlardagi madaniy elementlarni birlashtiradi; nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili lingvomadaniy bilimni muloqot va kasbiy-metodik harakatga ko‘chiradi. O‘zaro bog‘liqlik, mashq, intensivlik, assimilyatsiya va natijaviy qonunlar esa ushbu tamoyillarning psixologik-pedagogik asosi bo‘lib, lingvomadaniy topshiriqlarni tuzishning aniq qoidalariga aylanadi. Yondashuvlar, tamoyillar va qonuniyatlar birgalikda takomillashtirilgan metodika modelining metodologik blokini tashkil etadi.

2.3-§. Bo‘lajak til o‘qituvchilarining lingvomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid xorijiy va milliy tajriba

Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish faqat nazariy qoidalardan kelib chiqib emas, bu sohada to‘plangan amaliy tajribani tanqidiy o‘zlashtirish asosida ham amalga oshiriladi. Xorijiy ta’lim tizimlarida madaniy tarkib til o‘qituvchisini tayyorlashning me’yoriy ramkalari, standartlari va universitet dasturlariga kiritilgan bo‘lib, uning o‘lchanadigan deskriptorlari, o‘zini o‘zi baholash vositalari va o‘qitish texnologiyalari ishlab chiqilgan; MDH va O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida esa lingvostranovedeniye, lingvokulturologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya an’analari asosida maxsus kurslar, integrallashgan dasturlar va o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Bu tajribalar bir-biridan nazariy asosi, madaniyat tushunchasining talqini, o‘qitish shakli va natijani baholash usuli bilan farqlanadi, shu bois ulardan milliy sharoitga mos jihatlarni ajratib olish qiyosiy mezonlarni talab etadi. Mazkur paragrafda Yevropa Kengashining CEFR qo‘shimcha jildidagi plyurilingval va plyurimadaniy kompetensiya, M.Byram, C.Kramsch va D.K.Deardorff modellari, til o‘qituvchisini tayyorlashning Yevropa va Amerika ramkaviy hujjatlari hamda universitet dasturlari, so‘ng MDH va O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari tajribasi tahlil qilinadi, natijalar 2.3-jadvalda qiyoslanadi va milliy sharoitga moslashtirish xulosalari asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-son qarorining 7-bandi “v” kichik bandida Yoshlar ishlari agentligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda “2025-yil 1-yanvarga qadar ingliz tili, keyingi yillarda boshqa xorijiy tillar va zamonaviy kasblarni o‘rgatish bo‘yicha dunyoning yetakchi markazlari, oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularning xalqaro ta’lim standartlariga mos ta’lim dasturlarini “Ibrat farzandlari” va “Ustoz” loyihalariga tatbiq etish choralarini ko‘rsin” deya belgilangan [16]. Dunyoning yetakchi markazlari

va oliy ta’lim tashkilotlarining xalqaro standartlarga mos dasturlarini milliy ta’lim loyihalariga tatbiq etish vazifasi xorijiy tajribani mexanik ko‘chirishni emas, uni milliy ta’lim maqsadlari, o‘quvchilar kontingenti va madaniy muhitga moslashtirishni nazarda tutadi. Ingliz tili o‘qituvchisi tayyorlash sohasida bu vazifani bajarish lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish va undan moslashtirish mezonlarini ajratib olishni talab qiladi.

Xorijiy tajribaning me’yoriy markazini Yevropa Kengashining til ta’limi bo‘yicha ramkaviy hujjatlari tashkil etadi. CEFR qo‘shimcha jildi [4] 2020-yilda nashr etilgan bo‘lib, unda plyurilingval va plyurimadaniy kompetensiya alohida deskriptorlar tizimiga ega bo‘ldi: u plyurimadaniy repertuarga tayanish, plyurilingval tushunish va plyurilingval repertuarga tayanish shkalalari orqali tavsiflanadi. Hujjatda plyurilingval yondashuvning asosiy qoidasi sifatida turli tillarni ona tili sohibi darajasida muvozanatli egallash maqsad emasligi, aksincha, ulardan foydalanishni vaziyatga mos moslashtirish qobiliyati va tayyorligi muhimligi, barcha til va madaniy tajriba kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga hissa qo‘shishi ta’kidlanadi [4]. Plyurimadaniy repertuarga tayanish shkalasida “o‘zgalik” bilan ishlash, madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, madaniy konvensiyalarni anglash va ularni muloqotda hisobga olish qobiliyati darajalar bo‘yicha tavsiflanadi [4]. Shunday qilib, CEFR qo‘shimcha jildi madaniy tarkibni ham lingvistik ko‘nikmalar kabi darajalanadigan va baholanadigan ta’lim natijasiga aylantiradi.

CEFR qo‘shimcha jildining lingvomadaniy kompetensiya uchun ahamiyati avvalo madaniyatning darajalanishida ko‘rinadi: deskriptorlar plyurimadaniy kompetensiyaning past darajadagi oddiy farqlarni payqashdan yuqori darajadagi madaniy konvensiyalarni talqin qilish va ular haqida muloqot yuritishgacha bo‘lgan rivojlanishini ko‘rsatadi; bu tadqiqotimizdagi to‘rt darajali baholash tizimini xalqaro shkala bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi. Hujjatda ona tili va madaniyati resurs sifatida tan olinadi: plyurilingval yondashuvda o‘rganuvchining mavjud til va madaniy tajribasi to‘siq emas, yangi madaniyatni anglash vositasi sifatida qaraladi, bu esa o‘zbek tilmadaniyatini ingliz tilmadaniyatini o‘zlashtirishda qiyosiy asos sifatida qo‘llashni asoslaydi. Vositachilik g‘oyasi ham shu nuqtai nazardan qimmatli: CEFR qo‘shimcha jildida madaniyatlar o‘rtasida vositachilik qilish kommunikativ faoliyatning alohida turi sifatida qaraladi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy roliga to‘g‘ridan to‘g‘ri mos keladi. 1.3-§ da ko‘rsatilganidek, milliy hujjatlarda CEFR asosan lingvistik daraja o‘lchovi sifatida qabul qilingan [1], uning plyurimadaniy shkalalari esa me’yoriy darajada qo‘llanmagan; bu holat ushbu shkalalarni metodik darajada moslashtirib qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

M.Byram [28] modeli madaniyatlararo til ta’limi nazariyasining tayanch modeli hisoblanadi. Muallif madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani lingvistik, sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyalar hamda madaniyatlararo

kompetensiyaning besh tarkibi – munosabatlar (savoir être), bilimlar (savoirs), talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmalari (savoir comprendre), kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari (savoir apprendre/faire) va tanqidiy madaniy xabardorlik (savoir s’engager) birligi sifatida tavsiflaydi. Modelning metodik qimmati uning ta’lim maqsadlari va baholash vositalariga aylantirilganida ko‘rinadi: M.Byram har bir tarkib uchun ta’lim maqsadlarini va ularni baholash shartlarini alohida tavsiflaydi, o‘rganuvchini ona tili sohibiga taqlid qiluvchi emas, ikki madaniyat o‘rtasida turuvchi madaniyatlararo vositachi sifatida ko‘radi [28]. Modeldagi talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmasi boshqa madaniyatga oid hujjat yoki voqeani o‘z madaniyatidagi hodisa bilan bog‘lashni, tanqidiy madaniy xabardorlik esa o‘z va o‘zga madaniyatdagi qarashlar, amaliyotlar va mahsulotlarni aniq mezonlar asosida baholashni anglatadi [28].

M.Byram modeli Yevropa ta’lim makonidagi til o‘qituvchisi tayyorlash amaliyotiga keng ta’sir ko‘rsatgan. M.Kelly va M.Grenfell boshchiligidagi mualliflar jamoasi Yevropa Komissiyasi buyurtmasi bilan Sautgempton universitetida ishlab chiqqan “Til o‘qituvchisi ta’limining Yevropa profili” [5] to‘rt bo‘limdan – tuzilma, bilim va tushunish, strategiyalar va ko‘nikmalar hamda qadriyatlardan iborat bo‘lib, uning tarkibida madaniyatlararo va ko‘p madaniyatli muhit tajribasi, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga, tillar va madaniyatlar xilma-xilligiga oid tayyorgarlik bandlari alohida ajratilgan. Yevropa zamonaviy tillar markazi (Graz) tomonidan ishlab chiqilgan Bo‘lajak til o‘qituvchilari uchun Yevropa portfoliosi (EPOSTL) [7] esa metodologiya va baholash bo‘limlarida “Madaniyat” kichik bo‘limlarini ajratib, bo‘lajak o‘qituvchi madaniyatni o‘qitish va baholash bo‘yicha o‘z kompetensiyasini deskriptorlar asosida o‘zi baholashini nazarda tutadi. Yevropa tajribasi M.Byram modelining ikki muhim talabini – madaniy tarkibni o‘qituvchi tayyorgarligining mustaqil yo‘nalishiga aylantirish va uni refleksiv o‘zini o‘zi baholash vositasi bilan ta’minlashni – institutsional darajada amalga oshirgan.

Yevropa zamonaviy tillar markazining yana bir loyihasi – til va madaniyatlarga plyural yondashuvlarning ma’lumotnoma ramkasi (FREPA/CARAP) [2] plyurilingval va madaniyatlararo kompetensiyani bilim, ko‘nikma va munosabatlar deskriptorlari orqali tavsiflaydi hamda o‘qitish materiallarining onlayn banki va o‘qituvchilar uchun treninglar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Loyiha 2012–2013-yillarda xalqaro tarmoq tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, uning maqsadli auditoriyasi qatorida o‘qituvchi tayyorlovchi mutaxassislar ham ko‘rsatilgan [2]. FREPA tajribasining lingvomadaniy kompetensiya uchun qimmati shundaki, unda madaniy tarkib deskriptorlari tayyor ta’lim materiallari va o‘qituvchilar treningi bilan bevosita bog‘langan; bu esa deskriptor, topshiriq va o‘qituvchi tayyorgarligi o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etishning namunasi hisoblanadi.

C.Kramsch qarashlari madaniyatlararo til ta’limining nazariy asosini boyitib, o‘qituvchi tayyorlash dasturlarida madaniyatni dinamik va diskursiv hodisa sifatida o‘qitish talabini ilgari suradi. Muallif tilning madaniy voqelikni ifodalashi, gavdalantirishi va ramziy tarzda namoyon etishini ko‘rsatadi [48], madaniyatni umumiy ijtimoiy makon, tarix va tasavvurlarga ega diskurs jamoasiga a’zolik sifatida belgilaydi va shu bilan birga, bitta diskurs jamoasi a’zolari ham turli hayotiy tajribaga ega bo‘lgani uchun madaniyat bir jinsli emasligini ta’kidlaydi [48]. C.Kramschning kontekst va madaniyat munosabatiga bag‘ishlangan tadqiqoti [47] chet tili o‘rganuvchisining ikki madaniyat oralig‘idagi o‘ziga xos pozitsiyasi haqidagi g‘oyani metodikaga olib kirgan bo‘lib, C.Crozet va A.J.Liddicoat [30] bu g‘oyani madaniyatlararo til ta’limida o‘rganuvchining “uchinchi o‘rin”ga intilishi sifatida rivojlantiradi. A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] o‘qituvchilar bilan hamkorlikdagi o‘n yillik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, madaniyatlararo nuqtai nazardan til o‘qitishning faol qurish, aloqalar o‘rnatish, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, refleksiya va mas’uliyat tamoyillarini asoslaydi hamda rejalashtirish, resurslarni tanlash, texnologiyalardan foydalanish, baholash va dasturni baholashning madaniyatlararo talablarini ishlab chiqadi.

D.K.Deardorff [32] tadqiqoti madaniyatlararo kompetensiyani oliy ta’lim internatsionalizatsiyasining ta’lim natijasi sifatida aniqlash va baholash muammosiga bag‘ishlangan. Muallif ekspertlar kelishuviga asoslanib, madaniyatlararo kompetensiyani shaxsning madaniyatlararo bilim, ko‘nikma va munosabatlariga tayanib madaniyatlararo vaziyatlarda samarali va o‘rinli muloqot qilish qobiliyati sifatida ta’riflaydi va piramidal modelni taklif etadi: uning asosini hurmat, ochiqlik va qiziquvchanlik tashkil etadi, ularga bilim va ko‘nikmalar tayanadi, natijada moslashuvchanlik va empatiya kabi ichki hamda samarali va o‘rinli muloqot kabi tashqi natijalarga erishiladi [32]. Modelning universitet amaliyoti uchun qimmati shundaki, u madaniyatlararo kompetensiyani bitta test bilan emas, bir nechta usul – kuzatish, o‘z-o‘zini baholash, keys va portfolio – yordamida, jarayon sifatida baholashni talab qiladi. W.Baker [24] esa ingliz tili lingva franka sifatida qo‘llanadigan muloqotda madaniyatlararo xabardorlik modelini taklif etib, ingliz tili o‘qituvchisi tayyorlashda madaniyatni bitta “ingliz” mamlakati bilan cheklamaslik zarurligini asoslaydi; K.Risager [60] ham chet tili o‘qitish diskursidagi bir xillik tendensiyasini tanqid qiladi.

Xorijiy tajribada darsliklar va o‘quv materiallaridagi madaniy mazmunni tahlil qilish ham o‘qituvchi tayyorgarligining alohida yo‘nalishi sifatida rivojlangan. F.Sharifian [64] madaniy lingvistika doirasida tilda kodlangan madaniy konseptualizatsiyalarni madaniy andozalar, madaniy kategoriyalar va madaniy metaforalar ko‘rinishida tasniflab, bu tahlil apparatini Jahon inglizchalari va ingliz tilini xalqaro til sifatida o‘qitishga tatbiq etadi hamda darsliklarda madaniy

konseptualizatsiyalarni aniqlash bosqichlarini ko‘rsatadi. A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] darslikni madaniyatlararo o‘rganish resursi sifatida baholash, resurslarni tanqidiy qo‘llash va ularni bir-biri bilan bog‘lash masalalarini alohida ko‘rib chiqadi. Bu yo‘nalish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun alohida ahamiyatga ega, chunki milliy oliy ta’lim muassasalarida amaliy til fanlarining asosiy adabiyotlari xalqaro nashriyotlarning o‘quv majmualaridan iborat [8] va ulardagi madaniy mazmun o‘zbek madaniyati bilan qiyoslashni ko‘zda tutmaydi. Demak, darslikdagi madaniy mazmunni tahlil qilish va uni o‘zbek auditoriyasiga moslashtirish ko‘nikmasi kasbiy-metodik komponentning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirilishi lozim.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlari ACTFL va CAEP tomonidan 2013-yilda qabul qilingan dasturiy standartlar [3] asosida akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Standartlar oltita yo‘nalishni – til, lingvistika va qiyoslashlar; madaniyatlar, adabiyotlar va fanlararo tushunchalar; til egallash nazariyalari va o‘qitish amaliyoti; standartlarni o‘quv dasturi va o‘qitishga integratsiyalash; tillar va madaniyatlarni baholash hamda professionalizmni qamraydi [3]. Madaniyatga bag‘ishlangan ikkinchi standartda bo‘lajak o‘qituvchi madaniyatning qarashlari (perspectives) bilan uning amaliyotlari (practices) va mahsulotlari (products) o‘rtasidagi aloqalarni tushunishi, bu madaniy asosni o‘qitishda qo‘llashi, maqsadli va o‘z madaniyatini qiyoslay olishi, adabiy va madaniy matnlardan maqsadli madaniyat qarashlarini talqin qilishda foydalanishi hamda boshqa fanlar mazmunini til ta’limiga integratsiyalashi talab etiladi [3]. To‘rtinchi standartda esa bo‘lajak o‘qituvchi madaniy ta’limni “mahsulotlar – amaliyotlar – qarashlar” asosida rejalashtirishi va amalga oshirishi, autentik materiallarni baholab, tanlab va moslashtirib qo‘llashi belgilangan [3].

ACTFL/CAEP standartlarining universitet dasturlarida qanday amalga oshirilishini Sharqiy Kentukki universiteti (AQSH) ispan tili o‘qituvchilarini tayyorlash dasturining standartlarga muvofiqlik hisobotida ko‘rish mumkin [19]. Hisobotda madaniyatga oid ikkinchi standart amaliy tilshunoslik, ispan tili tadqiqotlari, Ispaniya sivilizatsiyasi, Lotin Amerikasi sivilizatsiyasi, ispan adabiyoti va madaniyati, tarjimaga kirish kurslari hamda bitiruv loyihasi orqali ta’minlanishi ko‘rsatilgan [19]. Bu misol AQSH tajribasining ikki xususiyatini ochadi: madaniy tarkib bitta fanga emas, til, adabiyot, sivilizatsiya va tarjima fanlari tizimiga taqsimlanadi; har bir fan esa standartning muayyan elementi bilan aniq bog‘lanadi va akkreditatsiya jarayonida shu bog‘liqlik hujjatlashtiriladi. Mazkur tajriba 1.3-§ da aniqlangan milliy holat – madaniy mazmunga tabiiy bog‘liq fanlar mavjud bo‘lsa-da, ularning madaniy natijaga qo‘shgan hissasi belgilanmagani – bilan qiyoslaganda fanlar va natijalar matritsasini tuzish zarurligini ko‘rsatadi.

ACTFL/CAEP standartlarining madaniyatni baholashga oid talablari ham lingvomadaniy kompetensiya uchun ahamiyatli. Standartlar tizimida tillar va

madaniyatlarni baholash alohida, beshinchi standart sifatida ajratilgan [3], ya’ni madaniy tarkib til ko‘nikmalari bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchi baholay olishi lozim bo‘lgan mustaqil natija sifatida qaraladi. To‘rtinchi standartdagi o‘quv materiallarini standartlar va o‘quv maqsadlari asosida baholash, tanlash, moslashtirish va loyihalash, jumladan, ona tili sohiblari tilni maqsadli madaniyatlarda qanday qo‘llashini aks ettiruvchi autentik resurslardan foydalanish talabi [3] esa kasbiy-metodik komponentning xorijiy standartdagi bevosita ifodasidir. Milliy malaka talablarida ham o‘quv materiallarini tanlash, yaratish, moslashtirish va ulardan foydalanish talabi qo‘yilgan [1], biroq unda autentik madaniy materialni baholash mezonlari ko‘rsatilmagan. Shu bois ACTFL standartlaridagi “mahsulotlar – amaliyotlar – qarashlar” tahlili lingvomadaniy materialni tanlash va baholashning amaliy vositasi sifatida milliy metodikaga moslashtirilishi mumkin: talaba, masalan, ingliz choy an’anasini avval mahsulot (choy, idishlar), keyin amaliyot (choy ichish vaqti va tartibi), so‘ng qarash (mehmondorchilik va ijtimoiy muloqot haqidagi tasavvurlar) darajasida tahlil qiladi va uni o‘zbek choyxonasi an’anasi bilan xuddi shu uch daraja bo‘yicha qiyoslaydi.

N.M.Axmedova [122] bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilayotgan jahon markazlari qatorida Stanford universiteti (AQSH), Utrext universiteti (Niderlandiya), Lids universiteti (Buyuk Britaniya), Singapur Milliy ta’lim instituti, Yevropa zamonaviy tillar markazi (Avstriya) va Abilay xon nomidagi Qozog‘iston xalqaro munosabatlar va jahon tillari universitetini ko‘rsatadi. Muallif tahliliga ko‘ra, Stanford universitetida o‘qituvchi tayyorlash dasturlarida kurslar izchilligi va klinik amaliyotning samaradorlikka ta’siri asoslangan, Utrext universitetida amaliyot va nazariyani refleksiya orqali bog‘lovchi ALACT modeli ishlab chiqilgan, Lids universitetida til o‘qituvchisi kognitsiyasining o‘qitish amaliyotiga ta’siri tizimlashtirilgan, Singapur Milliy ta’lim institutida qadriyatlar, ko‘nikmalar va bilimlar uyg‘unligiga asoslangan TE21 modeli joriy etilgan, Yevropa zamonaviy tillar markazida esa EPOSTL portfoliosi yaratilgan [122]. Bu universitet tajribalari madaniy tarkibga bevosita bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy shart-sharoitlarni – kurslar izchilligi, refleksiya va qadriyatlar ustuvorligini – namoyon etadi.

E.Sh.Kholmatova [46] xorijiy tajribaning yana bir yo‘nalishini – immersiv tajribani alohida ajratadi. Muallif bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishda xorijda o‘qish va madaniy almashinuv dasturlarining ahamiyatini ko‘rsatib, bunday tajriba bo‘lajak o‘qituvchilarga maqsadli til va madaniyatni chuqurroq tushunish, madaniy nozikliklarni boshqarish va shu orqali samaraliroq o‘qitish imkonini berishini ta’kidlaydi hamda uni o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga kiritishni tavsiya etadi. Milliy sharoitda xorijga chiqish barcha talabalar uchun ochiq bo‘lmagani sababli immersiv tajribaning virtual shakllari – xorijiy

tengdoshlar bilan videoaloqa, onlayn hamkorlik loyihalari va autentik media bilan ishlash – muqobil vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy universitet va ramkaviy hujjatlar tajribasidan quyidagi xulosaga kelinadi: til o‘qituvchisini tayyorlashda madaniy tarkib standart darajasida majburiy talab sifatida belgilanadi, fanlar tizimi bo‘yicha taqsimlanadi, autentik materiallar bilan ishlash va madaniyatlarni qiyoslash orqali amalga oshiriladi hamda deskriptorlar, portfolio va ko‘p usulli baholash orqali nazorat qilinadi. Ushbu tajriba lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish metodikasiga uch talabni olib kiradi: madaniy natija aniq deskriptorlar bilan ifodalanishi, uni ta’minlovchi fanlar va topshiriqlar natijalar matritsasida bog‘lanishi va baholash refleksiv vositalar bilan to‘ldirilishi lozim.

MDH mamlakatlari oliy ta’lim muassasalarida lingvomadaniy tayyorgarlik lingvostranovedeniye va lingvokulturologiya an’anasi asosida rivojlangan. Bu an’ananing boshlang‘ich nuqtasi E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov [82] tomonidan Moskva davlat universiteti nashriyotida chop etilgan asarda rus tilini chet tili sifatida o‘qitish materialida asoslangan lingvostranovedeniye konsepsiyasi bo‘lib, unda til va madaniyatni birgalikda o‘rganish tamoyili ilgari suriladi. A.S.Mamontov [98] bu an’anani madaniyatlararo kommunikatsiyaga o‘rgatish vazifasi bilan bog‘lab, lingvokulturologik materialni tanlash mezonlarini – tipiklik, kommunikativ qimmat, mamlakatshunoslik qimmati va stereotipdan himoyalanganlikni ishlab chiqadi hamda materialni tanlashda o‘rganuvchining ona madaniyatini hisobga olishni birinchi navbatdagi vazifa sifatida belgilaydi. V.V.Safonova [109] xalqaro muloqot tillarini madaniyatlar va sivilizatsiyalar dialogi kontekstida o‘rganish konsepsiyasini, S.G.Ter-Minasova [114] esa til va madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasini ishlab chiqib, bu g‘oyalarni filologik ta’limga olib kirgan. MDH an’anasi madaniyatni til birliklarida kodlangan bilim sifatida o‘qitishga ustuvorlik beradi va lingvistik-semantik tarkibni ishlab chiqishda Yevropa ramkalariga nisbatan boyroq vositalarga ega.

MDH oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining madaniy tayyorgarligi maxsus kurslar va integrallashgan dasturlar orqali amalga oshirilgan. I.A.Izmestyeva [147] Yakutsk davlat universitetining ingliz tili bo‘limida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini madaniyatlararo muloqotga tayyorlash modelini ishlab chiqib, uning o‘zagini maxsus kurs va kontrastiv-qiyosiy lingvomadaniy tahlil tashkil etishini, model tabiatga moslik, madaniyatga moslik va o‘rganuvchining mustaqil faolligi tamoyillariga tayanishini ko‘rsatadi; tajriba-sinov ishiga birinchi, uchinchi va beshinchi kurslarning 120 nafar talabasi jalb etilgan bo‘lib, qiyosiy tahlil talabalarga o‘zga madaniyatni chuqurroq tushunish bilan birga o‘z madaniyatiga bo‘lgan faxr va boshqa madaniyatlarga bag‘rikenglikni kuchaytirgani qayd etiladi. Muallif gipotezasida ham madaniyatlararo kompetensiya o‘zga madaniy qadriyatlarni o‘z madaniyatini chuqurroq anglash bilan birga o‘zlashtirish orqali shakllanishi, kulturologik tarkib esa milliy komponentni o‘z ichiga olishi belgilangan [147].

A.V.Getmanskaya [143] Sankt-Peterburgda o‘tkazilgan tadqiqotida “ingliz tili va jahon badiiy madaniyati” integrallashgan kursini ishlab chiqib, uni 10 siklga birlashtirilgan 23 blokdan iborat, 136 akademik soatga mo‘ljallangan dastur sifatida tuzadi; har bir blok madaniyatga oid ma’ruza va madaniy belgilangan leksik birliklarni standartlashtirish hamda variativ qo‘llashga yo‘naltirilgan mashqlar bilan ta’minlanadi, sikllar madaniyatshunoslik loyihalari bilan yakunlanadi. Tajriba natijalariga ko‘ra sinaluvchilar nutqining hajmi uch barobar oshgani, har bir sinaluvchi o‘rtacha 84 ta madaniy belgilangan leksik birlikni variativ birikmalarda qo‘llagani, ona va jahon madaniyati yodgorliklarini tavsiflashda qiyoslash, tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanish tendensiyasi kuzatilgani qayd etiladi [143]. Zh.V.Demyanova [145] Chelyabinsk pedagogika oliy ta’lim muassasasining nofilologik fakultetlari talabalari misolida lingvostranovedcheskaya kompetensiyani shakllantirish modelini maqsadni belgilovchi, predmet-mazmuniy, jarayon-faoliyat va baholash-natija bloklari asosida quradi, kompetensiyani bilish, praksiologik va motivatsion komponentlarga ajratadi va har biri uchun mezon, ko‘rsatkich va diagnostika vositalarini belgilaydi.

MDH lingvodidaktikasida noverbal muloqotning madaniy jihatlari ham lingvomadaniy tayyorgarlik tarkibida ko‘rib chiqiladi. A.S.Mamontov [98] imo-ishora, mimika va poza kabi paralingvistik vositalarning milliy-madaniy jihatdan belgilanganini, chet tilida so‘zlashib, ona tilidagi imo-ishoralardan foydalanish madaniyatlararo muloqotda nomuvofiqlik tug‘dirishini ko‘rsatadi; muallif madaniyatni o‘rganishda etnosni farqlovchi belgilarni umuminsoniy, birlashtiruvchi belgilar bilan tuzilmaviy oppozitsiyada ko‘rib chiqish zarurligini ham asoslaydi. Bu qoidalar ingliz tili o‘qituvchisi tayyorlashda ham to‘liq qo‘llanadi: masalan, o‘zbek madaniyatidagi kattalarga hurmat ifodasi bo‘lgan qo‘lni ko‘krakka qo‘yib salomlashish va ingliz madaniyatidagi qo‘l berib ko‘rishish odati umumiy funksiya – hurmat va xayrixohlikni bildirish asosida, so‘ng farqlovchi belgilari bo‘yicha qiyoslanganda talaba noverbal farqni ekzotika sifatida emas, madaniy variant sifatida tushunadi.

Qozog‘iston tajribasida chet tili ta’limining kognitiv-lingvomadaniy metodologiyasi alohida o‘rin tutadi. S.S.Kunanbayeva [96] zamonaviy chet tili ta’limining nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqib, chet tili ta’limining kognitiv-lingvomadaniy metodologiyasini asoslaydi; N.M.Axmedova [122] bu metodologiyaning Abilay xon nomidagi Qozog‘iston xalqaro munosabatlar va jahon tillari universitetida asoslanganini qayd etadi. Qozog‘iston tajribasi tadqiqotimiz uchun shu bilan ahamiyatliki, unda madaniyatni bilish (kognitiv) va til (lingvistik) jihatlari yagona metodologik asosda birlashtiriladi; tadqiqotimizdagi kognitiv-lingvomadaniy komponent nomi ham shu yondashuv bilan mos keladi.

MDH oliy ta’lim muassasalari tajribasini umumlashtirib, uning asosiy xususiyatlari sifatida til birliklaridagi madaniy ma’noni o‘qitishga ustuvorlik berilishini, maxsus kurs va integrallashgan kurs shakllarining keng qo‘llanishini, ona

va o‘rganilayotgan madaniyatlarni qiyosiy tahlil qilishning metodik vosita sifatida rivojlantirilganini hamda kompetensiyani bloklar, komponentlar va mezonlar orqali modellashtirish an’anasini ajratish mumkin. Ayni paytda bu tadqiqotlar asosan rus tilini chet tili sifatida o‘qitish, nofilologik fakultetlar yoki madaniyatlararo kommunikatsiyaning umumiy masalalariga qaratilgan; ingliz tilini kasb sifatida o‘qitadigan bo‘lajak o‘qituvchining lingvomadaniy-metodik tayyorgarligi, ya’ni kasbiy-metodik komponent ularda alohida ishlanmagan.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining madaniy tayyorgarligi tajribasi ilmiy tadqiqotlar, o‘quv kurslari va o‘quv-metodik ta’minot darajalarida shakllanmoqda. Ilmiy darajada G.T.Maxkamova [101] ingliz tili fakultetlari talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqqan, keyingi doktorlik tadqiqotida [131] filologiya talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish masalasini ingliz tili materialida tizimli yoritgan; bu tadqiqotlar O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida madaniyatlararo yo‘nalishdagi ilmiy maktabning shakllanishiga asos bo‘lgan. Sh.P.Raximova [135] shu universitetda talabalarning diskurs kompetensiyalarini takomillashtirishning multimadaniy aspektlarini tadqiq etib, madaniyatlararo yozma muloqotda stereotiplardan voz kechish va tilni turli madaniy me’yorlarga moslashtirish zarurligini asoslaydi. J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova va Sh.S.Ashurov [128] tomonidan ingliz tilida yaratilgan “English Language Teaching Methodology” darsligi esa ingliz tili bo‘limlari talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, milliy metodika maktabining xalqaro adabiyot bilan integratsiyasini aks ettiradi.

Lingvomadaniy kompetensiyaning alohida tarkibiy qismlari bo‘yicha mahalliy dissertatsiyalar ham milliy tajribaning muhim qismini tashkil etadi. D.M.Djurayev [124] xitoy tilini o‘rganayotgan talabalarda lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish metodikasini, U.U.Jumanazarov [129] ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini, I.M.Tuxtasinov [138] esa ekvivalentlik hodisasi asosida tarjimonning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni tadqiq etgan. A.Yusupov [78] tarjimon lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirishda lug‘atlarning funksional imkoniyatlarini tahlil qilib, lingvomadaniy yondashuvning vazifalarini asliyat tili sohiblarining lingvistik ongini shakllantirish, til madaniyati va muloqot uslubini o‘rganish hamda lingvomadaniy birliklarni tarjima qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish sifatida belgilaydi. Bu tadqiqotlar milliy tajribada lingvomadaniy kompetensiyaning lisoniy asosi – frazeologik, tarjima va lug‘at bilan ishlash jihatlari – yaxshi ishlanganini ko‘rsatadi.

O‘quv kurslari darajasidagi milliy tajribani O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Xorijiy tilni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish

(Umumiy qism)” fani misolida koʻrish mumkin [20]. Fan 6-semestrda 4 kredit hajmida oʻqitilib, 24 mavzudan iborat; uning birinchi yarmi madaniyat tushunchasi, madaniyatlararo xabardorlik va kompetensiya, madaniyatlararo muloqotning ekstralingvistik jihatlari, Oʻzbekiston va ingliz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlar madaniyatlararo muloqotini qiyoslash, idiomalar, salomlashish va xushmuomalalik shakllarini qiyoslash, madaniy shok va akkulturatsiya, G.Hofstedening besh oʻlchovli modeli, adabiyot va media orqali madaniyatni oʻrgatish, madaniyatlararo masalalarni oʻqitish uchun materiallarni tahlil qilish va madaniyatlararo tushunmovchiliklarni bartaraf etishning “RADAR” texnikasiga bagʻishlangan, ikkinchi yarmi esa ommaviy nutq masalalarini qamraydi [20]. Dastur adabiyotlari qatorida F.Adilovaning “Developing Intercultural Competence” oʻquv qoʻllanmasi hamda M.Byram va hammualliflarning madaniyatlararo kompetensiyani amaliyotda rivojlantirishga bagʻishlangan toʻplami koʻrsatilgan [20]. Bu kurs xorijiy madaniyatlararo ta’lim modellarining milliy oliy ta’limga moslashtirilganini koʻrsatadi, biroq 1.3-§ da qayd etilganidek, uning ta’lim natijalari umumiy til darajasi boʻyicha ifodalangan va madaniy natijani baholash mezonlari belgilanmagan.

Amaliy til fanlari darajasida Qoʻqon davlat universitetining “Nutq koʻnikmalari integratsiyasi” fani dasturida [8] talabalar egallashi lozim boʻlgan koʻnikmalar qatorida madaniyatlararo muloqotga taalluqli masalalarga tanqidiy yondashish, tili oʻrganilayotgan mamlakat madaniyati va oʻz madaniyatini qiyoslash hamda ogʻzaki muloqotda milliy-madaniy me’yorlarga amal qilish koʻrsatilgan; toʻqqiz mavzudan toʻrttasida – shaxs, milliy ramzlar va davlat tuzilishi, oilaviy qadriyatlar, dam olish va sport mavzularida – madaniy element qiyosiy shaklda berilgan. Oʻquv-metodik ta’minot darajasida N.B.Nazarova, S.O.Uytoʻlsinova va M.B.Abbosova [133] Samarqand davlat chet tillar institutida 60111800 yoʻnalishi talabalari uchun “Intercultural communication” oʻquv qoʻllanmasini tayyorlab, madaniyat, diskurs va pragmatikaga oid bilimlarni ingliz tili darslarida qoʻllashga yoʻnaltirilgan refleksiv topshiriqlar, muhokama savollari va amaliy mashgʻulotlarni taklif etadi. Me’yoriy darajada esa Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan malaka talablarida tili oʻrganilayotgan mamlakatlar madaniyatini oʻrganish, muloqot etiketini rivojlantirish va madaniyatlararo muloqot koʻnikmalarini shakllantirish kasbiy kompetensiya sifatida belgilangan [1].

Milliy amaliyotda lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning eksperimental tajribasi ham toʻplana boshlagan. M.O.Rakhimov [57] ingliz tilini oʻqitishda lingvomadaniy kompetentlikni rivojlantirishning kompleks strategiyasini sinab koʻrib, talabalarda shaxslararo muloqot me’yorlarini tanqidiy baholash, verbal va noverbal madaniy belgilarga sezgirlik, oʻz madaniy qadriyatlarini tizimli oʻrganish va shu asosda asosli madaniyatlararo qiyoslash qobiliyati oshganini qayd etadi hamda milliy madaniyatni anglash lingvomadaniy kompetensiyaning poydevori ekanini

ta’kidlaydi. E.Sh.Kholmatova [46] bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari kontingentida o‘tkazgan tadqiqotida o‘zbek va rus ishtirokchilarining kommunikativ strategiyalari madaniy qadriyatlar ta’sirida farqlanishini aniqlaydi. D.Naimova [53] esa multimadaniy muhitda ishlovchi o‘qituvchilar malakasini oshirish va lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda madaniy stereotiplar muammosini hal etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu natijalar milliy sharoitda lingvomadaniy ta’limning samaradorligi o‘zbek madaniyati bilan qiyoslashga tayanishga bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Milliy sharoitda lingvomadaniy tayyorgarlikni bakalavriatning dastlabki kurslaridanoq boshlash zarurligi me’yoriy hujjatlarda belgilangan yangi talablar bilan ham asoslanadi. PQ-239-son qarorda 2024–2026-yillarda xorijiy til filologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 3 va 4-kursda tahsil olayotgan hamda kamida C1 darajadagi sertifikatga ega talabalarga ta’lim muassasalarida o‘qituvchi sifatida ishlash imkoniyati yaratilgani [16] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchinchi kursdanoq real sinf bilan ishlay boshlashini anglatadi. Bunday sharoitda lingvomadaniy materialni tanlash, madaniy taqqoslash topshirig‘ini tuzish va o‘quvchilarning madaniy savollariga javob berish ko‘nikmalari ikkinchi kursda shakllangan bo‘lishi lozim. Xorijiy tajribada pedagogik amaliyot va klinik tayyorgarlikka katta e’tibor berilishi [122] ham shu xulosani tasdiqlaydi: madaniy mazmunni o‘qitish ko‘nikmasi amaliyotga chiqishdan oldin mikroo‘qitish va dars fragmentlari orqali egallanadi.

Milliy tajriba tahlili uning kuchli tomonlari va bo‘shliqlarini aniq ko‘rsatadi. Kuchli tomonlar sifatida madaniyatlararo kompetensiya bo‘yicha konseptual tadqiqotlar mavjudligi, frazeologik, tarjima va lug‘at bilan ishlash kabi lisoniy jihatlarning chuqur ishlanganligi, madaniyatlararo muloqot bo‘yicha maxsus kurs va o‘quv qo‘llanmalar yaratilgani hamda malaka talablarida madaniy kompetensiyaning e’tirof etilgani qayd etiladi. Bo‘shliqlar esa shundan iboratki, madaniy mazmun maxsus kursda kech semestrda beriladi, amaliy til fanlarida mavzuli fon darajasida qoladi, uni baholash mezonlari yo‘q, lingvistik-semantik va kasbiy-metodik tarkiblar bitta kompetensiya doirasida birlashtirilmagan. PRESETT islohoti va “4+2” amaliyot tartibi joriy etilganiga qaramay, N.M.Axmedova ko‘rsatganidek, o‘qituvchi sifati asosan til sertifikati orqali o‘lchanmoqda va refleksiya rasmiy xarakterga ega [122]; bu holat lingvomadaniy tayyorgarlikka ham taalluqli.

Tahlil qilingan xorijiy, MDH va milliy tajribalar 2.3-jadvalda lingvomadaniy tarkibning talqini, amalga oshirish shakli, baholash vositasi va tadqiqotimiz uchun olinadigan jihat bo‘yicha qiyoslanadi.

2.3-jadval

Bo‘lajak til o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning xorijiy, MDH va milliy tajribasi qiyosi

Tajriba	Lingvomadaniy tarkib talqini	Amalga oshirish shakli	Baholash vositasi	Tadqiqot uchun olinadigan jihat

CEFR qo‘shimcha jildi [4]	plyurimadaniy repertuar, o‘zgalik bilan ishlash, vositachilik	deskriptorlarga tayangan o‘quv natijalari	darajalar bo‘yicha deskriptorlar	to‘rt darajani xalqaro shkala bilan muvofiqlashtirish
M.Byram modeli, Yevropa profili, EPOSTL [28; 5; 7]	munosabat, bilim, talqin, kashf etish, tanqidiy xabardorlik	madaniyat bo‘yicha alohida tayyorgarlik yo‘nalishi	portfolio, o‘zini o‘zi baholash	refleksiv vositalar, madaniy deskriptorlar
FREPA [2]	bilim, ko‘nikma, munosabat deskriptorlari	materiallar banki, o‘qituvchilar treningi	deskriptorlar	deskriptor – topshiriq bog‘liqligi
ACTFL/CAEP, AQSh universitet dasturi [3; 19]	mahsulotlar – amaliyotlar – qarashlar, madaniyatlar qiyosi	madaniy natija fanlar tizimiga taqsimlanadi	akkreditatsiya, standart elementlari bo‘yicha dalillar	fanlar va natijalar matritsasi
C.Kramsch, A.J.Liddicoat va A.Scarino, D.K.Deardorff [48; 50; 32]	dinamik madaniyat, “uchinchi o‘rin”, ichki va tashqi natija	madaniyatlararo tamoyillarga asoslangan topshiriqlar	ko‘p usulli, jarayonli baholash	refleksiya, madaniy taqqoslash, ko‘p usulli baholash
Rossiya OTMlari [147; 143; 145]	til birliklaridagi madaniy ma’no, ona madaniyati bilan qiyos	maxsus kurs, integrallashgan kurs, sikl-blok tuzilmasi	mezon va ko‘rsatkichlar, tajriba-sinov	kontrastiv-qiyosiy tahlil, mashqlar tizimi
Qozog‘iston [96]	kognitiv-lingvomadaniy metodologiya	chet tili ta’limi mazmunini qurish	[manba kerak]	kognitiv va lingvistik jihatlar birligi
O‘zbekiston OTMlari [20; 8; 133; 101]	madaniyatlararo kompetensiya, lisoniy kompetensiyalar	6-semestrdagi maxsus kurs, amaliy fanlardagi mavzuli fon, o‘quv qo‘llanma	umumiy til darajasi, test; madaniy mezon yo‘q	o‘zbek madaniyati bilan qiyos materiali, refleksiv topshiriqlar

2.3-jadval ma’lumotlari tajribalarning bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatadi. Yevropa va Amerika tajribasi madaniy tarkibni deskriptor, standart va portfolio darajasida tavsiflash va baholashda, MDH tajribasi til birliklaridagi madaniy ma’noni o‘qitish va integrallashgan kurslarni tuzishda, Qozog‘iston tajribasi kognitiv va lingvistik jihatlarni yagona metodologiyada birlashtirishda, milliy tajriba esa madaniyatlararo kompetensiya konsepsiyasi, lisoniy kompetensiyalar bo‘yicha tadqiqotlar va o‘zbek madaniyati bilan qiyoslash materialida ustunlikka ega. Birorta tajriba bo‘lajak ingliz

tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasini besh komponentning yaxlit tizimi sifatida, ya’ni motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlarni bitta metodikada birlashtirgan holda to‘liq ishlab chiqmagan; bu holat takomillashtirilgan metodikaning integrativ vazifasini belgilaydi.

Qiyosiy tahlil asosida xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish xulosalari asoslanadi. Madaniy natijani tavsiflashda CEFR qo‘shimcha jildining plyurimadaniy shkalalari, M.Byram modeli va EPOSTL ning “Madaniyat” kichik bo‘limlari lingvomadaniy kompetensiyaning to‘rt darajasini tavsiflashda tayanch bo‘ladi, biroq ular lingvistik-semantik komponent ko‘rsatkichlari bilan to‘ldiriladi, chunki Yevropa deskriptorlarida bu tarkib alohida ajratilmagan. Qiyosiy asos masalasida plyurilingval yondashuv va I.A.Izmestyeva tajribasidagi kontrastiv-qiyosiy lingvomadaniy tahlil o‘zbek tilmadaniyatini ingliz tilmadaniyatini o‘zlashtirishning resursi sifatida qo‘llashni asoslaydi; milliy sharoitda bu qiyos o‘quvchilarda o‘z yurtining tarixiy merosi va qadriyatlarini anglashga yordam berish talabi [1] bilan ham uyg‘unlashadi.

Baholash tizimini qurishda D.K.Deardorff modeli va EPOSTL tajribasi lingvomadaniy kompetensiyani bitta test bilan emas, ko‘p usulli vositalar – lingvomadaniy bilimlar testi, autentik matnda madaniy birliklarni izohlash topshirig‘i, rolli vaziyat va keysni kuzatish, madaniy refleksiya yozuvlari va dars fragmenti loyihasi – orqali baholashni talab qiladi; bu vositalar tadqiqotimizning besh mezoni bilan bog‘lanadi. Xorijda o‘qish imkoniyati cheklangan sharoitda E.Sh.Kholmatova tavsiya etgan immersiv tajriba raqamli vositalar orqali – xorijiy tengdoshlar bilan videoaloqa va onlayn hamkorlik loyihalari shaklida – virtual immersiyaga moslashtiriladi; PQ-239-son qarorda dunyoning yetakchi oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilangani [16] bunday hamkorlikning me’yoriy asosini yaratadi. Kasbiy yo‘nalganlik jihatidan xorijiy va MDH tajribasida yetarli ishlanmagan kasbiy-metodik komponent milliy sharoitda malaka talablaridagi o‘quv materiallarini tanlash va moslashtirish talabi [1] asosida, mikroo‘qitish va dars fragmentini loyihalash orqali ikkinchi kursdanoq rivojlantiriladi.

Moslashtirishda xorijiy tajribaning cheklovlari ham hisobga olinadi. Yevropa ramkalari ko‘p tilli Yevropa makoni uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda nazarda tutilgan madaniyatlararo vaziyatlar talabalar real xorijiy muloqotga keng kirishadigan muhitga mo‘ljallangan; O‘zbekistonda esa ingliz tili bilan muloqot ko‘p hollarda o‘quv auditoriyasi va raqamli muhit bilan cheklanadi. ACTFL standartlari madaniyatni maqsadli til jamoasining madaniyati sifatida tavsiflaydi, ingliz tili esa W.Baker [24] va F.Sharifian [64] ko‘rsatganidek, ko‘plab madaniy kontekstlarda va Jahon inglizchalari ko‘rinishida amal qiladi; shu sababli milliy metodikada madaniy mazmun Buyuk Britaniya va AQSh bilan cheklanmasdan, ingliz tilining xalqaro maqomini hisobga olgan holda tanlanadi. MDH lingvokulturologik an’anasining cheklovi esa uning

asosan rus tili materialida ishlab chiqilganida va madaniyatni ba’zan milliy til bilan aynanlashtirishida ko‘rinadi; K.Risager [60] tanqid qilgan bir xillik tendensiyasidan saqlanish uchun ingliz tilidagi madaniy mazmun ko‘p variantli manzara sifatida beriladi.

Paragraf yuzasidan quyidagi xulosalar chiqariladi. Xorijiy tajribada lingvomadaniy tarkib til o‘qituvchisini tayyorlashning me’yoriy ramkalari va standartlarida aniq ifodalangan: CEFR qo‘shimcha jildi plyurimadaniy kompetensiyani darajalanadigan deskriptorlar bilan, Yevropa profili va EPOSTL o‘qituvchi tayyorgarligining madaniy yo‘nalishi va o‘zini o‘zi baholash vositasi bilan, FREPA deskriptor va ta’lim materiallari birligi bilan, ACTFL/CAEP standartlari esa “mahsulotlar – amaliyotlar – qarashlar” asosidagi madaniy ta’lim va fanlar bo‘yicha taqsimlangan madaniy natijalar bilan ta’minlaydi; M.Byram, C.Kramsch, A.J.Liddicoat, A.Scarino va D.K.Deardorff modellari esa ushbu hujjatlarning nazariy asosini tashkil etadi. MDH tajribasi til birliklaridagi madaniy ma’noni o‘qitish, integrallashgan va maxsus kurslar hamda kontrastiv-qiyosiy lingvomadaniy tahlilni, Qozog‘iston tajribasi kognitiv-lingvomadaniy metodologiyani, milliy tajriba esa madaniyatlararo kompetensiya konsepsiyasi, lisoniy kompetensiyalar tadqiqotlari, maxsus kurs va o‘quv qo‘llanmalarni taqdim etadi. Tajribalarning birortasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasi besh komponentli yaxlit tizim sifatida ishlab chiqilmagan; xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish lingvistik-semantik va kasbiy-metodik tarkiblar bilan to‘ldirish, o‘zbek tilmadaniyatini qiyosiy resurs sifatida qo‘llash, madaniy natijani fanlar bo‘yicha taqsimlash, ko‘p usulli baholashni joriy etish va immersiv tajribaning virtual shakllaridan foydalanishni talab qiladi. Bu xulosalar monografiyaning uchinchi bobida takomillashtirilgan metodikani loyihalash uchun asos bo‘ladi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

Ikkinchi bobda lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik-metodologik asoslari tadqiq etilib, quyidagi natijalar olindi.

1. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asosi ikki darajadagi beshta yondashuv tizimi sifatida asoslandi: umumilmiy darajada tizimli va kompetensiyaviy, aniq ilmiy (lingvodidaktik) darajada esa lingvokulturologik, madaniyatlararo (interkultural) va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlar. Har bir yondashuv 1.3-§ da aniqlangan bo‘shliqlardan biriga metodologik javob ekani ko‘rsatildi.

2. Yondashuvlar va lingvomadaniy kompetensiya komponentlari o‘rtasidagi muvofiqlik aniqlandi va 2.1-rasmda integratsiya tuzilmasi sifatida ifodalandi. Tizimli yondashuv integratsiyalovchi asos bo‘lib, barcha besh komponentni va metodikaning besh blokini birlashtiradi. Kompetensiyaviy yondashuv maqsad va natijani besh mezon, ko‘rsatkichlar va to‘rt daraja tilida ifodalaydi hamda kasbiy-metodik va

motivatsion-qadriyatli komponentlarga ustuvor ta’sir ko‘rsatadi. Lingvokulturologik yondashuv mazmunni madaniy belgilangan til birliklari asosida tanlashni ta’minlab, kognitiv-lingvomadaniy va lingvistik-semantik komponentlarni rivojlantiradi. Madaniyatlararo yondashuv o‘zbek va ingliz tilmadaniyatlari qiyosini kompetensiyaning majburiy tayanchiga aylantirib, motivatsion-qadriyatli va madaniyatlararo kommunikativ komponentlarga ta’sir qiladi. Kommunikativ-faoliyatli yondashuv esa o‘zlashtirish jarayonini tashkil etib, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlarni rivojlantiradi.

3. Ya.A.Komenskiy asos solgan umumdidaktik tamoyillar tizimidan yondashuvlarga mos beshta tamoyil tanlandi va ularning lingvomadaniy ta’limdagi talablari belgilandi. Ilmiylik tamoyili madaniy mazmunni ilmiy tavsiflangan birliklar, lug‘at va korpus ma’lumotlari asosida tanlash va stereotipdan himoyalashni; tizimlilik va izchillik tamoyili birliklarni realiyadan konsept va autentik matnga, faoliyatni tanishdan topshiriq loyihalashga qarab tartiblashni; onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili madaniy ma’noni kashf ettirish, qiyoslash va refleksiya orqali o‘zlashtirishni; fanlararo bog‘liqlik tamoyili lingvomadaniy birliklarni til tarixi, stilistika, adabiyot va mediasavodxonlik bilimlari bilan izohlashni; nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili esa nazariy tushunchani muloqot va kasbiy-metodik topshiriqda, mikroo‘qitishda qo‘llashni talab etadi. Yondashuv va tamoyillar muvofiqligi 2.1-jadvalda tizimlashtirildi.

4. O‘zaro bog‘liqlik, mashq, intensivlik, assimilyatsiya va natijaviy qonunlar lingvomadaniy ta’limning psixologik-pedagogik asosi sifatida tahlil qilinib, lingvomadaniy topshiriqlarni tuzishning aniq qoidalariga aylantirildi: til birligi madaniy kontekst ichida beriladi, oraliq vaqt bilan turli vaziyatlarda qayta qo‘llanadi, autentik va hissiy boy material hamda immersiv tajriba orqali taqdim etiladi, yangi vaziyatga ongli qiyoslash bilan ko‘chiriladi va har bir qo‘llash natijasi mezon asosida talabaga qaytariladi. Qonunlarning lingvomadaniy ta’limda namoyon bo‘lishi 2.2-jadvalda umumlashtirildi.

5. Xorijiy, MDH va milliy tajribaning qiyosiy tahlili (2.3-jadval) ularning bir-birini to‘ldirishini, biroq birortasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasi besh komponentli yaxlit tizim sifatida ishlab chiqilmaganini ko‘rsatdi. CEFR qo‘shimcha jildi, M.Byram va D.K.Deardorff modellari, EPOSTL va ACTFL/CAEP standartlaridan madaniy natijani deskriptorlar bilan tavsiflash, fanlar bo‘yicha taqsimlash va ko‘p usulli baholash tajribasi; MDH tajribasidan til birliklaridagi madaniy ma’noni o‘qitish, integrallashgan kurs va kontrastiv-qiyosiy lingvomadaniy tahlil; milliy tajribadan madaniyatlararo kompetensiya konsepsiyasi, lisoniy kompetensiyalar tadqiqotlari va o‘zbek madaniyati bilan qiyoslash materiali olinishi asoslandi. Xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish uni lingvistik-semantik va kasbiy-metodik tarkiblar bilan to‘ldirish, o‘zbek tilmadaniyatini qiyosiy

resurs sifatida qo‘llash va immersiv tajribaning virtual shakllaridan foydalanishni talab qilishi aniqlandi. Bobda olingan natijalar takomillashtirilgan metodika modelining metodologik blokini tashkil etadi va uchinchi bobda metodikani loyihalash uchun asos bo‘ladi.

III BOB. BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKASI

3.1-§. Lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining tuzilmasi va bloklari

Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha nazariy qoidalar o‘quv jarayonida samara berishi uchun ular tarqoq tavsiyalar to‘plami sifatida emas, maqsadi, mazmuni, tashkil etish usullari va natijani tekshirish vositalari o‘zaro muvofiqlashtirilgan yaxlit metodik tuzilma ko‘rinishida ifodalanishi lozim. Pedagogik model ana shunday tuzilmaning ilmiy shakli bo‘lib, u o‘rganilayotgan jarayonning muhim belgilarini ajratib ko‘rsatadi, ularning o‘zaro bog‘liqligini ochadi va jarayonni tajriba-sinov orqali tekshirish imkonini beradi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasi uchun bunday model alohida ahamiyatga ega, chunki bu kompetensiya beshta komponentdan tashkil topgan integrativ sifat bo‘lib, ularning birortasi ham boshqalaridan ajralgan holda to‘liq rivojlanmaydi: madaniy bilim til birligi tahlilisiz, til birligi tahlili esa muloqot va kasbiy-metodik faoliyatda qo‘llanmasa, kompetensiya darajasiga ko‘tarilmaydi. Mazkur paragrafda takomillashtirilgan metodikaning tuzilmasi besh blokli model sifatida ishlab chiqiladi: maqsad, metodologik, mazmun, texnologik va baholash-natija bloklarining tarkibi va vazifalari asoslanadi, bloklar o‘rtasidagi to‘g‘ri va qayta aloqalar ochib beriladi, metodikaning amaldagi o‘qitish amaliyotidan farqi esa 3.1-jadvalda umumlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarorining 2-bandida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish uchun “2024-yil 1-sentabrga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga talabalarda mustaqil ta’lim olish, tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodikalarni joriy qilsin” deya vazifa qo‘yilgan [15]. Qarorning muqaddimasida esa uning maqsadlari qatorida “ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish” ko‘rsatilgan [15]. Mustaqil ta’lim, tizimli tahlil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan metodika o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi: u maqsaddan natijagacha bo‘lgan barcha tarkibiy qismlari aniq belgilangan va bir-biriga bo‘ysundirilgan tuzilmani talab qiladi. Shu bois lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish metodikasining modelini ishlab chiqish qarorda belgilangan vazifani chet tili o‘qituvchisi tayyorlash sohasida amalga oshirishning metodik shakli hisoblanadi.

Lingvomadaniy va kasbiy-metodik tayyorgarlikni modellashtirish tajribasi mavjud tadqiqotlarda turlicha amalga oshirilgan. Zh.V.Demyanova [145] lingvostranovedcheskaya kompetensiyani shakllantirish modelini maqsadni belgilovchi, predmet-mazmuniy, jarayon-faoliyat va baholash-natija bloklaridan iborat tizim sifatida quradi hamda har bir komponent uchun mezon, ko‘rsatkich va diagnostika vositalarini alohida belgilaydi [145, 17-b.]. N.M.Axmedova [122] model o‘rganilayotgan jarayonning muhim xususiyatlarini soddalashtirilgan, ammo tekshiriladigan shaklda aks ettirishini ta’kidlab, kasbiy-metodik kompetensiyalarni shakllantirish modelini maqsadli, jarayoniy-bosqichli, ta’minlovchi va natijaviy-diagnostik bloklardan tuzadi, natijaviy-diagnostik blokka esa qayd etish, tashxis va tuzatish vazifalarini yuklaydi. A.V.Getmanskaya [143] integrallashgan kursni 10 siklga birlashtirilgan 23 blokdan iborat tuzilma sifatida loyihalab, har bir blokni madaniyatga oid ma’ruza va madaniy belgilangan leksik birliklar bilan ishlashga qaratilgan mashqlar bilan, har bir siklni esa madaniyatshunoslik loyihasi bilan yakunlaydi. I.A.Izmestyeva [147] bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini madaniyatlararo muloqotga tayyorlash modelining o‘zagini maxsus kurs va kontrastiv-qiyosiy lingvomadaniy tahlil tashkil etishini ko‘rsatadi.


Ushbu modellarni qiyoslash ikki muhim kuzatishga olib keladi. Barcha mualliflar maqsad, mazmun, jarayon va natija tarkibiy qismlarini ajratadi, demak, bu to‘rtlik pedagogik modelning barqaror asosi sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu bilan birga, ko‘rib chiqilgan modellarda metodologik asoslar model ichida alohida blok sifatida ajratilmaydi va odatda modeldan tashqarida, nazariy bobda bayon qilinadi; natijada model qaysi yondashuv va tamoyillarga tayanishi uning tuzilmasidan ko‘rinmay qoladi. Tadqiqotimizda bu holatni bartaraf etish uchun metodologik asoslar mustaqil blok sifatida modelga kiritiladi: 2.1-§ da asoslangan besh yondashuv, 2.2-§ da tanlangan besh tamoyil va besh ta’lim qonuni metodikaning qolgan bloklarini tartibga soluvchi me’yorlar sifatida modelning ichki tarkibiy qismiga aylanadi. Ikkinchi kuzatish shundan iboratki, Zh.V.Demyanova modeli nofilologik talabalarga, A.V.Getmanskaya va I.A.Izmestyeva modellari esa asosan alohida kurs doirasiga mo‘ljallangan; amaliy ingliz tili fanlari ichida, ikkinchi kursda va kasbiy-metodik yo‘nalganlik bilan ishlaydigan model ularda ishlab chiqilmagan.

Shu asosda tadqiqotda takomillashtirilgan metodika quyidagicha tushuniladi: bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan, besh metodologik yondashuv, besh didaktik tamoyil va besh ta’lim qonuniga tayanuvchi, madaniy belgilangan til birliklari va o‘zbek hamda ingliz tilmadaniyatlari qiyosiga asoslangan mazmunni amaliy ingliz tili fanlari mavzulariga integratsiyalovchi, individual, juftlik, guruh va loyiha shakllarini interfaol metodlar va raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtiruvchi hamda natijani besh mezon va to‘rt daraja bo‘yicha baholovchi o‘zaro bog‘liq maqsad, mazmun, jarayon va baholash tarkibiy

qismlarining yaxlit tizimi. Ta’rifdagi “takomillashtirilgan” sifati metodikaning noldan yaratilmasligini, aksincha, amaldagi o‘quv reja va fan dasturlari doirasida ularning aniqlangan bo‘shliqlarini to‘ldirish orqali qurilishini anglatadi; bu xususiyat metodikani oliy ta’lim muassasasi vakolatidagi o‘quv-metodik darajada joriy etish imkonini beradi, chunki malaka talablarida o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining vazifasi sifatida ko‘rsatilgan [1, 4-b.].

Takomillashtirish obyektini aniq belgilash uchun amaldagi o‘qitish amaliyotining lingvomadaniy jihatdan tavsifi talab etiladi. 1.3-§ dagi tahlil uni beshta xususiyat orqali tavsiflash imkonini beradi. Malaka talablarida madaniy tarkib “tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rganish va madaniy xususiyatlarini anglash, o‘quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va global fikrlash kompetentligini oshirish” bandi bilan ifodalangan [1, 8-b.], biroq bu talab jarayon fe’llari bilan berilgan va o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarga ega emas. Ikkinchi kursning majburiy fanlari orasida madaniy mazmunni o‘z nomida aks ettirgan fan yo‘q [1, 10-b.], Qo‘qon davlat universitetining “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” fan dasturida esa madaniy element to‘qqiz mavzudan to‘rttasida mavzuli fon sifatida beriladi va natija variantli test orqali tekshiriladi [8]. Madaniyatlararo muloqotga bag‘ishlangan maxsus kurs O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 6-semestrda o‘qitiladi, uning 24 mavzusidan yarmi ommaviy nutqqa ajratilgan, ta’lim natijalari esa umumiy til darajasi bo‘yicha ifodalangan [20]. Shu tariqa amaldagi amaliyotda madaniy mazmun mavjud bo‘lsa-da, u tarqoq, kech bosqichda beriladi, til birliklaridagi madaniy semantika bilan tizimli bog‘lanmaydi, o‘zbek madaniyati bilan qiyoslash natija sifatida baholanmaydi va kasbiy-metodik faoliyatga aylantirilmaydi. Aynan shu xususiyatlar takomillashtirishning yo‘nalishlarini belgilaydi.

Takomillashtirilgan metodikaning modeli 3.1-rasmda tasvirlanadi. Model vertikal tuzilishga ega: uning yuqori qismida ijtimoiy buyurtma, ya’ni PQ-289-son qarorda va malaka talablarida belgilangan talablar hamda me’yoriy-dasturiy ta’minotda aniqlangan bo‘shliqlar joylashadi; undan keyin maqsad, metodologik, mazmun, texnologik va baholash-natija bloklari ketma-ket joylashadi, quyi qismda esa kutilayotgan natija ko‘rsatiladi. Bloklarni bog‘lovchi uzluksiz strelkalar to‘g‘ri aloqani, ya’ni har bir blok oldingisidan kelib chiqishini, chap tomondagi uzuq chiziqli strelkalar esa baholash-natija blokidan maqsad, mazmun va texnologik bloklarga yo‘naltirilgan qayta aloqani ifodalaydi.



3.1-rasm. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning takomillashtirilgan metodikasi modeli

Maqsad bloki modelning tizim hosil qiluvchi bo‘g‘ini bo‘lib, qolgan bloklarning tarkibi undan kelib chiqadi. Metodikaning umumiy maqsadi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish sifatida belgilanadi. Kompetensiyaviy yondashuv talabiga ko‘ra bu maqsad natija tilida, ya’ni kompetensiya komponentlariga ajratilgan holda ifodalanishi lozim, shu sababli u lingvomadaniy kompetensiyaning besh komponentiga mos beshta vazifaga dekompozitsiya qilinadi:

– ingliz tilida so‘zlashuvchi xalqlar va o‘zbek xalqi madaniyatiga barqaror qiziqish, madaniy farqlarga ochiq va stereotiplardan xoli munosabat hamda milliy madaniy o‘zlikni anglashni shakllantirish (motivatsion-qadriyatli komponent);

– ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar tarixi, an’analari, ijtimoiy institutlari, realiyalari va madaniy konseptlari haqidagi bilimlarni o‘zbek madaniyatining qiyoslanadigan hodisalari bilan birga tizimlashtirish (kognitiv-lingvomadaniy komponent);

– so‘z, frazeologizm, nutq etiketi formulasi va autentik matnda kodlangan madaniy ma’noni aniqlash, izohlash va o‘zbek tilidagi muqobili bilan qiyoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish (lingvistik-semantik komponent);

– lingvomadaniy bilimni muloqot vaziyati va suhbatdosh madaniyatiga mos qo‘llash, madaniyatlararo tushunmovchilikni bartaraf etish va o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirish (madaniyatlararo kommunikativ komponent);

– lingvomadaniy materialni o‘quvchilar yoshi va til darajasiga mos tanlash, uni topshiriqqa aylantirish, dars fragmentiga integratsiyalash va natijasini baholashga tayyorlash (kasbiy-metodik komponent).

Maqsad blokida metodikani amalga oshirish bosqichi ham belgilanadi. Respondentlar 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishining ikkinchi kurs talabalari bo‘lib, ularning 3–4-semestrlardagi majburiy fanlari qatorida O‘qish va yozuv amaliyoti, Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi va Til aspektlari amaliyoti fanlari mavjud [1, 10-b.]. Malaka talablariga ko‘ra “4+2” tartibidagi pedagogik amaliyot 5–8-semestrlarda o‘tkaziladi [1, 9-b.], demak, ikkinchi kurs lingvomadaniy kompetensiyani pedagogik amaliyotgacha, talaba real sinfga chiqishidan oldin tizimli rivojlantirish mumkin bo‘lgan oxirgi bosqich hisoblanadi. N.M.Axmedova [122] modelida ham ikkinchi kurs konseptual-tahliliy bosqich sifatida belgilanib, unda keyslar tahlili va refleksiv kundalik ustuvor vositalar sanaladi; bu holat maqsad blokida tahliliy va refleksiv vazifalarning ustunligini asoslaydi. Metodikaning kutilayotgan natijasi esa talabalar lingvomadaniy kompetensiyasining besh mezon bo‘yicha past va o‘rta darajalardan yetarli va yuqori darajalarga ko‘tarilishi sifatida ifodalanadi.

Metodologik blok modelning boshqaruvchi bo‘g‘ini hisoblanadi: u yangi mazmun qo‘shmaydi, balki mazmun, texnologiya va baholash qanday tanlanishi va

tashkil etilishi lozimligini belgilovchi me’yorlar tizimini beradi. Blok uch darajadan iborat. Birinchi darajani 2.1-§ da asoslangan yondashuvlar tashkil etadi va ularning har biri modelda aniq vazifaga ega. Tizimli yondashuv bloklarning yaxlitligini va komponentlarning barcha bloklar bo‘ylab uzluksiz o‘tishini ta’minlaydi; kompetensiyaviy yondashuv maqsad va baholash-natija bloklarini besh komponent, besh mezon va to‘rt daraja tilida ifodalaydi; lingvokulturologik yondashuv mazmun blokida tahlil birliklarini, madaniyatlararo yondashuv esa qiyosiy o‘lchovni belgilaydi; kommunikativ-faoliyatli yondashuv texnologik blokda o‘zlashtirish jarayonining faoliyat shaklini hosil qiladi. Shu tariqa har bir yondashuv kamida bitta blokning yetakchi asosiga aylanadi, tizimli yondashuv esa barcha bloklarni birlashtiradi.

Ikkinchi darajani umumdidaktik tamoyillar tashkil etadi. M.N.Skatkin va I.Ya.Lerner [110] didaktik tamoyillar faqat birgalikda qo‘llanganda samarali bo‘lishini qayd etadi; modelda ham tanlangan besh tamoyil bitta blokka emas, bloklar orasidagi o‘tishlarga biriktiriladi. Ilmiylik tamoyili mazmun blokida lingvomadaniy birliklarning ilmiy tavsif, lug‘at va korpus ma’lumotlari asosida tanlanishini; tizimlilik va izchillik tamoyili mazmun va texnologik bloklarda birliklar hamda topshiriqlarning realiyadan konsept va matnga, tanishdan loyihalashga qarab tartiblanishini; onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili texnologik blokda madaniy ma’noning kashf ettirilishi va refleksiya bilan yakunlanishini; fanlararo bog‘liqlik tamoyili mazmun blokida amaliy til fanlari bilan til tarixi, stilistika va adabiyot bilimlarining bog‘lanishini; nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili esa texnologik va baholash-natija bloklarida har bir nazariy tushunchaning muloqot va kasbiy-metodik topshiriqda qo‘llanishini talab etadi. Ya.A.Komenskiyning o‘zaro bog‘liq narsalarni o‘sha bog‘liqlikda o‘qitish haqidagi talabi [92] bu tamoyillar tizimining umumiy didaktik asosi bo‘lib qoladi.

Uchinchi darajani 2.2-§ da tahlil qilingan ta’lim qonunlari tashkil etadi va ular modelda topshiriqlar tuzishning operatsion qoidalari sifatida ishlaydi. O‘zaro bog‘liqlik qonuni mazmunan tegishli elementlarning osonroq bog‘lanishini ifodalaydi [71] va lingvomadaniy birlikni madaniy kontekstidan ajratmasdan berishni; mashq qonuni aloqaning takror bilan mustahkamlanishini [70] va birlikni oraliq vaqt bilan turli vaziyatlarda qayta qo‘llashni; intensivlik qonuni yorqin, real tajribaning yaxshiroq esda qolishini [36] va autentik, hissiy boy materialdan foydalanishni; assimilyatsiya qonuni o‘xshash vaziyatdagi javobning yangi vaziyatga ko‘chirilishini [70] va tahlil usulini yangi konseptga ongli ko‘chirishni; natijaviy qonun esa qoniqarli natija aloqani mustahkamlashini [70] va har bir topshiriq natijasini mezon bo‘yicha talabaga ko‘rinadigan qilishni talab qiladi. Natijaviy qonun baholash-natija blokidagi qayta aloqaning psixologik asosi hamdir: talaba o‘z darajasi haqidagi axborotni olgandagina keyingi topshiriqda harakatini ongli ravishda o‘zgartiradi.

Mazmun bloki modelning lingvomadaniy o‘zagini tashkil etadi va uch tarkibiy qismdan – tahlil birliklari, mavzuli modullar va topshiriqlar tizimidan iborat. Tahlil

birliklari lingvokulturologik yondashuvdan kelib chiqib belgilanadi. E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov [82] asoslagan til va madaniyatni birgalikda o‘rganish tamoyili, V.V.Vorobyovning lingvomadaniy kompetensiyani madaniy qadriyatlarning til vositasida ifodalangan tizimini bilish va anglash bilan bog‘lashi [85, 189-b.], A.Wierzbicka [76] asoslagan madaniy kalit so‘zlar nazariyasi va F.Sharifian [64] ajratgan madaniy andozalar, kategoriyalar va metaforalar tasnifi bu birliklarni besh guruhga ajratish imkonini beradi: realiyalar va fon leksika; frazeologizmlar va idiomalar; madaniy konseptlar va kalit so‘zlar; nutq etiketi formulalari; autentik matn va diskurs. Har bir guruh uchun o‘zbek tilidagi muqobil yoki lakuna qayd etiladigan qiyosiy qatlam majburiy hisoblanadi; bu qatlam madaniyatlararo yondashuvning mazmun darajasidagi ifodasidir.

Tahlil birliklari A.S.Mamontov [98, 150–151-b.] ishlab chiqqan tipiklik, kommunikativ qimmat, mamlakatshunoslik qimmati va stereotipdan himoyalanganlik mezonlari bo‘yicha saralanadi. Bu mezonlarga tadqiqotda ikki qo‘shimcha mezon qo‘shiladi. Qiyoslanuvchanlik mezoni birlik o‘zbek tilmadaniyatida muqobil, qisman muqobil yoki lakunaga ega bo‘lishini, ya’ni qiyosiy tahlil obyekti bo‘la olishini talab qiladi. Kasbiy qo‘llanuvchanlik mezoni esa birlik umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari uchun topshiriqqa aylantirilishi mumkinligini nazarda tutadi; bu mezon tufayli mazmun tarjimon yoki nofilolog talaba uchun emas, aynan bo‘lajak o‘qituvchi uchun tanlanadi. Ingliz tilining xalqaro maqomi ham mazmun tanlashga ta’sir qiladi: F.Sharifian [64] madaniy konseptualizatsiyalarni Jahon inglizchalari va ingliz tilini xalqaro til sifatida o‘qitishga tatbiq etgani madaniy mazmunni Buyuk Britaniya va AQSh bilan cheklamasdan, Avstraliya, Kanada va boshqa ingliz tilida so‘zlashuvchi jamoalar materiallarini ham qamrab olish zarurligini ko‘rsatadi; A.Wierzbicka [76] tahlil qilgan avstraliya inglizchasidagi “mate” so‘zi bunga yaqqol misoldir.

Mavzuli modullar ikkinchi kursdagi amaliy ingliz tili fanlari mavzulari bilan muvofiqlashtiriladi. Qo‘qon davlat universiteti dasturidagi shaxs va shaxsiyat, milliy ramzlar va davlat tuzilishi, oziq-ovqat, sihat-salomatlik, oilaviy qadriyatlar, ta’lim, shahar va qishloq hayoti, dam olish va sport hamda aloqa va texnologiyalar mavzulari [8] asosida sakkiz modul ajratiladi: “Identity and values” (shaxs va qadriyatlar), “National symbols and the state” (milliy ramzlar va davlat), “Food, health and hospitality” (taom, salomatlik va mehmondorchilik), “Family traditions” (oila an’analari), “Education” (ta’lim), “Town and country life” (shahar va qishloq hayoti), “Leisure and sport” (dam olish va sport) hamda “Communication and media” (aloqa va media). Modullar fanlar mavzularini almashtirmaydi, balki ularga lingvomadaniy qatlamni qo‘shadi: har bir modulda mavzuga oid realiyalar, frazeologizmlar, bitta yetakchi madaniy konsept, nutq etiketi formulalari va autentik matn tanlanadi. Masalan, “Food, health and hospitality” modulida “Sunday roast”, “afternoon tea” realiyalari, “a piece of cake”, “not my cup of tea” iboralari, “hospitality” konsepti va

mehmonga taklif qilish hamda taklifni muloyim rad etish formulalari o‘zbek mehmondorchilik odobi bilan qiyoslab o‘rganiladi. Modullarning to‘liq mazmuni va har bir topshiriq turining namunalari 3.2-§ da ishlab chiqiladi.

Mazmun blokining uchinchi tarkibiy qismi topshiriqlar tizimi bo‘lib, u W.Littlewood [51] ajratgan kommunikativ faoliyatgacha bo‘lgan va kommunikativ faoliyat turlari hamda A.V.Getmanskaya [143] qo‘llagan nokommunikativ, shartli-kommunikativ va haqiqiy kommunikativ mashqlar tasnifiga tayanib, kasbiy-metodik bosqich bilan to‘ldiriladi. Natijada har bir modul doirasida topshiriqlar to‘rt bosqichda tashkil etiladi. Tanish va izohlash bosqichida talaba birlikni autentik kontekstda aniqlaydi, uning ma’nosini lug‘at va manbalar yordamida izohlaydi va o‘zbek tilidagi muqobili bilan solishtiradi. Shartli-kommunikativ bosqichda birlik namunaviy muloqot vaziyatida qo‘llanadi. Madaniyatlararo bosqichda talaba keys yoki rolli o‘yin orqali madaniyatlararo tushunmovchilik vaziyatini hal etadi yoki o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etadi. Kasbiy-metodik bosqichda u shu birlik asosida o‘quvchilar uchun madaniy taqqoslash topshirig‘ini yoki qisqa dars fragmentini loyihalaydi. Bosqichlar ketma-ketligi tizimlilik va izchillik tamoyilining faoliyat o‘qi bo‘yicha amalga oshishini, oxirgi bosqich esa nazariya bilan amaliyot birligi tamoyilini ta’minlaydi.

Mazmun blokini o‘quv rejaga joriy etishning ikki shakli nazarda tutiladi. Asosiy shakl modullarni O‘qish va yozuv amaliyoti, Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi va Til aspektlari amaliyoti fanlari mashg‘ulotlariga integratsiyalashdir: bunda lingvomadaniy topshiriqlar har bir mavzuga ajratilgan soatlarning bir qismini egallaydi va til ko‘nikmalari bilan parallel rivojlantiriladi. Qo‘shimcha shakl sifatida malaka talablarida 3–8-semestrlarda o‘qitilishi ko‘zda tutilgan va 900 soat hajmida belgilangan tanlov fanlari [1, 10-b.] doirasida lingvomadaniy yo‘nalishdagi tanlov kursini joriy etish taklif qilinadi; u modullarning nazariy asoslarini, jumladan, lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalarini va qiyosiy tahlil usullarini tizimlashtiradi. Fanlararo bog‘liqlik tamoyili bo‘yicha esa amaliy fanlarda egallangan birliklar keyingi semestrlarda Ingliz tili adabiyoti tarixi, Ingliz tili stilistikasi va Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlarida tahlil obyekti sifatida qayta qo‘llanadi [1, 10-b.]. U.U.Jumanazarov [129] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini ta’limni axborotlashtirish sharoitida rivojlantirish tajribasi esa frazeologik birliklar bilan ishlashni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Texnologik blok mazmunni talabaning faoliyatiga aylantiradi va kommunikativ-faoliyatli yondashuvning modeldagi asosiy ifodasi hisoblanadi. Blok o‘qitish shakllari, metodlari va vositalaridan iborat bo‘lib, ular topshiriqlarning to‘rt bosqichiga biriktiriladi. Bunday biriktirish shakl va metodni bosqich vazifasiga qarab tanlash imkonini beradi: A.N.Leontyev [97] faoliyat nazariyasida ko‘rsatilganidek, faoliyat

motiv, maqsad va harakatlar birligida kechadi va shaxs uchun ma’noli bo‘lgandagina barqarorlashadi; demak, lingvomadaniy topshiriq ham talaba uchun aniq kommunikativ yoki kasbiy maqsadga ega bo‘lishi lozim.

O‘qitish shakllari to‘rt turda qo‘llanadi va har biri ma’lum bosqichga ustuvor tarzda xizmat qiladi. Individual shakl tanish va izohlash bosqichida, lug‘at, korpus va autentik matn bilan mustaqil ishlashda hamda refleksiv yozuvlarda qo‘llanadi; u PQ-289-son qarorda talab etilgan mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini [15] bevosita rivojlantiradi. Juftlik shakli shartli-kommunikativ bosqichda nutq etiketi formulalarini mashq qilish, o‘zaro tekshirish va madaniy farqlarni muhokama qilishda samarali bo‘ladi. Guruh shakli madaniyatlararo bosqichda keys tahlili, rolli o‘yin va madaniy taqqoslash jadvallarini tuzishda, loyiha shakli esa har bir modul yakunida bajariladigan lingvomadaniy loyihada qo‘llanadi; loyiha natijasi, masalan, “Hospitality in Britain and Uzbekistan” mavzusidagi taqdimot yoki o‘quvchilar uchun tayyorlangan madaniy taqqoslash materiallari to‘plami bo‘lishi mumkin. A.V.Getmanskaya [143] har bir siklni madaniyatshunoslik loyihasi bilan yakunlagani bu tuzilmaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Metodlar tanlovi madaniyatlararo va lingvokulturologik yondashuvlar talablaridan kelib chiqadi. Madaniy taqqoslash metodi har bir topshiriqning o‘zagini tashkil etadi va A.S.Mamontov [98] asoslagan qoida bo‘yicha – avval umumiy, birlashtiruvchi belgilar, so‘ng farqlovchi belgilar asosida – qo‘llanadi. Autentik matn tahlili metodi madaniy belgilangan birliklarni matnda aniqlash, ularning denotativ va konnotativ ma’nosini izohlash va kontekstga qarab o‘zgarishini kuzatishni nazarda tutadi; A.Yusupov [78, 35–36-b.] madaniy semantikaning matn turiga bog‘liqligini ko‘rsatgani bu metodning asosidir. Bu metod M.Byram [28, 52-b.] talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmasi sifatida tavsiflagan, ya’ni boshqa madaniyatga oid hujjat yoki voqeani o‘z madaniyatidagi hodisa bilan bog‘lab tushuntirish qobiliyatini rivojlantiradi. Keys va rolli o‘yin madaniyatlararo tushunmovchilik vaziyatlarini modellashtiradi, ACTFL/CAEP standartlarida qo‘llanadigan “mahsulotlar – amaliyotlar – qarashlar” tahlili [3] esa madaniy hodisani uch qatlamda tizimli ko‘rib chiqishga o‘rgatadi. Mikroo‘qitish kasbiy-metodik bosqichning asosiy metodi bo‘lib, talaba o‘zi loyihalagan besh-yetti daqiqalik dars fragmentini tengdoshlari oldida o‘tkazadi va mezonlar asosida tahlil qiladi. Refleksiv yozuv metodi har bir topshiriqni yakunlaydi va A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] asoslagan refleksiya tamoyilini amalga oshiradi.

Vositalar tarkibi milliy sharoitning ikki xususiyatini hisobga oladi: talabalarning ko‘pchiligi ingliz tilida so‘zlashuvchi muhit bilan bevosita aloqaga ega emas va amaliy fanlarning asosiy adabiyotlari xalqaro nashriyotlarning o‘zbek madaniyati bilan qiyoslashni ko‘zda tutmaydigan o‘quv majmualaridan iborat [8]. Shu sababli vositalar uch guruhga ajratiladi. Bilish vositalariga izohli va lingvomadaniy lug‘atlar, korpus

ma’lumotlari va autentik audio-video materiallar kiradi; A.Yusupov [78] lug‘atlarning lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishdagi funksional imkoniyatlarini alohida tadqiq etgan. Muloqot vositalari virtual immersiyani ta’minlaydi: E.Sh.Kholmatova [46, 157–158-b.] immersiv tajribaning lingvomadaniy kompetensiyaga ijobiy ta’sirini ko‘rsatib, uni o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga kiritishni tavsiya etadi, xorijga chiqish imkoniyati cheklangan sharoitda esa bu tajriba ingliz tilida so‘zlashuvchi tengdoshlar bilan videoaloqa va onlayn hamkorlik loyihalari orqali qisman qoplanadi. Hujjatlashtirish vositalari lingvomadaniy portfolio va elektron o‘quv platformasidan iborat; PQ-289-son qarorda “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” axborot tizimida elektron o‘quv dasturlar va multimedia ta’lim mahsulotlarini joylashtirish vazifasi belgilangani [15] bunday platformadan foydalanishning me’yoriy asosini yaratadi.

Lingvomadaniy portfolio texnologik va baholash-natija bloklarini birlashtiruvchi vosita sifatida alohida ko‘riladi. Uning tarkibiga talabaning modullar bo‘yicha lingvomadaniy lug‘ati, madaniy taqqoslash jadvallari, refleksiv yozuvlari, loyiha mahsulotlari va mikroo‘qitish tahlillari kiradi. Portfolio tuzilmasi bo‘lajak til o‘qituvchilari uchun Yevropa portfoliosining metodologiya va baholash bo‘limlaridagi “Madaniyat” kichik bo‘limlari [7] asosida moslashtiriladi; bu bo‘lajak o‘qituvchiga madaniy mazmunni o‘qitish bo‘yicha o‘z kompetensiyasini deskriptorlar asosida o‘zi baholash imkonini beradi. N.B.Nazarova, S.O.Uyto‘lsinova va M.B.Abbosova [133] o‘quv qo‘llanmasidagi refleksiv topshiriqlar va muhokama savollari portfolioning refleksiv qismini to‘ldiruvchi milliy o‘quv-metodik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Baholash-natija bloki modelning nazorat qiluvchi va tuzatuvchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Uning tarkibi maqsad bloki bilan qat’iy muvofiqlashtiriladi: lingvomadaniy kompetensiyaning besh komponentiga mos ravishda besh mezon – motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik mezonlar belgilanadi, har bir mezon 1.2-jadvalda keltirilgan beshta ko‘rsatkich orqali aniqlanadi. Mezonlar nomining komponentlar nomi bilan aynan bir xil saqlanishi nazariy tuzilma, metodik model va diagnostika vositalari o‘rtasida terminologik izchillikni ta’minlaydi. D.K.Deardorff [32, 254-b.] madaniyatlararo kompetensiyani bilim, ko‘nikma va munosabatlarga asoslangan, ichki va tashqi natijalarda namoyon bo‘ladigan ta’lim natijasi sifatida bir nechta usul bilan baholash zarurligini asoslaydi; shu talabga ko‘ra har bir mezon uchun alohida diagnostika vositasi tanlanadi.

Diagnostika vositalari mezonlarga quyidagicha biriktiriladi. Motivatsion-qadriyatli mezon so‘rovnoma va madaniy refleksiya yozuvlari orqali, kognitiv-lingvomadaniy mezon lingvomadaniy bilimlar testi orqali, lingvistik-semantik mezon autentik matnda madaniy belgilangan birliklarni aniqlash va izohlash topshirig‘i orqali, madaniyatlararo kommunikativ mezon rolli vaziyat va keys bajarilishini kuzatish

orqali, kasbiy-metodik mezon esa madaniy mazmunli dars fragmenti loyihasi va uni baholash rubrikasi orqali tashxislanadi. Test faqat bitta mezon uchun qo‘llanishi amaldagi amaliyotdan tamoyiliy farq qiladi: 1.3-§ da ko‘rsatilganidek, fan dasturlarida madaniy natija ham variantli test orqali tekshiriladi [8], holbuki madaniyatlararo vaziyatda o‘rinli nutqiy xatti-harakatni tanlash yoki o‘quvchilar uchun topshiriq loyihalash ko‘nikmasini test bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Zh.V.Demyanova [145, 17-b.] ham har bir mezon uchun alohida diagnostika usullarini qo‘llagan; tadqiqotimizda bu tamoyil besh mezonga kengaytiriladi.

Har bir mezon bo‘yicha rivojlanganlik to‘rt darajada – past, o‘rta, yetarli va yuqori darajalarda baholanadi. Darajalar 2.2-§ da ko‘rsatilganidek, ta’lim qonunlarining amalga oshganlik holatini sifat jihatidan tavsiflaydi. Past darajada talaba madaniy belgilangan birlikni kontekstdan ajratilgan holda yodlaydi, uning madaniy mazmunini izohlay olmaydi va yangi vaziyatga ko‘chira olmaydi. O‘rta darajada birlik madaniy kontekst bilan bog‘lanadi va namunaviy vaziyatda o‘qituvchi yordamida qo‘llanadi. Yetarli darajada talaba birlikni o‘xshash vaziyatlarga mustaqil ko‘chiradi, uni o‘zbek tilidagi muqobili bilan asosli qiyoslaydi va madaniyatlararo vaziyatda o‘rinli qo‘llaydi. Yuqori darajada esa u birlikni yangi madaniyatlararo vaziyatda ijodiy qo‘llaydi, madaniy umumlashmalarni dalillar bilan asoslaydi va o‘quvchilar uchun mos topshiriqqa aylantira oladi. CEFR qo‘shimcha jildidagi plyurimadaniy repertuarga tayanish shkalasida madaniy kompetensiya ham oddiy farqlarni payqashdan madaniy konvensiyalarni talqin qilish va ular haqida muloqot yuritishgacha bo‘lgan darajalar bo‘yicha tavsiflanadi [4, 123–125-b.]; to‘rt daraja tavsifi shu shkala mantiqiga mos keladi. Darajalarning ko‘rsatkichlar bo‘yicha batafsil tavsifi va ballar oralig‘i tajriba-sinov ishlarida, baholash rubrikasi esa 3.3-§ da beriladi.

Bloklar o‘rtasidagi bog‘liqlik modelning yaxlitligini belgilovchi asosiy omildir. To‘g‘ri aloqa bloklarning ketma-ket bo‘ysunishida namoyon bo‘ladi: maqsad bloki vazifalarni belgilaydi, metodologik blok ularni amalga oshirish me’yorlarini beradi, mazmun bloki shu me’yorlar asosida tanlangan birliklar va topshiriqlarni, texnologik blok ularni o‘zlashtirish usullarini, baholash-natija bloki esa natijani o‘lchash vositalarini taqdim etadi. Qayta aloqa baholash-natija blokidan maqsad, mazmun va texnologik bloklarga yo‘naltirilgan bo‘lib, model o‘z-o‘zini tuzatuvchi tizim sifatida ishlashini ta’minlaydi. Metodologik blok esa qayta aloqa doirasiga kiritilmaydi: yondashuvlar, tamoyillar va qonunlar metodika amalga oshirilgan sari o‘zgarmaydigan nazariy asos bo‘lib qoladi, o‘zgarishlar esa ular doirasidagi mazmun va texnologik qarorlarga taalluqli bo‘ladi.

To‘g‘ri va qayta aloqalardan tashqari modelda uchinchi, gorizontal aloqa turi mavjud: lingvomadaniy kompetensiyaning har bir komponenti barcha bloklarni kesib o‘tadi. Bu aloqa tizimli yondashuvning obyekt darajasidagi talabidan kelib chiqadi va har bir komponent maqsad blokida vazifa, metodologik blokda yetakchi yondashuv va

tamoyil, mazmun blokida tahlil birligi, texnologik blokda topshiriq turi va metod, baholash-natija blokida esa mezon va diagnostika vositasi orqali ifodalanishini anglatadi. Masalan, kasbiy-metodik komponent maqsad blokida lingvomadaniy materialni o‘qitishga tayyorlash vazifasi, metodologik blokda kompetensiyaviy va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlar hamda nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili, mazmun blokida o‘quvchiga moslanadigan lingvomadaniy material, texnologik blokda dars fragmentini loyihalash va mikroo‘qitish, baholash-natija blokida esa kasbiy-metodik mezon va dars fragmenti loyihasining rubrikasi orqali namoyon bo‘ladi. Gorizontal aloqa birorta komponentning modelning biror blokida e’tibordan chetda qolmasligini nazorat qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bloklar bog‘liqligini bitta lingvomadaniy birlik misolida kuzatish mumkin. M.O.Rakhimov [57, 238-b.] ingliz madaniyatining o‘ziga xos konseptualizatsiya qilingan tushunchalari qatorida “home” tushunchasini keltiradi. Takomillashtirilgan metodikada bu konsept “Family traditions” modulida o‘rganiladi. Maqsad bloki uni lingvistik-semantik va madaniyatlararo kommunikativ vazifalar bilan bog‘laydi; metodologik blok lingvokulturologik va madaniyatlararo yondashuvlarni, ilmiylik va onglilik tamoyillarini hamda o‘zaro bog‘liqlik qonunini faollashtiradi. Mazmun blokida talaba “home” va “house” so‘zlarining farqini, “home sweet home”, “make yourself at home”, “an Englishman’s home is his castle” birikmalarini tahlil qiladi va ularni o‘zbek tilidagi “uy”, “xonadon”, “oila” so‘zlari bilan, xususan, mehmonni “uyingizdek bemalol bo‘ling” iborasi bilan qiyoslaydi. Texnologik blokda individual lug‘at izlanishi juftlikdagi muhokama va “Inviting a British friend home” rolli o‘yini bilan davom etadi, yakunda esa talaba 6-sinf o‘quvchilari uchun “My home” mavzusida besh daqiqalik madaniy taqqoslash fragmentini mikroo‘qitish shaklida o‘tkazadi. Baholash-natija blokida uning matn tahlili lingvistik-semantik mezon, rolli o‘yindagi harakati madaniyatlararo kommunikativ mezon, dars fragmenti esa kasbiy-metodik mezon ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi va natijalar portfolioga kiritiladi. Misoldan ko‘rinadiki, bitta konsept atrofida beshta blok ketma-ket ishga tushadi va lingvomadaniy kompetensiyaning bir nechta komponentini birgalikda rivojlantiradi.

Takomillashtirilgan metodikaning amaldagi o‘qitish amaliyotidan farqi 3.1-jadvalda umumlashtiriladi. Jadvalda amaldagi amaliyot ustunida 1.3-§ da tahlil qilingan malaka talablari va fan dasturlaridagi holat, takomillashtirilgan metodika ustunida esa model bloklarida kiritilgan o‘zgarishlar ko‘rsatiladi.

3.1-jadval

Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning amaldagi amaliyoti va takomillashtirilgan metodikasi qiyosi

Parametr	Amaldagi amaliyot	Takomillashtirilgan metodika

Maqsad	madaniy talab jarayon fe’llari bilan ifodalangan, ko‘rsatkichlarsiz [1, 8-b.]; fan natijalari umumiy til darajasi bo‘yicha [20]	maqsad besh komponentga mos beshta vazifaga ajratilgan va besh mezon bilan muvofiqlashtirilgan
Metodologik asos	fan dasturlarida aniq belgilanmagan, asosan kommunikativ yo‘nalish	besh yondashuv, besh tamoyil va besh ta’lim qonunidan iborat mustaqil metodologik blok
Mazmun birligi	madaniyat mavzuli fon sifatida; lingvomadaniy birliklar ichida faqat idiomalar [20; 8]	realiya, frazeologizm, madaniy konsept, nutq etiketi formulasi va autentik matndan iborat besh guruh birlik
Qiyosiy asos	o‘zbek madaniyati bilan qiyos ayrim mavzularda, natija sifatida baholanmaydi [8]	har bir birlik uchun majburiy qiyosiy qatlam; qiyos har bir mezon ko‘rsatkichiga kiritilgan
Joylashuv	madaniyatlararo muloqot kursi 6-semestrda [20]; 2-kursda maxsus fan yo‘q [1, 10-b.]	3–4-semestrlarda amaliy til fanlariga integratsiyalangan 8 ta modul va tanlov kursi
Topshiriqlar	mavzu bo‘yicha alohida madaniy topshiriqlar, taqdimot va portfolio	tanish va izohlash, shartli-kommunikativ, madaniyatlararo va kasbiy-metodik bosqichlardan iborat tizim
Shakl, metod, vosita	keys, taqdimot, loyiha; xalqaro o‘quv majmualari [8]	to‘rt shakl bosqichlarga biriktirilgan; madaniy taqqoslash, “mahsulot – amaliyot – qarash” tahlili, mikroo‘qitish; virtual immersiya, lingvomadaniy portfolio
Kasbiy-metodik yo‘nalish	material tahlili faqat 6-semestrdagi kursda [20]	har bir modul kasbiy-metodik topshiriq va mikroo‘qitish bilan yakunlanadi
Baholash	variantli test, umumiy til darajasi; madaniy mezon yo‘q [8]	besh mezon, to‘rt daraja, har mezonga alohida diagnostika vositasi, rubrika
Qayta aloqa	nazorat natijasi mazmun va texnologiyaga qaytarilmaydi	qayd etish, tashxis va tuzatish vazifalari; natija talabaga va o‘qituvchiga qaytariladi

3.1-jadvaldan ko‘rinadiki, takomillashtirish amaldagi amaliyotni bekor qilmaydi, balki uning har bir parametrini lingvomadaniy jihatdan aniqlashtiradi. Maqsad darajasida malaka talablaridagi umumlashgan madaniy band besh o‘lchanadigan vazifaga aylanadi, mazmun darajasida mavzuli fon til birliklari va qiyosiy qatlam bilan to‘ldiriladi, joylashuv darajasida esa madaniy mazmun kech

semestrdagi alohida kursdan ikkinchi kursdagi amaliy fanlarga ko‘chiriladi. Eng chuqur o‘zgarish baholash va kasbiy-metodik yo‘nalish parametrlarida kuzatiladi: amaldagi amaliyotda madaniy natija umuman o‘lchanmasa va o‘qituvchilik faoliyati bilan bog‘lanmasa, takomillashtirilgan metodikada har bir modul o‘lchanadigan natija va kasbiy harakat bilan yakunlanadi.

Takomillashtirishning mohiyati yetti yo‘nalishda umumlashtiriladi:

– maqsadni komponentli dekompozitsiya qilish orqali madaniy talab o‘lchanadigan natijaga aylantiriladi;

– metodologik asoslar model ichidagi mustaqil blok sifatida ajratilib, yondashuv, tamoyil va qonunlar iyerarxiyasi hosil qilinadi;

– lingvistik-semantik tarkib besh guruh tahlil birligi orqali mazmunning o‘zagiga aylantiriladi;

– o‘zbek va ingliz tilmadaniyatlari qiyosi barcha bloklarda majburiy qatlam sifatida saqlanadi;

– lingvomadaniy mazmun ikkinchi kursdagi amaliy ingliz tili fanlariga sakkiz mavzuli modul shaklida integratsiyalanadi;

– topshiriqlar tizimi kasbiy-metodik bosqich bilan yakunlanib, bo‘lajak o‘qituvchining lingvomadaniy kompetensiyasini tarjimon yoki nofilolog talabaning tegishli kompetensiyasidan farqlaydi;

– baholash test bilan cheklanmasdan, besh mezon va to‘rt daraja asosidagi ko‘p usulli tizimga va qayta aloqa mexanizmiga aylantiriladi.

Model ishlashi uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlar ta’minlanishi lozim. Mazmuniy shart sakkiz modul bo‘yicha lingvomadaniy materiallar banki – realiyalar, frazeologizmlar va madaniy konseptlar ro‘yxati, ularning o‘zbek tilidagi muqobillari, autentik matn va video parchalar hamda topshiriqlar namunalari tayyorlanishini talab qiladi. Tashkiliy shart amaliy ingliz tili fanlari o‘qituvchilari o‘rtasida modullarni taqsimlash va mavzular ketma-ketligini kelishishni, shuningdek, videoaloqa uchun hamkor tengdoshlar guruhini topishni nazarda tutadi. Kadrlar sharti professor-o‘qituvchilarning lingvomadaniy materialni tanlash va besh mezon bo‘yicha baholash tartibini egallashini, diagnostik shart esa barcha guruhlarda bir xil diagnostika vositalari va rubrikadan foydalanishni anglatadi. D.Naimova [53, 189-b.] multimadaniy muhitda ishlovchi o‘qituvchilar malakasini oshirish va madaniy stereotiplar muammosini hal etish zarurligini ta’kidlagani kadrlar shartining dolzarbligini tasdiqlaydi; Sh.P.Raximova [135] madaniyatlararo yozma muloqotda stereotiplardan voz kechish zarurligini asoslagani esa materiallar bankini stereotipdan himoyalanganlik mezoni bo‘yicha tekshirish talabini kuchaytiradi.

Metodika ikkinchi kursning ikki semestri davomida to‘rt bosqichda amalga oshiriladi. Diagnostik-yo‘naltiruvchi bosqichda, 3-semestr boshida, talabalarning besh mezon bo‘yicha boshlang‘ich darajasi aniqlanadi, lingvomadaniy portfolio ochiladi va

tanlov kursi doirasida lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalari bilan tanishtiriladi. Tizimlashtiruvchi bosqichda 3-semestrning birinchi to‘rt moduli o‘rganilib, asosiy e’tibor tanish va izohlash hamda shartli-kommunikativ topshiriqlarga, ya’ni kognitiv-lingvomadaniy va lingvistik-semantik komponentlarga qaratiladi. Faoliyatli bosqichda 4-semestrning keyingi to‘rt moduli o‘rganilib, madaniyatlararo va kasbiy-metodik topshiriqlar, rolli o‘yin, keys, virtual immersiya va mikroo‘qitish ustunlik qiladi. Refleksiv-umumlashtiruvchi bosqichda, 4-semestr oxirida, yakuniy diagnostika o‘tkaziladi, portfolio himoya qilinadi va natijalar asosida keyingi o‘quv yili uchun materiallar banki va topshiriqlar tuzatiladi. Bosqichlar ketma-ketligi G.T.Maxkamova [131] madaniyatlararo kompetensiyani ingliz tili fakulteti tayyorgarligining yaxlit maqsadi sifatida ko‘rgan konsepsiyasiga muvofiq ravishda lingvomadaniy tayyorgarlikni keyingi kurslardagi madaniyatlararo muloqot, metodika fanlari va pedagogik amaliyot uchun asosga aylantiradi.

Paragrafda o‘tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni olish imkonini beradi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning takomillashtirilgan metodikasi maqsad, metodologik, mazmun, texnologik va baholash-natija bloklaridan iborat model sifatida asoslanadi. Maqsad bloki umumiy maqsadni lingvomadaniy kompetensiyaning besh komponentiga mos beshta vazifaga ajratadi va ularni ikkinchi kursning 3–4-semestrlari bilan bog‘laydi. Metodologik blok besh yondashuv, besh tamoyil va besh ta’lim qonunining iyerarxik tizimi sifatida qolgan bloklarni tartibga soladi. Mazmun bloki realiya, frazeologizm, madaniy konsept, nutq etiketi formulasi va autentik matndan iborat tahlil birliklarini o‘zbek tilmadaniyati bilan majburiy qiyosiy qatlam asosida sakkiz mavzuli modulga birlashtiradi va to‘rt bosqichli topshiriqlar tizimini belgilaydi. Texnologik blok individual, juftlik, guruh va loyiha shakllarini madaniy taqqoslash, autentik matn tahlili, keys, rolli o‘yin, “mahsulot – amaliyot – qarash” tahlili, mikroo‘qitish va refleksiv yozuv metodlari hamda lingvomadaniy lug‘atlar, autentik media, virtual immersiya va lingvomadaniy portfolio vositalari bilan uyg‘unlashtiradi. Baholash-natija bloki besh mezon, to‘rt daraja va har bir mezonga mos diagnostika vositasi orqali natijani o‘lchaydi hamda qayd etish, tashxis va tuzatish vazifalari orqali qayta aloqani ta’minlaydi. Bloklar to‘g‘ri, qayta va gorizontal aloqalar bilan bog‘langan bo‘lib, metodikaning amaldagi amaliyotdan farqi maqsadning o‘lchanadigan shaklga keltirilishi, lingvistik-semantik tarkib va qiyosiy asosning mazmun o‘zagiga aylantirilishi, lingvomadaniy mazmunning ikkinchi kursdagi amaliy fanlarga integratsiyalanishi, kasbiy-metodik yo‘nalganlik va ko‘p usulli baholash tizimida namoyon bo‘ladi. Modelning mazmun bloki keyingi paragrafda lingvomadaniy ta’lim mazmuni va topshiriqlar tizimi sifatida batafsil ishlab chiqiladi.

3.2-§. Lingvomadaniy ta’lim mazmuni va kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi

Takomillashtirilgan metodika modelida mazmun bloki lingvomadaniy kompetensiyaning lisoniy va madaniy o‘zagini tashkil etsa, topshiriqlar tizimi bu mazmunni talabaning o‘quv va kasbiy harakatiga aylantiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Lingvomadaniy ta’lim mazmuni madaniyat haqidagi ma’lumotlarning ixtiyoriy yig‘indisi emas: u ilmiy mezonlar asosida tanlangan, til birliklari orqali tartiblangan va o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyoslanadigan birliklar tizimidir, topshiriq esa shu birlik bilan bajariladigan, maqsadi, natijasi va baholash ko‘rsatkichi aniq belgilangan o‘quv harakatidir. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun mazmun va topshiriqlar yana bir talabga javob berishi lozim: talaba lingvomadaniy birlikni o‘zi o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, uni maktab o‘quvchisi uchun tushunarli va foydali topshiriqqa aylantira olishi kerak. Mazkur paragrafda lingvomadaniy mazmunni tanlash mezonlari asoslanadi, mazmun oltita mazmun moduliga ajratib tavsiflanadi, topshiriqlar bilishga oid, tahliliy-taqqoslash, kommunikativ-interaktiv va kasbiy-metodik guruhlarga ajratilib, har bir guruhning maqsadi, rivojlantiriladigan komponenti, shakli, metodi va vositasi belgilanadi hamda ingliz tilidagi topshiriq namunalari keltiriladi; topshiriqlar tizimi 3.2-jadvalda umumlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qarorining 12-bandida Pedagogik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashining asosiy vazifalari qatorida “pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta’lim dasturlari va darsliklarni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish” belgilangan [15]. Qarorning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “yo‘l xaritasi”ning o‘quv jarayonini takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘limida esa “talabalarning qiziqishlari hamda kadrlar iste’molchilarining talablarini inobatga olgan holda maxsus ta’lim dasturlari loyihalarini ishlab chiqish” chora-tadbiri ko‘zda tutilgan [15]. Ta’lim dasturlarini takomillashtirish ularning mazmunini qayta ko‘rib chiqishdan, kadrlar iste’molchilari talablarini hisobga olish esa bitiruvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan topshiriqlarni loyihalashdan boshlanadi. Demak, lingvomadaniy ta’lim mazmunini va kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish qarorda belgilangan vazifalarni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini tayyorlash sohasida bajarishning aniq metodik yo‘li hisoblanadi.

Lingvomadaniy mazmunni tanlash ta’lim mazmunini tanlashning umumdidaktik talablariga bo‘ysunadi, biroq uning o‘ziga xos murakkabligi bor: madaniyat chegarasiz va o‘zgaruvchan, o‘quv vaqti esa cheklangan. K.Risager [60] chet tili o‘qitish diskursida madaniyatning ko‘pincha bir xil, yaxlit va o‘zgarmas manzara sifatida berilishini tanqid qiladi, C.Kramsch [48] esa bitta diskurs jamoasi a’zolari ham turli hayotiy tajribaga ega ekanini ko‘rsatib, madaniyatni bir jinsli deb qarashdan

ogohlantiradi. Bu qarashlar mazmunni tanlashda faqat “nimani o‘qitish kerak” degan savolga emas, “qaysi birlik madaniyatning qaysi qatlamini qanday ehtiyotkorlik bilan ifodalaydi” degan savolga ham javob berishni talab qiladi. Shu sababli tadqiqotda mazmun 3.1-§ da belgilangan oltita mezon asosida tanlanadi.

A.S.Mamontov [98, 150–151-b.] ishlab chiqqan to‘rt mezon mazmun tanlashning tayanchini tashkil etadi. Tipiklik mezoni birlik madaniyatda keng tarqalgan, odatiy hodisani ifodalashini talab qiladi: masalan, “afternoon tea” yoki “Sunday roast” ingliz oilaviy turmushining odatiy elementlari sifatida tanlanadi, ammo kamyob marosim yoki hududiy ekzotika asosiy mazmunga kiritilmaydi. Kommunikativ qimmat mezoni birlikning real muloqotda tez-tez uchrashini, mamlakatshunoslik qimmati mezoni esa uning madaniyat haqida ahamiyatli bilim tashishini nazarda tutadi. Stereotipdan himoyalanganlik mezoni bo‘yicha birlik madaniyatning birgina jihatini butun xalqqa xos deb ko‘rsatmasligi lozim; muallif o‘rganuvchini kamyob hodisalarni keng tarqalgan deb qabul qilishdan saqlash zarurligini ta’kidlaydi [98]. D.Naimova [53, 189-b.] lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda madaniy stereotiplar muammo sifatida yuzaga chiqishini qayd etgani bu mezonning milliy sharoitdagi dolzarbligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda qo‘shilgan ikki mezon mazmunni bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligiga moslaydi. Qiyoslanuvchanlik mezoni birlik o‘zbek tilmadaniyatida to‘liq muqobil, qisman muqobil yoki lakunaga ega bo‘lishini, ya’ni ikki madaniyatni qiyoslash obyekti bo‘la olishini talab qiladi; M.O.Rakhimov [57, 243-b.] milliy madaniyatni anglash lingvomadaniy kompetensiyaning poydevori ekanini ko‘rsatgani bu mezonning nazariy asosidir. Kasbiy qo‘llanuvchanlik mezoni esa birlik umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari uchun moslashtirilishi va topshiriqqa aylantirilishi mumkinligini nazarda tutadi; malaka talablarida bitiruvchidan o‘quv materiallarini tanlash, yaratish, moslashtirish va ulardan foydalanish talab etilgani [1, 9-b.] bu mezonni me’yoriy jihatdan asoslaydi. Mezonlar birgalikda qo‘llanadi: birlik kamida to‘rt mezonga javob berganda mazmunga kiritiladi, stereotipdan himoyalanganlik mezoniga javob bermagan birlik esa boshqa mezonlar bo‘yicha qanchalik qimmatli bo‘lmasin, faqat stereotipni tahlil qilish topshirig‘ida qo‘llanadi.

Mezonlar qatoriga ingliz tilining xalqaro maqomidan kelib chiqadigan talab ham qo‘shiladi. W.Baker [24] ingliz tili lingva franka sifatida qo‘llanadigan muloqotda madaniyatlararo xabardorlik modelini asoslab, ingliz tili o‘rganuvchisining madaniy mo‘ljalini bitta “ingliz” mamlakati bilan cheklamaslik zarurligini ko‘rsatadi; F.Sharifian [64] esa madaniy konseptualizatsiyalar tahlilini Jahon inglizchalari materialiga tatbiq etadi. Shu sababli mazmunda Buyuk Britaniya va AQSh materiallari bilan bir qatorda Avstraliya, Kanada, Irlandiya kabi mamlakatlar birliklari ham beriladi, o‘zbek talabalari ingliz tilini xalqaro muloqot vositasi sifatida qo‘llaydigan vaziyatlar esa kommunikativ topshiriqlarga kiritiladi. Bu talab stereotipdan

himoyalanganlik mezonining mazmuniy davomi bo‘lib, “ingliz madaniyati” tushunchasining ko‘p variantli manzara sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Tanlangan mazmun oltita mazmun moduliga ajratiladi. Mazmun modullari 3.1-§ da ajratilgan sakkiz mavzuli modul bilan matritsa hosil qiladi: mavzuli modul mazmunning amaliy ingliz tili fanidagi o‘rnini, ya’ni qaysi mavzu doirasida o‘rganilishini belgilasa, mazmun moduli birlikning lingvomadaniy turini, ya’ni nima o‘rganilishini ko‘rsatadi. Masalan, “Food, health and hospitality” mavzuli modulida birinchi mazmun moduli bo‘yicha “afternoon tea” realiyasi, ikkinchisi bo‘yicha “not my cup of tea” iborasi, uchinchisi bo‘yicha taklifni muloyim rad etish formulalari, to‘rtinchisi bo‘yicha mehmondorchilik qadriyatlari, beshinchisi bo‘yicha o‘zbek dasturxon odobi bilan taqqoslash, oltinchisi bo‘yicha esa shu materialdan maktab o‘quvchilari uchun topshiriq tuzish o‘rganiladi. Matritsali tuzilma har bir mavzuda barcha mazmun turlarining mavjud bo‘lishini, har bir mazmun turining esa butun ikki semestr davomida izchil rivojlanishini ta’minlaydi.

Birinchi mazmun moduli – “Realiyalar va madaniy konseptlar” lingvomadaniy kompetensiyaning bilim asosini ta’minlaydi. Uning tarkibiga ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar turmushi, ijtimoiy institutlari va bayramlarini ifodalovchi realiyalar (“bank holiday”, “Boxing Day”, “Thanksgiving”, “pub”, “GCSE”), fon leksika hamda madaniyatning kalit tushunchalari (“privacy”, “home”, “fair play”, “humour”) kiradi. E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov [82] asoslagan til va madaniyatni birgalikda o‘rganish tamoyili realiyani madaniy fakt sifatida emas, uni ifodalovchi so‘z sifatida o‘rganishni talab qiladi. A.Wierzbicka [76] kalit so‘zlar madaniyatning asosiy qadriyatlarini aks ettirishini isbotlagan bo‘lsa, M.O.Rakhimov [57, 238-b.] “home”, “privacy”, “fair play” va “humor” tushunchalarining ingliz tilida o‘ziga xos konseptualizatsiya qilinishini ko‘rsatadi. Modulda har bir mavzuli modul uchun 8–10 ta realiya va bitta yetakchi madaniy konsept tanlanadi; konsept uning lug‘aviy ma’nosi, qo‘llanish birikmalari, qadriyatli mazmuni va o‘zbek tilidagi taxminiy muqobillari orqali o‘rganiladi.

Ikkinchi mazmun moduli – “Frazeologiya va idiomalar” lingvistik-semantik komponentning asosiy materialini beradi, chunki frazeologik birlik madaniy ma’no eng zich jamlangan til qatlamidir. U.U.Jumanazarov [129] bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini rivojlantirishni alohida tadqiq predmetiga aylantirgan, Zh.V.Demyanova [145, 17-b.] esa praksiologik mezonni tashxislash vositalari qatorida maqol va frazeologik birliklarning muqobilini topish topshirig‘ini qo‘llagan. Modulda frazeologizmlar uch guruhga ajratiladi: madaniy-tarixiy motivi aniq birliklar (“break a leg”, “spill the beans”, “to meet one’s Waterloo”), turmush tarzi bilan bog‘liq birliklar (“not my cup of tea”, “a piece of cake”, “to bring home the bacon”) hamda maqollar (“When in Rome, do as the Romans do”, “An Englishman’s home is his castle”). M.O.Rakhimov [57, 238-b.] “break a leg” iborasini

to‘g‘ri tushunish uning ortidagi teatr irimini bilishni talab qilishini ko‘rsatadi; modulda har bir birlik xuddi shu tartibda – shakl, ma’no, madaniy motiv, qo‘llanish vaziyati va o‘zbek tilidagi muqobil yoki lakuna – izohlanadi.

Uchinchi mazmun moduli – “Nutq etiketi” madaniyatlararo kommunikativ komponentga yo‘naltirilgan bo‘lib, salomlashish va xayrlashish, murojaat shakllari, minnatdorlik, uzr so‘rash, iltimos, taklif qilish va rad etish, kompliment va unga javob hamda “small talk” formulalarini qamraydi. Ingliz nutq etiketida bilvosita iltimos (“Would you mind…?”, “I was wondering if…”), taklifni rad etishni yumshatuvchi vositalar (“I’d love to, but…”, “I’m afraid…”) va kundalik muloqotdagi rasmiylik darajalari (“Cheers” va “Thank you very much indeed”) asosiy o‘rganish obyekti hisoblanadi; o‘zbek nutq etiketida esa yoshi kattaga hurmat ko‘rsatish, “-lar” qo‘shimchasi va “aka”, “opa” kabi murojaatlar, hurmat ifodasi sifatidagi noverbal harakatlar qiyosiy material bo‘ladi. A.S.Mamontov [98] imo-ishora, mimika va poza kabi paralingvistik vositalarning milliy-madaniy jihatdan belgilanganini ko‘rsatadi, shu sababli modulga noverbal etiket ham kiritiladi. Malaka talablarida bitiruvchidan o‘quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish talab etilgani [1, 8-b.] bu modulni kasbiy-metodik mazmun bilan ham bog‘laydi.

To‘rtinchi mazmun moduli – “Madaniy an’analar va qadriyatlar” motivatsion-qadriyatli va kognitiv-lingvomadaniy komponentlarni birlashtiradi. Modulda bayramlar va oilaviy marosimlar, mehmondorchilik, vaqtga munosabat, shaxsiy hayot daxlsizligi, jamoaviylik va individualizm, ta’limga munosabat kabi qadriyatlar ingliz tilidagi matnlar orqali o‘rganiladi. ACTFL/CAEP standartlarida madaniyatni mahsulotlar, amaliyotlar va qarashlar o‘rtasidagi aloqa orqali tushunish talabi qo‘yilgani [3] bu modul mazmunini uch qatlamda tuzish imkonini beradi: an’ana avval mahsulot (masalan, Christmas cracker), keyin amaliyot (oilaviy dasturxon atrofidagi o‘yin) va nihoyat qarash (bayramning oilaviy birlik qadriyati bilan bog‘liqligi) darajasida tahlil qilinadi. O‘zbek qiyosiy materialiga Navro‘z, hashar, mahalla, to‘y an’analari kiradi; malaka talablarida o‘quvchilarda o‘z yurtining tarixiy merosi va qadriyatlarini anglashga yordam berish vazifasi ko‘rsatilgani [1, 7-b.] bu materialning majburiyligini asoslaydi.

Beshinchi mazmun moduli – “Madaniyatlararo taqqoslash” mustaqil mavzular to‘plami emas, birinchi to‘rt modul materialini qiyoslash usullari va madaniyatlararo vaziyatlar bilan ishlash uchun metodologik mazmundir. Uning tarkibiga lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalari (realiya, lakuna, lingvokulturema, madaniy konsept, stereotip), madaniyatlararo tushunmovchilik turlari hamda qiyoslash algoritmi kiradi. Qiyoslash A.S.Mamontov [98] asoslagan qoida bo‘yicha avval umumiy, birlashtiruvchi belgilar, so‘ng farqlovchi belgilar aniqlanadigan tartibda olib boriladi; M.Byram [28, 52-b.] talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmasini boshqa madaniyatga oid hujjat yoki voqeani o‘z madaniyatidagi hodisa bilan bog‘lash

qobiliyati sifatida, tanqidiy madaniy xabardorlikni esa o‘z va o‘zga madaniyatdagi qarashlar, amaliyotlar va mahsulotlarni aniq mezonlar asosida baholash qobiliyati sifatida [28, 53-b.] tavsiflaydi. Modul shu ikki ko‘nikmani rivojlantirish orqali lingvomadaniy kompetensiyaning tahliliy darajasini ta’minlaydi. I.A.Izmestyeva [147] modelida ham kontrastiv-qiyosiy lingvomadaniy tahlil asosiy o‘rin egallagani bu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Oltinchi mazmun moduli – “Lingvomadaniy materialni o‘qitish metodikasi” kasbiy-metodik komponentni ta’minlaydi va lingvomadaniy kompetensiyani tarjimon yoki nofilolog talabaning tegishli kompetensiyasidan farqlovchi tarkib hisoblanadi. Modulda lingvomadaniy materialni o‘quvchilar yoshi va til darajasiga mos tanlash va moslashtirish, madaniy taqqoslash topshirig‘ini loyihalash, madaniy mazmunni dars bosqichlariga integratsiyalash, darslikdagi madaniy mazmunni tanqidiy baholash va o‘quvchining lingvomadaniy natijasini baholash masalalari o‘rganiladi. N.M.Axmedova [122] madaniyatlararo mazmunni darsga integratsiyalashni alohida kasbiy-metodik kompetensiya (KMK-7) sifatida ajratgani, bo‘lajak til o‘qituvchilari uchun Yevropa portfoliosida esa metodologiya va baholash bo‘limlarida “Madaniyat” kichik bo‘limlari mavjudligi [7] modul mazmunining asosidir. Ikkinchi kursda pedagogik amaliyot hali boshlanmagani sababli modul mikroo‘qitish va dars fragmentini loyihalash shaklida amalga oshiriladi.

Mazmun modullari lingvomadaniy kompetensiya komponentlariga ustuvor ta’sir ko‘rsatishi bo‘yicha farqlanadi, biroq ularning birortasi bitta komponent bilan cheklanmaydi. Birinchi va to‘rtinchi modullar asosan kognitiv-lingvomadaniy va motivatsion-qadriyatli, ikkinchi modul lingvistik-semantik, uchinchi modul madaniyatlararo kommunikativ, oltinchi modul kasbiy-metodik komponentga yo‘naltirilgan, beshinchi modul esa qiyoslash usullari orqali barcha komponentlarni bog‘laydi. Mazmunning bunday taqsimoti 1.3-§ da aniqlangan komponent bo‘shlig‘iga – me’yoriy hujjatlarda lingvistik-semantik komponentning aks etmaganiga – javob beradi: ikkinchi modul va boshqa modullardagi til birliklari tahlili madaniy semantika bilan ishlashni mazmunning doimiy tarkibiy qismiga aylantiradi.

Topshiriqlar tizimi mazmun modullarini talabaning faoliyatiga aylantiradi va to‘rt guruhdan iborat: bilishga oid, tahliliy-taqqoslash, kommunikativ-interaktiv va kasbiy-metodik topshiriqlar. Guruhlar 3.1-§ da belgilangan faoliyat bosqichlarini amalga oshiradi: bilishga oid va tahliliy-taqqoslash topshiriqlari tanish va izohlash bosqichini, kommunikativ-interaktiv topshiriqlar shartli-kommunikativ va madaniyatlararo bosqichlarni, kasbiy-metodik topshiriqlar esa kasbiy-metodik bosqichni tashkil etadi. Tasnif W.Littlewood [51] ajratgan kommunikativ faoliyatgacha bo‘lgan va kommunikativ faoliyat turlariga hamda A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] asoslagan faol qurish, aloqalar o‘rnatish, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, refleksiya va mas’uliyat tamoyillariga tayanadi. Har bir topshiriq to‘rt tarkibiy qismga

ega: madaniy kontekst (vaziyat yoki matn), harakat yo‘riqnomasi, kutilayotgan mahsulot va refleksiv savol. Topshiriqlar ingliz tilida beriladi, o‘zbek tilidagi qiyosiy material esa talabaning ingliz tilida izohlash obyekti bo‘ladi; bu o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etish ko‘nikmasini doimiy mashq qilish imkonini beradi.

Topshiriqlarni tuzishda 2.2-§ da tahlil qilingan ta’lim qonunlari operatsion qoidalar sifatida qo‘llanadi. O‘zaro bog‘liqlik qonuniga ko‘ra birlik har doim madaniy kontekst ichida beriladi; mashq qonuniga ko‘ra bir modulda kiritilgan birlik keyingi ikki modulda yangi vaziyatda qayta qo‘llanadi; intensivlik qonuniga ko‘ra kontekst autentik video, audio yoki tasvir orqali taqdim etiladi; assimilyatsiya qonuniga ko‘ra tahlil usuli bir konseptdan boshqasiga ongli ko‘chiriladi; natijaviy qonunga ko‘ra esa har bir topshiriq mezon va ko‘rsatkich bilan baholanadi va natija talabaga qaytariladi. Quyida har bir guruh topshiriqlari namunalari keltiriladi; namunalardagi o‘quv matnlari muallif tomonidan autentik materiallar uslubida tuzilgan, mashg‘ulotlarda esa ular ochiq manbalardagi autentik matn va video parchalar bilan almashtirilishi mumkin.

Bilishga oid topshiriqlarning maqsadi lingvomadaniy birlik bilan dastlabki tanishuvni ta’minlash, uning ma’nosi va madaniy mazmunini ilmiy manbalar asosida aniqlash hamda o‘zbek tilidagi muqobilini qayd etishdir. Ular asosan kognitiv-lingvomadaniy komponentni, qisman motivatsion-qadriyatli komponentni rivojlantiradi. Shakli – individual va juftlik, metodlari – lug‘at izlanishi, kontekstdan ma’noni taxmin qilish va konseptual xarita, vositalari – izohli va lingvomadaniy lug‘atlar, korpus misollari, autentik tasvir va qisqa video parchalar. A.Yusupov [78] lug‘atlarning lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishdagi funksional imkoniyatlarini alohida tadqiq etgani lug‘at bilan ishlashni bu guruhning asosiy vositasi sifatida tanlashni asoslaydi.

1.1-topshiriq (bilishga oid; 1-mazmun moduli; “Leisure and sport” mavzuli moduli)
Read the short text about a British family’s long weekend and find all culture-specific words.
“The Taylors always look forward to the August bank holiday. On Saturday they go to the local pub for a Sunday-style roast, on Sunday they watch the village cricket match, and on Monday they drive to the seaside, even if it rains.”
1) Underline the culture-specific words and phrases. 2) Using a monolingual dictionary and one corpus example, write a short definition of each item in English. 3) Decide whether there is a full equivalent, a partial equivalent or no equivalent (lacuna) in Uzbek. 4) Complete the table: item – definition – Uzbek equivalent / lacuna – comment.

Ko‘rsatma: topshiriq individual bajariladi (15 daqiqa), so‘ng juftlikda jadvallar solishtiriladi. Talaba “bank holiday”, “pub”, “roast”, “cricket”, “seaside” birliklarini ajratishi, “bank holiday” va “cricket” uchun o‘zbek tilida to‘liq muqobil yo‘qligini,

izoh orqali tarjima talab etilishini asoslashi kutiladi. Natija kognitiv-lingvomadaniy mezonning “realiya va fon bilimlarni bilish” ko‘rsatkichi bo‘yicha baholanadi.

1.2-topshiriq (bilishga oid; 1-mazmun moduli; “Family traditions” mavzuli moduli)
The key concept of this unit is HOME.
1) Look up “home” and “house” in two learner’s dictionaries and write down the difference in meaning.
2) Find five collocations with “home” (e.g. home sweet home, make yourself at home, feel at home, home town, home-made) and write one example sentence for each.
3) Build a concept map: in the centre – HOME; around it – people, feelings, places, values. Add the Uzbek words uy, xonadon, oila, ostona to the map and show with arrows where the meanings overlap and where they differ.

Ko‘rsatma: 1–2-qismlar individual, konseptual xarita esa juftlikda tuziladi (25 daqiqa). M.O.Rakhimov [57, 238-b.] ko‘rsatganidek, “home” ingliz tilida o‘ziga xos konseptualizatsiya qilingan tushuncha bo‘lib, uning “house” so‘zidan farqi talabaga hissiy-qadriyatli ma’no qatlamini ko‘rsatadi. Natija kognitiv-lingvomadaniy mezonning “kalit tushuncha va konseptlarni tushunish” ko‘rsatkichi bo‘yicha baholanadi.

1.3-topshiriq (bilishga oid; 2-mazmun moduli; mustaqil ta’lim)
Idiom detective. Choose three idioms from the list: break a leg, spill the beans, a piece of cake, bring home the bacon, meet one’s Waterloo.
For each idiom: 1) write its meaning; 2) find the story or tradition behind it in a reliable etymological source and give the source; 3) describe one situation where it can be used and one where it would sound inappropriate; 4) say whether Uzbek has an idiom with a similar meaning and whether its image is the same or different.
Record a 1-minute audio explanation of one idiom for your portfolio.

Ko‘rsatma: topshiriq mustaqil ta’lim shaklida bajariladi va lingvomadaniy portfolioga kiritiladi. Manbani ko‘rsatish talabi ilmiylik tamoyilini amalga oshiradi: talaba iboraning kelib chiqishi haqidagi tasdiqlanmagan taxminni dalil bilan ajratishga o‘rganadi. Natija lingvistik-semantik mezonning “frazeologizm motivini izohlash” ko‘rsatkichi bo‘yicha baholanadi.

Tahliliy-taqqoslash topshiriqlarining maqsadi til birliklari va madaniy hodisalarni ingliz va o‘zbek tilmadaniyatlari qiyosida tahlil qilish, ularning umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlash hamda stereotiplarni tanqidiy baholashga o‘rgatishdir. Ular lingvistik-semantik va motivatsion-qadriyatli komponentlarni rivojlantiradi. Shakli – juftlik va guruh, metodlari – madaniy taqqoslash, autentik matn tahlili, “mahsulot – amaliyot – qarash” tahlili va stereotip tahlili, vositalari – qiyosiy jadvallar, autentik matn va media parchalari, refleksiv yozuv varag‘i. M.Byram [28, 52-b.] ta’riflagan talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmasi bu guruhning yetakchi maqsadi bo‘lib, A.S.Mamontov [98] asoslagan qoida bo‘yicha qiyos umumiy belgilar fonida farqni ochishdan boshlanadi.

2.1-topshiriq (tahliliy-taqqoslash; 4-mazmun moduli; “Food, health and hospitality” mavzuli moduli)
Compare the British tradition of afternoon tea with the Uzbek choyxona tradition using three levels of analysis.
Products: What objects, food and places are involved?
Practices: Who takes part? When, how often and how do people behave?
Perspectives: What values and beliefs stand behind the tradition (e.g. hospitality, social status, friendship, time)?
Fill in the comparison table, then write five sentences: two about similarities, three about differences. Use linking words: both … and …, whereas, unlike, in contrast.

Ko‘rsatma: topshiriq uch kishilik guruhlarda bajariladi (25 daqiqa). Tahlil ACTFL/CAEP standartlaridagi “mahsulotlar – amaliyotlar – qarashlar” tuzilmasiga [3] tayanadi. Guruhlar avval umumiy funksiyani (mehmondorchilik va ijtimoiy muloqot), so‘ng farqlarni (vaqt, ishtirokchilar, marosim tartibi) qayd etadi. Natija motivatsion-qadriyatli mezonning “madaniy farqlarga ochiq, stereotipsiz munosabat” va lingvistik-semantik mezonning “ingliz va o‘zbek birliklarini qiyoslash” ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

2.2-topshiriq (tahliliy-taqqoslash; 2-mazmun moduli; “Identity and values” mavzuli moduli)
Read the proverbs and analyse the images and values behind them:
a) An Englishman’s home is his castle. b) When in Rome, do as the Romans do. c) Time is money. d) The early bird catches the worm.
1) Explain the literal image and the figurative meaning of each proverb. 2) Which cultural value does it express (privacy, adaptation, efficiency, hard work)? 3) Find an Uzbek proverb with a similar idea, if one exists, and compare the images. 4) Which proverb would be most difficult to explain to an Uzbek seventh-grader? Why?

Ko‘rsatma: topshiriq juftlikda bajariladi, natijalar guruhda muhokama qilinadi (20 daqiqa). O‘zbek tilidagi maqolni talabalar mustaqil topadi va manbasini ko‘rsatadi; muqobil topilmagan holat lakuna sifatida qayd etiladi. To‘rtinchi savol kasbiy-metodik fikrlashni boshlab beradi. Natija lingvistik-semantik mezonning “frazeologizm motivini izohlash” va “ingliz va o‘zbek birliklarini qiyoslash” ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

2.3-topshiriq (tahliliy-taqqoslash; 5-mazmun moduli; “Communication and media” mavzuli moduli)
Stereotype check. Read the statements a student wrote after watching a travel video:
“The British are always polite and never say what they think. Everybody in Britain drinks tea at five o’clock. Americans are only interested in money.”
1) Which statements are generalisations? Underline the words that make them stereotypes (always, never, everybody, only). 2) Rewrite each statement so that it is accurate and fair (e.g. Many people in Britain …; It is common to …). 3) Think of one stereotype foreigners

may have about Uzbekistan and explain in English why it is incomplete. 4) Reflection: Where do stereotypes come from, and how can a teacher deal with them in class?

Ko‘rsatma: 1–2-qismlar juftlikda, 3–4-qismlar guruh muhokamasida bajariladi (20 daqiqa), refleksiv savolga javob portfolioga yoziladi. Topshiriq A.S.Mamontov [98] ajratgan stereotipdan himoyalanganlik mezonini o‘quv harakatiga aylantiradi; Sh.P.Raximova [135] madaniyatlararo yozma muloqotda stereotiplardan voz kechish zarurligini asoslagani topshiriqning yozma qismini mazmunan asoslaydi. Natija motivatsion-qadriyatli mezonning “madaniy farqlarga ochiq, stereotipsiz munosabat” ko‘rsatkichi bo‘yicha baholanadi.

Kommunikativ-interaktiv topshiriqlarning maqsadi lingvomadaniy bilimni muloqot vaziyatida qo‘llash, nutq etiketi formulalari va muloqot strategiyalarini suhbatdosh madaniyatiga mos tanlash, madaniyatlararo tushunmovchilikni aniqlash va bartaraf etish hamda o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etishdir. Ular asosan madaniyatlararo kommunikativ komponentni rivojlantiradi. Shakli – juftlik va guruh, metodlari – rolli o‘yin, keys, “critical incident” tahlili, intervyu va taqdimot, vositalari – vaziyat kartochkalari, autentik video, videoaloqa platformasi va kuzatuv varag‘i. E.Sh.Kholmatova [46, 158-b.] bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari kontingentida o‘zbek va rus ishtirokchilarining kommunikativ strategiyalari madaniy qadriyatlar ta’sirida farqlanishini aniqlagani bu guruh topshiriqlarida aynan strategiya tanlovini tahlil obyektiga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi; muallif tavsiya etgan immersiv tajriba [46, 157–158-b.] esa videoaloqa orqali virtual shaklda amalga oshiriladi.

3.1-topshiriq (kommunikativ-interaktiv; 3-mazmun moduli; “Food, health and hospitality” mavzuli moduli)
Role play: Invitations and refusals.
Student A: You are an Uzbek student. Invite your British classmate to your family’s osh on Sunday. Explain briefly what osh is and why it is special.
Student B: You are a British exchange student. You cannot come because you have an exam on Monday. Refuse politely and suggest another time.
Useful language: I was wondering if you’d like to … / I’d love to, but … / I’m afraid I can’t … / How about … instead? / That’s very kind of you.
After the role play, swap roles. Then discuss: In Uzbek culture, how many times is it polite to refuse before accepting? How might this cause a misunderstanding with a British guest?

Ko‘rsatma: juftlikda bajariladi (15 daqiqa), o‘qituvchi kuzatuv varag‘ida etiket formulalarining vaziyatga mosligini qayd etadi. Topshiriqning oxirgi savoli o‘zbek mehmondorchiligidagi takroriy taklif va rad etish odatini ingliz muloqot me’yori bilan qiyoslashga undaydi. Natija madaniyatlararo kommunikativ mezonning “nutq etiketini vaziyatga mos qo‘llash” va “o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim etish” ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

3.2-topshiriq (kommunikativ-interaktiv; 5-mazmun moduli; keys)
Case: “The third cup of tea”.
Mark, a teacher from Manchester, is visiting an Uzbek family in Samarkand. The host keeps refilling his cup with green tea, only a little each time. After the second cup Mark says, “No, thank you, I’m fine.” The host smiles and pours more tea. Mark feels uncomfortable and thinks he has not been understood. The host feels that Mark is shy and wants to make him feel welcome.
1) What does each person expect? 2) Which cultural norms explain their behaviour? 3) What could Mark say or do? What could the host do? 4) Act out a better version of the situation in which both people feel comfortable. 5) Write three tips for a foreign guest in an Uzbek home.

Koʻrsatma: keys uch-toʻrt kishilik guruhda tahlil qilinadi (25 daqiqa), soʻng guruhlar vaziyatning yaxshilangan variantini sahnalashtiradi. Talabalar oʻzbek mehmondorchiligida piyolaga choyni oz-ozdan quyish an’anasining mazmunini ingliz tilida izohlashi kerak. Keys madaniyatlararo tushunmovchilikni M.Byram [28, 52-b.] ta’riflagan talqin qilish va bogʻlash koʻnikmasi orqali hal etishga oʻrgatadi. Natija madaniyatlararo kommunikativ mezonning “tushunmovchilikni aniqlash va bartaraf etish” koʻrsatkichi boʻyicha baholanadi.

3.3-topshiriq (kommunikativ-interaktiv; 4-mazmun moduli; virtual immersiya)
Video exchange: “Celebrations in our countries”.
Before the call: prepare five questions about a celebration in your partner’s country (e.g. Thanksgiving, Christmas, Diwali) and a 2-minute presentation of Navroʻz with three photos.
During the call (20 minutes): present Navroʻz, ask your questions, note down at least five culture-specific words your partner uses.
After the call: write a short report (150 words): What surprised you? What was similar to Uzbek traditions? Which word or custom was the most difficult to explain, and how did you explain it?

Koʻrsatma: topshiriq hamkor universitet talabalari yoki onlayn til almashinuvi dasturlari ishtirokchilari bilan videoaloqa orqali juftlik shaklida oʻtkaziladi; hisobot va yozib olingan parcha portfolioga kiritiladi. Topshiriq intensivlik qonunini real muloqot tajribasi orqali amalga oshiradi. Natija madaniyatlararo kommunikativ mezonning “oʻz madaniyatini ingliz tilida taqdim etish” va kognitiv-lingvomadaniy mezonning “realiya va fon bilimlarni bilish” koʻrsatkichlari boʻyicha baholanadi.

Kasbiy-metodik topshiriqlarning maqsadi talabaning lingvomadaniy bilim va koʻnikmalarini oʻqituvchilik harakatiga – material tanlash, topshiriq loyihalash, dars fragmentini oʻtkazish va natijani baholashga aylantirishdir. Ular kasbiy-metodik komponentni rivojlantiradi va boshqa barcha komponentlarni integratsiyalaydi, chunki oʻquvchi uchun topshiriq tuzish birlikni bilish, uni tahlil qilish va muloqot vaziyatiga joylashtirishni talab qiladi. Shakli – individual, guruh va loyiha, metodlari – topshiriq

loyihalash, darslikni tanqidiy tahlil qilish, mikroo‘qitish va tengdoshlar bahosi, vositalari – dars fragmenti shabloni, baholash varag‘i, video yozuv va portfolio. N.M.Axmedova [122] konseptual mikroo‘qitishni olti bo‘g‘inli davr va video-tahlil sifatida tashkil etgani, malaka talablarida esa ta’limiy va lingvistik o‘quv materiallarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda samarali qo‘llash talab etilgani [1, 8-b.] bu guruh topshiriqlarining asosidir.

4.1-topshiriq (kasbiy-metodik; 6-mazmun moduli; topshiriq tuzish)
Task design. Choose one cultural item you studied in this unit (e.g. afternoon tea, bank holiday, the idiom “a piece of cake”).
Design a culture comparison task for Year 7 learners (A2 level). Your task must include: 1) a learning objective (Learners will be able to …); 2) a short, adapted text or picture; 3) one question about the British item and one about a similar Uzbek item; 4) a speaking or writing activity of 5–7 minutes; 5) one sentence explaining how you avoid stereotypes.
Check your task against the four selection criteria: typicality, communicative value, cultural value, protection from stereotypes.

Ko‘rsatma: individual bajariladi (mustaqil ta’lim), keyingi mashg‘ulotda guruhda taqdim etiladi. Tanlash mezonlari A.S.Mamontov [98, 150–151-b.] ishlab chiqqan to‘rt mezonning ingliz tilidagi ifodasidir; talaba ularni nazariy tushuncha sifatida emas, o‘z topshirig‘ini tekshirish vositasi sifatida qo‘llaydi. Natija kasbiy-metodik mezonning “materialni o‘quvchi darajasiga mos tanlash” va “madaniy taqqoslash topshirig‘ini loyihalash” ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

4.2-topshiriq (kasbiy-metodik; 6-mazmun moduli; mikrodars)
Microteaching: “Greetings around the world” (5–7 minutes, Year 6, A1–A2).
Plan and teach a short lesson fragment to your group, who act as learners.
Stage 1 (1 min): lead-in with pictures of different greetings (handshake, bow, hand on heart).
Stage 2 (2 min): introduce three English greeting formulas and when to use them (formal / informal).
Stage 3 (3 min): pair practice – learners greet each other as British teenagers, then as an Uzbek pupil greeting a teacher.
Stage 4 (1 min): quick check – learners say one difference between British and Uzbek greetings.
After teaching, answer: What worked well? What would you change? Did any learner give a stereotyped answer, and how did you react?

Ko‘rsatma: mikrodars videoga yoziladi, tengdoshlar uni kasbiy-metodik mezon ko‘rsatkichlari asosidagi baholash varag‘i bilan baholaydi, talaba esa video asosida refleksiv tahlil yozadi. Fragmentda noverbal etiket o‘rganilgani A.S.Mamontov [98] paralingvistik vositalarning milliy-madaniy jihatdan belgilanganini ko‘rsatgani bilan bog‘lanadi. Natija kasbiy-metodik mezonning “madaniy mazmunni dars bosqichlariga

integratsiyalash” va “o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish” ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

4.3-topshiriq (kasbiy-metodik; 6-mazmun moduli; darslik tahlili)
Textbook evaluation. Analyse one unit of an English coursebook used in your practice school or university.
1) List the cultural content of the unit (texts, pictures, names, festivals, food, customs). 2) Which countries and cultures are represented? Is Uzbek culture or the learners’ own experience included? 3) Find one example that may create or support a stereotype. 4) Suggest one change: replace or add a picture, text or question so that learners compare the target culture with their own. 5) Present your analysis in a 3-minute talk using the frame: The unit shows … / What is missing is … / I would add …

Ko‘rsatma: guruh loyihasi sifatida bajariladi (bir hafta), natija taqdimot va yozma tahlil shaklida portfolioga kiritiladi. Topshiriq EPOSTL ning “Madaniyat” kichik bo‘limlaridagi materialni tanlash va baholash deskriptorlariga [7] hamda M.Byram [28, 53-b.] tanqidiy madaniy xabardorlik ta’rifiga tayanadi. Amaliy fanlarning asosiy adabiyotlari o‘zbek madaniyati bilan qiyoslashni ko‘zda tutmaydigan xalqaro o‘quv majmualaridan iborat ekani [8] topshiriqning kasbiy dolzarbligini belgilaydi. Natija kasbiy-metodik mezonning “lingvomadaniy natijani baholash” va “darslik va autentik materiallardagi madaniy mazmunni tanqidiy baholash” ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

Keltirilgan namunalar to‘rt guruh topshiriqlari bir-biri bilan ketma-ket bog‘langanini ko‘rsatadi. Bitta mavzuli modul doirasida, masalan, “Food, health and hospitality” modulida talaba avval “afternoon tea” realiyasi va “not my cup of tea” iborasi bilan tanishadi (bilishga oid topshiriq), so‘ng choy an’analarini uch qatlamda qiyoslaydi (2.1-topshiriq), keyin taklif va rad etish vaziyatini rolli o‘yinda va “The third cup of tea” keysida hal etadi (3.1 va 3.2-topshiriqlar), nihoyat shu materialdan 7-sinf o‘quvchilari uchun madaniy taqqoslash topshirig‘ini tuzadi (4.1-topshiriq). Bunday ketma-ketlikda bitta birlik kamida to‘rt marta, har safar murakkabroq faoliyatda qo‘llanadi; bu mashq va assimilyatsiya qonunlarining talablariga to‘liq mos keladi hamda birlikni yodlash obyektidan kasbiy foydalanish obyektiga aylantiradi.

Topshiriqlar talabalarning lingvomadaniy kompetensiya darajasiga qarab differensiallashtiriladi. Har bir topshiriq uchun yordam darajasi turlicha bo‘lgan variantlar tuziladi: past darajadagi talabaga birlikning ta’rifi, namunaviy gaplar va qiyosiy jadvalning qisman to‘ldirilgan shakli beriladi; o‘rta darajadagi talaba lug‘at va korpus yordamida birlikni mustaqil izohlaydi, ammo qiyoslash uchun yo‘naltiruvchi savollardan foydalanadi; yetarli darajadagi talaba qiyosni mustaqil bajaradi va o‘z xulosasini misollar bilan asoslaydi; yuqori darajadagi talabaga esa ochiq vazifa – yangi madaniyatlararo vaziyatni o‘zi tanlash yoki shu birlik asosida tengdoshlari uchun topshiriq tuzish taklif etiladi. Masalan, 2.2-topshiriqda past darajadagi talaba maqollar

ma’nosini berilgan izohlar bilan moslashtiradi, yuqori darajadagi talaba esa ingliz va o‘zbek maqollaridagi obrazlar tizimini qiyoslab, ulardagi qadriyat farqini ingliz tilida asoslaydi. Differensiallash natijaviy qonun talabini amalga oshiradi: har bir talaba o‘z darajasidan biroz yuqoriroq, lekin bajarilishi mumkin bo‘lgan topshiriq orqali muvaffaqiyat tajribasini oladi, baholash natijasi esa keyingi topshiriq variantini tanlash uchun asos bo‘ladi. Shu tariqa topshiriqlar tizimi baholash-natija blokidagi to‘rt daraja bilan bevosita bog‘lanadi va talabaning past darajadan yuqori darajaga o‘tish yo‘lini bosqichma-bosqich ta’minlaydi.

Topshiriqlar tizimi 3.2-jadvalda umumlashtiriladi. Jadvalda har bir guruh uchun maqsad, ustuvor rivojlantiriladigan komponent, o‘qitish shakli, metod, vosita, topshiriq turlari va baholash ko‘rsatkichi ko‘rsatilgan.

3.2-jadval

Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi

Topshiriqlar guruhi	Maqsad	Komponent	Shakl	Metod	Vosita	Namuna
Bilishga oid	birlikni kontekstda aniqlash, ma’nosi va madaniy mazmunini manba asosida izohlash, o‘zbek muqobilini qayd etish	kognitiv-lingvomadaniy; motivatsion-qadriyatli	individual, juftlik	lug‘at izlanishi, kontekstdan taxmin, konseptual xarita	lug‘atlar, korpus, autentik tasvir va video	1.1 realiyalar; 1.2 HOME konsepti; 1.3 idioma tadqiqi
Tahliliy-taqqoslash	ingliz va o‘zbek birliklari hamda an’analarini umumiy va farqlovchi belgilar bo‘yicha qiyoslash, stereotipni baholash	lingvistik-semantik; motivatsion-qadriyatli	juftlik, guruh	madaniy taqqoslash, “mahsulot – amaliyot – qarash” tahlili, stereotip tahlili	qiyosiy jadval, autentik matn, refleksiv varaq	2.1 choy an’anasi; 2.2 maqollar; 2.3 stereotip tekshiruvi
Kommunikativ-interaktiv	lingvomadaniy bilimni muloqotda qo‘llash,	madaniyatlararo kommunikativ	juftlik, guruh	rolli o‘yin, keys, intervyu, taqdimot	vaziyat kartochkalari, videoaloq	3.1 taklif va rad etish; 3.2 “The

	tushunmovchilikni bartaraf etish, o‘z madaniyatini taqdim etish				a, kuzatuv varag‘i	third cup of tea”; 3.3 videoalmashinuv
Kasbiy-metodik	lingvomadaniy materialni tanlash, topshiriqqa aylantirish, mikrodarsda qo‘llash va darslikni baholash	kasbiy-metodik (barcha komponentlarni integratsiyal aydi)	individual, guruh, loyiha	topshiriq loyihalash, mikroo‘qitish, darslik tahlili, tengdoshlar bahosi	dars fragmenti shabloni, video yozuv, baholash varag‘i, portfolio	4.1 topshiriq tuzish; 4.2 mikrodars; 4.3 darslik tahlili

3.2-jadvaldan ko‘rinadiki, to‘rt guruh topshiriqlari lingvomadaniy kompetensiyaning beshta komponentini to‘liq qamrab oladi, ularning har biri o‘z ustuvor komponenti va mezoniga ega, to‘rt o‘qitish shakli esa guruhlar orasida taqsimlangan: individual shakl bilishga oid va kasbiy-metodik, juftlik shakli birinchi uch guruh, guruh shakli tahliliy-taqqoslash, kommunikativ-interaktiv va kasbiy-metodik, loyiha shakli esa kasbiy-metodik topshiriqlarda ustunlik qiladi. Guruhlar ketma-ketligi bilimdan tahlilga, tahlildan muloqotga, muloqotdan kasbiy harakatga qarab murakkablashadi va tizimlilik hamda izchillik tamoyilining faoliyat o‘qi bo‘yicha amalga oshishini ta’minlaydi. Topshiriqlarning har biri mezon ko‘rsatkichi bilan bog‘langani esa ularni 3.3-§ da beriladigan baholash rubrikasi va tajriba-sinov ishlaridagi diagnostika vositalari bilan bevosita muvofiqlashtiradi.

Topshiriqlar tizimining amaldagi amaliyotdan farqi uch jihatda yaqqol ko‘rinadi. Amaldagi fan dasturlarida madaniy mazmun mavzuli fon sifatida, alohida taqdimot va portfolio topshiriqlari orqali beriladi [8; 20], ishlab chiqilgan tizimda esa har bir topshiriq aniq lingvomadaniy birlik, mazmun moduli va mezon ko‘rsatkichi bilan bog‘langan. Amaldagi dasturlarda o‘zbek madaniyati bilan qiyos ayrim mavzular doirasida uchraydi [8], tizimda esa qiyos har bir topshiriqning majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Nihoyat, amaldagi dasturlarda lingvomadaniy materialni o‘qitishga oid topshiriqlar faqat 6-semestrdagi maxsus kursda uchraydi [20], ishlab chiqilgan tizimda esa ikkinchi kursning har bir mavzuli moduli kasbiy-metodik topshiriq bilan yakunlanadi. A.V.Getmanskaya [143] integrallashgan kursda madaniy belgilangan leksik birliklarni standartlashtirish va variativ qo‘llashga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini qo‘llagan bo‘lsa, taklif etilayotgan tizim bu tajribani tahliliy-taqqoslash va kasbiy-metodik topshiriqlar bilan to‘ldiradi.

Paragrafda o‘tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni beradi. Lingvomadaniy ta’lim mazmuni tipiklik, kommunikativ qimmat, mamlakatshunoslik qimmati, stereotipdan himoyalanganlik, qiyoslanuvchanlik va kasbiy qo‘llanuvchanlik mezonlari asosida tanlanadi va ingliz tilining xalqaro maqomini hisobga olgan holda ko‘p variantli madaniy manzara sifatida tuziladi. Mazmun oltita mazmun moduliga – realiyalar va madaniy konseptlar, frazeologiya va idiomalar, nutq etiketi, madaniy an’analar va qadriyatlar, madaniyatlararo taqqoslash hamda lingvomadaniy materialni o‘qitish metodikasi modullariga ajratiladi va sakkiz mavzuli modul bilan matritsa hosil qiladi. Topshiriqlar bilishga oid, tahliliy-taqqoslash, kommunikativ-interaktiv va kasbiy-metodik guruhlardan iborat tizimni tashkil etadi; har bir guruhning maqsadi, ustuvor komponenti, shakli, metodi, vositasi va baholash ko‘rsatkichi belgilangan, ingliz tilidagi o‘n ikki topshiriq namunasi esa ularning amaliy ko‘rinishini ochib beradi. Tizimda har bir lingvomadaniy birlik bitta mavzuli modul doirasida to‘rt guruh topshiriqlari orqali ketma-ket qo‘llanadi, o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyos majburiy tarkibiy qism hisoblanadi va har bir modul kasbiy-metodik topshiriq bilan yakunlanadi. Ishlab chiqilgan mazmun va topshiriqlarni o‘quv jarayonida amalga oshirish texnologiyasi, ya’ni interfaol metodlar, raqamli vositalar, mashg‘ulot ssenariysi va baholash rubrikasi keyingi paragrafda asoslanadi.

3.3-§. Takomillashtirilgan metodikani amalga oshirishning interfaol va raqamli texnologiyalari

Takomillashtirilgan metodikaning mazmuni va topshiriqlar tizimi o‘quv jarayonida qanday tashkil etilishiga qarab turlicha natija beradi: bitta topshiriq frontal savol-javob shaklida bajarilganda talaba madaniy ma’lumotni qayd etish bilan cheklanadi, keys yoki simulyatsiya sifatida tashkil etilganda esa uni tahlil qiladi, muloqotda qo‘llaydi va o‘z harakatini baholaydi. Shu sababli metodikaning amalga oshishi ta’lim texnologiyalari darajasida, ya’ni maqsadga erishish uchun shakl, metod va vositalarning bosqichma-bosqich tartiblangan va takrorlanadigan majmui sifatida loyihalanadi. Lingvomadaniy ta’limda texnologiyalar ikki talabga javob berishi lozim: ular talabani madaniyatlararo vaziyatning faol ishtirokchisiga aylantirishi va xorijga chiqish imkoniyati cheklangan sharoitda autentik madaniy tajribaning o‘rnini raqamli vositalar orqali qisman qoplashi kerak. Mazkur paragrafda madaniy keys-stadi, rolli o‘yin va simulyatsiya, lingvomadaniy loyiha, autentik video va podkast bilan ishlash, raqamli portfolio va virtual madaniy almashinuv texnologiyalarining mohiyati, bosqichlari, shakl, metod va vositalari hamda o‘qituvchi va talaba rollari asoslanadi, 80 daqiqalik mashg‘ulot ssenariysi ishlab chiqiladi va besh mezon hamda to‘rt daraja asosidagi baholash rubrikasi 3.3-jadvalda taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-

tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-son qarorining 8-bandida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida “videomahsulotlardan, shu jumladan “Ibrat farzandlari” platformasidan keng foydalanishni yo‘lga qo‘ysin” deya vazifa belgilangan [16]. Ushbu vazifa raqamli video materialni xorijiy til darsining doimiy vositasiga aylantiradi va bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisidan bunday materialni madaniy mazmuni jihatidan tanlash, baholash va topshiriqqa aylantirish ko‘nikmasini talab qiladi. Demak, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda autentik video va boshqa raqamli vositalarga asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish qarorda belgilangan vazifani pedagog kadrlar tayyorlash bosqichida ta’minlashning metodik sharti hisoblanadi.

Texnologiyalarni tanlash 3.1-§ dagi model va 3.2-§ dagi topshiriqlar tizimidan kelib chiqadi. Har bir texnologiya kamida bitta topshiriqlar guruhini amalga oshirishi, lingvomadaniy kompetensiyaning muayyan komponentiga ustuvor ta’sir ko‘rsatishi va natijasi besh mezondan biri bo‘yicha o‘lchanadigan bo‘lishi lozim. A.J.Liddicoat va A.Scarino [50] madaniyatlararo til ta’limida rejalashtirish, resurslarni tanlash, texnologiyalardan foydalanish va baholashni bitta nazariy asosga – faol qurish, aloqalar o‘rnatish, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, refleksiya va mas’uliyat tamoyillariga bo‘ysundirish zarurligini ko‘rsatadi. A.N.Leontyev [97] faoliyat nazariyasiga ko‘ra esa faoliyat shaxs uchun ma’noli motivga ega bo‘lgandagina barqarorlashadi; shu bois har bir texnologiyada talabaning harakati aniq kommunikativ yoki kasbiy maqsadga ega bo‘lishi va real yoki unga yaqin vaziyatda bajarilishi talab etiladi. Ushbu talablarga oltita texnologiya javob beradi.

Madaniy keys-stadi texnologiyasi madaniyatlararo tushunmovchilik yuz bergan aniq vaziyatni tahlil qilish orqali talabaning talqin qilish, qiyoslash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uning mohiyati madaniy farqni mavhum qoida sifatida emas, ishtirokchilar kutishlari to‘qnashgan voqea sifatida taqdim etishdadir: talaba vaziyatdagi har bir ishtirokchining xatti-harakati qaysi madaniy me’yorga tayanishini aniqlaydi va har ikki tomon uchun maqbul yechimni izlaydi. M.Byram [28, 52-b.] talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmasini boshqa madaniyatga oid voqeani o‘z madaniyatidagi hodisa bilan bog‘lab tushuntirish qobiliyati sifatida ta’riflaydi; keys-stadi aynan shu ko‘nikmani mashq qilish shaklidir. Milliy amaliyotda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining madaniyatlararo muloqot kursida madaniyatlararo tushunmovchiliklarni aniqlash va bartaraf etishning besh bosqichli “RADAR” texnikasi o‘rganiladi [20]; takomillashtirilgan metodikada keys-stadi ikkinchi kursning amaliy til mashg‘ulotlariga ko‘chiriladi va qiyosiy tahlil bilan to‘ldiriladi.

Madaniy keys-stadi besh bosqichda o‘tkaziladi. Tanishish bosqichida guruh vaziyat matnini o‘qiydi yoki uning video ko‘rinishini ko‘radi va faktlarni baholashsiz tasvirlaydi. Talqin bosqichida har bir ishtirokchining kutishi va xatti-harakatining

madaniy sababi haqida bir nechta faraz bildiriladi. Qiyos bosqichida ingliz va o‘zbek madaniyatlaridagi tegishli me’yorlar umumiy va farqlovchi belgilar bo‘yicha solishtiriladi. Yechim bosqichida guruh vaziyatning har ikki tomon uchun maqbul variantini ishlab chiqadi va uni qisqa sahna ko‘rinishida namoyish etadi. Refleksiya bosqichida esa talaba bu vaziyatda o‘zi qanday harakat qilgan bo‘lishini va qaysi xulosa uning kelajakdagi o‘qituvchilik faoliyati uchun foydali ekanini yozma qayd etadi. Texnologiya guruh shaklida, keys, madaniy taqqoslash va muhokama metodlari bilan, vaziyat kartochkalari, qisqa video yoki audio yozuv va qiyosiy jadval vositalari orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi vaziyat muallifi va muhokama moderatori bo‘lib, tayyor javob bermaydi, faraz va dalillar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi; talaba tadqiqotchi va madaniyatlararo vositachi rolini bajaradi. Keys-stadi asosan madaniyatlararo kommunikativ va motivatsion-qadriyatli komponentlarni rivojlantiradi va 3.2-§ dagi “The third cup of tea” topshirig‘i uning namunasi hisoblanadi.

Rolli o‘yin va simulyatsiya texnologiyasi lingvomadaniy bilimni muloqot faoliyatiga ko‘chirishning asosiy vositasidir. Rolli o‘yinda talaba berilgan rol va vaziyat doirasida nutq etiketi formulalari va muloqot strategiyalarini qo‘llaydi; simulyatsiyada esa bir nechta ishtirokchi uzoqroq davom etadigan, oldindan to‘liq belgilanmagan vaziyatda – masalan, xalqaro yoshlar forumi, xorijlik mehmonlarni qabul qilish yoki ingliz tilidagi maktab tadbirini tashkil etish vaziyatida – birgalikda harakat qiladi. W.Littlewood [51] ijtimoiy o‘zaro ta’sir faoliyatida o‘rganuvchi til shaklining funksional ma’nosi bilan birga ijtimoiy ma’nosini ham hisobga olishi zarurligini ko‘rsatadi; lingvomadaniy rolli o‘yinda bu ijtimoiy ma’no suhbatdoshning madaniyati, yoshi va maqomi bilan belgilanadi. E.Sh.Kholmatova [46, 158-b.] bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kommunikativ strategiyalari madaniy qadriyatlar ta’sirida farqlanishini aniqlagani rolli o‘yinlarda aynan strategiya tanlovini kuzatish va muhokama qilish zarurligini asoslaydi.

Rolli o‘yin to‘rt bosqichda tashkil etiladi: tayyorgarlik bosqichida talabalar rol kartochkasi va foydali til birliklari bilan tanishadi; ijro bosqichida vaziyat juftlik yoki kichik guruhda o‘ynaladi, kuzatuvchi talaba kuzatuv varag‘ini to‘ldiradi; rollarni almashtirish bosqichida xuddi shu vaziyat teskari madaniy pozitsiyadan takrorlanadi; tahlil bosqichida esa kuzatuvchi va ishtirokchilar etiket formulalarining vaziyatga mosligi va tushunmovchilik holatlarini muhokama qiladi. Rollarni almashtirish texnologiyaning lingvomadaniy jihatdan eng samarali qismi hisoblanadi, chunki o‘zbek talabasi britaniyalik suhbatdosh rolida o‘z madaniyatidagi odatiy xatti-harakatni tashqaridan ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. Shakli – juftlik va guruh, metodlari – rolli o‘yin, simulyatsiya, kuzatuv va tengdoshlar fikri, vositalari – rol kartochkalari, kuzatuv varag‘i, zarur hollarda audio yoki video yozuv. O‘qituvchi vaziyat dizayneri va kuzatuvchi bo‘lib, o‘yin davomida aralashmaydi; talaba ijrochi, kuzatuvchi va

tahlilchi rollarini navbat bilan bajaradi. Texnologiya madaniyatlararo kommunikativ komponentni rivojlantiradi va natija shu nomdagi mezon bo‘yicha baholanadi.

Lingvomadaniy loyiha texnologiyasi bir mavzuli modul davomida talabalar guruhi tomonidan bajariladigan, aniq mahsulot bilan yakunlanadigan tadqiqot-ijodiy faoliyatdir. Loyiha mavzusi har doim ikki madaniyatni qiyoslashni va kasbiy mahsulot yaratishni nazarda tutadi: masalan, “Hospitality in Britain and Uzbekistan” taqdimoti, “Festivals of the English-speaking world and Navro‘z” mavzusidagi o‘quv videoroligi yoki 6–7-sinf o‘quvchilari uchun madaniy taqqoslash topshiriqlari to‘plami. A.V.Getmanskaya [143] integrallashgan kursning har bir siklini madaniyatshunoslik loyihasi bilan yakunlab, loyiha ustidagi ishni tayyorgarlik, ijro va yakuniy bosqichlarda tashkil etgan; tadqiqotimizda bu tuzilmaga refleksiv bosqich qo‘shiladi. Tayyorgarlik bosqichida guruh mavzu, mahsulot turi va rollarni belgilaydi, manbalar ro‘yxatini tuzadi; ijro bosqichida ma’lumot yig‘iladi, lingvomadaniy birliklar tanlanadi va qiyosiy tahlil o‘tkaziladi; yakuniy bosqichda mahsulot guruh oldida himoya qilinadi; refleksiv bosqichda esa har bir ishtirokchi o‘z hissasi va o‘rgangan narsalari haqida portfolioga yozadi.

Loyiha texnologiyasi loyiha shaklida, tadqiqot, madaniy taqqoslash va taqdimot metodlari bilan, onlayn hamkorlik hujjatlari, taqdimot va video tahrirlash dasturlari hamda raqamli portfolio vositalari orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi loyiha maslahatchisi va resurs manbai bo‘lib, bosqichlar muddatini nazorat qiladi va himoya mezonlarini oldindan e’lon qiladi; talaba tadqiqotchi, muallif va taqdimotchi rolini bajaradi, guruh ichida esa rollar taqsimlanadi (koordinator, manbalar bo‘yicha mas’ul, tahlilchi, dizayner). Loyiha barcha besh komponentni integratsiyalaydi: mavzuni tanlash va qiyoslash motivatsion-qadriyatli va kognitiv-lingvomadaniy komponentlarni, birliklarni tahlil qilish lingvistik-semantik komponentni, himoya va muhokama madaniyatlararo kommunikativ komponentni, o‘quvchilar uchun mahsulot yaratish esa kasbiy-metodik komponentni rivojlantiradi. Shu bois loyiha natijasi rubrikaning bir nechta mezoni bo‘yicha baholanadi.

Autentik video va podkast bilan ishlash texnologiyasi intensivlik qonuniga tayanadi: yorqin, real tajriba odatiy va ta’sirsiz tajribaga nisbatan yaxshiroq va uzoqroq esda qoladi [36]. Autentik video va podkast madaniyatni jonli nutq, intonatsiya, noverbal vositalar va real muhit bilan birga taqdim etadi, shu sababli u madaniy belgilangan birliklarni o‘z kontekstida ko‘rsatishning eng tabiiy vositasi hisoblanadi. Material A.S.Mamontov [98, 150–151-b.] ishlab chiqqan tipiklik, kommunikativ qimmat, mamlakatshunoslik qimmati va stereotipdan himoyalanganlik mezonlari bo‘yicha tanlanadi, chunki yorqin, ammo nostandart vaziyat aks etgan video o‘rganuvchida kamyob hodisani keng tarqalgan deb qabul qilish xavfini tug‘diradi [98]. Davomiyligi 3–6 daqiqadan oshmaydigan parchalar tanlanadi, ularning transkripti va zarur hollarda subtitri tayyorlanadi.

Video va podkast bilan ishlash uch bosqichda tashkil etiladi. Koʻrishdan oldingi bosqichda talabalar mavzu boʻyicha taxmin bildiradi, asosiy lingvomadaniy birliklar bilan tanishadi va koʻrish vazifasini oladi. Koʻrish davomidagi bosqichda ular realiyalar, etiket formulalari va noverbal xatti-harakatlarni qayd etadi, ikkinchi koʻrishda esa aniq savollarga javob izlaydi. Koʻrishdan keyingi bosqichda koʻrilgan madaniy hodisa oʻzbek madaniyatidagi muqobil bilan qiyoslanadi va unga asoslangan kommunikativ yoki kasbiy-metodik topshiriq bajariladi. Shakli – individual va juftlik, metodlari – autentik matn tahlili, kontekstdan ma’noni aniqlash va madaniy taqqoslash, vositalari – video va podkast parchalari, transkript, koʻrish varagʻi, korpus va lugʻatlar. Oʻqituvchi materialni tanlovchi va yoʻnaltiruvchi, talaba esa faol kuzatuvchi va tahlilchi hisoblanadi. Texnologiyaning kasbiy jihati alohida oʻrin tutadi: PQ-239-son qarorda ta’lim muassasalarida xorijiy til darslarida videomahsulotlardan keng foydalanish talab etilgani [16] boʻlajak oʻqituvchiga video materialni oʻquvchilar yoshi va darajasiga moslashtirish, unga koʻrish varagʻi tuzish va madaniy mazmunini stereotip nuqtai nazaridan tekshirish koʻnikmasini egallashni zarur qiladi; shuning uchun ikkinchi kurs talabalari har bir modulda bitta videoparcha uchun maktab oʻquvchilariga moʻljallangan koʻrish varagʻini ham tayyorlaydi.

Raqamli portfolio texnologiyasi talabaning lingvomadaniy rivojini butun ikki semestr davomida hujjatlashtirish, refleksiya qilish va baholash vositasidir. Portfolio elektron oʻquv platformasida yuritiladi va toʻrt boʻlimdan iborat boʻladi: shaxsiy lingvomadaniy lugʻat (har bir modul boʻyicha realiyalar, frazeologizmlar va konseptlar, ularning izohi va oʻzbek tilidagi muqobili); qiyosiy tahlillar va loyiha mahsulotlari; kasbiy-metodik ishlanmalar (oʻquvchilar uchun topshiriqlar, koʻrish varaqlari, mikrodars videolari va ularning tahlili); refleksiv yozuvlar va oʻz-oʻzini baholash varaqlari. Oʻz-oʻzini baholash boʻlimi boʻlajak til oʻqituvchilari uchun Yevropa portfoliosining metodologiya va baholash boʻlimlaridagi “Madaniyat” kichik boʻlimlari [7] asosida moslashtiriladi. PQ-289-son qarorda “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” axborot tizimida elektron oʻquv dasturlar, multimedia ta’lim mahsulotlari va boshqa kontentlarni joylashtirish vazifasi qoʻyilgani [15] portfolioni oliy ta’lim muassasasining elektron muhitida yuritish uchun me’yoriy asos yaratadi.

Portfolio bilan ishlash har bir mavzuli modul boʻyicha takrorlanadigan uch bosqichdan iborat: toʻplash bosqichida talaba modul materiallarini va oʻz ishlarini portfolioga joylaydi; tanlash va refleksiya bosqichida modul yakunida eng muvaffaqiyatli va eng qiyin boʻlgan ishini tanlab, qisqa refleksiv izoh yozadi; baholash bosqichida oʻqituvchi va talaba birgalikda rubrika boʻyicha natijani aniqlaydi va keyingi modul uchun maqsad belgilaydi. Semestr oxirida portfolio himoya qilinadi. Shakli – individual, metodlari – refleksiv yozuv, oʻz-oʻzini baholash va maslahat suhbati, vositalari – elektron platforma, shablonlar va rubrika. Oʻqituvchi maslahatchi va qayta aloqa beruvchi, talaba esa oʻz rivojining mas’ul subyekti hisoblanadi.

D.K.Deardorff [32, 254-b.] madaniyatlararo kompetensiyani bilim, ko‘nikma va munosabatlarga asoslangan, ichki va tashqi natijalarda namoyon bo‘ladigan ta’lim natijasi sifatida bir nechta usul bilan baholash zarurligini asoslaydi; portfolio ana shunday ko‘p usulli baholashning yig‘ma vositasi bo‘lib, motivatsion-qadriyatli komponentni o‘lchashning ham asosiy manbaidir. N.B.Nazarova, S.O.Uyto‘lsinova va M.B.Abbosova [133] o‘quv qo‘llanmasidagi refleksiv topshiriqlar portfolioning refleksiv bo‘limini to‘ldiradi.

Virtual madaniy almashinuv texnologiyasi ingliz tilida so‘zlashuvchi yoki ingliz tilini xalqaro muloqot vositasi sifatida qo‘llaydigan boshqa mamlakatlar talabalari bilan videoaloqa, onlayn forum va hamkorlik loyihasi orqali muntazam muloqotni tashkil etadi. E.Sh.Kholmatova [46, 157–158-b.] immersiv tajribaning bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari lingvomadaniy kompetensiyasiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatib, xorijda o‘qish va madaniy almashinuvni o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga kiritishni tavsiya etadi; xorijga chiqish barcha talabalar uchun ochiq bo‘lmagan sharoitda virtual almashinuv bu tajribaning qisman o‘rnini bosuvchi va hamma uchun ochiq shakl hisoblanadi. W.Baker [24] ingliz tili lingva franka sifatida qo‘llanadigan muloqotda madaniyatlararo xabardorlikni asoslagani almashinuv hamkorlarini faqat Buyuk Britaniya yoki AQSh bilan cheklamaslik, ingliz tilida muloqot qiluvchi turli mamlakatlar talabalarini jalb etish mumkinligini ko‘rsatadi. PQ-239-son qarorda dunyoning yetakchi markazlari va oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilangani [16] bunday almashinuvning tashkiliy asosini yaratadi.

Virtual almashinuv to‘rt bosqichda amalga oshiriladi: tayyorgarlik bosqichida hamkor guruh bilan mavzu va jadval kelishiladi, talabalar savollar va o‘z madaniyati haqidagi qisqa taqdimot tayyorlaydi; muloqot bosqichida juftlik yoki kichik guruhlar 20–30 daqiqalik videoaloqa o‘tkazadi; tahlil bosqichida talabalar suhbatda uchragan madaniy belgilangan birliklar va kutilmagan farqlarni qayd etib, guruhda muhokama qiladi; mahsulot bosqichida esa qisqa hisobot, qiyosiy jadval yoki qo‘shma loyiha tayyorlanadi. Mavzular mavzuli modullar bilan muvofiqlashtiriladi: “Family traditions” modulida oilaviy bayramlar, “Education” modulida maktab hayoti, “Leisure and sport” modulida bo‘sh vaqt va sport an’analari muhokama qilinadi. Shakli – juftlik, guruh va loyiha, metodlari – intervyu, taqdimot, muhokama va qiyosiy tahlil, vositalari – videoaloqa platformasi, onlayn forum, hamkorlik hujjatlari va portfolio. O‘qituvchi hamkorlik tashkilotchisi va muloqot madaniyati hamda shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi qoidalarining kafolatchisi bo‘lib, videoaloqani yozib olish faqat barcha ishtirokchilarning roziligi bilan amalga oshiriladi; talaba madaniyat vakili, suhbatdosh va tadqiqotchi rolini bajaradi.

Oltita texnologiya o‘zaro to‘ldiruvchi tizim hosil qiladi va 3.2-§ dagi to‘rt topshiriqlar guruhiga taqsimlanadi. Autentik video va podkast bilan ishlash asosan bilishga oid va tahliliy-taqqoslash topshiriqlarini, madaniy keys-stadi tahliliy-

taqqoslash va kommunikativ-interaktiv topshiriqlarni, rolli o‘yin va simulyatsiya hamda virtual almashinuv kommunikativ-interaktiv topshiriqlarni, lingvomadaniy loyiha barcha guruhlarni, raqamli portfolio esa barcha topshiriqlar natijalarini birlashtiradi. Kasbiy-metodik topshiriqlar har bir texnologiyaning yakunlovchi bosqichida bajariladi: keysdan keyin talaba shu vaziyatni o‘quvchilar uchun soddalashtiradi, videodan keyin ko‘rish varag‘ini tuzadi, loyiha natijasini maktab uchun material sifatida rasmiylashtiradi. Mikroo‘qitish alohida texnologiya sifatida ajratilmaydi, chunki u har bir texnologiyaning kasbiy yakunida qo‘llanadi; N.M.Axmedova [122] mikroo‘qitishni olti bo‘g‘inli davr va video-tahlil sifatida tashkil etgani bu yakuniy bosqich tuzilmasi uchun asosdir. Texnologiyalarning tavsifi 3.4-jadvalda umumlashtiriladi.

Takomillashtirilgan metodikaning amalga oshishini bitta mashg‘ulot misolida ko‘rsatish uchun 80 daqiqalik amaliy mashg‘ulot ssenariysi ishlab chiqiladi. Mashg‘ulot “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” fani doirasida ikkinchi kursning 4-semestrida, “Food, health and hospitality” mavzuli modulining ikkinchi mashg‘uloti sifatida o‘tkaziladi. Mavzu – “Tea, hospitality and politeness in Britain and Uzbekistan”. Talabalarning til darajasi B2 ga yaqin deb hisoblanadi; oldingi mashg‘ulotda ular “afternoon tea”, “Sunday roast” realiyalari va “not my cup of tea” iborasi bilan tanishgan. Mashg‘ulotning umumiy maqsadi talabalarda choy va mehmondorchilik an’analari misolida lingvomadaniy kompetensiyaning besh komponentini kompleks rivojlantirishdir.

Mashg‘ulotning aniq maqsadlari besh komponent bo‘yicha belgilanadi: talabalar ingliz va o‘zbek mehmondorchilik an’analariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi va stereotipli umumlashmalardan qochadi (motivatsion-qadriyatli); “afternoon tea”, “cream tea”, “builder’s tea”, “cuppa” realiyalarining ma’nosi va qo‘llanishini biladi (kognitiv-lingvomadaniy); “not my cup of tea”, “a storm in a teacup”, “fancy a cuppa?”, “put the kettle on” birliklarining ma’nosi va madaniy motivini izohlaydi (lingvistik-semantik); mehmondorchilik vaziyatida taklif qilish, qabul qilish va muloyim rad etish formulalarini suhbatdosh madaniyatiga mos qo‘llaydi (madaniyatlararo kommunikativ); 7-sinf o‘quvchilari uchun choy an’analarini qiyoslashga bag‘ishlangan besh daqiqalik topshiriq loyihasini tuzadi (kasbiy-metodik). Jihozlar: proyektor va ekran, uch daqiqalik autentik videoparcha (Britaniyadagi afternoon tea an’anasi haqida, ochiq ta’lim resursidan) va uning transkripti, tarqatma materiallar, rol kartochkalari, elektron platformadagi portfolio sahifasi.

Birinchi bosqich – tashkiliy va motivatsion kirish (5 daqiqa). O‘qituvchi ekranda uchta fotosuratni – Britaniyadagi afternoon tea dasturxoni, o‘zbek choyxonasi va ish stolidagi bir krujka choyni – ko‘rsatadi va juftlikda qisqa muhokama tashkil etadi. Bosqichning vazifasi talabalarning mavjud tasavvurlarini oshkor qilish va mavzuga

qiziqish uyg‘otishdir; shakli – juftlik, metodi – vizual stimul asosidagi muhokama, vositasi – taqdimot slaydi.

1-material. Warm-up (pair work, 5 minutes)
Look at the three photos and discuss with your partner:
1) Where and when do you think each photo was taken? Who might be drinking the tea?
2) What does tea mean in each situation – a meal, a break, a social event, a sign of hospitality?
3) Which photo is closest to your family’s tradition? Why?

Ikkinchi bosqich – autentik video bilan ishlash (15 daqiqa). Ko‘rishdan oldin (3 daqiqa) talabalar video mazmuni haqida taxmin bildiradi va ko‘rish varag‘ini oladi; birinchi ko‘rishda (4 daqiqa) umumiy mazmunni, ikkinchi ko‘rishda (4 daqiqa) aniq ma’lumot va til birliklarini qayd etadi; ko‘rishdan keyin (4 daqiqa) javoblar juftlikda tekshiriladi va guruhda umumlashtiriladi. Shakli – individual va juftlik, metodi – autentik matn tahlili, vositasi – videoparcha, transkript va ko‘rish varag‘i. Bosqich kognitiv-lingvomadaniy komponentga yo‘naltirilgan va intensivlik qonunini amalga oshiradi.

2-material. Video worksheet
Before watching: What do you already know about afternoon tea? Write down three words you expect to hear.
First viewing: What is the main idea of the video? Choose one: a) the history of tea in Britain; b) how afternoon tea is served today; c) why British people prefer coffee.
Second viewing: 1) What food is usually served with afternoon tea? 2) At what time of day does it take place? 3) Is afternoon tea an everyday habit or a special occasion for most people? 4) Write down two polite phrases the host or guests use.
After watching: Compare: Which elements of afternoon tea are similar to an Uzbek dasturxon for guests, and which are different?

Uchinchi bosqich – lingvomadaniy birliklar bilan ishlash (15 daqiqa). Talabalar videoda va tarqatma materialda uchragan realiyalar va iboralarni moslashtirish topshirig‘ini individual bajaradi (5 daqiqa), so‘ng juftlikda har bir birlikning madaniy motivini va o‘zbek tilidagi muqobili yoki lakunasini aniqlaydi (6 daqiqa), natijalar guruhda tekshiriladi (4 daqiqa). Shakli – individual va juftlik, metodi – kontekstdan ma’noni aniqlash va qiyosiy izohlash, vositasi – tarqatma varaq va lug‘atlar. Bosqich lingvistik-semantik va kognitiv-lingvomadaniy komponentlarni rivojlantiradi.

3-material. Language focus: tea in English
Match the expressions with their meanings and decide whether Uzbek has an equivalent (✓), a partial equivalent (≈) or no equivalent (–):
1) a cuppa 2) builder’s tea 3) cream tea 4) Fancy a cuppa? 5) Put the kettle on. 6) not my cup of tea 7) a storm in a teacup

a) strong tea with milk, often in a mug; b) Would you like a cup of tea? (informal); c) something I do not like or am not interested in; d) a cup of tea (informal); e) tea served with scones, cream and jam; f) a lot of anger or worry about something unimportant; g) Let’s make some tea (often said to start a friendly chat).

Discuss: Why do so many everyday English expressions contain the word “tea”? Which Uzbek expressions with “choy” or “dasturxon” can you think of?

To‘rtinchi bosqich – madaniy taqqoslash (12 daqiqa). Talabalar uch kishilik guruhlarga bo‘linib, britaniya afternoon tea an’anasini va o‘zbek mehmondorchiligidagi choy marosimini “mahsulotlar – amaliyotlar – qarashlar” tuzilmasi bo‘yicha qiyoslaydi (8 daqiqa) va har bir guruh bitta asosiy o‘xshashlik va bitta asosiy farqni guruhga taqdim etadi (4 daqiqa). Qiyos ACTFL/CAEP standartlaridagi uch qatlamli tahlilga [3] va A.S.Mamontov [98] asoslagan umumiy belgilar fonida farqni ochish qoidasiga tayanadi. O‘qituvchi taqdimotlarda uchragan stereotipli umumlashmalarni qayd etib, ularni aniqroq ifodaga aylantirishni so‘raydi. Bosqich motivatsion-qadriyatli va lingvistik-semantik komponentlarga yo‘naltirilgan.

4-material. Comparison frame (group work)

Products: What is on the table? What objects are used (teapot, cups, piyola, sweets, bread)?

Practices: Who serves the tea? How is it poured? How many times? How long does the visit last? What do guests and hosts say?

Perspectives: What values does the tradition express (respect, generosity, privacy, social class, time)?

Report: “Both in Britain and in Uzbekistan tea is … However, in Britain …, whereas in Uzbekistan …”

Check your language: avoid words like always, never, all British people, every Uzbek family. Use: often, many people, it is common to, in some families.

Beshinchi bosqich – madaniy keys va rolli o‘yin (15 daqiqa). Guruhlar 3.2-§ dagi “The third cup of tea” keysini madaniy keys-stadi texnologiyasining tanishish, talqin va qiyos bosqichlari bo‘yicha tahlil qiladi (7 daqiqa), so‘ng juftliklar rol kartochkalari asosida vaziyatning yaxshilangan variantini o‘ynaydi va rollarni almashtiradi (6 daqiqa); ikkita juftlik o‘z variantini guruh oldida namoyish etadi, kuzatuvchilar kuzatuv varag‘i bo‘yicha qisqa fikr bildiradi (2 daqiqa). Shakli – guruh va juftlik, metodlari – keys, rolli o‘yin va kuzatuv, vositalari – keys matni, rol kartochkalari va kuzatuv varag‘i. Bosqich madaniyatlararo kommunikativ komponentni rivojlantiradi.

5-material. Role cards

Student A (host): You are an Uzbek student. Your British teacher, Mark, is visiting your family. Offer him tea and sweets, explain why the host pours only a little tea each time, and make sure he feels welcome but not forced to drink more than he wants.

Student B (guest): You are Mark, a British teacher. You enjoy the visit, but you do not want more tea. Refuse politely, show that you appreciate the hospitality and ask one question about Uzbek tea traditions.
Useful language: Would you like some more tea? / Please, help yourself. / That’s very kind of you, but I’m fine, thank you. / I’ve had plenty, it was lovely. / Could you tell me why …?
Observer’s checklist: Were the phrases polite and suitable? Did the guest show appreciation? Did the host explain the custom clearly? Was there any misunderstanding?

Oltinchi bosqich – kasbiy-metodik mini-topshiriq (10 daqiqa). Juftliklar mashg‘ulot materialidan foydalanib, 7-sinf o‘quvchilari uchun choy an’analarini qiyoslashga bag‘ishlangan besh daqiqalik topshiriq loyihasini tuzadi (7 daqiqa) va ikki juftlik o‘z loyihasini qisqacha taqdim etadi (3 daqiqa). O‘qituvchi loyihalarni topshiriqni tanlash mezonlari asosida izohlaydi. Shakli – juftlik, metodi – topshiriq loyihalash va tengdoshlar fikri, vositasi – loyiha kartochkasi. Bosqich kasbiy-metodik komponentni rivojlantiradi va nazariya bilan amaliyot birligi tamoyilini amalga oshiradi; to‘liq mikrodars mustaqil ta’lim sifatida keyingi mashg‘ulotda o‘tkaziladi.

6-material. Task design card
Design a 5-minute activity for Year 7 learners (A2) about tea traditions in Britain and Uzbekistan.
Learning objective: Learners will be able to …
Material: one picture or a short text of 3–4 sentences (adapt the language).
Activity: what learners do, in pairs or groups.
Comparison question: one question about Britain and one about Uzbekistan.
Check: Is the content typical? Is it useful for communication? Does it avoid stereotypes?

Yettinchi bosqich – refleksiya va baholash (6 daqiqa). Talabalar “3–2–1” chiqish varag‘ini to‘ldiradi va bugungi ishini rubrikaning ikki mezoni bo‘yicha o‘zi baholaydi; varaq elektron portfolioga yuklanadi. O‘qituvchi kuzatuv varaqlari va chiqish varaqlari asosida guruh natijasini qisqacha umumlashtiradi va keyingi mashg‘ulot uchun maqsadni belgilaydi. Shakli – individual, metodlari – refleksiv yozuv va o‘z-o‘zini baholash, vositalari – chiqish varag‘i, rubrika va raqamli portfolio. Bosqich natijaviy qonun talabini amalga oshiradi: talaba o‘z natijasi haqidagi axborotni darhol oladi.

7-material. Exit ticket (3–2–1)
3 – Write three new words or expressions you learnt today and their meanings.
2 – Write two differences between British and Uzbek tea traditions without using stereotypes.
1 – Write one question you would like to ask a British person about tea or hospitality.
Self-assessment: Choose your level (past / o‘rta / yetarli / yuqori) for the linguistic-semantic and the intercultural communicative criteria and give one reason.

Sakkizinchi bosqich – uy vazifasini tushuntirish (2 daqiqa). Talabalar uyda uch topshiriqni bajaradi: lingvomadaniy lug‘atga mashg‘ulotdagi yetti birlikni izoh va o‘zbek muqobili bilan kiritadi; 6-material asosidagi loyihani to‘liq ko‘rish varag‘i yoki topshiriq ko‘rinishiga keltirib, keyingi mashg‘ulotda mikrodars sifatida o‘tkazishga tayyorlanadi; virtual almashinuv hamkori bilan bo‘ladigan navbatdagi suhbat uchun “hospitality” mavzusida uchta savol tayyorlaydi. Mashg‘ulot bosqichlarining vaqt bo‘yicha taqsimoti 5 + 15 + 15 + 12 + 15 + 10 + 6 + 2 = 80 daqiqani tashkil etadi. Ssenariyda lingvomadaniy kompetensiyaning barcha besh komponenti, to‘rt o‘qitish shakli, to‘rt topshiriqlar guruhi va oltita texnologiyadan to‘rttasi – autentik video, keys-stadi, rolli o‘yin va raqamli portfolio qo‘llanadi, lingvomadaniy loyiha va virtual almashinuv esa uy vazifasi orqali mashg‘ulot bilan bog‘lanadi.

Mashg‘ulotda va butun metodika davomida natija yagona baholash rubrikasi asosida aniqlanadi. Rubrika baholash-natija blokidagi besh mezon va to‘rt daraja bilan aynan bir xil bo‘lib, har bir mezon bo‘yicha darajalar 1.2-jadvaldagi ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish sifati orqali tavsiflanadi; darajaga ball mos qo‘yiladi: past – 1, o‘rta – 2, yetarli – 3, yuqori – 4. Rubrika uch maqsadda qo‘llanadi: o‘qituvchi tomonidan joriy va yakuniy baholashda, talabaning portfoliodagi o‘z-o‘zini baholashida va tengdoshlar bahosida. Bir xil rubrikaning barcha baholovchilar tomonidan qo‘llanishi natijalarning taqqoslanuvchanligini ta’minlaydi va tajriba-sinov ishida diagnostika natijalarini talqin qilish uchun yagona asos bo‘ladi. Rubrika 3.3-jadvalda keltiriladi.

3.3-jadval

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvomadaniy kompetensiyasini baholash rubrikasi

Mezon	Past (1)	O‘rta (2)	Yetarli (3)	Yuqori (4)
Motivatsion-qadriyatli	madaniyatlarga qiziqish vaziyatli; madaniy farqlarni baholovchi yoki stereotipli izohlaydi; milliy madaniyatni qiyosga jalb etmaydi; lingvomadaniy bilimni kasbiy zarur deb bilmaydi	qiziqish o‘qituvchi rag‘batida namoyon bo‘ladi; farqlarga ochiq, ammo ayrim umumlashmalarda stereotip uchraydi; milliy o‘zlikni deklarativ tilga oladi	barqaror qiziqish va mustaqil izlanish; farqlarni stereotipsiz izohlaydi; o‘z madaniyatini qadrlagan holda qiyoslaydi; lingvomadaniy bilimning kasbiy ahamiyatini asoslaydi	ichki motivatsiya va noaniqlikka bardosh; refleksiyada o‘z munosabati o‘zgarishini dalillaydi; stereotiplarni tanqidiy muhokama qiladi; mustaqil izlanish portfolioda muntazam aks etadi

Kognitiv-lingvomadaniy	bilimlar parcha-parcha; realiya va fon bilimlarni ajratmaydi; kalit tushunchalarni bilmaydi; o‘zbek madaniyati bilan qiyosiy bilim yo‘q	asosiy realiyalarni biladi; konseptlarni yuzaki tushunadi; lingvokulturologiya tushunchalarini qisman qo‘llaydi; qiyosiy bilim tarqoq	bilimlar tizimli va to‘liq; realiya va konseptlarni to‘g‘ri izohlaydi; tayanch tushunchalarni qo‘llaydi; o‘zbek madaniyatining muqobil hodisalarini biladi	bilimlar keng va tizimli; ingliz tilining turli madaniy variantlarini farqlaydi; manbaga tayanib umumlashtiradi; qiyosiy bilimni mustaqil kengaytiradi
Lingvistik-semantik	madaniy belgilangan birlikni matnda aniqlamaydi; so‘zma-so‘z talqin qiladi; frazeologizm motivini izohlay olmaydi	birlikni aniqlaydi va denotativ ma’nosini beradi; motiv va lakunani yordam bilan izohlaydi; o‘zbek muqobilini qisman topadi	denotativ va konnotativ ma’noni farqlaydi; motiv va lakunani mustaqil aniqlaydi; ingliz va o‘zbek birliklarini asosli qiyoslaydi	kontekstga qarab ma’no o‘zgarishini tushuntiradi; izohlash yoki o‘girish yo‘lini asoslaydi; yangi matnda birliklarni mustaqil tahlil qiladi
Madaniyatlararo kommunikativ	etiket formulalarini vaziyatga mos tanlamaydi; noverbal vositalarni hisobga olmaydi; tushunmovchilikni payqamaydi; o‘z madaniyatini ingliz tilida taqdim eta olmaydi	namunaviy vaziyatda formulalarni to‘g‘ri qo‘llaydi, yangi vaziyatda qiynaladi; tushunmovchilikni yordam bilan aniqlaydi; o‘z madaniyatini qisqa va sodda taqdim etadi	vaziyat va suhbatdosh maqomiga mos strategiya tanlaydi; tushunmovchilikni aniqlab bartaraf etadi; o‘z madaniyatini tushunarli izohlaydi	yangi vaziyatda moslashuvchan muloqot qiladi; noverbal vositalarni hisobga oladi; madaniyatlar o‘rtasida vositachilik qiladi
Kasbiy-metodik	materialni o‘quvchi darajasiga moslay olmaydi; topshiriqda madaniy maqsad yo‘q; baholash va	namuna asosida topshiriq tuzadi; qiyosiy qatlam zaif; dars bosqichiga integratsiya rasmiy;	mos material tanlaydi; qiyosli topshiriq loyihalaydi va dars bosqichiga integratsiyalaydi; baholash	original va stereotipdan himoyalangan topshiriq yaratadi; darslikdagi madaniy

	refleksiya qilinmaydi	refleksiya umumiy	ko‘rsatkichini belgilaydi; refleksiya aniq	mazmunni tanqidiy baholaydi; refleksiya asosida loyihani qayta quradi

3.3-jadvaldagi tavsiflar darajalarni uch o‘lchov bo‘yicha farqlaydi: mustaqillik darajasi (yordam bilan bajarishdan mustaqil va ijodiy bajarishgacha), qiyosiy qatlamning chuqurligi (qiyossiz yoki deklarativ qiyosdan asosli va tanqidiy qiyosgacha) hamda ko‘chirish ko‘lami (namunaviy vaziyatdan yangi vaziyat va kasbiy faoliyatgacha). Bu o‘lchovlar 2.2-§ da ko‘rsatilgan ta’lim qonunlari mantig‘iga mos keladi: past darajada birlik kontekstdan ajralgan holda yodlanadi, o‘rta darajada kontekst bilan bog‘lanadi, yetarli darajada o‘xshash vaziyatlarga ko‘chiriladi, yuqori darajada esa yangi madaniyatlararo vaziyatda ijodiy qo‘llanadi va o‘quvchilar uchun topshiriqqa aylantiriladi. CEFR qo‘shimcha jildidagi plyurimadaniy repertuarga tayanish shkalasi ham madaniy kompetensiyani oddiy farqlarni payqashdan madaniy konvensiyalarni talqin qilish va ular haqida muloqot yuritishgacha bo‘lgan darajalar orqali tavsiflaydi [4, 123–125-b.]; rubrika bu mantiqni lingvistik-semantik va kasbiy-metodik mezonlar bilan to‘ldiradi.

Rubrika diagnostika vositalari bilan quyidagicha bog‘lanadi: motivatsion-qadriyatli mezon so‘rovnoma va portfoliodagi refleksiv yozuvlar, kognitiv-lingvomadaniy mezon lingvomadaniy bilimlar testi, lingvistik-semantik mezon autentik matnda birliklarni aniqlash va izohlash topshirig‘i, madaniyatlararo kommunikativ mezon rolli vaziyat va keysni kuzatish, kasbiy-metodik mezon esa dars fragmenti loyihasi va mikrodars bo‘yicha baholanadi. Talabaning har bir mezon bo‘yicha darajasi shu vositalar natijasida aniqlanadi, umumiy lingvomadaniy kompetensiya darajasi esa besh mezon ballari asosida belgilanadi; ballar oralig‘ining darajalarga aylantirilish tartibi tajriba-sinov ishlarida belgilanadi. Rubrika ekspert baholashning izchilligini ta’minlash uchun ham qo‘llanadi: tajriba-sinov ishida ishtirok etuvchi professor-o‘qituvchilar uni oldindan bir xil namunalar ustida sinab ko‘radi va tavsiflarni bir xil talqin qilishga kelishib oladi.

Texnologiyalarning asosiy tavsiflari 3.4-jadvalda umumlashtiriladi.

3.4-jadval

Takomillashtirilgan metodikani amalga oshirish texnologiyalari

Texnologiya	Topshiriqlar guruhi	Ustuvor komponent	Shakl	Metod va vosita	O‘qituvchi va talaba roli

Madaniy keys-stadi	tahliliy-taqqoslash; kommunikativ-interaktiv	madaniyatlararo kommunikativ; motivatsion-qadriyatli	guruh	keys, madaniy taqqoslash, muhokama; vaziyat kartochkasi, video, qiyosiy jadval	moderator – tadqiqotchi va vositachi
Rolli o‘yin va simulyatsiya	kommunikativ-interaktiv	madaniyatlararo kommunikativ	juftlik, guruh	rolli o‘yin, simulyatsiya, kuzatuv; rol kartochkasi, kuzatuv varag‘i	vaziyat dizayneri va kuzatuvchi – ijrochi, kuzatuvchi, tahlilchi
Lingvomadaniy loyiha	barcha guruhlar	barcha komponentlar	loyiha, guruh	tadqiqot, taqqoslash, taqdimot; onlayn hujjatlar, video tahrirlash	maslahatchi – tadqiqotchi, muallif, taqdimotchi
Autentik video va podkast	bilishga oid; tahliliy-taqqoslash; kasbiy-metodik	kognitiv-lingvomadaniy; lingvistik-semantik	individual, juftlik	autentik matn tahlili; videoparcha, transkript, ko‘rish varag‘i	material tanlovchi – faol kuzatuvchi va tahlilchi
Raqamli portfolio	barcha guruhlar natijalari	motivatsion-qadriyatli; kasbiy-metodik	individual	refleksiv yozuv, o‘z-o‘zini baholash; elektron platforma, rubrika	maslahatchi – o‘z rivojining subyekti
Virtual madaniy almashinuv	kommunikativ-interaktiv; loyiha	madaniyatlararo kommunikativ; kognitiv-lingvomadaniy	juftlik, guruh, loyiha	intervyu, taqdimot, muhokama; videoaloqa, forum	hamkorlik tashkilotchisi – madaniyat vakili va suhbatdosh

3.4-jadvaldan ko‘rinadiki, oltita texnologiya to‘rt topshiriqlar guruhini va besh komponentni to‘liq qamrab oladi, to‘rt o‘qitish shakli ular orasida taqsimlangan, o‘qituvchi roli esa barcha texnologiyalarda bilim manbaidan tashkilotchi, moderator va maslahatchiga o‘zgaradi. Texnologiyalarni joriy etishning muayyan shartlari ham mavjud. Raqamli vositalardan foydalanish auditoriyaning internet va proyektor bilan ta’minlanishini, talabalarning elektron platformaga kirish imkoniyatini va virtual almashinuv uchun hamkor guruhlar mavjudligini talab qiladi; bunday imkoniyat

cheklangan hollarda videoparchalar oldindan yuklab olinadi, virtual almashinuv esa elektron yozishma yoki yozib olingan video xabarlar almashinuvi bilan almashtiriladi. Professor-o‘qituvchilarning texnologiyalarni egallashi ham shart hisoblanadi; D.Naimova [53, 189-b.] multimadaniy muhitda ishlovchi o‘qituvchilar malakasini oshirish zarurligini ta’kidlagani metodikani joriy etishdan oldin kafedra doirasida texnologiyalar va rubrika bo‘yicha metodik seminar o‘tkazish talabini asoslaydi.

Texnologiyalarni qo‘llashda bir qator xatarlar ham hisobga olinadi. Autentik video yorqinligi uchun tanlanib, stereotipni kuchaytirishi mumkin; bu xatar materialni tanlash mezonlari va tahliliy-taqqoslash topshiriqlari bilan cheklanadi. Rolli o‘yin va keys madaniy farqni hazil yoki ekzotika obyektiga aylantirib qo‘yishi mumkin; bunga qarshi har bir vaziyat ikki tomon uchun maqbul yechim izlash va refleksiya bilan yakunlanadi. Raqamli portfolio rasmiy hujjatlar to‘plamiga aylanib qolishi mumkin; M.R.Rahimberdiyeva [56] refleksiv topshiriqlar tizimli yo‘l-yo‘riq va aniq mezonlarsiz rasmiyatchilikka aylanishini ko‘rsatgan, shu sababli portfoliodagi har bir refleksiv yozuv aniq savol va rubrika mezoni bilan bog‘lanadi. Virtual almashinuvda esa shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va muloqot odobi qoidalari oldindan kelishiladi. Xatarlarni oldindan belgilash texnologiyalarni boshqariladigan va takrorlanadigan qiladi.

Ishlab chiqilgan texnologiyalar va rubrika takomillashtirilgan metodikani amaldagi amaliyotdan ajratib turuvchi jarayoniy xususiyatlarni ifodalaydi. Amaldagi fan dasturlarida o‘qitish texnologiyalari sifatida keys-stadi, guruhda ishlash va loyihalar ko‘rsatilgan bo‘lsa-da [20], ular madaniy natija va baholash mezonlari bilan bog‘lanmagan, baholash esa variantli test va umumiy til darajasiga tayanadi [8]. Takomillashtirilgan metodikada har bir texnologiya aniq topshiriqlar guruhi, komponent va mezonga biriktirilgan, raqamli vositalar esa yordamchi bezak emas, autentik madaniy tajriba manbai va natijani hujjatlashtirish vositasi sifatida qo‘llanadi. Baholash rubrikasi barcha texnologiyalarni yagona o‘lchov tizimiga birlashtiradi va metodika samaradorligini tajriba-sinov ishida tekshirish imkonini beradi.

Paragrafda o‘tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni beradi. Takomillashtirilgan metodika oltita interfaol va raqamli texnologiya – madaniy keys-stadi, rolli o‘yin va simulyatsiya, lingvomadaniy loyiha, autentik video va podkast bilan ishlash, raqamli portfolio va virtual madaniy almashinuv orqali amalga oshiriladi; ularning har biri uchun mohiyati, bosqichlari, shakl, metod va vositalari, o‘qituvchi va talaba rollari belgilanadi va texnologiyalar 3.2-§ dagi to‘rt topshiriqlar guruhiga hamda lingvomadaniy kompetensiyaning besh komponentiga taqsimlanadi. Metodikaning amalga oshishi “Tea, hospitality and politeness in Britain and Uzbekistan” mavzusidagi 80 daqiqalik mashg‘ulot ssenariysida ko‘rsatiladi: sakkiz bosqichdan iborat ssenariy besh komponentning barchasini, to‘rt o‘qitish shaklini va to‘rt topshiriqlar guruhini qamrab oladi, uning ingliz tilidagi materiallari bevosita

amaliyotda qo‘llanadi. Natijani baholash uchun besh mezon va to‘rt darajadan iborat rubrika ishlab chiqiladi; u o‘qituvchi bahosi, o‘z-o‘zini baholash va tengdoshlar bahosida qo‘llanadi hamda tajriba-sinov ishining diagnostika tizimi bilan aynan muvofiqlashtiriladi. Uchinchi bobda ishlab chiqilgan model, mazmun, topshiriqlar tizimi, texnologiyalar va baholash rubrikasi birgalikda takomillashtirilgan metodikani tashkil etadi; uning samaradorligi tajriba-sinov ishi orqali tekshiriladi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan uchinchi bobda olingan natijalar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Takomillashtirilgan metodika maqsad, metodologik, mazmun, texnologik va baholash-natija bloklaridan iborat model sifatida asoslanadi. Modelda metodologik asoslar besh yondashuv (tizimli, kompetensiyaviy, lingvokulturologik, madaniyatlararo, kommunikativ-faoliyatli), besh didaktik tamoyil va besh ta’lim qonunidan iborat mustaqil blok sifatida ajratiladi; maqsad bloki umumiy maqsadni lingvomadaniy kompetensiyaning besh komponentiga mos beshta o‘lchanadigan vazifaga ajratadi. Bloklar to‘g‘ri, qayta va gorizontal aloqalar bilan bog‘langan bo‘lib, har bir komponent maqsaddan baholashgacha barcha bloklarda ifodalanadi. Metodikaning amaldagi amaliyotdan farqi o‘n parametr bo‘yicha aniqlanadi: madaniy talab o‘lchanadigan natijaga aylantiriladi, lingvistik-semantik tarkib va o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyos mazmun o‘zagiga kiritiladi, lingvomadaniy mazmun 6-semestrdagi alohida kursdan ikkinchi kursdagi amaliy ingliz tili fanlariga ko‘chiriladi.

2. Lingvomadaniy ta’lim mazmuni oltita mezon – tipiklik, kommunikativ qimmat, mamlakatshunoslik qimmati, stereotipdan himoyalanganlik, qiyoslanuvchanlik va kasbiy qo‘llanuvchanlik asosida tanlanadi va ingliz tilining xalqaro maqomini hisobga olgan holda ko‘p variantli madaniy manzara sifatida tuziladi. Mazmun oltita mazmun moduliga – realiyalar va madaniy konseptlar, frazeologiya va idiomalar, nutq etiketi, madaniy an’analar va qadriyatlar, madaniyatlararo taqqoslash hamda lingvomadaniy materialni o‘qitish metodikasi modullariga ajratiladi. Bu modullar amaliy fanlar mavzulariga muvofiqlashtirilgan sakkiz mavzuli modul bilan matritsa hosil qiladi va 3–4-semestrlarda har bir mavzuda barcha mazmun turlarining izchil o‘rganilishini ta’minlaydi.

3. Kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi bilishga oid, tahliliy-taqqoslash, kommunikativ-interaktiv va kasbiy-metodik guruhlardan iborat bo‘lib, har bir guruh uchun maqsad, ustuvor komponent, shakl, metod, vosita va baholash ko‘rsatkichi belgilanadi. Ingliz tilidagi o‘n ikki topshiriq namunasi, jumladan, realiya va konsept tahlili, maqollar qiyosi, stereotip tekshiruvi, “The third cup of tea” madaniy keysi, virtual videoalmashinuv, topshiriq loyihalash, mikrodars va darslik tahlili topshiriqlari ishlab chiqiladi. Tizimda bitta lingvomadaniy birlik bir mavzuli modul doirasida to‘rt

guruh topshiriqlari orqali ketma-ket qo‘llanadi, o‘zbek madaniyati bilan qiyos har bir topshiriqning majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi, har bir modul esa kasbiy-metodik topshiriq bilan yakunlanadi; topshiriqlar to‘rt daraja bo‘yicha differensiallashtiriladi.

4. Metodika oltita interfaol va raqamli texnologiya – madaniy keys-stadi, rolli o‘yin va simulyatsiya, lingvomadaniy loyiha, autentik video va podkast bilan ishlash, raqamli portfolio va virtual madaniy almashinuv orqali amalga oshiriladi. Har bir texnologiya uchun bosqichlar, shakl, metod, vosita hamda o‘qituvchi va talaba rollari belgilanadi, texnologiyalar topshiriqlar guruhlari va komponentlarga taqsimlanadi hamda ikki semestr davomida murakkablashib boruvchi tartibda joriy etiladi. Metodikaning amaliy ko‘rinishi “Tea, hospitality and politeness in Britain and Uzbekistan” mavzusidagi sakkiz bosqichli 80 daqiqalik mashg‘ulot ssenariysida ko‘rsatiladi; ssenariy besh komponentni, to‘rt o‘qitish shaklini, to‘rt topshiriqlar guruhini qamrab oladi va ingliz tilidagi tayyor materiallar bilan ta’minlanadi.

5. Natijani baholash uchun lingvomadaniy kompetensiyaning besh mezoni – motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik mezonlar hamda to‘rt daraja – past, o‘rta, yetarli va yuqori darajalardan iborat rubrika ishlab chiqiladi. Darajalar mustaqillik, qiyosiy qatlamning chuqurligi va ko‘chirish ko‘lami bo‘yicha farqlanadi, har bir mezon alohida diagnostika vositasi bilan bog‘lanadi, rubrika esa o‘qituvchi bahosi, o‘z-o‘zini baholash va tengdoshlar bahosida yagona o‘lchov sifatida qo‘llanadi. Rubrika baholash-natija blokidagi qayd etish, tashxis va tuzatish vazifalarini ta’minlaydi va tajriba-sinov ishining diagnostika tizimi bilan to‘liq muvofiqlashtiriladi; takomillashtirilgan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov ishlarida aynan shu mezon va darajalar bo‘yicha tekshiriladi.

XULOSA

Monografiyada olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Lingvomadaniy kompetensiya tushunchasining mahalliy, MDH va xorijiy tadqiqotlardagi talqini qiyosiy tahlil qilinib, uning lingvomadaniy, sotsiomadaniy va madaniyatlararo kompetensiyalardan tahlil birligi, til bilan bog‘liqlik darajasi va qiyoslanadigan madaniyatlar soniga ko‘ra farqlanishi aniqlandi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasi ingliz tili birliklari va autentik matnlarda kodlangan madaniy ma’nolarni anglash, o‘zbek tilmadaniyati bilan qiyoslab talqin qilish, muloqotda qo‘llash va o‘quvchilar uchun metodik qayta ishlash qobiliyatini ta’minlovchi kasbiy-shaxsiy sifat sifatida ta’riflandi.

2. Lingvomadaniy kompetensiya kasbiy kompetentlikning fan bo‘yicha, kommunikativ va metodik tayyorgarlik tarkiblarini kesib o‘tuvchi integrativ kompetensiya ekani asoslanib, uning tuzilmasi motivatsion-qadriyatli, kognitiv-lingvomadaniy, lingvistik-semantik, madaniyatlararo kommunikativ va kasbiy-metodik komponentlardan iborat ekani belgilandi; har bir komponent uchun beshtadan ko‘rsatkich ishlab chiqilib, komponentlar tajriba-sinovning shu nomdagi besh mezoniga aylantirildi.

3. Me’yoriy-dasturiy ta’minotning davlat ta’lim standarti, malaka talablari va fan dasturlari pog‘onalari tahlili natijasida daraja, komponent, qiyosiy asos, joylashuv va baholash bo‘shliqlari aniqlandi: 60110900 yo‘nalishi malaka talablarida lingvistik-semantik komponent va madaniy natija ko‘rsatkichlari ko‘zda tutilmagan, ingliz tili fanlar katalogida madaniy mazmunga bag‘ishlangan majburiy fan yo‘q, tahlil qilingan fan dasturlarida madaniy natijani baholash mezonlari mavjud emas.

4. Lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik asosi umumilmiy darajadagi tizimli va kompetensiyaviy hamda aniq ilmiy darajadagi lingvokulturologik, madaniyatlararo va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlar tizimi sifatida asoslandi; har bir yondashuv me’yoriy ta’minotda aniqlangan bo‘shliqlardan biriga metodologik javob bo‘lib, har bir komponent kamida ikki yondashuv ta’sirida rivojlanishi ko‘rsatildi.

5. Ya.A.Komenskiy asos solgan umumdidaktik tamoyillar tizimidan ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik, faollik va mustaqillikka erishish, fanlararo bog‘liqlik hamda nazariya bilan amaliyot birligi tamoyillari tanlanib, ularning lingvomadaniy ta’limdagi talablari belgilandi; o‘zaro bog‘liqlik, mashq, intensivlik, assimilyatsiya va natijaviy qonunlar lingvomadaniy topshiriqlarni tuzishning aniq qoidalariga aylantirildi.

6. Xorijiy, MDH va milliy tajriba qiyosiy tahlili madaniy natijani deskriptorlar bilan tavsiflash, fanlar bo‘yicha taqsimlash, til birliklaridagi madaniy ma’noni o‘qitish va o‘zbek madaniyati bilan qiyoslash tajribalari bir-birini to‘ldirishini, ammo ularning

birortasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvomadaniy kompetensiyasi besh komponentli yaxlit tizim sifatida ishlab chiqilmaganini ko‘rsatdi.

7. Takomillashtirilgan metodika maqsad, metodologik, mazmun, texnologik va baholash-natija bloklaridan iborat model sifatida ishlab chiqildi; lingvomadaniy mazmun 6-semestrdagi alohida kursdan ikkinchi kurs amaliy ingliz tili fanlariga ko‘chirilib, olti mazmun moduli sakkiz mavzuli modul bilan matritsa shaklida bog‘landi.

8. Kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi bilishga oid, tahliliy-taqqoslash, kommunikativ-interaktiv va kasbiy-metodik guruhlardan iborat bo‘lib, o‘zbek madaniyati bilan qiyos har bir topshiriqning majburiy tarkibi sifatida belgilandi; metodika madaniy keys-stadi, rolli o‘yin va simulyatsiya, lingvomadaniy loyiha, autentik video va podkast bilan ishlash, raqamli portfolio va virtual madaniy almashinuv texnologiyalari hamda besh mezon va to‘rt darajaga asoslangan baholash rubrikasi orqali amalga oshirildi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi malaka talablarining kasbiy kompetensiyalar bo‘limiga til birliklaridagi madaniy ma’noni talqin qilish, ona va o‘rganilayotgan madaniyatlarni qiyoslash hamda lingvomadaniy materialni o‘quvchi darajasiga moslashtirish talablarini o‘lchanadigan ta’lim natijalari shaklida kiritish tavsiya etiladi.

2. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari xorijiy tillar fakultetlariga ikkinchi kurs amaliy ingliz tili fanlari (O‘qish va yozuv amaliyoti, Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi, Til aspektlari amaliyoti) dasturlariga sakkiz mavzuli modul asosidagi lingvomadaniy topshiriqlarni integratsiyalash tavsiya etiladi.

3. Tanlov fanlari uchun ajratilgan soatlar doirasida 3–4-semestrlarda “Ingliz tili lingvomadaniyati va uni o‘qitish” yo‘nalishidagi tanlov kursini joriy etish, kurs mazmunini realiyalar, frazeologizmlar, madaniy konseptlar, nutq etiketi va madaniyatlararo taqqoslash modullari asosida tuzish maqsadga muvofiq.

4. Amaliy ingliz tili fanlari bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratda variantli test bilan bir qatorda besh mezon va to‘rt darajaga asoslangan lingvomadaniy baholash rubrikasi, rolli vaziyat, madaniy keys va dars fragmenti loyihasidan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Pedagogik amaliyot dasturlariga lingvomadaniy materialni maktab darsiga integratsiyalash, mikroo‘qitish va refleksiv tahlil topshiriqlarini, talabalar raqamli portfoliosiga esa madaniy refleksiya yozuvlarini kiritish tavsiya etiladi.

6. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlariga ingliz tili o‘qituvchilari uchun lingvomadaniy ta’lim texnologiyalari, madaniy keys-stadi, virtual madaniy almashinuv va lingvomadaniy baholash rubrikasidan foydalanish bo‘yicha o‘quv modulini malaka oshirish dasturlariga kiritish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi; Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2025.

2. A Framework of Reference for Pluralistic Approaches to Languages and Cultures (FREPA/CARAP). – Graz: European Centre for Modern Languages of the Council of Europe, 2012–2013. – https://carap.ecml.at

3. ACTFL/CAEP Program Standards for the Preparation of Foreign Language Teachers. – Alexandria, VA: American Council on the Teaching of Foreign Languages, 2013.

4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Companion volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

5. Kelly M., Grenfell M., Allan R., Kriza C., McEvoy W. European Profile for Language Teacher Education – A Frame of Reference: Final Report. – Southampton: University of Southampton (Yevropa Komissiyasi uchun hisobot), 2004.

6. Nazariy grammatika va til tarixi: fan dasturi (sillabus), 326NGTT34 / Tuzuvchilar: M.Irisqulov, X.M.O‘rinboyeva. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2024. – https://uzswlu.uz/backend/web/uploads/pagepdf/icon/17371139350801.pdf

7. Newby D., Allan R., Fenner A.-B., Jones B., Komorowska H., Soghikyan K. European Portfolio for Student Teachers of Languages (EPOSTL): A reflection tool for language teacher education. – Graz: ECML; Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2007.

8. Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi: fan dasturi, NK1123419 / Tuzuvchilar: X.E.Ernazarova, T.Ataxo‘jayev. – Qo‘qon: Qo‘qon davlat universiteti, 2025. – https://kokandsu.uz/files/science_programs/1766488014_ru_NUTQ%20KO%E2%80%98NIKMALARI%20INTEGRASIYASI%20(1).pdf

9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 25-fevraldagi 75-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” (Adliya vazirligida 2026-yil 28-fevralda 3781-son bilan ro‘yxatga olingan). – https://lex.uz/docs/-8068466

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 29-iyundagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorining ilovasiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 262-son buyrug‘i (Adliya vazirligida 2026-yil 30-iyunda 3781-1-son bilan ro‘yxatga olingan). – https://lex.uz/docs/8299376

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. – https://lex.uz/docs/-4545884

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020-y., 07/20/4623/0220-son. – https://lex.uz/docs/-4749364

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. – https://lex.uz/docs/-5085999

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021-y., 07/21/5117/0472-son. – https://lex.uz/docs/-5426736

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarori. – https://lex.uz/uz/acts/-6079561

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.06.2024-y., 07/24/239/0453-son. – https://lex.uz/docs/6986619

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni. – https://lex.uz/uz/docs/-7499721

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha Davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-son qarori (Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-avgustdagi 511-son qarori bilan 2021-yil 13-avgustdan kuchini yo‘qotgan). – https://lex.uz/docs/2165724

19. Spanish SPA Alignment: ACTFL/CAEP Standards and Program Courses. – Richmond: Eastern Kentucky University, [s.a.]. – https://epsb-caep.eku.edu/sites/epsb-caep.eku.edu/files/files/SPA%20Alignment/Spanish_SPA%20Alignment.pdf

20. Xorijiy tilni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish (Umumiy qism): fan dasturi (sillabus), 326XTO‘MMSH34 / Tuzuvchilar: M.Umarova, M.Abduvahobova, X.Ahmadaliyeva. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari

universiteti, 2024. – https://uzswlu.uz/backend/web/uploads/pagepdf/icon/17371144152019.pdf

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

21. Agar M. Language Shock: Understanding the Culture of Conversation. – New York: William Morrow, 1994.

22. Atadjanova Sh.A. Chet til ta’limida talabalar kasbiy malakasini shakllantirish: monografiya. – Toshkent: Fan, 2016. – 152 b.

23. Axadova Sh.O. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi (filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili yo‘nalishi misolida) // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2025. – № 10. – B. 1553–1555.

24. Baker W. Intercultural awareness: modelling an understanding of cultures in intercultural communication through English as a lingua franca // Language and Intercultural Communication. – 2011. – Vol. 11, No 3. – P. 197–214.

25. Bakieva G.Kh., Tukhtasinov I.M. Expressing stylistic devices in compound words // Eastern European Scientific Journal. – 2018. – No 3. – P. 49–55.

26. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 1968.

27. Borg S. Teacher cognition in language teaching: A review of research on what language teachers think, know, believe, and do // Language Teaching. – 2003. – Vol. 36, No 2. – P. 81–109.

28. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997.

29. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No 1. – P. 1–47.

30. Crozet C., Liddicoat A.J. The challenge of intercultural language teaching: Engaging with culture in the classroom // Striving for the third place: Intercultural competence through language education. – Melbourne: Language Australia, 1999. – P. 113–125.

31. Darling-Hammond L. Constructing 21st-century teacher education // Journal of Teacher Education. – 2006. – Vol. 57, No 3. – P. 300–314.

32. Deardorff D.K. Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, No 3. – P. 241–266.

33. Djusupov M. Bilingvalnoye obrazovaniye: problema zvukovoy i lingvokulturnoy interferensii // Vestnik RUDN. – 2017. – No 3. – S. 351–358.

34. Erkulova F.M. Developing methodological competence of pre-service EFL teachers through a digital technology-based step-by-step training model: An

integrative-didactic approach // Research Focus International Scientific Journal. – 2026. – Vol. 5, Issue 2.

35. Fantini A.E. Assessing intercultural competence: Issues and tools // Deardorff D.K. (ed.) The SAGE Handbook of Intercultural Competence. – Thousand Oaks: Sage, 2009. – P. 456–476.

36. Federal Aviation Administration. Aviation Instructor’s Handbook. FAA-H-8083-9. – Washington, DC: U.S. Department of Transportation, 1999.

37. Freeman D., Johnson K.E. Reconceptualizing the knowledge-base of language teacher education // TESOL Quarterly. – 1998. – Vol. 32, No 3. – P. 397–417.

38. Goddard C., Wierzbicka A. Key words, culture and cognition // Philosophica. – 1995. – Vol. 55, No 1. – P. 37–67.

39. Gudykunst W.B., Kim Y.Y. Communicating with Strangers: An Approach to Intercultural Communication. – New York: McGraw-Hill, 2003.

40. Hall E.T. Beyond Culture. – New York: Doubleday, 1976.

41. Hamdamov E.E. The content of the language professional gnostic training of an English teacher // Guliston davlat universiteti axborotnomasi. – 2021. – No 2. – P. 35–41.

42. Hannerz U. Cultural Complexity: Studies in the Social Organization of Meaning. – New York: Columbia University Press, 1992.

43. Hymes D. On communicative competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.) Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.

44. Jabbarova Yu.X. Chet ellik talabalar uchun lingvistik va madaniy komponentlarni o‘z ichiga olgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish // The Lingua Spectrum. – 2024. – Vol. 3. – B. 180–182.

45. Karimova M.O., Soyipova D. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2024. – Vol. 5, No 1. – B. 141–146.

46. Kholmatova E.Sh. The role of immersive experiences in developing linguacultural competence among pre-service foreign language teachers // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Vol. 4, Issue 5. – P. 156–161.

47. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993.

48. Kramsch C. Language and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 134 p.

49. Kumaravadivelu B. Language Teacher Education for a Global Society: A Modular Model for Knowing, Analyzing, Recognizing, Doing, and Seeing. – New York: Routledge, 2012.

50. Liddicoat A.J., Scarino A. Intercultural Language Teaching and Learning. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2013.

51. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 108 p.

52. Maqsudova G.O. Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026. – № 4(6). – B. 7–10.

53. Naimova D. Jahon metodikasida multimadaniy kompetensiyani takomillashtirishning lingvomadaniy masalalari // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2025. – Special Issue 2. – B. 187–191.

54. Otaxonova X.A. Xorijiy til ta’limida mediamatnlar bilan ishlash jarayonida lingvomadaniy yondashuv imkoniyatlari // The Lingua Spectrum. – 2025. – Vol. 12. – B. 279–[sahifalar oralig‘i aniqlansin].

55. Qoraboyeva N.N. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2025. – № 12. – B. 2883–2885.

56. Rahimberdiyeva M.R. A methodological model for developing pedagogical reflection in pre-service EFL teachers // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026. – № 6(6). – B. 172–176.

57. Rakhimov M.O. Ingliz tilini o‘qitishda lingvomadaniy kompetentlikni rivojlantirish: kompleks strategiya // The Lingua Spectrum. – 2025. – Vol. 9. – B. 234–245.

58. Richards J.C. Exploring teacher competence in language teaching // The Language Teacher. – 2011. – Vol. 35, No 4. – P. 3–6.

59. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.

60. Risager K. Language and Culture: Global Flows and Local Complexity. – Clevedon: Multilingual Matters, 2006. – 212 p.

61. Sapir E. Selected Writings in Language, Culture and Personality / Ed. by D.G. Mandelbaum. – Berkeley: University of California Press, 1949.

62. Sattorov T. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). – T.: TDYuI, 2003. – 198 b.

63. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.

64. Sharifian F. Cultural Linguistics: Cultural conceptualisations and language. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2017. – 171 p.

65. Shulman L.S. Those who understand: Knowledge growth in teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15, No 2. – P. 4–14.

66. Singerman A.J. Acquiring Cross-Cultural Competence: Four Stages for Students of French. – Lincolnwood: National Textbook Company, 1996.

67. Spitzberg B.H., Changnon G. Conceptualizing intercultural competence // Deardorff D.K. (ed.) The SAGE Handbook of Intercultural Competence. – Thousand Oaks: Sage, 2009.

68. Temirova Sh.K. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026. – № 8. – B. 194–200.

69. Thorndike E.L. Animal Intelligence: Experimental Studies. – New York: Macmillan, 1911.

70. Thorndike E.L. Educational Psychology. Vol. II. The Psychology of Learning. – New York: Teachers College, Columbia University, 1913.

71. Thorndike E.L. The Fundamentals of Learning. – New York: Teachers College, Columbia University, 1932.

72. Tuxtayeva N.A. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirishda “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi” fanining funksional ahamiyati // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026. – № 4(10). – B. 300–303.

73. Underhill J.W. Humboldt, Worldview and Language. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2009.

74. Urinboyeva F. Bo‘lajak muhandislarni lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirishning ta’lim strategiyasi // The Lingua Spectrum. – 2025. – Vol. 4. – B. 841–[sahifalar oralig‘i aniqlansin].

75. Wallace M.J. Training Foreign Language Teachers: A Reflective Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991.

76. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York; Oxford: Oxford University Press, 1997. – 328 p.

77. Yakubova M.U. Chet tillarini o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani birlashtirish: manbalar, strategiyalar va istiqbollar // The Lingua Spectrum. – 2025. – Vol. 5. – B. 391–[sahifalar oralig‘i aniqlansin].

78. Yusupov A. Tarjimon lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirishda lug‘atlarning funksional imkoniyatlari // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2025. – Special Issue 2. – B. 33–38.

79. Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2009. – 160 с.

80. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе: Проблемы и перспективы. – М.: Просвещение, 1988. – 256 с.

81. Блауберг И.В., Юдин Э.Г. Становление и сущность системного подхода. – М.: Наука, 1973. – 270 с.

82. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Изд-во МГУ, 1973. – 235 с.

83. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Индрик, 2005. – 1038 с.

84. Воробьёв В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во РУДН, 1997. – 331 с.

85. Воробьёв В.В. Лингвокультурология. – М.: Изд-во РУДН, 2006. – 336 с.

86. Гнитецкая Т.Н., Иванова Е.Б. История развития проблемы межпредметных связей // Философия образования. – 2014. – № 1 (52). – С. 166–170.

87. Елизарова Г.В. Культура и обучение иностранным языкам. – СПб.: Союз, 2001. – 291 с.

88. Жихович Н.Н. Особенности профессиональной компетентности учителя иностранного языка // Язык и жизнь: материалы семинара. – Брест: БрГУ им. А.С. Пушкина, 2016. – https://www.brsu.by/sites/default/files/deutschlang/Seminare/YiZ_2016/zhihovich.pdf

89. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.

90. Ирискулов М.Т. Чет тилларини ўқитишда CEFR ўрни // Узлуксиз таълим. – 2016. – № 1. – Б. 77–83.

91. Кабакчи В.В. Основы англоязычной межкультурной коммуникации. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 1998. – 232 с.

92. Коменский Я.А. Великая дидактика // Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. – М.: Учпедгиз, 1955.

93. Костомаров В.Г., Бурвикова Н.Д. Логоэпистема как категория лингвокультурологического поиска // Лингводидактический поиск на рубеже веков: юбилейный сборник. – М.: Гос. ИРЯ им. А.С. Пушкина, 2000. – С. 88–96.

94. Красных В.В. Потяни за ниточку – клубок и размотается (к вопросу о предметном коде культуры) // Реальность, язык и сознание: международный межвузовский сборник научных трудов. Вып. 2. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2002. – С. 111–116.

95. Куклина С.С., Черемисинова И.С. Межкультурная иноязычная коммуникативная компетенция как основа обучения иноязычному общению в вузе // Язык и культура. – 2018. – № 41. – С. 255–270.

96. Кунанбаева С.С. Теория и практика современного иноязычного образования. – Алматы: Эдельвейс, 2010. – 344 с.

97. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.

98. Мамонтов А.С. Лингвокультурология в аспекте обучения русскому языку как средству межкультурной коммуникации // Русистика. – 2019. – Т. 17, № 2. – С. 143–156.

99. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М., 1996.

100. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

101. Махкамова Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка: монография. – Ташкент: Фан, 2010.

102. Миролюбов А.А. Культуроведческая направленность в обучении иностранным языкам // Иностранные языки в школе. – 2001. – № 5. – С. 11–14.

103. Ольшанский И.Г. Лингвокультурология в конце XX века: итоги, тенденции, перспективы // Лингвистические исследования в конце XX века. – М.: ИНИОН РАН, 2000. – С. 26–55.

104. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.

105. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. – М.: Русский язык, 1989. – 276 с.

106. Подгорбунских А.А. Феномен лингвокультурной компетентности в парадигме современного профессионального образования // Человек и образование. – 2012. – № 2 (31). – С. 160.

107. Подчалимова Н.А. Лингвокультурология как одно из направлений обучения иностранным языкам // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2016. – № 1–4. – С. 60–63.

108. Пучкова И.М., Хакимзянов Р.Н. Профессиональная компетентность как критерий развития профессионализма // Учёные записки Казанского университета. Гуманитарные науки. – 2012. – Т. 154, кн. 6. – С. 258–266.

109. Сафонова В.В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций. – Воронеж: Истоки, 1996. – 239 с.

110. Скаткин М.Н., Лернер И.Я. Дидактика // Большая советская энциклопедия. – 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969–1978.

111. Сысоев П.В. Язык и культура: в поисках нового направления в преподавании культуры страны изучаемого языка // Иностранные языки в школе. – 2001. – № 4. – С. 12–18.

112. Сыч М.А. Лингвокультурная компетенция как условие развития поликультурной личности в процессе обучения иностранному языку // Язык и культура: материалы интернет-конференции. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2018. – https://www.tsutmb.ru/nauka/internet-konferencii/2018/yazik_kultura/3/sych.pdf

113. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.

114. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 262 с.

115. Флиер А.Я. Культурология для культурологов. – М.: МГУКИ, 2009.

116. Фурманова В.П. Межкультурная коммуникация и лингвокультуроведение в теории и практике обучения иностранным языкам. – Саранск: Изд-во Мордовского ун-та, 1993. – 123 с.

117. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

118. Шаклеин В.М., Микова С.С. Лингвокультурное содержание языка: монография. – М.: РУДН, 2015. – 176 с.

119. Языкова Н.В. Формирование профессионально-методической деятельности студентов педагогических факультетов иностранных языков. – Улан-Удэ: Бурятское кн. изд-во, 1994. – 236 с.

III. Boshqa adabiyotlar (dissertatsiya, avtoreferat, darslik, o‘quv qo‘llanma)

120. Abduvaliyeva D.I. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T.: O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, 2025.

121. Anorboyeva S.A. Ispan tilini o‘qitishda talabalarda tarjimonlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2026.

122. Axmedova N.M. Konseptual yondashuv asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – T.: O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, 2026.

123. Baxriddinova D.N. Bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kognitiv mobilligini rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T., 2025.

124. Djurayev D.M. Xitoy tilida talabalarning lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirish: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2019. – 49 b.

125. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2019. – 23 b.

126. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T., 2019. – 262 b.

127. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: darslik. 2-nashri. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

128. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (theory and practice): coursebook. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.

129. Jumanazarov U.U. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2019. – 52 b.

130. Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. fal. dok. (PhD) diss. – T., 2018. – 97 b.

131. Maxkamova G.T. Filologiya talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish (ingliz tili): Ped. fan. dok. diss. – T., 2011.

132. Musayeva A.A. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T., 2025.

133. Nazarova N.B., Uyto‘lsinova S.O., Abbosova M.B. Intercultural communication: o‘quv qo‘llanma (60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi talabalari uchun). – Samarqand: SamDChTI, 2026.

134. Pardayeva D.T. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish: Ped. fan. dok. diss. – T., 2022. – 154 b.

135. Raximova Sh.P. Talabalarning diskurs kompetensiyalarini takomillashtirishning multimadaniy aspektlari (ingliz tili yo‘nalishi): Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – T.: O‘zDJTU, 2024.

136. Saturova I.A. Mutaxassislik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda bo‘lajak chet (ingliz tili) til muallimining kasbiy-uslubiy malakalarini shakllantirish: Ped. fan. dok. diss. – T., 2000. – 329 b.

137. Saydazimova D.X. Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T.: TDPU, 2025.

138. Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – T., 2018. – 65 b.

139. Yariyeva Z.Sh. Motivatsion yondashuv asosida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T., 2025.

140. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 с.

141. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранному языку: пособие для учителя. – М.: АРКТИ-Глосса, 2000. – 70 с.

142. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2005. – 336 с.

143. Гетманская А.В. Формирование лингвокультуроведческой компетенции на основе интегрированного курса “английский язык и мировая художественная культура”: дис. … канд. пед. наук: 13.00.02. – СПб., 2003. – 257 с.

144. Глотова Ж.В. Формирование профессиональной иноязычной компетентности у студентов-юристов в процессе обучения: дис. … канд. пед. наук. – Калининград, 2006.

145. Демьянова Ж.В. Формирование лингвострановедческой компетенции студентов неязыковых факультетов педагогического вуза: автореф. дис. … канд. пед. наук: 13.00.08. – Челябинск, 2010. – 24 с.

146. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке: книга для учителя. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1985. – 160 с.

147. Изместьева И.А. Обучение межкультурной коммуникации будущих учителей иностранного языка: дис. … канд. пед. наук: 13.00.01. – Якутск, 2002.

148. Йўлдошев У.Р. Лингвостилистические и лингвокультурологические особенности перевода сатирических текстов: автореф. дис. … – Т., 2017. – 27 с.

149. Карабаев Б.Б. Формирование коммуникативно-методической компетенции будущего учителя английского языка средствами модульно-рейтинговой технологии обучения: дис. … канд. пед. наук: 13.00.01. – Душанбе, 2005. – 184 с.

150. Подласый И.П. Педагогика: учебник. – М.: Высшее образование, 2007. – 540 с.

151. Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения CEFR в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка): дис. … докт. пед. наук. – Т., 2017. – 309 с.

152. Тимохина Е.В. Методика формирования профессионально-коммуникативной компетенции будущего учителя иностранного языка: дис. … канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2015.

153. Томахин Г.Д. Теоретические основы лингвострановедения (на материале лексических американизмов английского языка): автореф. дис. … канд. пед. наук. – М., 1984. – 23 с.

154. Ходыкина А.В. Формирование методической компетенции бакалавра педагогики в области иностранных языков на основе интегративного подхода: дис. … канд. пед. наук: 13.00.02. – М., 2011. – 165 с.

155. Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: дис. … докт. пед. наук. – Т., 2007. – 209 с.

MUNDARIJA

	SO‘Z BOSHI	**3**
I BOB.	**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**	**8**
1.1-§.	Lingvomadaniy kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va mazmun-mohiyati	8
1.2-§.	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi kasbiy kompetentligi tarkibida lingvomadaniy kompetensiyalarning tarkibiy tuzilmasi	28
1.3-§.	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashning me’yoriy-dasturiy ta’minoti tahlili	48
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	67
II BOB.	**LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK-METODOLOGIK ASOSLARI**	**70**
2.1-§.	Lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik yondashuvlari	70
2.2-§.	Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning umumdidaktik tamoyillari va ta’lim qonuniyatlari tizimi	83
2.3-§.	Bo‘lajak til o‘qituvchilarining lingvomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid xorijiy va milliy tajriba	95
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	109
III BOB.	**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKASI**	**111**
3.1-§.	Lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining tuzilmasi va bloklari	111
3.2-§.	Lingvomadaniy ta’lim mazmuni va kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi	126
3.3-§.	Takomillashtirilgan metodikani amalga oshirishning interfaol va raqamli texnologiyalari	140
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	156
	XULOSA	**158**
	AMALIY TAVSIYALAR	**160**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 161